K.J. MIRZAYEV

IQTISODIY SIYOSAT

O‘QUV QO‘LLANMA



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

Samarqand iqtisodiyot va servis institutining
95 yilligiga bag‘ishlanadi

K.J. MIRZAYEV

IQTISODIY SIYOSAT

O‘QUV QO‘LLANMA

SAMARQAND – 2025

UO‘K: 323.1(075)
M 54
KBK: 65.01ya73

K.J.Mirzayev.
Iqtisodiy siyosat *[Matn]:* ***o‘quv qo‘llanma*** */ Samarqand iqtisodiyot va servis instituti – Samarqand.: “STEP-SEL” MCHJ nashriyoti, 2025 - 318 bet.*

O‘shbu o‘quv qo‘llanmada iqtisodiy siyosatning bir qator muamolari, jumladan, bozor va iqtisodiy siyosat, iqtisodiy siyosat asoslari va tarkibi, iqtisodiy siyosatni ishlab chiqishda vositalar va cheklovlar, davlat mulkini xususiylashtirish va boshqarish, iqtisodiyotni tartibga solish vositalari, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni dasturlash, prognozlashtirish va rejalashtirish, davlatning iqtisodiyotda xususiy tarmoq va tadbirkorlikni qo‘llab quvvatlash siyosati, iqtisodiyotda monopolizmga qarshi siyosat va raqobatni rivojlantirish, davlatning mintaqaviy siyosati va hududlar rivojlanishining istiqbollari, yuksalish, rivojlanish va ularning iqtisodiy siyosatga bog‘liqligi, shuningdek, daromadlarni qayta taqsimlash, boylik va iqtisodiy siyosat kabi masalalar ko‘rib chiqilgan va tahlil qilingan.

Ushbu o‘quv qo‘llanma 60410100 – “Iqtisodiyot” bakalavriat ta’lim yo‘nalishi talabalari, magistratura mutaxassiliklari hamda iqtisodiy oliy o‘quv yurtlari professor-o‘qituvchilari, shuningdek moliya, innovatsiya, biznesni boshqarish sohasidagi barcha soha xodimlari uchun mo‘ljallangan.

Taqrizchilar:

N.U.Arabov - SamDU proffesori, i.f.d.
S.B.Boboqulov - SamISI dotsenti, i.f.f.d.

O‘quv qo‘llanma institut Kengashining 2025-yil 02-iyuldagi majlisda muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan. (11-sonli majlis bayoni).

ISBN: 978-9910-587-09-2

© K.J.Mirzayev, SamISI. 2025 y.
© “STEP-SEL” MChJ nashryoti. 2025 y.

KIRISH

Global miqyosda noaniqliklar avj olgan bir davrda, xalqaro hamjamiyatga mansub mamlakatlar barqaror iqtisodiy o'sishga erishish maqsadida o'z strategiya va rejalarini ishlab chiqib, ularni bosqichma-bosqich amalga oshirishga harakat qilmoqdalar. Hozirgi kunda, turli mamlakatlar tajribasini tahlil qilgan holda, pandemiyadan keyingi bosqichda iqtisodiyotni izchil rivojlantirish uchun bir qator asosiy yo'nalishlarda harakatlarni muvofiqlashtirish zarur degan xulosaga kelinmoqda. Bu esa iqtisodiyotda yangi yo'nalishlarni zarur qilib o'ziga xos iqtisodiy siyosatni amalga oshirish taqoza etadi. Ayniqsa, hozirgi paytda **"bilimlar iqtisodiyoti"**ga asoslangan milliy iqtisodiyotning rivojlanish o'ziga xos iqtisodiy siyosatini zarur etib va quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Birinchidan, mamlakatda olib borilayotgan islohotlar yakuniy natijada aholining turmush darajasini oshirishga, ya'ni inson kapitalining sifatini yaxshilashga xizmat qilishini ta'minlash.
- Ikkinchidan, mavjud barcha resuslardan samarali foydalanish siyosatni amalga oshirish, shuningdek tabiiy resurslar, modiy va mehnat resuslardan samarali foydalanish.
- Uchinchidan, hozirgi davrda butun dunyo mamlakatlari uchun muhim xisoblangan ekologik muammolar, yerlarning cho'llanishi va tabiiy resurslar zaxiralarining keskin kamayishi kabi tahdidlar oldini olish va buning uchun esa "yashil iqtisodiyot" tamoyillariga mos iqtisodiy siyosatni vazifalarini belgilab olish
- To'rtinchidan, milliy iqtisodiyotda yuzga kelgan muamolarni oldini olish, mavjudlarini bartaraf etish eng muhim xisoblangan hozirgi kunda dunyo tobora muhim xisoblanayotgan raqamli texnologiyalar va raqamli iqtisodiyot tamoillaridan samarali foydalanish va boshqalardan iborat.

Respublika milliy iqtisodini jadal taraqiyotini tamilovchi Davlat iqtisodiy siyosatining muhim asos xisoblangan milliy iqtisodiy siyosatini muhim jihatlarini ochib berishga mo'llangan ushbu qo'llanmada iqtisodiy siyosat sohasidagi asosiy nazariy bilimlar,

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI AXBOROT RESURS MARKAZI № 73506.

yondashuvlar, iqtisodiy rivojlanishning asosiy tushunchalari, iqtisodiy qonun va tamoyillar hamda iqtisodiy o‘sish modellari haqida chuqur amaliy bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lish katta ahamiyatga ega.

O‘zbekiston Respublikasing 2030-yilgacha bo‘lgan “O‘zbekiston-2030” tarqiyot strategiyasiga ko‘ra Respublika iqtisodiy siyosatining bir qator yo‘nalishlari asoslanilgan.

Bular quydagilardan iborat, jumladan;

- har bir insonga o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun munosib sharoitlarni yaratish;
- barqaror iqtisodiy o‘sish orqali aholi farovonligini ta’minlash
- suv resuslarini tejash atrof muhitni muvofaza qilish;
- qonun sutuvorligini ta’minlash, xalq xizmatidagi davlat boshqaruvini tashkil etish;

“Xavfsiz va tinchliksevar davlat” tamoilli asoslangan siyosatni izchil davom ettirish kabilar iborat.

Respublika iqtisodiy siyosatini tizimli tashkil etish va rivojlantirish bo‘yicha iqtisodiy bilimlarni shakllantirish alohida olingan o‘quv qo‘llanmalarda batavsil bayon etishni talab etadi. Shunday ekan maskur “Iqtisodiy siyosat” o‘quv qo‘llanmasida davlatimiz tomonidan olib boriloyotgan tub isloxatlarni samarali tashkil etishni ifodalovchi iqtisodiy siyosatni muhim elementlarini bayon etish imkoniyatiga ega bo‘linadi. Ushbu o‘quv qo‘llanma respublikamizdagi iqtisodiy ta’lim beruvchi barcha oliy o‘quv yurti talabalariga, magistratura mutaxasisligi magistrantlariga hamda O‘zbekiston iqtisodiy siyosatini rivojlantirish bilan shug‘ullanuvchi barcha keng kitobxonlar ommasiga mo‘ljallangan.

I BOB. IQTISODIYOT, BOZOR VA IQTISODIY SIYOSAT

1.1. Bozor munosabatlari va iqtisodiy siyosat, iqtisodiy siyosat fanining dolzarbligi, predmeti.

1.2. Iqtisodiy siyosatning asosiy maqsadlari.

1.3. Davlatning iqtisodiy siyosatiga erishish vositalari va amalga oshirish yo‘nalishlari.

1.1. Bozor munosabatlari va iqtisodiy siyosat, Iqtisodiy siyosat fanining dolzarbligi, predmeti

Bozor-insoniyat taraqqiyotining buyuk yutuqlaridan biri. Uning rivojlanishi uzoq yo‘lni bosib o‘tgan: bu jarayon kichik-kichik ishlab chiqaruvchilar bilan iste’molchilar o‘rtasidagi aloqalar sifatidagi oddiy shakllaridan boshlab to zamonaviy ishlab chiqarish faoliyatining barcha shakllari, jamiyat iqtisodiy subektlari o‘rtasidagi rivojlangan iqtisodiy munosabatlari, ijtimoiy mahsulotni yaratishdan to uni iste’mol etishgacha bo‘lgan davrni qamrab oladi.

Bozor — bu turli ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish ko‘rmishidagi faoliyatlarni muvofiqlashtiruvchi murakkab mexanizmdir. Bunda ijtimoiy mehnat taqsimoti va xususiy mulkchilik bozorni hal etuvchi shartlari bo‘lib hisoblanadi, bozor iqtisodiyotida tadbirkorlik faoliyatining erkinliklari, ishlab chiqaruvchilarning moddiy manfaatdorliklari raqobatga undovchi asosiy kuch bo‘lib hisoblanadi.

Ma’lumki, bozorning muhim elementi bu narx va uning darajasi bo‘lib, bu ishlab chiqaruvchi uchun ham, tadbirkor uchun ham va xaridor uchun ham muhim ko‘rsatkich hisoblanadi. Bozor tizimi ishlab chiqaruvchilar va xaridorlarni qaror qabul qilishlarida egiluvchanlik va moslashuvchanlik jihatlarini yuqori ekanligi bilan tavsiflanadi. Bozor ishlab chiqaruvchi va iste’molchi o‘rtasidagi aloqalarni bog‘laydi. Tarmoqlar o‘rtasida resurslami samarali taqsimlanishida, talab va taklif mutanosibligini ta’minlashda bozor mexanizmi qulaydir.

Jamiyat iqtisodiyotining rivojlanishida, ijtimoiy mehnat taqsimotida, davlatlararo aloqalarning kengayishida, iqti-sodiyotning tarkibiy qismlari o‘rtasidagi aloqalarni tartibga solish kabi iqtisodiy jarayonlarda bozor mexanizmining tartibga solish imkoniyatlari

chegaralanganligi namoyon bo‘ladi. Bunga iqtisodiyotda yuzaga kelgan iqtisodiy inqiroz davri qarama-qarshiliklarini misol keltirish mumkin. 1929-1933-yillarda sodir bo‘lgan jahon iqtisodiy inqirozi yaqqol misol bo‘la oladi.

Bozor mexanizmi bajara olmaydigan va tartibga sola olmaydigan ijtimoiy takror ishlab chiqarish jarayonining vazifalari mavjud. Sanoat rivojlanishida erkin raqobat asosida ishlab chiqarish kuchlari nafaqat yakka tartibdagi xususiy mulk doirasida o‘smoqda, balki jamoa (aksionerlik)va boshqa mulkchilik shakllarining roli ham ortib bormoqda. Biroq, davlat iqtisodiyotning yirik tarmoqlarini o‘z zimmasiga olishga, ularni rivojlantirishga va tartibga solishga majbur bo‘lmoqda. Masalan: temiryo‘l, telegraf, pochta, mudofaa va h.k. Bozor mexanizmi bajara olmaydigan ijtimoiy vazifalar ham mavjud. Bundan tashqari, bozor munosabatlari asosidagi ba’zi faoliyat natijalariga davlatning aralashuvi ehtiyoji tug‘iladi.

Davlat bozor mexanizmi bajara olmaydigan bir qator iqtisodiy vazifalarni bajaradi. Ular quyidagilardir:

- Mamlakatning ijtimoiy - iqtisodiy xavfsizligini va milliy iqtisodiyotni raqobatbardoshligini ta’minlash;
- Barqarorlashtirish vazifalari (pul muomalasini tartibga solish, inflatsiyani oldini olish va h.);
- Qonuniy tartibga solish vazifasi;
- Muvofiqlashtirish vazifasi;
- Ijtimoiy yo‘naltirilgan vazifasi;
- Taqsimlash;
- Nazorat va boshqalar.

Iqtisodiy siyosatining asosiy maqsadga erishish zaruryati quyidagilardir:

1. Iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikka erishish;
2. Bozorni amal qilishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish;
3. Iqtisodiy o‘sishning barqarorlik darajasini ta’minlash;
4. Iqtisodiyotda tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish va boshqarish;
5. Ijtimoiy taraqqiyotni ta’minlash;

6. Ekologik va demografik muammolarni hal etish hisoblanadi.

Davlat o‘zining iqtisodiy siyosatini iqtisodiy va qonuniy – me’yoriy dastaklar orqali mua’yan uslublarni qo‘llab amalga oshiradi. Ushbu uslublar turli vositalardan foydalangan holda amalga oshiriladi.

Keng ma’noda iqtisodiy siyosat – bu iqtisodiyot subektlarining o‘z faoliyatiga oid yo‘l-yo‘riqlari va sa’y-harakatlarining majmuidir. Har bir iqtisodiy jarayon ishtirokchisi; - bu uy xo‘jaligimi, firma, korporatsiya yoki davlat korxonasimi, bundan farqli o‘laroq, o‘zlarining iqtisodiy manfaatlariga ega. Bu manfaatlar amaliyotda aniq maqsad shakliga kiradi, iqtisodiy siyosat esa uni amalga oshirishga qaratiladi.

Davlatning iqtisodiy siyosati – bu makroiqtisodiy siyosat bo‘lib, uning muayyan mamlakatning milliy iqtisodiga taalluqli yo‘l-yo‘riqlari va ulardan kelib chiqadigan sa’y-harakatlaridan iboratdir.

Iqtisodiy siyosat deganda iqtisodga ta’sir o‘tkazish yoki nazorat qilish uchun mo‘ljallangan harakatlar yo‘nalishi tushuniladi.

Qoida tariqasida, u davlat hukumati tomonidan amalga oshiriladi. Uning amalga oshirilishini iqtisodiy siyosat boshqarmasi nazorat qilishi mumkin. U davlat xarajatlari va soliqqa tortish, daromadlarni qayta taqsimlash va pul taklifiga oid qarorlarni o‘z ichiga oladi. Uning samaradorligini ijobiy va me’yoriy iqtisod deb ataladigan ikki usuldan biri bilan o‘lchash mumkin.

- **Iqtisodiy siyosatni o‘rganishning ahamiyati**:
- **Global tendensiyalarini tushunish** – iqtisodiy siyosatni o‘rganish jahon jarayonlarining milliy iqtisodiyotga ta’sirini tushunishga yordam beradi.
- **Axborot asosida qarorlar qabul qilish** – iqtisodiy jarayonlarni tahlil qilish bo‘yicha rivojlangan ko‘nikmalar shaxsiy moliya yoki biznes darajasida asosli qarorlar qabul qilish imkonini beradi.

Iqtisodiy savodxonlikni oshirish – iqtisodiy siyosat sohasidagi ta’lim, aholi va biznes hamjamiyatining moliyaviy savodxonligi darajasini oshirishga yordam beradi

- **Iqtisodiy siyosatning predmeti – bu alohida fan sifatida davlatning (hukumatning) iqtisodiyotni rivojlanishiga ta'sir qilish usullari, vositalari hamda aniq strategiyalari majmuasidan iborat**.

U tartibga solish, fiskal va pul-kredit siyosati, o'sish va bandlikni rag'batlantirish strategiyalari kabi keng ko'lamli masalalarni qamrab oladi.

- Iqtisodiy siyosat barqaror va samarali iqtisodiy rivojlanish uchun sharoit yaratishga qaratilgan.
- **Iqtisodiy siyosatning maqsadi** ish o'rinlari yaratish va tadbirkorlik faoliyati uchun tegishli sharoitlarni ta'minlash orqali to'liq bandlikka erishishdan iborat. Iqtisodiy siyosat moliyaviy barqarorlikni ta'minlashga, investorlar va iste'molchilar manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan.

Davlatning siyosati har doim milliy bo'ladi, mamlakat rivojining ichki va tashqi sharoitini hisobga oladi.

Siyosatda eng avval mamlakat iqtisodiyotining holati, xalqaro iqtisodiy konyunkturaning milliy iqtisodiyotga nechog'lik ta'sir etishi, unda kutilayotgan o'zgarishlar mamlakat zimmasiga olgan xalqaro majburiyatning qandayligi, mamlakat iqtisodiyotining resurslar bilan ta'minlanish darajasidan kelib chiqadi, ilgari amalga oshirilgan chora-tadbirlar bergan natija ham hisobga olinadi. Davlat siyosati davlat rahbarlarining irodasi va qat'iyatligiga va vujudga kelgan iqtisodiy muammolarni naqadar idrok etishlariga ham bog'liq bo'ladi.

1.2. Iqtisodiy siyosatning asosiy maqsadlari

Iqtisodiy siyosatning maqsadlari bo'lib quyidagilar hisoblanadi jumladan: iqtisodiyotni barqarorlashtirish, o'sish, bandlik, ijtimoiy himoya va shu kabilardan iborat.

Iqtisodiy siyosatda davlatning maqsadlari barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash, fuqarolar farovonligini oshirish, ijtimoiy va iqtisodiy xavflarni minimallashtirishga qaratilgan. Iqtisodiy siyosatning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

Iqtisodiy barqarorlik: iqtisodiy barqarorlashtirish inflyatsiya darajasi, valyuta kurslari, foiz stavkalari va bandlik darajasi kabi

iqtisodiy jarayonlarning barqarorligi va prognoz qilinishini ta'minlashni anglatadi. Bu muhim maqsaddir, chunki iqtisodiy beqarorlik (masalan, yuqori inflyatsiya yoki valyuta kurslarining keskin o'zgarishi) ijtimoiy va iqtisodiy zarbalarga olib kelishi mumkin. Barqarorlashtirishning asosiy vositalari pul-kredit va fiskal siyosatdir. Shunday ekan iqtisodiy siyosatni maqsadini belgilashda quyidagilarga ustuvorlik beriladi.

- **Uy xo‘jaligining maqsadi** o‘z iste’molini maksimumlashtirish va kelajakni ta’minlash uchun jamg‘arma hosil etishdir.
- **Korxonaning maqsadi e**sa foydani maksimumlashtirish va iqtisodiy jihatdan barqarorligini ta’minlashdir.
- **Davlatning maqsadi e**sa, milliy iqtisodiyotning barqaror o‘sishini va shu asosda xalq farovonligini ta’minlashdan iborat.

Davlatning igtisodiy siyosati milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda ma’lum maqsadlarni ko‘zlaydi. Bulardan asosiylari kuyidagilar:

1 Barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlash. Bu yalpi ichki mahsulotning bir maromda va etarli sur’atlar bilan o‘sishiga sharoit hozirlashni bildiradi, chunki YAIM qanchalik tez o‘ssa, mamlakat iqtisodiy qudrati shunchalik oshadi.

2 Miliy iqtisodiyotning mustaqilligini ta’minlash. Uning chet elga iqtisodiy jihatdan qaram bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaslik. Iqtisodiyot qanchalik mustaqil bo‘lsa, shunchalik milliy manfaatlarga ko‘proq xizmat qiladi.

3 Iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash. Bu iqtisodiy aylanmanning uzluksizlini, ya’ni taror ishlab chiqarishning to‘xtovsiz davom eshitini, iqtisodiy falajlikka yo‘l qo‘yilmasligini bildiradi.

4 Milliy pul qadr-qiymatining barqarorligini ta’minlash – mamlakatdagi pul muomalasining me’yorida borishiga erishish, pulni iqtisodiy aloqalarning muntazam ishlab turuvchi vositasiga aylantirish.

5. Aholining turmush farovonligini oshib borishini ta’minlash - iqtisodiyotning ijtimoiyligini mustahkamlash va uni (ijtimoiyligini) to‘laroq ro‘yobga chiqarish.

6. Milliy iqtisodiyotni xalqaro integratsion jarayonlar va globalizatsiyada faol ishtirok etib, xalqaro iqtisodiyotda o‘z o‘rnini topishi, baynalminal iqtisodiy munosabatlarning teng huquqli ishtirokchisiga aylanishiga erishish.

7. Milliy iqtisodiyotning istiqbolini ta’minlash, ya’ni uni uzoq kelajakda o‘sib borishiga sharoit hozirlash.

Bular iqtisodiy siyosatning strategik, ya’ni muayyan davrga mo‘ljallangan maqsadi hisoblanadi. Biroq uning, shu maqsadlarga erishish uchun taqtik yo‘nalishlari va chora-tadbirlari ham borki, bunda davlat o‘zining shu yo‘nalishdagi joriy maqsadlarini amalga oshirish orqali erishadi.

Bular jumlasiga iqtisodiy tanglikdan chiqib ketish, narxlarning barqarorligini ta’minlash, investision faollikni rag‘batlantirish, eksport salohiyatini oshirish, innovatsiyalarni ta’minlash, yangi tashqi bozorlarga kirib borish kabilar kiradi.

Joriy maqsadlar strategik maqsadlardan kelib chiqadi va ularga xizmat qiladi.

1.3. Davlatning iqtisodiy siyosatiga erishish vositalari va amalga oshirish yo‘nalishlari

Davlat o‘zining iqtisodiy siyosatini quyidagi vositalar bilan amalga oshiradi:

Birinchisi, iqtisodiy vositalar bo‘lib, bular jumlasiga soliqlar, subsidiyalar, litsenziyalar, eksport kvotalari, uchyot stavkalari, davlat buyurtmalari, davlat investitsiyalari, transfertlar, turli iqtisodiy sanksiyalar (jazolash vositalari) kabilar kiradi.

Ikkinchisi, yuridik (huquqiy) vositalar. Bu iqtisodiy faoliyat tartibi va qoidalarini, uning davlat tomonidan rag‘batlantirilishini belgilab beruvchi qonunlarni, ularga mos ravishdagi qonun osti xujjatlarini ishlab chiqish, ularni qabul qilish va joriy etishdan iboratdir.

Qonunchilik iqtisodiyotining obyektiv iqtisodiy qonunlarni talabidan kelib chiqishi zarur. Iqtisodiyotga oid yuridik qonunlarni parlament qabul qiladi. Hukumat esa ularning amalga oshirilishini

ta’minlaydigan qarorlar va farmoyishlarni ishalab chiqadi. Tegishli davlat idoralarning qonunlarning amalga oshirilishini nazoratga oladi.

Uchinchisi, siyosiy-ma’muriy vositalar. Davlat hokimiyat sohibi bo‘lganidan o‘z siyosatiga rioya etilishini o‘z organlari kuchi bilan ta’minlaydi. Davlat oliy siyosiy institut hisoblanar ekan, uning qarorlari va buyruqlariga hamma itoat etishi kerak bo‘ladi. Ma’muriy usul yordamchi usul hisoblanadi, u bozor tizimida yaxshi natija bermaganidan cheklangan holda qo‘llaniladi.

Davlatning iqtisodiy siyosatini amalga oshirish yo‘nalishlari

1. Globallashuv davrida davlat siyosatini amalga oshirish

So‘nggi yillarda respublika iqtisodiyotida davlatning roli va ishtirokini qisqartirish, iqtisodiyot tarmoqlarini boshqarishga bozor prinsiplari va mexanizmlarini keng joriy qilish, shuningdek aholi farovonligi va turmush darajasini oshirish bo‘yicha aniq maqsadga yo‘naltirilgan chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Xususan, iqtisodiyotning o‘zgarishi sharoitida mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asoslangan maqsadli yo‘nalishlarini (indikatorlarini) shakllantirish, shuningdek mavjud ichki va tashqi omillarni hamda islohotlarning strategik ustuvor yo‘nalishlarini hisobga olgan holda iqtisodiy o‘sishning yangi manbalarini aniqlash tizimi mavjud emas.

Iqtisodiyotning hududiy va tarmoq taraqqiyoti, shu jumladan urbanizatsiya siyosatini amalga oshirish orqali mutanosiblikni ta’minlash uchun ishlab chiqaruvchi kuchlarni joylashtirish borasidagi ishlarni muvofiqlashtirish tizimi kerakli darajada yo‘lga qo‘yilmagan.

Bozor tamoyillarini keng joriy etish, mahalliy ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash, bozorni raqobatbardosh tovarlar bilan to‘ldirish va ularni tashqi bozorlarga yo‘naltirish hajmlarini oshirish bo‘yicha zarur tadbirlar ishlab chiqilmayapti.

Natijada, barqaror ishchi o‘rinlari yaratish darajasi pastligicha saqlanib qolayotganligi aholini, ayniqsa qishloq aholisini barqaror daromad manbai bilan ta’minlash imkonini bermaydi va sifatli inson kapitalini rivojlantirishga to‘sqinlik qiladi.

1) Makroiqtisodiy siyosatni ishlab chiqish, muvofiqlashtirish va amalga oshirish quyidagi vazifalarni o‘z ichiga oladi:

Makroiqtisodiy indikatorlarni tahlil qilish va prognozlash asosida iqtisodiyotni boshqarishning bozor mexanizmlarini joriy etish, iqtisodiyotning real sektori holati, ichki va tashqi bozorlar konyunkturasi hamda global va mintaqaviy iqtisodiy rivojlanish tendensiyalari bilan bog‘liq holda iqtisodiyotning asosiy sohalarini rivojlantirish strategiyasini shakllantirish;

Iqtisodiyotning real sektoridagi holatni oldindan baholash indikatorlarini ishlab chiqish va samarali foydalanish tizimini joriy etish;

Inson kapitalini yaxshilash va mehnat unumdorligini oshirish, ishlab chiqarish va moliyaviy resurslarni samarali taqsimlash, zarur infratuzilmani shakllantirishga asoslangan iqtisodiy rivojlanishning konseptual yo‘nalish va vazifalarini ishlab chiqish va ularning amalga oshirilishini ta’minlash;

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki, Moliya vazirligi va boshqa idoralar bilan birgalikda makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlash, shu jumladan inflyatsiya darajasini pasaytirish va qo‘yilgan maqsadlarga erishish borasida muvofiqlashtirilgan siyosatni amalga oshirish;

O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi tomonidan ishlab chiqiladigan eksportni qo‘llab-quvvatlash, eksport va importda tarif va notarif tartibga solish siyosatlarini shakllantirish jarayonida faol ishtirok etish;

Qishloq xo‘jaligini rivojlantirish strategiyasida ko‘zda tutilgan tadbirlar va islohotlarning mehnat unumdorligi, mahsulot yetishtirish va qayta ishlash hajmlarining o‘sishiga, ish o‘rinlari yaratilishiga ta’sirini baholash va tegishli takliflar ishlab chiqish.

2. Kambag‘allikni qisqartirish borasida:

- iqtisodiy o‘sishning inklyuzivligini ta’minlash, davlat boshqaruvi organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, jamoat tashkilotlari hamda xalqaro moliya institutlari va xorijiy hukumat moliya tashkilotlari bilan hamkorlikda kambag‘allikni qisqartirish

bo‘yicha strategiya va dasturlarni ishlab chiqish, amalga oshirish va muvofiqlashtirish;

- kambag‘allikni qisqartirishning aniq dastak va mexanizmlarini ishlab chiqish, xorijiy tajribani inobatga olgan holda kambag‘allik darajasini aniqlash mezonlari va baholash uslubiyatini, ijtimoiy ta’minotning minimal standartlari va me’yoriy asoslarini ishlab chiqish va joriy etish;

- barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarga erishish chora-tadbirlarini amalga oshirish, yashash minimumi va minimal iste’mol savatini hisoblash metodologiyasini ishlab chiqish hamda aholi daromadlari tabaqalashuvini o‘rganish bo‘yicha tizimli ishlarni olib borish hamda ularning davlat maqsadli dasturlari bilan o‘zaro muvofiqligini ta’minlash;

- O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi bilan birgalikda mehnat bozori va uning tarkibini sifat jihatdan rivojlantirish, ishchi kuchi migratsiyasi jarayonlarini tahlil qilish, takomillashtirish hamda mehnat resurslarini taqsimlash borasida o‘zaro muvofiqlikdagi ishlarni olib borish;

- O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi, Xalq ta’limi vazirligi, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, Sog‘liqni saqlash vazirligi, Jismoniy tarbiya va sport vazirligi hamda Madaniyat vazirligi bilan birgalikda inson kapitalini rivojlantirish bo‘yicha dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish.

3 Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish *:*

- hududlarning tabiiy xomashyo va mehnat resurslarini hamda “nisbiy ustunliklarini” inobatga olgan holda ularni rivojlantirishga turtki beradigan omillar va yo‘nalishlarni belgilab olish hamda amalga oshirish;

- hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish chora-tadbirlari doirasidagi loyihalarni o‘z muddatida va sifatli bajarishga to‘sqinlik qiluvchi tizimli muammolarni aniqlash va bartaraf etish, hududlararo rivojlanishning tabaqalashuvini qisqartirish choralarini ko‘rish;

- hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish chora-tadbirlari doirasidagi loyihalarni o‘z muddatida va sifatli bajarishga to‘sqinlik qiluvchi tizimli muammolarni aniqlash va bartaraf etish, hududlararo rivonlanishning tabaqalashuvini qisqartirish choralarini ko‘rish;

- ilg‘or xorijiy tajribani o‘rgangan holda hududlarni rivojlantirishning milliy metodologik asoslari va yondashuvlarini ishlab chiqish va takomillashtirish.

4. Mamlakatda tadbirkorlikni rivojlantirish:

- Mamlakatda kichik va o‘rta biznesni hamda tadbirkorlikning barcha shakllarini rivojlantirishga qaratilgan yagona davlat siyosatini yuritish;

- iqtisodiy o‘sishni ta’minlashda kichik va o‘rta biznesni muhim drayverga aylantirishning konseptual va strategik yondashuvlarni hamda sohani rivojlantirish borasida fundamental to‘siq va muammolarni bartaraf etish chora-tadbirlarini ishlab chiqish va amalga oshirish;

- kichik va o‘rta biznes subektlari toifasiga oid mezonlarni belgilovchi, shuningdek, ularning huquqlariga taalluqli normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish va amalga oshirish tadbirkorlik subektlarini qo‘llab-quvvatlashning moliyaviy va nomoliyaviy choralari - yangi vositalar va axborot tizimlarini yaratish, kreditlashning mavjud mexanizmlari va qo‘llab-quvvatlash vositalari orqali ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan yuqori samara beruvchi yo‘nalish va loyihalarni amalga oshirish;

- tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi faoliyatini doimiy ravishda takomillashtirish orqali resurslardan foydalanish imkoniyatini kengaytirish va uni samarali boshqarish tizimini yo‘lga qo‘yish.

***5* Davlat ishtirokidagi korxonalarda transformatsiya jarayonlarini amalga oshirish quyidagilarni o‘z ichiga oladi:**

- vakolatli davlat organlari bilan birgalikda iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish maqsadlaridan kelib chiqib hamda iqtisodiy o‘sishga ta’siri nuqtai nazaridan samaradorligi past bo‘lgan yo‘nalishlarni aniqlash asosida davlat ishtiroki mavjud tarmoq va

korxonalarni isloh qilish bo‘yicha takliflarni ishlab chiqish orqali yaxlit davlat siyosati amalga oshirilishida ishtirok etish davlat ishtirokidagi korxonalarni isloh qilish jarayonlarini samarali tashkil etish uchun zarur bo‘lgan sharoitlarni yaratish, xususan ular tomonidan ishlab chiqariladigan mahsulot va xizmatlarning erkin va raqobatbardosh bozorini shakllantirish bilan bog‘liq tarkibiy islohotlarning ishlab chiqilishi va amalga oshirilishini ta’minlash;

- davlat ulushi mavjud strategik tarmoq va korxonalarda mehnat unumdorligini, energiya va boshqa ishlab chiqarish resurslari tejamkorligini oshirish hamda mahsulot tannarxini kamaytirishda zamonaviy mexanizm va yondashuvlarning qo‘llanilishi bo‘yicha chora-tadbirlarni muvofiqlashtirishda ishtirok etish.

6. Davlat investitsiya siyosatini shakllantirish va amalga oshirish:

- barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlash, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, sanoat salohiyatini mustahkamlash va hududlarni kompleks rivojlantirish maqsadida investitsiyalarni jalb qilish uchun ustuvor soha va tarmoqlarni aniqlash orqali mamlakatning faol investitsiya siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirishda ishtirok etish;

- iqtisodiy o‘sish uchun zarur bo‘lgan infratuzilmani yaratishga qaratilgan investitsiya siyosatini amalga oshirish, ish joylarini tashkil etish va hududlarni barqaror rivojlantirishni ta’minlovchi infratuzilmaning strategik rivojlanish yo‘nalishlarini belgilab berish;

- mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish konsepsiyasi, tarmoqlar va hududlarni rivojlantirish strategiyalari va dasturlaridan kelib chiqqan holda Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi bilan birgalikda davlat investitsiya dasturinishakllantirish;

- O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi hamda Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligiga Investitsiya dasturining asosiy yo‘nalishi va loyihalari bo‘yicha tegishli ichki va tashqi manbalarni shakllantirish uchun buyurtmalarni berish;

- davlat investitsiya dasturini makroiqtisodiy nuqtai nazardan tahlil qilish hamda bu borada shakllantirilgan xulosalardan kelib chiqib, investitsiya yo‘nalishlarini belgilash;

- davlat investitsiya siyosatining umumiy investitsiyaviy faollikka, shu jumladan xususiy va xorijiy to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar oqimiga ta’sirini tahlil qilish, prognozlash hamda bu borada tegishli takliflarni shakllantirish;

7. Infrastrukturani rivojlantirish va urbanizatsiya siyosatini yuritish:

- respublika hududlarida uy-joy qurilish bozori va shaharlarni rivojlantirish bo‘yicha yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish, ishlab chiqarish kuchlarini oqilona joylashtirish, turar joylarni muhandislik, transport va ijtimoiy infratuzilma bilan birgalikda qurishni inobatga olgan holda urbanizatsiya jarayonlarini davlat tomonidan samarali tartibga solishni ta’minlash, shuningdek, yer uchastkalariga oid zamonaviy bozor mexanizmlarini joriy etish;

- shahar va qishloqlardagi uzoq muddatli demografik tendensiyalarni tahlil qilish, jadal sanoatlashtirish sharoitida shaharlarning demografik sig‘imlari hamda ishchi kuchiga bo‘lgan ehtiyojlarini prognoz qilish va shu asosda urbanizatsiya ko‘lamlarini belgilash - mavjud shaharlarni kengaytirish yoki yo‘ldosh shaharchalarni yaratish yuzasidan hududlar kesimida takliflar tayyorlash;

- yangi barpo etiladigan yo‘ldosh shaharlar aholisining yashash sharoiti darajasini yanada oshirish hamda shaharlarning bosh rejalarini ishlab chiqishning moliyalashtirish manbalarini aniqlash va muvofiqlashtirish ilg‘or, energiya tejovchi, ekologik toza texnologiyalar va materiallarni joriy etish asosida hamda ijtimoiy, muhandislik-kommunikatsiya va yo‘l-transport infratuzilmalari mavjud yo‘ldosh-shaharlar bunyod etilishini hisobga olgan holda shahar aglomeratsiyalarini shakllantirishni boshqarish;

- uy-joy qurilish bozorini ipoteka kreditlari orqali rivojlantirish hamda mavjud uy-joy fondini boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish, ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘rgangan

holda renovatsiya tizimini takomillashtirish va dasturlar ishlab chiqish daromadi yuqori bo'lmagan va uy-joy sharoitlarini yaxshilashga muhtoj bo'lgan fuqarolarga ipoteka krediti bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan subsidiyalar ajratilishini muvofiqlashtirish.

8. Biznes muhitini yaxshilash va xalqaro reytinglar masalalari bo'yicha:

- iqtisodiyotni bozor tamoyillari asosida boshqarish bo'yicha institutsional islohotlarni amalga oshirish orqali biznes faoliyati sohasidagi asossiz majburiyatlar, taqiqlar va cheklovlarni olib tashlash, joriy tartibga solish jarayonlarini takomillashtirish hamda sohada amaldagi va qabul qilinadigan normativ-huquqiy hujjatlarning biznes muhitiga ta'sirini baholash;

- "O'zstandart" agentligi va boshqa vakolatli organlar bilan birgalikda tadbirkorlik subektlari o'z biznes faoliyatlarini erkin amalga oshirishlarida to'sqinlik qilishi mumkin bo'lgan texnik reglament va talablarni o'rnatuvchi organlar faoliyatini monitoring qilish va muvofiqlashtirish;

- O'zbekiston Respublikasi Monopoliyaga qarshi kurashish qo'mitasi bilan birgalikda mamlakat iqtisodiyotida raqobat muhitini yaxshilash, Savdo-sanoat palatasi va Biznes-ombudsman bilan birgalikda biznes muhitini yaxshilash va tadbirkorlikni rivojlantirish borasidagi ishlarni tashkil etishda hamkorlik qilish bo'yicha o'zaro muvofiqlashtirilgan harakatlarni amalga oshirish;

- xalqaro iqtisodiy reytinglar bilan ishlashda ilg'or xorijiy tajribadan kelib chiqqan holdareytinglarni har bir tarkibiy indikatori kesimida mutasaddi vazirlik va idoralarning malakali mutaxassislaridan iborat maxsus ishchi guruhlarni tuzish hamda ular faoliyatini muvofiqlashtirish;

9. Jahon hamjamiyati bilan iqtisodiy aloqalarni faollashtirish:

- mamlakatni iqtisodiy rivojlantirish strategiyasidan, shu jumladan o'rta va uzoq muddatli tashqi iqtisodiy muvozanatligini ta'minlash maqsadlaridan kelib chiqib, xalqaro iqtisodiy hamkorlikning ustuvor yo'nalishlari bo'yicha takliflarni ishlab chiqish;

AXBOROT RESURS MARKAZI
№ 73506

- iqtisodiy sohada turli integratsiya birlashmalari (MDH, YEOII va boshqalar) bilan, respublika hududlari xorijiy davlatlar hududlari bilan, shu jumladan chegaraoldi hamkorlikning mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollariga ta'sirini keng qamrovli tahlil qilish va kengaytirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

- vakolatlar doirasida xorijiy davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan muzokaralarda O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy manfaatlarini ifodalash, belgilangan tartibda va xalqaro huquq bitimlariga muvofiq boshqa davlatlarning vakolatli tashkilotlari bilan iqtisodiyot va sanoatni rivojlantirish masalalari bo'yicha hamkorlik bitimlarini tuzish;

10. Davlat tomonidan tartibga solinadigan sohalarga xususiy sektorni jalb etish sohasida:

- "Davlat funksiyalari - biznes uchun imkoniyat" loyihasi va davlat funksiyalarini xususiy sektorga o'tkazishning kompleks mexanizmi amalga oshirilishi yuzasidan monitoring olib borish va vujudga kelayotgan muammolarni bartaraf etish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

- xususiy sektorga o'tkazilishi taklif etilayotgan davlat funksiyalari, shuningdek, xususiy sektorning tegishli takliflarini e'lon qilish va muhokamadan o'tkazish uchun elektron maydoncha faoliyatini yurit•xususiy sektorga berilishi mumkin bo'lgan davlat funksiyalarini tahlil qilish va o'rganish natijasida tegishli choralar ko'rish yuzasidan takliflar tayyorlash;

- xususiy sektorga berilishi mumkin bo'lgan davlat funksiyalarini tahlil qilish va o'rganish natijasida tegishli choralar ko'rish yuzasidan takliflar tayyorlash.

Belgilash joizki, vazirlik o'z oldiga qo'yilgan vazifalarni amalga oshirishda ularning ustuvorligi va bosqichma-bosqichlik tamoyilidan kelib chiqadi, shuningdek, har bir yo'nalish bo'yicha xalqaro ekspert-maslahatchilarni jalb qilishi mumkin.

Tayanch iboralar: Iqtisodiy siyosat, bozor, bozor mexanizimi, davlatning iqtisodiy siyosati, xalqaro ekspert, bizness muhiti, infratuzulma.

Nazorat va takrorlash uchun savollar

1 Davlatning iqtisodiy siyosati fanining dolzarbligi, predmeti, maqsadi.

2. Davlatning iqtisodiy siyosat faning boshqa fanlar bilan aloqasi.

3. Davlatning iqtisodiy siyosat muhim xususiyatlari.

4. Davlatning iqtisodiy siyosatini amalga oshirish zarurligi.

5. Davlatning iqtisodiy siyosatiga erishish vositalari va amalga oshirish yo‘nalishlari

6. Davlatning iqtisodiy siyosat funksiyalari.

7. Makroiqtisodiy siyosatni ishlab chiqish, muvofiqlashtirish va yuritish

8. Kambag‘allikni qisqartirish

9. Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish

10. Mamlakatda tadbirkorlikni rivojlantirish

11. Davlat ishtirokidagi korxonalarni transformatsiya qilish

12. Davlat investitsiya siyosatini shakllantirish va amalga oshirish

13. Infrastrukturani rivojlantirish va urbanizatsiya siyosatini yuritish

14. Biznes muhitini yaxshilash va xalqaro reytinglar masalalari

15. Biznes muhitini yaxshilash va xalqaro reytinglar masalalari

16. Jahon hamjamiyati bilan iqtisodiy aloqalarni faollashtirish

II BOB. DAVLAT IQTISODIY SIYOSATINING NAZARIY ASOSALARI VA TARKIBI

2.1. Davlatning iqtisodiy siyosatini iqtisodiy konsepsiyalar shaklida vujudga kelishi.
2.2. Davlat iqtisodiy siyosatda Keyns konsepsiyasi, Keyns nazariyasining moxiyati va iqtisodiyotni boshqarish usullari.
2.3. Davlat iqtisodiy siyosatining tarkibi.

2.1. Davlatning iqtisodiy siyosatini iqtisodiy konsepsiyalar shaklida vujudga kelishi

Dalatning iqtisodiy siyosati borasidagi ilk g‘oyalar miloddan avvalgi VI – IV asrlarda Afina akademiyasi nomoyondalari tomonidan ishlab chiqilgan edi. Masalan, yunoniston faylasufi Platon (Aflotun, mil. Av. V-IV asr.) o‘zining “Davlat va siyosat” asarida, davlat jamiyatni boshqaruvchi apparat ekanligi va aholi asosan uch tabaqadan iborat bo‘lib (qullarni hech bir tabaqaga kiritmagan), ularning manfaatlarini ta’minlash orqali jamiyatni rivojlantirish bo‘yicha, o‘sha davrga mos g‘oyalarni ilgari surgan. Bundan tashqari o‘sha davrda, yunoniston imperiyasi juda ko‘p hududlarni (polislarni) o‘z ichiga olgan bo‘lib, ular o‘rtasidagi xo‘jalik aloqalarini va savdo-sotiq ishlarini nazorat qilish va boshqarish bo‘yicha ko‘pgina takliflarni kiritgan, va ular joriy etilgan. Yunonistonda IV – asrda yashagan, Afina akademiyasini yirik vakili va Aleksandr Makedonskiyni siyosat va davlat boshqaruvi masalalari bo‘yicha ustozi Aristotel o‘zining “Davlat va qonun” asarida, mamlakatda davlat tomonidan ishlab chiqilgan va qabul qilingan qonunlar barcha uchun bir xil (qullardan tashqari) hamda u mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitiga molik bo‘lish kerakligini alohida ta’kidlagan.

Ilk feodalizmdan boshlab to uning yemirilishiga qadar davlatni boshqarish bilan bog‘liq masalalar diniy teologik g‘oyalar asosida ishlab chiqilgan bo‘lib, asosan yirik yer egalari va qaram dehqonlar o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan. Bu borada bobokalonimiz Amir Temurning “Temur tuzuklari” Yevropa feodal

davlatlarining bu boradagi qonunlaridan o‘zining adolatparvarligi bilan ajralib turadi.

Feodalizmni yemirilish davri, shu davrda savdo-sotiq va tovar - pul munosabatlarining hamda buyuk geografik kashfiyotlardan keyin manufakturaviy ishlab chiqarishni asta-sekin rivojlanishi bilan bog‘liq bo‘lib, mutlaqo yangi, **savdo nazariyasini** vujudga kelishiga olib keldi. Bu nazariyani **dastlabki iqtisodiy ta’limot** sifatida Adam Smit **“merkantilizm ta’limoti”** (merkante - savdogar) deb atadi. Merkantilizm namoyondalari Antuan Monkretyen Do‘ Vattevil, Jan Batist Kolber fikrlariga ko‘ra iqtisodiy munosabatlar asosan savdo-sotiq munosabatlari bilan bog‘liq bo‘lib, asosiy muomala vositasi pul, (oltin – kumush) deb hisoblaganlar va ularning fikricha jamiyat boyligi asosan savdo sohasida, ko‘proq tashqi savdoda yaratiladi. Shu nuqtai nazardan tashqi savdoni rivojlantirish davlatning asosiy vazifasi, ishlab chiqarilgan tovarlarni chetga chiqarish (oltinni chiqib ketishga yo‘l qo‘ymasdan) va chetdan ko‘proq pul mabag‘larini (oltin va kumushni) olib kelish hisoblangan.

Shunday qilib, iqtisodiyotni kapitalizmga xos davlat siyosati nazariyalari birmuncha keyinroq, ya’ni kapitalning dastlabki jamg‘arilishi jarayonlarining boshlang‘ich davrlaridan boshlab shakllandi. Merkantilizm nazariyasi asoschilari, ilk merkantilizm nomoyondalari italiyalik Skaruffi va Divanzetti, so‘ngi yetuk merkantilizm asoschilari Angliyalik Tomas Men, Fransiyalik Antuan Monkretyen va Jan Batist Kolberlar hamda Djon Lou barcha boylik savdoda yaratiladi, mamlakat boyligi esa, faqat pul (o‘sha vaqtda oltinlar) bilan o‘lchanadi, degan fikrni ilgari surishgan.

Ushbu nazariyaning asosiy qarashlari ikkita fikrda o‘z aksini topgan:

1) mamlakat badavlatligi pul bilan, yanayam aniqroq qilib aytilsa oltin miqdori bilan ifodalanadi.

2) davlat hukumat ta’sirida katta pul miqdorlarini to‘plashga erishishi mumkin.

Merkantilistlar mamlakatga olib kirilgan va olib chiqilgan tovarlar o‘rtasida ijobiy farqni saqlab turish yo‘li bilan davlat boyligini oshirish

mumkinligini, shu tufayli chegaralardan tashqariga tovarlarni chiqarishni rag‘batlantirish va teskari hodisa, chegaralardan tovarlar kirib kelishini cheklash zarurligini ko‘rsatib o‘tishadi. Asosiy iqtisodiy siyosat savdoni rivojlantirish xisoblanadi.

Chet ellardan arzon tovarlarni olib kirish va xorijga qimmatroqqa sotish tamoyili orqali davlatning aralashuvi bilan proteksionizm siyosatini olib borish kerakligini tavsiya etdilar. Shunisi diqqatga sazovorki, merkantilizm tarafdorlari (fransuz A. Monkretyen) o‘zining “Siyosiy iqtisod traktati” asari bilan, falsafiy fanlar tizimidagi iqtisodiy fikr va qarashlarni hamda ta’limotlarni “siyosiy iqtisodiyot” fani sifatida falsafadan ajralib chiqishiga sababchi bo‘ldi hamda birinchilardan bo‘lib boylik bu tovarlarning iste’mol qiymati emas, balki ularning almashinuv qiymati ekanligini isbotladi. Bizga ma’lumki, iste’mol qiymati ayirboshlashning asosi hisoblanadi.

Fiziokratizm ta’limoti (fiziokratiya – tabiat hokimligi, tabiat qonunlarining ta’siri nazarda tutiladi. Ularning fikricha qishloq xo‘jaligida yaratiladigan mahsulotlar qiymatiga o‘simliklarning vegitatsion qonuniyatlari va chorva mollarining embrional qonuniyatlari ta’sir qiadi) - bu ta’limot vakillari, Fransiyalik Fransua Kene (aslida vrach, saroy vrachi, iqtisodiy jadvalni yaratgan olim), An Rober Jak Tyurgo (huquqshunos olim) fikirlariga ko‘ra, jamiyat boyligi faqat qishloq xo‘jaligida yaratiladi. Shuning uchun ham qishloq aholisini unumli sinf, manufakturada va hunarmandchilik sexlarida ishlaydiganlarni unumsiz sinf deb ataganlar. Bunda davlatning asosiy funksiyasi qishloq xo‘jaligida tovar ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratishga qaratilgan bo‘lishi kerak deb hisoblaganlar. Bunga sabab, XVIII – asrda, ushbu konsepsiya yaratilgan paytda Fransiyada manufakturaviy ishlab chiqarish, ya’ni sanoat yaxshi rivojlanmagan, mamlakatning asosiy daromadi dehqonchilikdan, qishloq xo‘jalik mahsulotlarini sotishdan kelgan. Lekin Fransiyaning moliya ministri Jan Batist Kolberning XVII – asrning ikkinchi yarmidagi proteksionistik siyosati tufayli, mamlakatda agrar inqiroz vujudga kelib, u XVIII – asrning oxirigacha davom etgan

va fiziokratizm ta'limotining vujudga kelishiga asosiy sabab ham aynan shu inqiroz edi.

Fiziokratlar (yeng ko'zga ko'ringan namoyondasi - F.Kene) savdo sohasini taxlil qilishdan ishlab chiqarishni, yanayam aniqroq qilib aytganda qishloq xo'jaligini taxlil qilishga urg'u berishdi.

Ushbu iqtisodiy maktab tarafdorlaridan F. Kene savdo faoliyati hech qanday boylik olib kelmasligini, ayirboshlashda biror narsa ishlab chiqarilmasligi masalasini ilgari surdi. Fiziokratlar iqtisodiy taraqqiyotga tabiiy jarayonlar sabab bo'lishini, tabiiy jarayonlar esa, alohida olingan kishilar ta'siridan holi bo'lishini, davlat esa, qonunlarga amal qilinishini ta'minlashi kerakligini keltirib o'tishdi.

Klassik iqtisodiy maktab ta'limoti - bu ta'limot XVII – asrning asosan ikkinchi yarmida Angliyada vujudga kelgan. Uning asoschisi bo'lib (aslida vrach) siysiy iqtisodning otasi Uilyam Petti hisoblanadi. U o'zining "Siyosiy arifmetika" asarida mehnat qiymati nazariyasiga asos soladi. U. Petti jamiyat boyligining asosi qiymat yaratuvchi mehnatdir deb yozadi va u "Mehnat boylikning otasi, yer uning onasidir" – deb hisoblaydi.

Keyinchalik bu ta'limotni to'la shakllanishiga Angliyalik iqtisodchi olimlar Adam Smit, David Rikardo va Jon Styuart Millar o'zlarining ta'limotlari bilan juda katta hissa qo'shadilar. Ayniqsa A. Smitning fikricha davlatning asosiy funksiyasi mehnat munosabatlarini to'g'ri taqsimlashga qaratilgan bo'lishi kerak va davlat tomonidan ishlab chiqilgan qonunlar ishlab chiqaruvchilarni muhofaza qilishlari kerak. Chunki, boylikning asosida unumli mehnat yotadi va iqtisodiyot o'zining ob'ktiv qonunlari asosida rivojlanadi deb hisoblagan. Shuning uchun ham A. Smit davlatning asosiy funksiyasini "qo'riqlovchi it"ning funksiyasi bilan tenglashtirgan.

Shunday qilib, kapitalning dastlabki jamg'arilishi jarayonlarida tovar-pul (bozoriy) munosabatlarining rivojlanishi keng miqyosda tadbirkorlar sinfini paydo bo`lishi va jamiyatda mustahkam o`rin egallashi bilan tavsiflanadi. Klassik iqtisodiyot maktabi vakillari iqtisodiy taraqqiyotga merkantilistlar aytgani kabi davlatning iqtisodiyotga aralashuvi sharoitida emas, balki iqtisodiyotning

davlatdan xoli bo‘lgandagi sharoitida erishilishi mumkinligini isbotlashga harakat qilishdi. Klassik siyosiy iqtisod maktabi tarafdorlari (masalan, A.Smit, D.Rikardo) o‘z ilmiy asarlarida mehnat qiymati nazariyasini yaratishdi, kapitalning mazmun-mohiyatini va qo‘shilgan qiymat nazariyasini ochib berishdi.

Iqtisodiyotga davlatning aralashuvini qoralab bozor iqtisodiyoti o‘zini-o‘zi boshqara olishiga ishontirishadi, masalan, A.Smit bozor ishtirokchilari tobora ko‘proq foyda olishni ko‘zlab jamiyat manfaatlariga ham xizmat qilishi g‘oyasini ilgari surgan (“ko‘rinmas qo‘l”).

A.Smit g‘oyasining davomchilari bo`lmish D.Rikardo, J.B.Sey, A.Marshal kabilar iqtisodiy liberalizm g‘oyasini qo‘llab-quvvatlashdi va hozirga qadar neoklassik yo‘nalish sifatida ijobiy baholanib kelinadi. Klassiklar yalpi talab-yalpi taklifning o‘zaro muvozanatiga baho berishda yalpi taklifning ijobiy miqdorlarda o‘zgarishi o‘z orqasidan yalpi talabni ham oshiradi, degan fikrda turishdi. J.B.Sey qonunida aks etishicha, tovar taklif etishning o‘sishi ish haqining o‘sishiga, ish haqining o‘sishi esa, o‘z navbatida talabni yuzaga keltiradi va yalpi taklif-yalpi talab muvozanatiga erishiladi. Klassik maktab tarafdorlari ish haqi ko‘rinishidagi daromadlarning barchasi ham talabga aylanmasligini ko‘zdan qochirishgan edi. Shuningdek, klassik maktab tarafdorlari o‘z g‘oyalarining iqtisodiy inqirozlar shart-sharoitlarida to‘laqonli ishlamasligini oldindan aytib bera olishmadi.

Marjinalizm ta’limoti – fransuzcha – **marjinale** – cheklangan (chegaralangan, eng yuqori) bunday ta’limot vakillari Karl Menger, Yevgeniy Byom - Baverklar davlat boshqaruvi tovarlar nafilligi va ushbu jarayondan odamlar qanday qabul qilishiga asoslanganligi bayon qilishgan. Bu ta’limotning tadqiqotlari **ratsionalizmga** asoslangan bo‘lib, jamiyatda kishilar hatti harakatlari erkin bo‘lishi kerak (xuddi Robinzon Kruzodek) degan g‘oyani ilgari surishgan. Bu tadqiqotda tovarning qiymati (ishlab chiqarishda sarflangan mehnat) emas, balki uning nafliligi tovarning narxini belgilashi asos qilib olingan. Shuning uchun ham, bu nazariyaga iqtisodchilar **“Cheklangan naflilik**

nazariyasi" deb nom berishgan. Tovarlarning nafliligi iste'molga molik taqqoslama tahlil asosida aniqlanadi degan fikrni ilgari surishgan.

Liberalizm (fransuzcha - ***liberalisme***) — insonning o'z xatti-harakatlari, mulki va hayotini boshqarishda erkin bo'lishi kerak degan g'oyaga asoslangan ijtimoiy-siyosiy qarashlar tizimidir. Bu oqim 17–18-asrlarda Yevropa mamlakatlarida shakllangan bo'lib, u Jon Lokk, Adam Smit, Sharl Lui Monteskye kabi mutafakkirlarning mutlaq hokimiyatga qarshi yo'naltirilgan nazariyalariga tayangan. Liberalizm tamoyillari ilk bor AQSH Konstitutsiyasi (1787) hamda Fransiyada qabul qilingan "Inson va fuqaro huquqlari deklaratsiyasi" (1789)da o'z ifodasini topgan.

XIX - asrning oxiri va XX - asrning boshlarida liberalizmning asosiy tamoyillari shakllandi. Ular fuqarolik jamiyati, shaxs huquqlari va erkinliklari, huquqiy davlat qurilishi, demokratik siyosiy institutlar, xususiy mulkchilik va tadbirkorlik erkinligi kabi g'oyalarni o'z ichiga oladi.

Zamonaviy davrda liberalizm tarafdorlari fikricha, erkin bozor mexanizmi iqtisodiy faoliyatni samarali tashkil etish va ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni muvofiqlashtirish uchun eng maqbul sharoit yaratadi. Shu bilan birga, bozordagi raqobatning barqaror ishlashi uchun davlat tomonidan muayyan darajada aralashuv zarur deb qaraladi.

XX asr oxirlariga kelib, liberalizm, konservatizm va sotsial-demokratiya g'oyalari o'zaro yaqinlashdi, bu esa siyosiy-ijtimoiy tafakkurda sintezga yo'l ochdi.

Iqtisodiy liberalizm – bu davlatning iqtisodiyotga aralashuvini minimal darajada saqlash va iqtisodiy subektlarga keng erkinlik berish tarafdori bo'lgan mafkuradir. U klassik liberalizm, fiskal va libertar konservatizm, shuningdek, o'ng libertarizmning ajralmas qismi hisoblanadi.

Iqtisodiy falsafa doirasida iqtisodiy liberalizm – fransuzcha - **laissez - faire** (ya'ni "aralashmaslik") tamoyiliga asoslangan iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlaydi va targ'ib qiladi. Bu mafkura tarafdorlari erkin bozor, mukammal raqobat va Adam Smit tomonidan

ilgari surilgan “bozorning ko‘rinmas qo‘li” konsepsiyasini asosiy ustunliklar sifatida ko‘radi.

Iqtisodiy liberalizm tarafdorlari, odatda, davlatning iqtisodiy jarayonlarga bevosita aralashuvi va tartibga solishini cheklash zarurligini ta’kidlaydi. Ular nazarida bozorning o‘z-o‘zini muvozanatga keltiruvchi tabiiy mexanizmlari orqali resurslar samarali taqsimlanadi va iqtisodiy farovonlik ta’minlanadi.

Shu bilan birga, bu mafkura bir qancha tanqidiy qarashlarga ham sabab bo‘lgan. Jumladan, **Fridrix List** iqtisodiy liberalizmning quyidagi kamchiliklarini ko‘rsatadi:

- **Liberal maktab** vakillari iqtisodiy qonuniyatlarni insoniy xususiyatlarga tenglashtirish orqali sun’iy yondashuvga yo‘l qo‘yadi;
- Ular **davlat institutlarining iqtisodiy taraqqiyotdagi o‘rni** va mamlakatning ishlab chiqarish kuchlarini strategik ravishda rivojlantirish zaruratini e’tibordan chetda qoldiradi. Natijada, iqtisodiy liberalizm amaliyotda ba’zida makroiqtisodiy nomutanosibliklarga, ijtimoiy tabaqalanish kuchayishiga va milliy sanoatning zaiflashishiga olib kelishi mumkin.

Liberal iqtisodiy maktabning tanqidiy jihatlari. Liberalizmning iqtisodiy maktabi bir qator printsiplarga tayansa-da, uni tanqid qiluvchi iqtisodchilar va maktablar bu yondashuvning qator jiddiy kamchiliklarini ko‘rsatadilar. Xususan:

1. **Sanoat rivojlanishining e’tibordan chetda qolishi.** Liberal maktab mamlakat sanoatini har tomonlama rivojlantirish zaruratini yetarlicha baholamaydi. U agrar va sanoat tarmoqlari o‘rtasidagi strategik muvozanatga yetarlicha e’tibor bermaydi.
2. **Milliy miqyosdagi mehnat taqsimoti va kooperatsiyani tan olmaslik.** Liberal iqtisodchilar mehnat taqsimoti va xo‘jaliklararo kooperatsiyani faqat xalqaro darajada ilgari suradi, milliy iqtisodiyot doirasida esa ularning ahamiyatini inkor qiladi.
3. **Protektsionizmga biryoqlama yondashuv.** Ular protektsionistik siyosatni — ya’ni davlat tomonidan ichki ishlab chiqaruvchilarni himoya qilish choralarini — har doim bozorga zid va monopoliyaga yo‘l ochuvchi vosita deb baholaydilar. Aslida esa,

tarixda ko‘plab muvaffaqiyatli sanoatlashgan davlatlar protektsionizm vositalaridan oqilona foydalangan.

4. **Savdo va to‘lov balansining inkori.** Liberal yondashuvda tashqi savdo balansini (yeksport va import o‘rtasidagi muvozanatni) saqlash zarurati ko‘pincha inkor qilinadi. Ular erkin savdo har qanday holatda foyda keltiradi, degan nuqtai nazardan chiqadi.

5. **Yerkin savdo rejimining salbiy oqibatlariga e’tiborsizlik.** Liberal maktab erkin savdo natijasida yuzaga kelgan ijtimoiy, iqtisodiy va tarmoqlararo nomutanosibliklarga befarq munosabatda bo‘ladi. Bu holat, ayniqsa, sanoati hali shakllanmagan davlatlar uchun xavflidir.

6. **Kapital shakllanishi masalasidagi chalkashlik.** Liberal yondashuvda mamlakat miqyosida yalpi kapital shakllanishi bilan individual kapital (ya’ni shaxsiy tadbirkor yoki firma darajasidagi kapital) o‘rtasidagi farq e’tiborga olinmaydi. Bu esa milliy investitsion siyosatni shakllantirishda noto‘g‘ri qarorlar qabul qilinishiga olib keladi.

7. **Ishlab chiqarish va savdo o‘rtasidagi mutanosiblikni buzish.** Liberal maktab savdoni haddan ortiq ulug‘laydi va uni iqtisodiy taraqqiyotning bosh omili sifatida ko‘radi. Bu esa real ishlab chiqarishning ahamiyatini e’tibordan chetda qoldirishga olib keladi.

8. **Tarixiy tajriba va kontekstni e’tiborsiz qoldirish.** Liberal iqtisodiy nazariya iqtisodiy tarixga yetarli darajada tayanmaydi va mavjud tarixiy tajribalarni noto‘g‘ri talqin qiladi. Bu esa umumiylashtirish va nazariy asoslarning zaiflashishiga sabab bo‘ladi.

Iqtisodiyotni tartiblashda monetarizm nazariyasi.

Iqtisodiyotni boshqarishga monetar qarashlar garchi 1929-1934 yillardagi iqtisodiy inqiroz davrigacha ham uchragan bo‘lsa-da, ammo ko‘proq 20 asrning ikkinchi yarmidan yuzaga kelgan va amerikalik Milton Fridman boshliq Chikago maktabi olimlari tadqiqotlaridan boshlab takomillashtirib borilmoqda. Hatto ayrim hollarda monetaristik qarashlar 1929-1934 yillardagi iqtisodiy inqiroz omillaridan biri bo‘ldi, degan qarashlar mavjud.Monetarizm vakillari pulni xo‘jalik yuritishning muhim qismi, pul-kredit siyosati esa iqtisodiyotni tartiblashning eng yaxshi dastagi, deb qabul qildilar. M. Fridman

Keynsmodelidan kelib chiqqan, ammo ushbu nazariyaga muqobil bo‘lgan yangicha nazariya yaratish maqsadini o‘z oldiga qo‘ydi, pulning miqdor nazariyasiga o`zgacha ta’rif berdi va inflyatsiyani sof monetar muammo sifatida qarab chiqdi.

Iqtisodiyotni boshqarishga monetar qarashlar garchi 1929-1934 yillardagi iqtisodiy inqiroz davrigacha ham uchragan bo‘lsa-da, ammo ko‘proq XX - asrning ikkinchi yarmidan yuzaga kelgan va amerikalik Milton Fridman boshliq Chikago maktabi olimlari tadqiqotlaridan boshlab takomillashtirib borilmoqda. Hatto ayrim hollarda monetaristik qarashlar 1929-1933 yillardagi iqtisodiy inqiroz omillaridan biri bo‘ldi, degan qarashlar mavjud. Monetarizm vakillari pulni xo‘jalik yuritishning muhim qismi, pul-kredit siyosati esa iqtisodiyotni tartiblashning eng yaxshi dastagi, deb qabul qildilar. M. Fridman Keyns modelidan kelib chiqqan, ammo ushbu nazariyaga muqobil bo‘lgan yangicha nazariya yaratish maqsadini o‘z oldiga qo‘ydi hamda u pulning miqdor nazariyasiga o`zgacha ta’rif berdi va inflyatsiyani sof monetar muammo sifatida qarab chiqdi.

Monetar nazariya monetar siyosatni, ya’ni davlatning pul-kredit sohasida boshqaruvchilik tadbirlari majmuini amalga oshirishni ko‘zda tutar edi. Monetar (pul) nazariyasi aoschisi amerikalik iqtisodchi olim Irving Fisher XIX – asrning 60-70 yillarida ayirboshlash tenglamasi deb nomlangan monetarizmning eng asosiy tenglamalaridan birini taqdim qildi:

$$\mathbf{MxV = PxQ}$$

bu yerda: M – aylanmadagi pulning massasi;

V – pul massasining aylanish tezligi;

P – tovar va xizmatlarning o‘rtacha narxlari darajasi;

Q - tovar va xizmatlarning miqdori.

Hozirgi zamon iqtisodiyot nazariyasini muhim yo‘nalishlaridan biri **monetarizm** deb ataladi. Iqtisodiyotni tartiblashning monetarizm nazariyasida bozor mexanizmi kamchiliklarini to‘g‘rilash shart emas, balki uning oqilona ishlashi uchun barqaror moliyaviy shart-sharoitlarni ta’minlash ko‘proq ahamiyatga ega vazifadir. Shu ma’noda pul birligining xarid qobiliyati va valyuta kursining barqarorligi

monetarizm nazariyasi uchun muhim jihatlardir. Shuning uchun ham monetarizm nazariyasi tarafdorlari soliq-budjet siyosatining ishlab chiqarish omillarini qayta taqsimlovchilik va barqarorlashtiruvchilik roliga kamroq e'tibor qaratadilar.

Agar, Keyns nazariyasida markaziy muammo ishsizlik bo'lgan bo'lsa, monetarizm nazariyasida asosiy muammo ishlab chiqarish hajmini pasayib borish sharoitida inflyatsiyaning vujudga kelishidir. Belgilash joizki, **monetarizm** maktabining asoschisi Milton Fridmen hisoblanadi. Bu nazariya Irving Fisher tomonidan yaratilgan **pul nazariyasini** yangi mazmun bilan boyitdi. Monetaristlar tovar ishlab chiqarish jarayoniga pulning qayta ta'sir etish mexanizmini, pul dastaklari va monetar siyosatning iqtisodiyotni rivojlanishiga ta'sirini chuqur tadqiq etishdi. Monetarizm pul krediti dastaklari yordamida iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishda o'ziga xos yondashuvni vujudga keltirgan nazariyadir.

Yana bir ta'limot **Neoklassik** (yangi klassik) ta'limot ham yaratilgan bo'lib (A.Marshall) unga ko'ra iqtisodiy jarayonning funksional bog'lanishi va funksional nisbatlarini ishlab chiqilib, bunda, bozor muvazanati va narxning aniqlovchi omillar talab va taklifdan iborat deb qaraladi.

Klassik iqtisodiy liberalizmning zaif tomonlari. Amalda barcha daromadlar tovarlarga sarflanmaydi – jamg'armalar yuzaga keladi, lekin ular har doim investitsiyaga aylanishi shart emas. Klassik iqtisodchilar talab va taklif asosida narxlar tebranishi orqali bozorlar, jumladan mehnat bozori ham o'z-o'zidan muvozanatga keladi deb hisoblashgan. Ularning fikricha, narxlar pasayganda ish haqi ham tushadi va ishsizlik bartaraf etiladi. Ammo real hayotda bu mexanizm har doim ishlamaydi: ish haqi tushganda, talab ham kamayadi.

1929–1933 yillardagi iqtisodiy inqiroz klassik nazariyaning zaifligini aniq ko'rsatdi va davlat aralashuvi zarurligini isbotladi.

2.2. Davlatning iqtisodiy siyosatida Dj.M. Keyns konsepsiyasini roli va davlatning iqtisodiyotni boshqarish usullari va shakllari

1929–1933-yillardagi jahon iqtisodiy inqirozidan so‘ng iqtisodiy fanda yangi yo‘nalish — keynschilik nazariyasi vujudga keldi. Bu oqimga asos solgan ingliz iqtisodchisi Jon Meynard Keyns bo‘lib, u o‘zining 1936-yilda chop etilgan “Bandlik, foiz va pulning umumiy nazariyasi” asarida bu g‘oyalarni bayon qilgan. Djon Meynard Keyns yaratgan nazariya iqtisodchi olimlar doirasida **multiplikator nazariyasi** deyiladi. Biroq iqtisodiyotga davlat aralashuvi g‘oyasini ilgari surgan faqat Keyns emas edi. Undan oldin ham A. Pigu va K. Viksell kabi iqtisodchilar davlatning iqtisodiyotni tartibga solishi zarurligini ilmiy jihatdan asoslab bergan edilar.

Mazkur nazariyaning asoschilaridan biri bo‘lgan G. Xaberler o‘zining “Ravnaq va turg‘unlik” asarida iqtisodiy davriylik nazariyasini chuqur tahlil qilgan. U iqtisodiy inqiroz sabablari sifatida kapitalning ortiqcha jamg‘arilishi yoki iste’mol yetishmovchiligini ko‘rsatgan. Shuningdek, u davriylikdagi tebranishlar kuchini kamaytirish yo‘llari borasida o‘z qarashlarini bildirgan. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish g‘oyasining shakllanishida J.M. Klarkning akselerator mexanizmlarining o‘zaro ta’siri bo‘yicha olib borgan tadqiqotlari ham muhim o‘rin tutgan.

Uning olib borgan tadqiqotlari Keyns tomonidan o‘tkazilgan ishlar bilan bir davrga to‘g‘ri kelgan. Biroq Keynsning nazariyasi boshqa olimlardan ajralib turadi, chunki u ishsizlik va ortiqcha ishlab chiqarish inqirozlarini tasodifiy yoki o‘z-o‘zidan yuzaga keluvchi hodisalar emas, balki kapitalistik bozor tizimining tabiiy oqibati sifatida izohladi. U ilk bor iqtisodiyotni davlat tomonidan doimiy va tizimli ravishda boshqarish zarurligini asoslab berdi. Keyns nazariyasining eng muhim jihatlaridan biri shundaki, u makroiqtisodiy darajadagi davlat aralashuvining foydasini asosli dalillar bilan ko‘rsatdi va ilgari hukmron bo‘lgan mikroiqtisodiy yondashuvni inkor etdi.

Keyns J.B. Sey tomonidan ilgari surilgan yalpi taklif yalpi talabni yuzaga keltiradi, degan fikrni butunlay rad etdi, aksincha yalpi talabni rag‘batlantirish o‘z orqasidan yalpi taklifni hosil qilib berishini

isbotladi. Yalpi talabni pul-kredit va soliq-budjet mexanizmlari orqali davlat tomonidan tartiblash - Keyns g‘oyasining asosi edi. Keynsdan oldin va u yashab o‘tgan davrlarda iqtisodiyotni davlat tomonidan boshqarish zarurligini ilmiy asoslab bergan olimlar bo‘lgan. Masalan, A. Pigu va K. Viksell, G. Xaberler o‘zlarining iqtisodiy sikllar nazariyasida iqtisodiy tushkunliklarni kapitalning ortiqcha yoki yetarli bo‘lmagan jamg‘arilishi keltirib chiqarishini aytib o‘tishgan.

Davlat esa, siklik o‘zgarishlar salbiy oqibatlarini yumshatishda davlatning rolidan foydalanish kerakligini bayon qilishgan. 1920–1930 yillarda Jon Meynard Keyns o‘z nazariyasini shakllantirib, uning asosiy g‘oyasini quyidagicha bayon etdi: - **“tartibga solinmagan kapitalistik tizim bir necha bor keng ko‘lamli ishsizlik va iqtisodiy tanazzul — ya’ni retsessiyalarga uchraydi”.** Keynsning fikricha, iqtisodiy resurslarning bekorga sarflanishini oldini olish uchun hukumat tomonidan faol barqarorlashtirish siyosatini amalga oshirish zarur. Keyns nazariyasiga muvofiq, davlat iqtisodiy jarayonlarda o‘z faoliyatini aniq maqsadlar, asosli tamoyillar va oqilona yondashuvga asoslab olib borishi kerak. Davlatning iqtisodiyotga qaratilgan ta’siri jamiyatning hozirgi ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanish talablariga to‘liq javob berishi shart.

O‘rganilayotgan sohaning eng muhim muammosi — har bir zamonaviy fuqaroning davlatning milliy iqtisodiyotdagi rolini anglab yetish zarurati bo‘lib, bu jarayon obyektiv hisoblanadi, chunki davlatning iqtisodiy choralarining ahamiyatini tushunish undan yiroq bo‘ladi. Keyns nazariyasining o‘ziga xos jihati — davlatning iqtisodiy rivojga har tomonlama ta’sir ko‘rsatishi bo‘lib, bu ta’sir iqtisodiy siyosatni ishlab chiqish va barqaror amalga oshirish orqali namoyon bo‘ladi. Djon Meynard Keyns o‘zining “Bandlik, foiz va pulning umumiy nazariyasi” asarining kirish qismida quyidagilarni fikrlarini yozgan edi: - ***"Iqtisodchilar va siyosatchilarning g‘oyalari odatdagidan ko‘ra ko‘proq ahamiyatga ega. Aslida dunyoni faqat ular boshqaradi. Lekin iqtisodiyotni bilmagan, iqtisodiy bilimga yetarli darajada ega bo‘lmagan siyosatchi jamiyatni boshqara olmaydi”.***

Dj. M. Keyns nazariyasiga koʻra, u yirik sanoatchilar, davlat sektoridagi korxonalar hamda davlat amaldorlari va ziyolilarning keng qatlamlarining manfaatlarini aks ettiradi va ularning qarashlarini ifodalaydi. Keyns nazariyasining asosiy tamoyili milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlash, shuningdek, inqirozlarning oldini olish va ularning salbiy ta'sirini imkon qadar kamaytirish uchun davlatning ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarga aralashuvi gʻoyasiga asoslanadi. Keyns nazariyasiga koʻra, inqirozlar erkin raqobat munosabatlarining natijasi boʻlib, ularda eng foydali mavqeini ishlab chiqarishning har qanday kengayishi va milliy iqtisodiy tizimning rivojlanishidan manfaatdor boʻlmagan moliyaviy chayqovchilar, turli vositachilar va renterlar egallaydi. Ularning qoʻllarida boylik toʻplanishi investitsiyalar qisqarishiga, tadbirkorlik faolligining pasayishiga olib keladi, bu esa oʻz navbatida ishsizlikning koʻpayishiga va ijtimoiy nizolarning keskinlashishiga olib keladi.

Keyns oʻz nazariyasining muhim qismi sifatida iqtisodiy oʻzaro munosabatlarning makroiqtisodiy tahlilini asos qilib, yagona davlat iqtisodiy tizimining umumiy rivojlanishini ta'minlashga yoʻnaltirilgan nazariyani yaratdi. Uning fikricha, davlat bir vaqtning oʻzida iqtisodiy agent va tartibga soluvchi sifatida faoliyat olib boradi va makroiqtisodiy vositalardan foydalanib iqtisodiy rivojlanishni boshqarishga qodir.

Ikkinchidan, Keyns iqtisodiy rivojlanishning makroiqtisodiy masalalarini davlat tomonidan faol tartibga solish siyosatini olib borish zarurligini ta'kidladi. Milliy iqtisodiyotning rivojini boshqarishda makroiqtisodiy vositalardan foydalanish bilan birga, davlat barqarorlashtiruvchi makroiqtisodiy siyosatni amalga oshirish orqali bozor iqtisodiyotining faoliyatiga faol aralashadi. Davlatning makroiqtisodiy siyosati amaldagi bozor sharoitlari va iqtisodiy konyunkturani hisobga olgan holda, hukumat hamda uning vazirliklari tomonidan belgilab olinadi va amalga oshiriladi.

Keyns nazariyasining muhim jihatlaridan biri — jamgʻarma va investitsiyalar oʻrtasidagi munosabatdir. Unga koʻra, investitsiyalar iqtisodiy tebranishlarning asosiy manbai hisoblanadi. Chunki

investitsiyalar o‘z tabiatiga ko‘ra doimiy emas va iqtisodiy inqirozlarni keltirib chiqarishda katta rol o‘ynaydi. Masalan, uy yoki avtomobil kabi qimmatbaho narsalarni sotib olishni keyinga qoldirish osonroq, holbuki oziq-ovqat, kiyim-kechak kabi kundalik xarajatlarni kechiktirish qiyin. Shu sababli, aholining kundalik xarajatlari doimiy darajada saqlanib qoladi, ammo uzoq muddatli va qimmatbaho tovarlarni sotib olish, odam uni zarur deb hisoblagan paytda kechiktiriladi. Shu asosda Keyns asosiy psixologik qonunni ishlab chiqdi: shaxsning daromadi oshgani sari, uning xarajatlaridagi jamg‘arma ulushi ko‘payadi, aksincha, daromad kamayganda odamlar o‘zini saqlab qolish uchun jamg‘armalarni kamaytirishga moyil bo‘ladi, shu bilan birga turmush darajasi barqaror bo‘lib qoladi.

Keyns ushbu tamoyilga asoslanib, hukumat, shtat va vazirliklar bozor konyunkturasi hamda milliy iqtisodiyot holati haqida oddiy fuqarolarga nisbatan ancha kengroq ma’lumotga ega ekanligini ta’kidladi. Shuning uchun, iqtisodiy jarayonlarni makrodarajada davlat tomonidan tartibga solish zarurati borligini ilgari surdi, bu esa barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta’minlashga xizmat qiladi. Shuningdek, Keyns global iqtisodiy inqirozlarga javoban kapital bozorlarini tartibga solishning muhimligini alohida ta’kidladi. Uning fikricha, davlat kapitalga foiz stavkalarini pasaytirishi, moliyaviy spekulyatsiyalarni cheklash uchun yuqori soliq stavkalarini joriy etishi, shundan yig‘ilgan mablag‘larni esa ishlab chiqarish va milliy iqtisodiy tizimni rivojlantirishga yo‘naltirishi lozim. Bundan tashqari, davlat ijtimoiy muhim masalalarni hal qilishda ham faol rol o‘ynashi kerak.

Keyns fikricha, davlat xususiy tashabbuslarning muvaffaqiyatli amalga oshishini ta’minlay oladigan yagona institutdir. Unga ko‘ra, davlat bir vaqtning o‘zida iqtisodiy agent va tartibga soluvchi sifatida faoliyat olib borib, mavjud makroiqtisodiy vositalardan foydalanib kapital bozorining rivojlanishini boshqarishi mumkin.

Keyns davlatning iqtisodiyotdagi rolini aniqlab, unga kapital aylanishini tartibga solish bo‘yicha aniq vazifalar berdi. U inflyatsiyani barqaror darajada ushlab turish, foiz stavkalarini qulaylashtirish, ishsizlikni 3% atrofida saqlash hamda harbiy mahsulotlar ishlab

chiqarishni rag‘batlantirishni taklif qildi. Shuningdek, Keyns kapital bozorlarini tartibga solishda asosiy maqsad — ularning barqaror va sog‘lom rivojlanishini ta’minlash ekanligini ta’kidladi. Buning uchun davlat faol barqarorlashtirish siyosatini amalga oshirishi va iqtisodiy jarayonlarga samarali aralashuvi zarur.

2.3. Davlat iqtisodiy siyosatining tarkibi

Davlat iqtisodiy siyosatini iqtisodiyotni boshqarish usullari. Iqtisodiyotni davlat tomonidan boshqarishning quyidagi usullari mavjud:

Administrativ usul (litsenziyalash, kvotalash orqali boshqarish)

Huquqiy usul: xo‘jalik va fuqarolik qonunchiligi doirasida normalar va qoidalar ishlab chiqish;

To‘g‘ridan to‘g‘ri usul: imtiyozli subsidiyalash, dotatsiya berish;

Bilvosita usul: pul kredit siyosati, soliq siyosati.

Ammo aynan Keyns nazariyasi boshqa o‘xshash nazariyalardan farqli tomoni sifatida inqirozlarning tasodifiy emas, balki iqtisodiy liberializm oqibatlari ekanligidan ogohlantirgan, iqtisodiyotni davlat tomonidan doimiy ravishda turli vositalar yordamida tartibga solib turish zarurligini birinchi bo‘lib isbotlab berdi. Yuqoridagi g‘oyalarga sadoqati tufayli neokeynschilar ham yetishib chiqdilarki, ular soliqlar, budjet xarajatlari, budjet taqchilligi, davlat qarzi kabilar iqtisodiyni davlat tomonidan boshqarishning asosiy dastaklari, deb hisoblaydilar.

Ta’kidlanishicha, iqtisodiy o‘sish sharoitida aholi daromadlari oshgan sayin soliq tushumlari ham oshib boradi. Bu hodisa o‘z navbatida ortiqcha talab hamda ortiqcha tovar taklifining paydobo‘lishining oldini oladi.

Ishsizlik darajasi oshishi bilan inqiroz boshlanadi va bu davlat byudjetidan ishsizlik nafaqalarining ko‘payishiga olib keladi. Natijada, to‘lovga qodir bo‘lgan talab pasayib, iqtisodiy faollik kamayadi. Shu bois, neokeynschilar moliyaviy kompensatsiya siyosatini qo‘llab-quvvatlash bilan birga, byudjet taqchilligi yuzaga kelganda moliyaviy qo‘llab-quvvatlashni davom ettirish zarurligini ta’kidlaydilar.

Keyns nazariyasining eng asosiy jihatlaridan biri – u iqtisodchilardan birinchilardan bo‘lib, makroiqtisodiy davlat tartiblashining foydasini asosli dalillar bilan himoya qilganligi. Shu bilan birga, u ilgari hukmron bo‘lgan mikroiqtisodiy tartiblash yondashuvini rad etdi.

Keyns nazariyasiga ko‘ra, davlat tomonidan iqtisodiyotni tartiblash uch asosiy jihatni o‘z ichiga oladi. Birinchidan, u bozor mexanizmining o‘z-o‘zidan harakatlanishiga baho beradi; ikkinchidan, iqtisodiyot boshboshdoqlik sharoitida rivojlanayotganda yuzaga keladigan muammolar va ziddiyatlarning sabablarini tahlil qiladi; uchinchidan esa, bu kamchiliklarni bartaraf etish uchun iqtisodiyotni tartiblash choralarining tizimli tizimini taklif qiladi.

Keyns o‘zining dastlabki tadqiqotlarida J.Sey qonunini inkor etgan holda samarali talab nazariyasini asoslab berdi. Keyns gacha bo‘lgan davrda klassiklar tomonidan Sey qonuni qabul qilingan bo‘lib, unga muvofiq taklif o‘z talabini yuzaga keltirar edi. Keyns esa, aksincha, jami talab o‘z taklifini yuzaga keltirishi g‘oyasini ilgari surdi.

Samarali talab nazariyasiga ko‘ra, mahsulot (yoki mehnat)ning muayyan miqdori taklif narxi daromadning shunday miqdoriga teng bo‘ladi, ya’ni bu daromad tadbirkorlarni ushbu mahsulot (yoki mehnat)ni taklif qilishga undaydi. Jami talabning narxi va mahsulot (yoki mehnat) hajmi o‘rtasidagi bog‘lanishga jami talab funksiyasi deyiladi. Shuni ta’kidlash kerakki, tadbirkorlar daromadni faqat ma’lum miqdordagi mahsulotni sotgandan keyingina oladi.

Kutilayotgan daromad va mahsulot (yoki mehnat) hajmi o‘rtasidagi bog‘lanishga jami talab funksiyasi deyiladi. Agar ishlab chiqarilgan mahsulotning ma’lum hajmida rejalashtirilgan daromad jami taklif narxidan yuqori bo‘lsa, tadbirkorlar yuqori foyda olish niyatida mahsulot hajmi va bandlikni oshiradilar. Aksincha, kutilayotgan daromad taklif narxidan past bo‘lsa, ular mahsulot va bandlik hajmini kamaytirishga majbur bo‘ladilar.

Optimal holat esa faqat kutilayotgan daromad bilan taklif narxi tenglashgan paytda yuzaga keladi, shuning uchun tadbirkorlar ishlab chiqarishni aynan shu darajada ushlab turishga harakat qiladilar.

Shunday qilib, tadbirkorlar uchun eng maqbul ishlab chiqarish darajasi jami talab va jami taklif funksiyalarining kesishgan nuqtasi bilan belgilanadi. Ushbu nuqtadagi jami talab qiymati samarali talab deb ataladi. Jami talab esa o‘z navbatida daromad darajasini aniqlaydi.

J. Keyns nazariyasida quyidagi tenglama bilan ifodalangan:

$$\mathbf{MD = I + Ji}$$

bu yerda: MD - milliy daromad;

I - iste’mol;

Ji - jami investitsiyalar.

Keyns tomonidan aniqlangan asosiy psixologik qonun uning iste’mol funksiyasini tadqiq etishda yo‘naltiruvchi tamoyil bo‘ldi. J. Keynsning so‘zlariga ko‘ra, odatda odamlar daromadlari oshgan sari iste’molni ko‘paytirishga intiladi, ammo iste’molning o‘sishi daromadning o‘sish sur’atidan pastroq bo‘ladi.

Bu degani, daromad o‘zgarganda iste’mol ham o‘sha yo‘nalishda o‘zgaradi, biroq iste’molning o‘zgarishi daromadning o‘zgarishidan har doim kichik bo‘ladi. Keyns bu nisbatni “iste’molga bo‘lgan chekli moyillik” deb atagan. Asosiy psixologik qonunga ko‘ra, iste’molga bo‘lgan chekli moyillik miqdori 0 dan 1 gacha bo‘lgan oraliqda joylashgan.

Keyns o‘z konsepsiyasini mustahkamlash maqsadida “iste’molga bo‘lgan moyillik” tushunchasi bilan bir qatorda “jamg‘arishga bo‘lgan moyillik” tushunchasini ham joriy etdi. Jamg‘arishga bo‘lgan moyillik – bu jamg‘arma (J) hajmidagi o‘zgarishning, uni keltirib chiqargan daromad o‘zgarishiga nisbati hisoblanadi.

Bu yerda shuni ta’kidlash kerakki, umumiy daromad oshganda odamlar qo‘shimcha daromadning bir qismini iste’molga, qolgan qismini esa jamg‘arishga sarflaydilar. Shu sababli, iste’mol va jamg‘arma o‘zgarishlarining yig‘indisi daromad o‘zgarishiga teng bo‘lishi lozim, ya’ni:

$$\mathbf{\sum I + \sum J = \sum D.}$$

Jamg‘arishga bo‘lgan chekli moyillik va iste’molga bo‘lgan chekli moyillikning nisbati birga qo‘shilganda 1 ga teng bo‘lishi formuladan aniq ko‘rinib turadi. Qisqa muddatli makroiqtisodiy modellarda esa,

iste’mol va daromad o‘rtasidagi bog‘lanish chiziqli tarzda ifodalanadi va quyidagicha yoziladi:

$$J = A + (J\ \mathbf{D}),$$

bu yerda:

A - jamiyat daromadi darajasi O ga teng bo‘lgan vaziyatda iste’mol darajasi (musbat kattalik);

J - iste’molga bo‘lgan chekli moyillik.

U past foiz me’yori orqali yuqori foyda olishni ta’minlaydi, tadbirkorlarda optimistik kayfiyatni kuchaytiradi, ularning sarmoya solishga bo‘lgan moyiligini qo‘llab-quvatlaydi va yuksalish holatini ushlab turadi, deb hisobladi.

Zamonaviy keynschilar soliqlar, davlat xarajatlari, budjet kamomadi, davlat qarzi davlat yo‘li bilan boshqarishning asosiy vositalari, deb hisoblaydilar. Ularning ta’kidlashicha, sanoat yuksalishi davrida daromadlar ortgan sari soliq tushumlari ham ko‘payib boradi.

Bu esa ortiqcha talab va ortiqcha ishlab chiqarishning paydo bo‘lishiga to‘sqinlik qiladi. Inqirozning boshlanishi ishsizlikning ortib borishi davlat budjetidan ishsizlik bo‘yicha nafaqa to‘lovlarining ortib borishiga olib keladi. Bu esa to‘lovga qobiliyatli talabning kamayishiga qarshilik qiladi. Shuning uchun ular tomonidan moliyaviy kompensatsiya o‘rnini qoplash siyosati va kamomadli moliyaviy ta’minlash nazariyalari olg‘a surilmoqda.

Iqtisodiy siyosat uch darajada bo‘ladi, ular: mikro, makro va mega (xalqaro) siyosatdir.



2.1-rasm. Iqtisodiy siyosat darajasi

Tayanch iboralar: merkantilizm, fiziokratlar, klassiklar, ijobiy savdo balansi, marjinalizm, tabiiy jarayonlar, davlat iqtisodiy siyosati, soliqlar, davlat xarajatlari, budjet kamomadi, davlat qarzi, ishlab chiqarish asosligi, ko‘rinmas qo‘l, mehnat qiymat nazariyasi, iqtisodiy liberalism, yalpi taklif-yalpi talab muvozanati, keynschilik nazariyasi, makroiqtisodiy tartibga solish, samarali talab nazariyasi, asosiy psixologik qonun, Keyns formulalari, milliy daromad tenglamasi, iste’mol funksiyasi, chekli moyillik koyeffitsiyentlari.

Nazorat takrorlash uchun savollar

1 Davlat iqtisodiy siyosatini iqtisodiy konsepsiyalar asosida shakllantiirishni asoslab bering.

2 Davlat iqtisodiy siyosatida Keyns konsepsiyasi, Keyns nazariyasining moxiyati va iqtisodiyotni boshqarish usullarini asoslab bering

3 Nechinchi yillarda jahon iqtisodiy inqirozidan so‘ng keynschilik nazariyasi fanda yangi oqim sifatida yuzaga kelgan edi?

4 Nechinchi yillardagi iqtisodiy inqiroz omillari bo‘lgan?

5 Merkantilizm nazariyasining asosiy g‘oyasi nimada?

6 A.Monkreten va J.Kolberning davlat iqtisodiy siyosatiga qo‘shgan hissalarini tushuntiring.

7 Merkantilizmda proteksionizm siyosatining mohiyati qanday?

8 Nima uchun merkantilistlar oltinni chiqib ketishiga qarshi bo‘lgan?

9 Merkantilizmda savdo balansining ijobiy bo‘lishi nima uchun muhim?

10 Fiziokratlar qishloq xo‘jaligini nima uchun asosiy boylik manbai deb hisoblagan?

11 U.Petti va F.Kenening asosiy g‘oyalarini bayon qiling.

12 Fiziokratlar davlatning qanday funksiyasini muhim deb hisoblagan?

13 Fiziokratlar konsepsiyasi qaysi davrda yaratilgan va buning sababi nima?

14 Fiziokratlar nazariyasida tabiiy jarayonlarning roli qanday?

15 A.Smit va D.Rikardonning davlat iqtisodiy siyosatiga qarashi qanday?

16 “Ko‘rinmas qo‘l” nazariyasining mohiyatini tushuntiring.

17 Klassik maktab “boylikning onasi yer, otasi mehnat” xulosasiga qanday kelgan?

18 Klassik maktabda mehnat qiymat nazariyasining ahamiyati nima?

19 J.B.Sey qonunining mohiyati va kamchiliklari qanday?

III BOB. IQTISODIY SIYOSATNI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISH MEXANIZMLARI

3.1. Iqtisodiy siyosatni davlat tomonidan tartibga solishning moxiyati, zaruriyati, maqsadi va vazifalari.

3.2. Davlatning iqtisodiyotni tartibga solishga qaratilgan usullari, vositalari (mexanizmlari).

3.3 Iqtisodiy siyosatni davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlari asosida jadal iqtisodiy taraqqiyot yo‘nalishlari.

3.1. Iqtisodiy siyosatni davlat tomonidan tartibga solish moxiyati va zaruriyati

Iqtisodiy siyosatni davlat tomonidan tartibga solish bu davlat tomonidan jamiyat azolari ehtiyojini qondirish darajasini oshirish uchun cheklangan ishlab chiqarish resurslarini yanada samarali foydalanishni taminlovchi iqtisodiy barqarorlikka erishishga yunaltirilgan jarayonni tashkil etish buyicha faoliyat.

Iqtisodiy siyosatni davlat tomonidan tartibga solish zaruriyati quyidagilardan iborat:

1 Davlat bozor iqtisodiyoting amalga oshirib bulmaydigan vazifalarini bajarish zaruriyati;

2. Davlat xususiy mulk egalari, va boshqa gurux xohishiga qarshi jamiyatning manfaalarini ximoya qilish zaruriyati;

3. Davlat foydali istemolni kengaytirish va aksincha sogliqqa zarar keltiruchi istemolni cheklash;

4 Izchil iqtisodiy o‘sishni ragbatlantirish zaruriyati;

5. Aloxida olingan mamlakat iqtisodiyotini aniq maqsad sari yunaltirish;

6. Iqtisodiyotni samarali boshqarishni tashkil etish;

7. Mamlakat iqtisodiyotini shakllantirish asosida takror ishlab chiqarish jarayonini tizimli tashkil etish iqtisodiy rivojlanish va - iqtisodiy o‘sishga erishishni ta’minlash;

8. Davlat boshqaruv resurslari orqali iqtisodiyotni tartibga solish;

9. Mamlakatni turli iqtisodiy moliyaviy inqirozlardan saqlash;

10. Mamlakatda ishlab chiqarish hajmi va resurslarni to‘g‘ri taqsimlash asosida bozor muvozanatiga erishish;

11. Aloxida olingan mamlakatda izchil barqaror iqtisodiy samaradorlikga erishish.

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning maqsad va vazifalari. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning obyektiv asosi – milliy va xalqaro miqyosda ijtimoiy mehnat taqsimotining rivojlanishi hamda ishlab chiqarish (yoki noishlab chiqarish)ning umumlashuvi jarayonidir.

Mazkur jarayon quydagilardan nomoyon bo‘ladi:

- Chuqurlashayotgan ijtimoiy mehnat taqsimoti natijasida ishlab chiqarishning ixtisoslashgan tarmoqlari o‘rtasidagi aloqalar va bog‘liqlik yanada mustahkamlanadi;
- Ishlab chiqarishning markazlashuvi va kooperatsiyasi tufayli alohida xo‘jalik birliklarining kichik bo‘laklarga ajralib ketishi oldi olinadi;
- Ishlab chiqarish jarayoni yirik korxonalarda to‘planishi kuchayadi;
- Turli iqtisodiy mintaqalar o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalar va faoliyat almashinuvi tezlashadi;

Bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish qo‘yidagi tizimlardan: Qonunchilik, Ijro etish, Nazorat etish xususiyatidagi tadbirlar tizimidan iborat bo‘ladi.

Iqtisodiy siyosatni amalga oshirishda davlat tomonidan iqtisodiyotni tartibga solish bir qator muhim vazifalarni bajarishni nazarda tutadi. Ularga quyidagilar kiradi:

- Iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirish;
- Bandlikni tartibga solish;
- Tarmoqlar va mintaqaviy tuzilmalardagi ijobiy o‘zgarishlarni qo‘llab-quvvatlash;
- Yeksportni himoya qilish.

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishni asosiy maqsadi iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni taminlash, mavjud tuzumni

mamlakat ichida va xalqaro maydonda mustaxkamlash va uni o‘zgartirib turuvchi sharoitga moslashtirish.

Asosiy maqsaddan bir qator aniq maqsadlar kelib chiqadi. Ular quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- Iqtisodiy siklni barqarorlashtirish;
- Milliy xo‘jaliklarning tarmoq va mintaqaviy tuzilishini takomillashtirish;
- Atrof-muhit holatini yaxshilash va boshqa maqsadlar.

Davlat tomonidan iqtisodiyotni tartibga solishning maqsadi uning bajaradigan vazifalarida yaqqol namoyon bo‘ladi.

Davlatning iqtisodiyotni tartibga solish vazifalari quyidagi ikki turga ajratiladi.

1 Bozor tizimining samarali amal qilishiga imkon yaratuvchi huquqiy asos va ijtimoiy muhitni ta’minlash.

2 Raqobatni himoya qilish

Davlat iqtisodiyotni tartibga solishdagi umumiy tamoyillar asosida quyidagi vazifalarni bajaradi:

1. Daromad adolatli qayta taqsimlash;
2. Resurslarning samarali qayta taqsimlanishini ta’minlash;
3. Iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash – ya’ni inflyatsiya va bandlik darajasini nazorat qilish hamda iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirish.

Shu bilan birga iqtisodiyotda raqobat o‘rnini monopoliya egallasa u holda bozorda subyektiv tasir bo‘lib, sotuvchilar narxlarni o‘z manfaatlarini ko‘zlab o‘zgartirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bunday sharoitda davlat monaopoliyalar ustidan ikki usulda nazorat o‘rnatadi.

1-usulda - davlat tabiiy monopoliya narxlarini tartibga soladi.

2-usulda - davlat raqobatni kuchaytirish va himoya qilish maqsadida monopoliyalarga qarshi qonunlar qabul qilinadi hamda ular hukmronlik qilayotgan bozorlada, monopoliya faoliyatini cheklaydi.

Respublikamizda ham monopoliya faoliyatini cheklash raqobatni rivojlantirishga qaratilgan qator qonunlar qabul qilingan.

Bozor iqtisodiyot qonunlariga ko‘ra bozor iqtisodiyoti kishilarning tabiy qobiliyati orttirilgan bilimi, malakasi, mulkga

egaligini hisobga olib yuqori daromad olishni ta'minlaydi. Ayni paytda kishilarning boshqa toifasi bilim malaka layoqati past bo'lgan azolari, nogironlar ishsizlar moddiy vositaga ega bo'lmaganlar umumiy daromadga ega bo'lmaydi va iqtisodiyotda qiyinchiliklarga duch keladi. Yani boshqacha aytilganda bozor iqtisodiyoti pul daromadlari va milliy mahsulotni jamiyat azolari o'rtasida taqsimlashda bir muncha tengsizlikni keltirib chiqaradi. Bunday holatda davlat o'z zimmasiga yana bir vazifani daromadlar tengsizligini kamaytirish vazifasini o'ziga oladi.

Mazkur vazifa bir qator tadbir dasturlarda o'z ifodasini topadi. Birinchidan, ishsizlarni ishsizlik nafaqalar bilan, transfert to'lovlariga muhtojlarni nogironlarni nafaqalar bilan ta'minlaydi,ijtimoiy taminot dasturlari orqali pensionerlar qariyalarga yordam ko'rsatiladi

Ikkinchidan, davlat bozorni tartibga solish yo'li bilan yani talab va taklif tasirida o'rnatiladigan narxlarni o'zgartirish yo'li bilan daromadlarning taqsimlanishiga ta'sir ko'rsatadi.

Shuningdek davlat meyoridagi oziq ovqat tovarlariga o'rnatiladigan imtiyozli narxlar, ish haqining eng kam darajasi haqidagagi qonunchilik va boshqalar.

Bunda davlat byudjeti mablag'larini jamiyatning kam daromad olgan yoki umuman daromadha ega bo'lmagan azolari hisobiga qayta taqsimlaydi. Shu bilan birga qayta taqsimlashda soliq imtiyozlari belgilash tizimida ham foydalaniladi.

Iqtisodiyotni barqarorlashtirish davlatning eng muhim vazifalaridan biri bo'lib, u barcha sohalarni zarur resurslar bilan ta'minlash, to'la bandlikni saqlash, narxlarning barqarorligini ta'minlash hamda iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishni o'z ichiga oladi.

Iqtisodiyotda to'la bandligini ta'minlash uchun davlat umumiy sarflarni hamda ijtimoiy ne'matlar va xizmatlarga o'z sarflarini ko'paytiradi. Xususiy sektor sarflarini rag'batlantirish maqsadida soliqlarni qisqartiradi va natijada soliq obyektlari ko'payib, davlat byudjetini daromad qismi miqdori oshadi.

Iqtisodiyotda ishsizlik mavjud bo'lganda davlat sarflarning ko'payishi jami sarflar, ishlab chiqarish hajmi va bandlikni o'sishiga

olib keladi. Bunday holatda soliqlarning qisqarishi va transfert (pul o‘tkazmalari) to‘lovlarining ko‘payishi daromadlarni oshiradi. Davlatning o‘zi ishlab chiqarishni moliyalashtirishdan tashqari ijtimoiy sug‘urta va ijtimoiy taminotning bir qator dasturlarini amalga oshiradi, iqtisodiyotning hususiy va koperativ sektorida daromadlar qayta taqsimlanadi va shu yo‘l bilan davlat tartibga soluvchi hususiyatlarga ega bo‘lgan vaziyatlarni amalga oshiradi. Bularga yana atrof muhitni himoya qilish, aholi sog‘lig‘ini saqlash, yangi ish o‘rinlarini yaratilishini kiritish mumkin.

Davlatning Iqtisodiy siyosatini belgilashda iqtisodiyotga ta’sir qilish usullari va vositalari.

Iqtisodiy siyostini belgilashda davlat milliy iqtisodiyotni tartibga solish bo‘yicha bir qator usullardan foydalanadi.

Bu usullarni umumlashtirib ularni qo‘yidagi guruxlarga ajratish mumkun:

-Bevosita tasir qilish usullar

-Bilvosita tasir qilish usullar

-Tashqi iqtisodiy usullar

Bevosita usullsar –iqtisodiyotni tartibga solishning taqiqlash, ruxsat berish, majbur qilish tavsifidagi mamuriy vositalar xisoblanadi.

- Davlat iqtisodiytning aerim bugunlarini bevosita tasir qiladi,boshqaradi.
- Narxlar va ish xaqini “muzlatib “quyish.
- Ish bilan bandlik xizmani(mexnat birjasi)faoliyatini tashkil etish.
- Iqtisodiy soxani kuzda tutuvchi qonunlarni ishlab chiqish.
- Ishlab chiqarish vositalari egalariga pul yoki qimmatli qog‘ozlar bilan tovon to‘lash orqali mulkni milliylashtirish.
- Davlat byudjeti mablag‘lari hisobiga yangi subyektlar korxonalar va yaxlit tarmoqlarni barpo etish.
- Davlat tomonidan hususiy korporatsiyalarni aksiyalarini sotib olish va aralash davlat hususiy korxonalarini tashkil etish.

Iqtisodiyotni bilvosita tartibga solishda-iqtisodiy dastak va vositalarga ustunlik beradi.

- Bu usulning eng asosiy dastagi soliqlar xisoblanadi
- Bu asaosan davlatning pul kredit va byudjet siyosatida o‘z ifodasini topadi.
- Pul kredit siyosatining asosiy iqtisodiy vositalari qo‘yidagilar hisoblanadi.
- Hisob stavkasini tartibga solish
- Moliya kredit vositalarining markaziy bankdagi zaxiralari minimal hajmini o‘rnatish va o‘zgartirish
- Davlat muassasalarining qimmatli qog‘ozlar bozoridagi operatsiyalar
- Davlat oblegatsiyalarini chiqarish va sotish va hakozo
- Bunday vositalar orqali davlat kreditga bo‘lgan talab va taklifni markaziy bank orqali qo‘yidagicha o‘zgartiradi.
- Bunda, davlat markaziy bank ehtiyojlari orqali banklar mablag‘larini qarzga beriladigan va zaxirada turadigan qismini o‘zgartiradi.

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish tashqi iqtisodiy usullar yordamida amalga oshiriladi.

- Bunda maxsus vosita va dastaklar orqali mamalakatning tashqi dunyo bilan amalga oshiriladigan aloqalari kuchaytirish.
- Ushbu iqtisodiy usullar jumlasiga eksportni rag‘batlantirish tadbirlari, eksportni kreditlash chet ellarda investitsiyalar,eksport kreditlarini kafolatlash,
- mamlakat iqtisodiyotiga chet el kapitalini jalb qilsh,
- xalqaro iqtisodiyot faoliyatida mamlakatning qatnashish va boshqalar.

Davlatning iqtisodiy siyosatini belgilashda ma’muriy boshqaruv markazlashdan boshqarish ustun bo‘lgan mamalakatlarda iqtisodiyotga bevosita tasir qilish usuli yuqori bo‘ladi. Bunday mamalakatlar iqtisodiyotida davlat sektori ulushi yuqori bo‘lib, ular quyidagi yo‘llar orqali shakillanadi.

1. Ishlab chiqarish vositalari egalari uchun pul yoki qimmatli qog‘ozlar shaklida tovon to‘lab, mulkni milliylashtirish.

2. Davlat byudjeti mablag‘lari hisobidan yangi korxonalar, subyektlar va butun tarmoqlarni barpo etish.

3. Xususiy korporatsiyalarning aksiyalarini davlat tomonidan sotib olib, davlat va xususiy sektor hamkorligida korxonalarni tashkil etish.

Hozirgi payta so‘ngi uchinchi yo‘l ustun rivojlanmoqda.

Markazlashgan davlatlarda davlat xilma xil kapitalga egalik qiladi kreditlar beradi va mulkdor hisoblanadi, natijada davlat ijtimoiy kapitalning bir qismiga ham egalik qiladi.

Davlat iqtisodiyotni bevosita tartibga solishda ma’muriy vositalardan foydalanadi. Bunda ma’muriy vositalar orqali davlat hokimyat kuchiga tayanadi ruhsat berish, majbur qilish, taqiqlash majburiyatlarini o‘z ichiga oladi.

Ishlab chiqarish tanazzulga uchragan davrda davlat mamuriy vositalardan foydalanishga ustunlik beradi.

Bular:

1 Iqtisodiyotning muhum bo‘g‘inlari transport aloqa atom va elektir energiya kammunal xizmat kabi soxalarni bevosita boshqaradi. Bunda davlat mulk egasi sifatida davlat tadbirkorligini amalga oshiradi.

2 Narxlar va ish haqida muzlatib qo‘yish siyosati. Bunday holatda davlat infilatsiyani yumshatishga harakat qilib infilatsiyaga qarshi tadbirlarni amalga oshiradi. Bunday holatda davlat iqtisodiy siyosati narxlar, ish haqini oshirishni qonun bilan taqiqlaydi. Hamda infilatsiya darajasini pasayishiga harakat qilgan investorlarni rag‘batlantiradi.

3. Ish bilan bandlik xizmati (mehnat birjalarining faoliyatini tashkil etish) – davlat tomonidan tashkil etilib, ishsizlikni kamaytirishga qaratilgan faoliyatdir. Davlat ishsizlarni zarur kasblarga qayta tayyorlash, ish bilan ta’minlanmaganlarga nafaqa to‘lash va muhtojlarga ijtimoiy yordam ko‘rsatish orqali ushbu vazifani amalga oshiradi. Shuningdek, iqtisodiy sohani tartibga solishni ta’minlovchi qonunlarni ishlab chiqish va qabul qilish davlatning muhim funksiyalaridan biridir.

4 Iqtisodiy soxani tartibga solishni ko‘zda tutuvchi qonunlarni ishlab chiqish va qabul qilish. Bunday qonunlar jumlasiga

manapoliyaga qarshi qonunchilik, tadbirkorlik to‘g‘risida bank soxasidagi vahakazo qonunlar kiradi.

Davlatning bozor munosabatlarini rivojlantirishni qonun yo‘li bilan kafolotlab monopoliyaga yo‘l bermaydi, erkin raqobatga sharoit yaratadi.

Iqtisodiyotni bilvosita tartibga solishda iqtisodiy dastak va vositalarga ustunlik beradi. Odatda bunday davlatlar parlamentga asoslangan bozor iqtisodiyoti yuqori darajada rivojlanga davlatlar hisoblanadi. Iqtisodiyotni bilvosita tartibga solishda iqtisodiy dastak va vositalarga ustunlik beradi. Ularning iqtisodiy dastak vositalari davlatning pul kredit va byudjet siyosatida o‘z ifodasini topadi. Pul - kredit siyosatining asosiy iqtisodiy vositalari qo‘yidagilar hisoblanadi.

-Hisob stavkasini tartibga solish

-Moliya kredit vositalarining markaziy bankdagi zaxiralari minimal hajmini o‘rnatish va o‘zgartirish

-Davlat muassasalarining qimmatli qog‘ozlar bozoridagi operatsiyalar

-Davlat oblegatsiyalarini chiqarish va sotish va hakozo

Bunday vositalar orqali davlat kreditga bo‘lgan talab va taklifni markaziy bank orqali qo‘yidagicha o‘zgartiradi.

Birinchidan, davlat markaziy bank ehtiyojlari orqali banklar mablag‘larini qarzga beriladigan va zaxirada turadigan qismini o‘zgartiradi.

Ikkinchidan, markaziy bank boshqa banklarga past foiz stavkasida qarz berib ularni kreditlash ishida faol qatnashtirib, iqtisodiy o‘sishiga tasir qilishini taminlaydi.

Uchinchidan, davlat markaziy bank orqali xazina majburiyatini tarqatadi, o‘z oblegatsiyalar sotadi yoki qimmatli qog‘ozlarni sotib oladi, natijada davlat monetar iqtisodiy siyosatini yurg‘izadi.

3.2. Davlatning iqtisodiyotni tartibga solishga qaratilgan usullari, vositalari (mexanizmlari)

Mexanizm tushunchasi asosan iqtisodiy fanlarda “iqtisodiy mexanizm” sifatida yondashilib, “moliyaviy mexanizm”, “boshqaruv

mexanizmi", "tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlar"ni farqlash zarur. Shunday ekan, iqtisodiy mexanizmning iqtisodiy mohiyati iqtisodiy siyosatda davlat tomonidan tartibga solish bo'yicha iqtisodiy munosabatlarning o'zoro bo'g'liq shakl, vosita va metotlar tizimining majmuasidir.

Davlatning budjet siyosati uning daromadlar va harajatlar qismi o'zgartirishga qaratilgan. Davlat harajatlarini qoplash uchun moliyaviy mablaglarni jalb qilishning eng asosiy dastagi soliqlar hisoblanadi. Soliqlar yordamida davlat tomonidan iqtisodiyotni ijtimoiy barqarorligini ta'minlaydi. Shu bilan birga davlat iqtisodiyotni tartibga solishning muhim vositasi sifatida byudjet harajatlaridan ham foydalanadi. Bular jumlasiga davlat kreditlari subsidiyalari , kafolatlari misol bo'ladi.

Iqtisodiyotni tartibga solishda kapital qo'yilmalari ham muhum rol o'ynaydi. Iqtisodiyotni tartibga solishda kapital qo'yilmalari ham muhum rol o'ynaydi Iqtisodiyotning davlat tomonidan tartibga solishning bir qator shakllari ham mavjud bo'lib ular quyidagilardan iborat.

1 Davlat iqtisodiyot dasturlarini ishlab chiqarishi ilmiy tadqiqot va tajriba konstroktorlik ishlanmalarini davlat tomonidan rag'batlantirish

2 Investitsiya jarayoni va iqtisodiy o'sishni davlat tomonidan tartibga solish ishchi kuchi bozoriga davlat tomonidan ta'sir ko'rsatish

3 Qishloq xo'jaligini davlat tomonidan tartibga solish.

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish tashqi iqtisodiy usullar yordamida amalga oshiriladi. Bunda maxsus vosita va dastaklar orqali mamalakatning xorijiy mamlakatlar bilan amalga oshiriladigan aloqalari kuchayadi. Ushbu iqtisodiy usullar jumlasiga eksportni rag'batlantirish tadbirlari, eksportni kreditlash, xorijiy investitsiyalarni kafolatlash, mamlakat iqtisodiyotiga chet el kapitalini jalb qilish, xalqaro iqtisodiyot aloqalarga faol qatnashish va boshqalar kiradi.

Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish maqsadlarining murakkabligi va ular orasidagi qarama-qarshiliklar, shuningdek, bu maqsadlarning ijobiy yoki salbiy natijalarga olib kelishi ehtimoli, tartibga soluvchi davlat

organlarini o‘z maqsadlarini alohida emas, balki bir-biri bilan uzviy bog‘liq holda, ularning o‘zaro ta’sirini hisobga olgan holda belgilashga majbur qiladi.

Iqtisodiyotni tartibga solish sohasida davlat organlari oldida bir qator maqsadlar turadi, ulardan eng asosiylari quyidagilardan iborat:

- iqtisodiy o‘sishni ta’minlash;
- mehnatga layoqatli aholi ish bilan bandligining yuqori darajasini ta’minlash;
- narxlar barqarorligi hamda pul muomalasi barqarorligini ta’minlash;
- tashqi iqtisodiy muvozanatni saqlash.

Davlat tomonidan iqtisodiyotni tartibga solishning asosiy umumiy maqsadi – milliy iqtisodiyotda iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash, mavjud iqtisodiy tizimni yanada rivojlantirish hamda tezkor va samarali tarzda o‘zgaruvchan ichki va tashqi sharoitlarga moslashish va adaptatsiyani ta’minlashdan iboratdir.

Mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta’minlash hamda iqtisodiyotni davlat tomonidan samarali tartibga solish zamonaviy iqtisodiy tizimlarning muhim va ajralmas belgisidir. Shu munosabat bilan, dunyo bo‘yicha, xususan rivojlangan mamlakatlarda davlatning iqtisodiyot sohalariga faol va tizimli aralashuvi doimiy ravishda kuchayib bormoqda.

Davlatning iqtisodiyotga ta’siri asosan bozor mexanizmi tomonidan yetarli yoki samarali tartibga solib bo‘lmaydigan, ijtimoiy takror ishlab chiqarish jarayonlari, munosabatlari va sharoitlarida yuzaga keladigan muammolar va ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan.

Davlat ta’sir etuvchi va tartibga soluvchi obektlar ularning darajalariga ko‘ra quyidagilardan iborat:

- Umumxo‘jalik jarayonlari, jumladan iqtisodiy sikl, pul muomalasi, bandlik darajasi, investitsiyalar, ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlari (ITTKI), shuningdek narxlar darajasi;
- Iqtisodiyotning yirik sohalari: sanoat, qishloq xo‘jaligi, qurilish, infratuzilmalar va moliya sektori;
- Tarmoqlar va yirik korporatsiyalar;

- Keng ko‘lamli xo‘jalik komplekslari va ularning hududiy birliklari.

Ushbu siyosat doirasida iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish chora-tadbirlari iqtisodiy inqiroz va turg‘unlik davrlarida davlat tomonidan tovar va xizmatlarga bo‘lgan talabni oshirish, kapital qo‘yilmalar hamda bandlikni rag‘batlantirish, shuningdek, tovar va xizmatlar eksporti, xorijiy kapital kirib kelishi va turistlar oqimini ko‘paytirishga qaratiladi. Iqtisodiy o‘sish bosqichida esa davlat iqtisodiyotning o‘sishni me’yorlashtirish uchun choralar ko‘radi. Bunday maqsadlarda xususiy kapital uchun qo‘shimcha moliyaviy rag‘batlar yaratiladi, davlat xarajatlari oshiriladi, foiz stavkalari esa tartibga solinadi.

Iqtisodiy siklni tartibga solishning asosiy vazifalari qatoriga iqtisodiyotning tarmoq va hududiy tuzilishini takomillashtirish, kapital jamg‘arish, aholi ish bilan bandligini ta’minlash, to‘lov balansining holatini yaxshilash, inflatsiya va narxlarning barqarorligini ta’minlash kabi masalalar kiradi.

Davlat tomonidan iqtisodiy siklni tartibga solish esa moliyaviy rag‘batlar yaratish va davlat kapital qo‘yilmalari orqali iqtisodiyot hamda ijtimoiy ishlab chiqarishning tarkibiy tuzilishini boshqarish orqali amalga oshiriladi.

Bundan tashqari, fan va texnika taraqqiyoti natijasida shakllanayotgan yangi tarmoqlar va ishlab chiqarish yo‘nalishlari, shuningdek, iqtisodiyotda va tarmoq ichidagi zamonaviy tarkibiy o‘zgarishlar, ularning samaradorligi va raqobatbardoshligini oshirish jarayonlari davlat tomonidan faol qo‘llab-quvvatlanadi. Shu bilan birga, ayrim hududlarda ishlab chiqarishning haddan tashqari markazlashuvi va konsentratsiyalashuvining oldini olish maqsadida muvozanatli rivojlanishni ta’minlaydigan tartibga solish chora-tadbirlari amalga oshiriladi.

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish jarayonida kapital jamg‘arish muhim strategik elementlardan biri sifatida e’tirof etiladi. U investitsion faollikni oshirish, ishlab chiqarish salohiyatini kengaytirish

hamda iqtisodiy o‘sishning barqarorligini ta’minlashda asosiy omillardan biri bo‘lib xizmat qiladi.

Ma’lumki, bozor iqtisodiyoti sharoitida xo‘jalik yuritishning asosiy rag‘batlantiruvchi kuchi — foyda olish, uni o‘zlashtirish hamda kapitalga aylantirishdir. Shu sababli, davlatning iqtisodiy siyosati, avvalo, jamg‘arish jarayonini rag‘batlantirishga yo‘naltiriladi. Bu yondashuv xo‘jalik subektlarining manfaatlariga uyg‘un bo‘lib, ularning investitsiyaviy faolligini oshirishga xizmat qiladi.

Davlat boshqaruv institutlari iqtisodiy siklning turli bosqichlari hamda iqtisodiyotning tarkibiy tuzilmasiga ta’sir ko‘rsatish maqsadida investorlar va ularning muayyan toifalari uchun qo‘shimcha imtiyozlar, soliq yengilliklari yoki moliyaviy ko‘mak mexanizmlarini joriy etadi. Bu esa kapital oqimining strategik yo‘nalishlarga yo‘naltirilishini ta’minlaydi.

Aholining bandligini tartibga solish — bu mehnat bozorida ishchi kuchiga bo‘lgan talab va taklif o‘rtasida optimal muvozanatni shakllantirish hamda uni uzoq muddat davomida barqaror ushlab turish jarayonidir. Ushbu jarayonning asosiy maqsadi — iqtisodiyotning real ehtiyojlariga mos ravishda yuqori malakali, mehnat intizomiga ega va kasbiy jihatdan moslashuvchan ishchi kuchi bilan ta’minlashdan iborat.

Ish haqlari darajasi, eng avvalo, mehnatga bo‘lgan motivatsiyani kuchaytirishi, ya’ni ishchi kuchining yuqori samaradorlik bilan faoliyat yuritishiga turtki bo‘lishi lozim. Shu bilan birga, mehnat bozori sharoitida ishchi kuchiga bo‘lgan talab va taklif o‘rtasidagi nisbat mehnatga haq to‘lash tizimining muvozanatli bo‘lishini ta’minlashi zarur. Aks holda, ish haqlarining me’yoridan ortiq darajada ko‘tarilishi ishlab chiqarish tannarxining o‘sishiga olib kelib, milliy xo‘jalikning raqobatbardoshligini zaiflashtiradi.

Bundan tashqari, ish bilan bandlik darajasining keskin pasayishi ham ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikka jiddiy tahdid tug‘diradi. Ishtirokchilar sonining kamayishi natijasida ichki iste’mol bozori torayadi, budjetga soliq tushumlari kamayadi, ishsizlik darajasi ortadi va natijada davlat tomonidan ishsizlarga mo‘ljallangan

kompensatsiyalar, nafaqa to‘lovlari va ijtimoiy yordam uchun xarajatlar sezilarli darajada ko‘payadi.

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish jarayonida muhim strategik obektlardan biri bu — pul muomalasidir. Pul muomalasi ustidan nazorat va uni tartibga solish davlatning makroiqtisodiy siyosatining markaziy yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, asosan inflyatsiyaga qarshi kurashish, narxlar barqarorligini ta’minlash va pul-kredit tizimini sog‘lomlashtirishga qaratilgan.

To‘lov balansining holati va uning ijobiy saldosiga erishish ham davlatning iqtisodiyotni tartibga solishiga bog‘liq. Shu boisdan bozor iqtisodiyotiga ega bo‘lgan barcha mamlakatlarda davlat to‘lov balansini operativ va strategik tartibga solish bilan shug‘ullanadi. Bunda davlat eksport va importga, kapital harakatiga, milliy valuta kursining ko‘tarilishi va tushishiga ta’sir etish hamda savdo-shartnoma siyosati va xalqaro iqtisodiy integratsiyalar, tashkilotlarda ishtirok etish orqali mamlakat to‘lov balansini tartibga soladi. Davlat narxlarni to‘g‘ridan to‘g‘ri va bilvosita tartibga soladi.

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishda muhim obyektlardan biri sifatida pul muomalasi ajralmas o‘rin tutadi. Pul muomalasini boshqarishning asosiy maqsadi inflatsiyaning oldini olish va unga qarshi samarali kurash olib borishdan iborat. Davlat pul muomalasini tartibga solish orqali to‘g‘ridan-to‘g‘ri emas, balki bilvosita yo‘llar bilan jamg‘arish sharoitlariga, narxlar barqarorligiga hamda ijtimoiy munosabatlarning uyg‘unlashuviga ta’sir ko‘rsatadi.

To‘lov balansining holati va uning ijobiy saldosiga erishish davlatning iqtisodiyotni tartibga solish faoliyatiga bevosita bog‘liq. Shu sababli, bozor iqtisodiyotiga ega barcha mamlakatlarda davlat to‘lov balansini operativ hamda strategik jihatdan boshqarishni amalga oshiradi. Bu jarayonda eksport va import operatsiyalari, kapital oqimlari, milliy valyuta kursining o‘zgarishlari ustidan nazorat olib boriladi. Shuningdek, davlat savdo-shartnoma siyosatini belgilab, xalqaro iqtisodiy integratsiyalar va tashkilotlarda ishtirok etish orqali mamlakat to‘lov balansini samarali tartibga soladi. Narxlar esa davlat tomonidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri va bilvosita usullar orqali boshqariladi.

Narxlarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri tartibga solishda davlat ayniqsa tabiiy monopoliya mahsulotlari va muhim tarmoqlar uchun yuqori narx chegaralarini belgilaydi. Bilvosita tartibga solishda esa mahsulot tannarxiga kiritiladigan soliqlar hamda aksiz yig‘imlari orqali nazorat amalga oshiriladi. Bundan tashqari, davlat xususiy korxonalarni ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirishga va uning natijalarini ishlab chiqarishda qo‘llashga, shuningdek, tovarlar, kapital hamda to‘plangan bilim va tajribalarni xalqaro bozorlarga eksport qilishga rag‘batlantiradi.

Davlat iqtisodiy jarayonlarni tartibga solishda xalqaro tajriba va amaliyotda sinovdan o‘tgan quyidagi chora-tadbirlar — dastaklardan foydalanadi:

- Iqtisodiy prognozlashtirish: iqtisodiyot va uning tarkibiy sohalarining kelajakdagi holatini oldindan aniqlash va istiqbolini belgilash;
- Mamlakat iqtisodiyoti rivojlanishining indikativ rejasini ishlab chiqish;
- Davlat organlari bo‘yicha aniq manzilli rejalarni yaratish va ularni amalga oshirish;
- Xo‘jalik subyektlariga iqtisodiy dastaklar (richaglari) orqali bilvosita ta’sir ko‘rsatish;
- Mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining ustuvor vazifalarini hal etishga qaratilgan maqsadli dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish. (3.1.-rasm).

Davlat mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini tartibga solishda turli hujjatlar ishlab chiqadi. Bu hujjatlarning asosini iqtisodiy prognozlar tashkil qiladi. Iqtisodiy prognozlar mamlakatning rivojlanish maqsadlarini belgilash, ularni amalga oshirish uchun strategiya va taktika ishlab chiqish hamda indikativ rejalar tayyorlashda poydevor vazifasini o‘taydi. Shuningdek, iqtisodiyotni tartibga solish jarayonida muhim hujjatlardan biri — iqtisodiy rivojlanishni dasturlash hisoblanadi.

Davlat iqtisodiyotni tartibga solishda maxsus iqtisodiy dasturlardan foydalanadi. Bu dasturlar bozor munosabatlari asosida

amalga oshirilayotgan iqtisodiy jarayonlarga davlatning bevosita aralashuvi hisoblanadi. Ular butun mamlakat iqtisodiyotini yoki uning ayrim sohalari – tarmoqlar, hududlar, ko‘p tarmoqli komplekslar rivojlanishini rejalashtirish va boshqarishga xizmat qiladi.

Davlat tomonidan iqtisodiyotni tartibga solish mexanizmi – bu mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga maqsadli ta’sir ko‘rsatish vositalari majmuasidir. Mazkur mexanizm quyidagi asosiy yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi:

- **Cheklangan ishlab chiqarish resurslarini samarali boshqarish**, ya’ni mavjud resurslardan oqilona va maqsadli foydalanish orqali iqtisodiy samaradorlikni ta’minlash;
- **Soliq tizimi orqali tartibga solish**, bunda davlat iqtisodiy subektlar faoliyatiga soliq stavkalari, imtiyozlar va rag‘batlar orqali ta’sir ko‘rsatadi;
- **Monetar (pul-kredit) vositalari yordamida iqtisodiy jarayonlarni boshqarish**, jumladan, pul massasi, foiz stavkalari, inflyatsiya va kredit hajmlarini nazorat qilish orqali makroiqtisodiy muvozanatni saqlash.

Cheklangan ishlab chiqarish resruslarini boshqarish deganda davlat o‘ziga qarashli tabiiy, mehnat, ishlab chiqarish, kapital, investitsion resurslarni to‘g‘ridan to‘g‘ri taqsimlash orqali iqtisodiy tizimdagi muvozanatni saqlashga, yangi nisbatlar va mutanosibliklarni vujudga keltirishga intiladi. Ammo ba’zi hollarda cheklangan iqtisodiy resurslarning davlat tomonidan to‘g‘ridan to‘g‘ri taqsimlanishi iqtisodiy tizimdagi muvozanat va mutanosiblikning buzilishiga ham olib keladi.

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish vositalariga – chyeklangan ishlab chiqarish resurslarini boshqarish, soliqlar va soliqqa tortish va monetar usullar kiradi

Iqtisodiyotni soliqlar vositasida tartibga solish xo‘jalik subektlarini mamlakat iqtisodiy rivojlanishini ta’minlashga yo‘naltiruvchi va rag‘batlantiruvchi soliq stavkalari hamda tariflarni belgilash orqali amalga oshiriladi.

Soliqqa tortish obektlari, soliq stavkalarini belgilash bilan bir qatorda imtiyozlar tizimi ham joriy etiladi. Soliq imtiyozlarini joriy

etish davlatning iqtisodiy jarayonlarga ta’sir etish vositalaridan biri hisoblanadi.

Monetar usullar yordamida davlatning iqtisodiyotga ta’siri moliyaviy instrumentlar orqali amalga oshiriladi. Bu mexanizm quyidagi asosiy vositalarni o‘z ichiga oladi:

- **Foiz stavkalari** – kreditlar qiymatini tartibga solish orqali iste’mol va investitsiyalarga ta’sir ko‘rsatadi.
- **Davlat qarz instrumentlari (obligatsiyalar, byudjet qarzlari)** – bozor orqali davlat xarajatlarini moliyalashtirish va kapital oqimini boshqarish uchun ishlatiladi.
- **Ochiq bozordagi operatsiyalar** – markaziy bank tomonidan qimmatli qog‘ozlarni sotish yoki sotib olish orqali pul muomalasiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.
- **Pul massasi hajmini nazorat qilish** – inflyatsiya darajasini boshqarish va iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash maqsadida qo‘llaniladi.
- **Valyuta kursini tartibga solish** – tashqi savdo balansini muvozanatga keltirish va milliy valyutaning barqarorligini saqlash uchun zarur.

Bozor iqtisodiyotiga o‘tish sharoitida davlat uchun muhim vazifalardan biri – tartibga solish obyektlari, yo‘nalishlari va usullarini aniq belgilab olish, ularni kompleks muvofiqlashtirilgan tarzda qo‘llash tizimini shakllantirishdir.

3.3. Davlat iqtisodiyotni tartibga solishga qaratilgan yangi strategiyasi siyosatning maqsadi, vazifalari va asosiy yo‘nalishlari

O‘zbekiston institutsional islohotlar natijasida davlat boshqaruvi asosida iqtisodiyotni tartibga solish strategiyasi va siyosati ishlab chiqildi va amalga oshirilmoqda. Davlat iqtisodiy strategiyasi siyosiy maqsadlarni amalga oshirish uchun iqtisodiyotga aralashuv mexanizmlarini va ustuvor yo‘nalishlarni belgilaydi. U uzoq muddatli davrda davlat faoliyatining yo‘nalishi va ishlash prinsiplarini ifodalaydi.

Davlat iqtisodiy siyosati esa belgilangan strategik vazifalardan kelib chiqib, ijtimoiy ishlab chiqarish, daromad va ne’matlarni

taqsimlashni tartibga solishga xizmat qiluvchi joriy davr chora-tadbirlari tizimini tashkil etadi. Soha jihatidan bu siyosat tashqi iqtisodiy, tarkibiy-investitsiyaviy, institutsional, agrar, sanoat, ijtimoiy, narx, moliyaviy, soliq-budjet, pul-kredit va hududiy siyosatlarni o‘z ichiga oladi.

Davlat siyosatining muvaffaqiyati, eng avvalo, jamiyat ehtiyojlarini aniqlash va ularni qondirish imkoniyatlarini to‘g‘ri baholash, shuningdek, mavjud iqtisodiy bilimlar darajasiga asoslangan holda real iqtisodiy vaziyatni aniq belgilashga bog‘liqdir.

Yangi iqtisodiy siyosatning asosiy tamoyillari quyidagicha ifodalanadi:

Iqtisodiy samaradorlik tamoyili – mavjud resurslardan maksimal darajada samarali foydalanish, ya’ni kam xarajatlar evaziga ko‘proq mahsulot ishlab chiqarish yoki mavjud resurslar hisobidan ko‘proq ne’matlar yaratishga erishish.

Ne’matlarning odilona taqsimlash tamoyili. Mamlakat fuqarolari daromadlaridagi tengsizlikni kamaytirish va iqtisodiyot samaradorligiga qo‘shgan hissalariga muvofiq har bir fuqaro daromadlarining ko‘payib borishini ta’minlash.

Barqarorlik tamoyili:

- iqtisodiy o‘sishning barqarorligi;
- inflatsiya o‘sishi sur’atining pastligi;
- ishsizlik darajasining yuqori emasligi.

Davlat tomonidan ishlab chiqilgan yangi iqtisodiy strategiyaning sifat ko‘rsatkichlari quyidagi asosiy indikatorlar orqali aniqlanadi:

1. Iqtisodiy indikatorlar – bu yo‘nalishdagi asosiy xavf belgisi yalpi ichki mahsulot (YAIM) tarkibida ishlab chiqarish uchun mo‘ljallangan investitsiyalar ulushining kamayishi hisoblanadi. Bu holat iqtisodiy xavfsizlikka tahdid soladi va ishlab chiqarish salohiyatining pasayishiga olib kelishi mumkin.

2. Ijtimoiy indikatorlar – jamiyatdagi ijtimoiy beqarorlik xavfini bildiruvchi asosiy belgi mehnat unumdorligini oshirishga bo‘lgan rag‘batlarning susayishi, shuningdek, aholining ijtimoiy tabaqalanishining keskin kuchayishidir.

3. Moliyaviy indikatorlar – moliyaviy xavf mavjudligini bildiruvchi asosiy signal bu – ishlab chiqarish hajmlarining qisqarishi, investitsiyalarning kamayishi sharoitida davlat qarzining ortib borishidir. Bu esa moliyaviy barqarorlikka tahdid tug‘diradi.

Bozor munosabatlariga o‘tish davrida davlat va hukumatning asosiy funksiyalari quyidagilardan iborat bo‘ldi:

- Xususiy mulk huquqini tan olish, uni erkinlashtirish va qonuniy himoyasini kafolatlash;
- Bozor iqtisodiyoti faoliyati uchun zarur bo‘lgan ma’muriy va moliyaviy infratuzilmani shakllantirish;
- Narxlar siyosatini liberallashtirish, ya’ni narxlarni erkinlashtirish;
- Sanoat siyosatini ishlab chiqish va joriy etish, investitsiyalar jalb qilish, iqtisodiyotni modernizatsiya qilish hamda tarkibiy islohotlar uchun bozor mexanizmlarini yaratish;
- Iqtisodiyotni xalqaro savdo tizimiga integratsiyalash, ya’ni jahon bozoriga ochiqligini ta’minlash;
- Makroiqtisodiy barqarorlikni boshqarish, oqilona budjet-soliq va pul-kredit siyosatini yuritish;
- Markaziy, hududiy va mahalliy davlat boshqaruv organlari o‘rtasidagi faoliyatni muvofiqlashtirish;
- Ijtimoiy soha, ta’lim tizimi va mehnat bozorini rivojlantirish, ularni bozor talablariga moslashtirish;
- Bozor iqtisodiyotini samarali boshqarish va tartibga solish uchun malakali va funksional davlat xizmatini shakllantirish.

“2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi Ozbekistonning taraqiyot strategiyasi asosiy yo‘nalishlari.

- inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqorolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish.

- mamlakatimizda adolat va qonun ustivorligi tamoillarini taraqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish.

- milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o‘sish suratlarini ta’minlash.

- adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish.

- ma’naviy taraqqiyotni ta’minlash va soxani yangi bosqichga olib chiqish.

- milliy manfaatlaridan kelib chiqgan holda umumbashariy moammolarga yondashish;

- mamlakatimiz havfsizligi va mudofaa saloxiyatini kuchaytirish;

- ochiq pragmatik va faol tashqi siyosat olib borish.

Davlatning iqtisodiyotni tartibga solishdagi o‘ziga xos xususiyatlari “O‘zbekiston-2030”strategiyasidan kelib chiqib quyidagilardan iborat

1. Har bir insonga uz salaxiyatini ruyobga chiqarish uchun munosib sharoyitlar yaratish- ga mos xususiyatlarni shakilantirish (talim tizimi, maktabgacha talim, umumiy urta talim ,oliy talim tizimini davlat tomonidan rivojlantirishga ustuvorlik berish, sog‘liqni saqlash, ijtimoy xizmat, yoshlarga oid davlat siyosati, madaniyat soxasidagi davlat siyosatini).

2. Barqoror iqtisodiy usish orqali axoli farovonligini tamilash (2030 yilgacha YIM hajimini 160 mlrd. yetkazish, axoli jon boshiga 4000 dollarga yetkazish, davlat qarzlarni YIM ga nisbatan 50%ga oshmaslik, fiskal barqarorlik).

3. **Suv resurslarni tejash va atrof muxitni muxofaza qilish** (suvdan foydalanish samorodorligini 25%ga oshirish, ekologik vaziyatni barqarorlashtirish, “Yashil makon” umummiliy loyixasini kengaytirish, “nol chiqindi” tizimini joriy etish, atmosfera hovasidagi chiqindi modalar miqdorini 10,5%ga kamaytirish).

4. Qonun ustuvorligini taminlash, xalq xizmatlarida davlat boshqaruvini tashkil etish (davlat ximatlarni rivojlantirish, hokimliklar tizimini optimallashtirish, sud xuquq tizimini rivojlantirish).

5. **“Xavfsiz va tinchliksevar davlat” tamoyiliga asoslangan izchil siyosatni amalga oshirish** (davlatning ochiq ,pragmatik, faol tashqi siyosatini olib borish, joxon savda tashkilotiga tulaqonli azo bulish, malakat xavfsiligi va mudofaa saloxiyatini mustaqamlash).

Tayanch iboralar: iqtisodiy siyosat, davlat, tartibga solish, mexanizm, bozor iqtisodiyoti, barqarorlik, rivojlanish, boshqaruv.

Nazorat takrorlash uchun savollar

1. Iqtisodiy siyosatni davlat tomonidan tartibga solishning ta'rifini bering.

2. Davlat tomonidan iqtisodiyotni tartibga solish zaruriyatini tushuntiring.

3. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning asosiy maqsadlari nimalardan iborat?

4. Davlatning iqtisodiyotni tartibga solish vazifalarini sanab bering.

5. Davlatning iqtisodiyotga ta'sir qilish usullarini qanday guruhlarga bo'lish mumkin.

6. Bevosita va bilvosita tartibga solish usullarining farqini tushuntiring.

7. Ma'muriy vositalar nima va qachon qo'llaniladi?

8. Iqtisodiy vositalarning asosiy turlarini sanab bering.

9. Pul-kredit siyosatining asosiy vositalari nimalardan iborat

10 Markaziy bankning iqtisodiyotni tartibga solishdagi roli qanday?

11. Hisob stavkasini o'zgartirish iqtisodiyotga qanday ta'sir qiladi?

12. Soliqlar iqtisodiyotni tartibga solishning qanday vositasi hisoblanadi?

13. Davlat byudjeti harajatlari orqali iqtisodiyotga qanday ta'sir qiladi?

14. Soliq imtiyozlarining ahamiyati nimada?

15. Davlat monopoliyalar ustidan qanday nazorat o'rnatadi?

16 Raqobatni himoya qilish uchun qanday choralar ko'riladi?

17. Tabiiy monopoliyalarni tartibga solish xususiyatlari nimalardan iborat?

18. Daromadlarni qayta taqsimlash jarayoni qanday amalga oshiriladi?

IV BOB. DAVLAT MULKINI XUSUSIYLASHTIRISH VA BOSHQARISH - IQTISODIYOTNI TARTIBGA SOLISH VOSITASI

4.1. Davlat mulkini xususiylashtirish va davlat mulkini boshqarishning mohiyati
4.2. Davlat tadbirkorligining bozorga ta'siri, davlat mulkini uning tasrrufidan chiqarish
4.3. Davlat mulkini xususiylashtirishning usullari
4.4. Davlat mulkini boshqarish-iqtisodiyotni tartibga solish vositasi sifatida. Investitsion majburiyat asosida mulkni xususiylashtirish.
4.5 Investisiya siyosati va uning davlat mulkini xususiylashtirishdagi funktsiyalari (vazifalari).

4.1. Davlat mulkini xususiylashtirish va davlat mulkini boshqarishning mohiyati

Xususiylashtirish va davlat mulkini boshqarish iqtisodiy rivojlanish va davlat hamda xususiy iqtisodiyotni tartibga solishda muhim rol o'ynaydi. Globallashuv va bozor islohotlari sharoitida ushbu jarayonlarning samaradorligi barqaror iqtisodiy tizimlarni yaratish uchun zarurdir.

Xususiylashtirish — bu davlat aktivlarini xususiy shaxslar yoki yuridik shaxslar mulkiga o'tkazish jarayoni bo'lib, davlat yoki mahalliy hokimiyat mulkini xususiy mulkka aylantiradi. Bu jarayon ko'plab mamlakatlarda markazlashgan iqtisodiyotdan bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida qo'llaniladi va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish hamda iqtisodiyot samaradorligini oshirish vositalaridan biridir.

Xususiylashtirishning asosiy maqsadlari:

- Samaradorlik va raqobatbardoshlikni oshirish: Xususiy mulkdorlar odatda foydani maksimallashtirish va jarayonlarni optimallashtirishga ko'proq qiziqishadi, bu esa korxonalarni samaraliroq boshqarishga, xarajatlarni kamaytirishga va raqobatbardoshlikni oshirishga olib keladi.

- Investitsiyalarni jalb qilish: Xususiylashtirish mahalliy va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish imkonini beradi, bu ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va mahsulot sifatini oshirishga yordam beradi.
- Davlat byudjetiga yuklamani kamaytirish: Aktivlarni sotishdan tushgan daromadlar byudjet taqchilligini kamaytirish, tashqi qarzni to'lash yoki boshqa muhim loyihalarga sarmoya kiritish uchun ishlatilishi mumkin.

Davlat mulkini xususiylashtirishning asosiy shakllari:

- Davlat mulkini sotish: Davlatning muayyan korxona yoki sohalardagi ulushini xususiy investorlarga sotish orqali qisqartirish.
- Konsessiya yoki ijara: Davlat mulkini ma'lum muddatga xususiy kompaniyalarga ekspluatatsiya qilish huquqini berish, infratuzilmani rivojlantirish uchun sarmoya kiritish majburiyatlari bilan.
- Auktsion va tanlov mexanizmlari: Davlat aktivlarini xususiy shaxslar yoki kompaniyalar raqobat orqali sotib olishi mumkin bo'lgan auktsionlar orqali xususiylashtirish.

Davlat mulkini boshqarish — bu davlatga tegishli resurslardan samarali foydalanish va ularni himoya qilishga qaratilgan iqtisodiy, huquqiy va tashkiliy choralar tizimi. Bu davlat mulkidagi korxonalarni boshqarish, shuningdek, xususiy va davlat mulkdorlari bilan munosabatlarni tartibga solishni o'z ichiga oladi.

Davlat mulkini boshqarishning asosiy vazifalari:

- Iqtisodiyotning barqarorligi va mustahkamligini ta'minlash: Davlat mulki energetika, transport, mudofaa va sog'liqni saqlash kabi strategik sohalarda muhim rol o'ynaydi. Ushbu aktivlardan samarali foydalanish iqtisodiy barqarorlikni ta'minlaydi.
- Aktivlarni boshqarish: Davlat korxonalari, tabiiy resurslar, yer uchastkalari va infratuzilmadan uzoq muddatli iqtisodiy foyda olish uchun samarali boshqarish zarur.
- Ijtimoiy majburiyatlar: Davlat mulki ayrim hollarda ish o'rinlari yaratish, mahsulot va xizmatlardan foydalanish imkoniyatini

ta'minlash yoki ekologik xavfsizlik kabi ijtimoiy maqsadlarni hisobga olgan holda boshqariladi.

Davlat mulkini boshqarishning asosiy tamoyillari:

- Shaffoflik va hisobotdorlik: Korruptsiya va samarasizlikning oldini olish uchun boshqaruv jarayonlari shaffof bo'lishi va qarorlar jamoat manfaatlarini hisobga olgan holda qabul qilinishi kerak.
- Samaradorlikni baholash: Davlat mulkidan foydalanishning moliyaviy va ijtimoiy natijalarini muntazam baholash foydasiz yoki samarasiz aktivlarni aniqlashga yordam beradi.
- Moslashuvchanlik va moslashish: Davlat bozor muhiti va iqtisodiy sharoit o'zgarishlariga moslashishga tayyor bo'lishi kerak.

Boshqaruv mexanizmlari:

- Davlat agentliklari va organlari: Mulk turiga qarab maxsus agentliklar tashkil etiladi (masalan, davlat korxonalari yoki yer resurslarini boshqarish agentliklari).
- Davlat-xususiy sheriklik (DXSh): Davlat mulkini samarali boshqarish va rivojlantirish uchun xususiy sektor bilan hamkorlik qilinadi.
- Litsenziyalash va konsessiyalar: Resurslardan foydalanish huquqi xususiy investorlarga konsessiya shartnomalari yoki litsenziyalar orqali beriladi.

Xususiylashtirish va mulkdorlar safini kengaytirish, islohotlarni chuqurlashtirish hamda iqtisodiyotni yanada erkinlashtirishning ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha amalga oshirilishi lozim bo‘lgan muhim vazifalar quyidagilardan iborat:

- Davlatning iqtisodiyotdagi bevosita ishtirokini bosqichma-bosqich qisqartirish ishlarini davom ettirish;
- Aktsiyalashtirishdan kutilgan samara bermagan korxona va obyektlarni xususiy mulkdorlarga topshirish;
- Yangi mulkdorlarning korxonalarni samarali boshqarishlari, investitsiya majburiyatlarini so‘zsiz bajarishlarini ta’minlash maqsadida amaldagi qonunchilikni qayta ko‘rib chiqish va huquqiy hamda iqtisodiy javobgarlikni kuchaytirish;

- Ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik jihatdan yangilash, shuningdek, jahon bozorida raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish bo‘yicha aniq majburiyatlarni o‘z zimmasiga oladigan ishonchli va mas’uliyatli investorlarni jalb etish uchun qulay investitsiyaviy muhit yaratish.

Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasini amalga oshirish natijasida qabul qilingan yangi qonunlar quyidagilardan iboratdir:

“Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida” (yangi tahrir);

“Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”;

“Tadbirkorlik faoliyati sohasidagi ruxsat berish tartib-taomillari to‘g‘risida”;

“Raqobat to‘g‘risida”.

Bugungi kunda xususiylashtirish quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:

Xususiylashtirish dasturlari doirasida xususiylashtirish:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti yoki Hukumat qarorlari asosida tasdiqlanadigan Xususiylashtirish dasturlari doirasida davlat mulki obyektlari belgilangan xarid qiymatida yoki **“nol” qiymatda** xususiylashtiriladi.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investorlar bilan shartnoma tuzish orqali xususiylashtirish:

Davlat tender komissiyasi qarorlariga asosan, mahalliy hokimliklar balansida bo‘lgan past likvidli obyektlar **aniq investitsiya majburiyatlari evaziga** xorijiy investorlarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnoma tuzish orqali **“nol” qiymatda** xususiylashtiriladi.

Boshqa shakllar orqali xususiylashtirish:

Mulkni tasarruf etuvchi tashkilotlar qaroriga muvofiq quyidagi usullar bilan davlat mulki obyektlari xususiylashtiriladi.

4.2. Davlat tadbirkorligining bozorga ta’siri, davlat mulkini uning tasrrufidan chiqarish

Keyingi yillarda mamlakatimizda vujudga keltirilgan davlat aktivlarini ommaviy savdolarda xususiylashtirish mexanizmlari quyidagilardan tashkil topgan:

Aksiyadorlik jamiyatlari ustav fondidagi davlat ulushlari (aksiyalar paketi) – fond birjasi orqali erkin savdoga chiqarilib xususiylashtiriladi;

Mas’uliyati cheklangan jamiyatlar (MCHJ) ustav fondidagi davlat ulushlari – auksion yoki tanlov savdolarida sotuvga qo‘yilib xususiylashtiriladi;

Davlat mulki hisoblangan ko‘chmas mulk obyektlari – riyeltorlik tashkilotlari vositasida bozorga chiqarilib xususiylashtiriladi;

Faoliyat yuritmayotgan va qurilishi tugallanmagan davlat mulkidagi obyektlar – zamonaviy ishlab chiqarish yoki xizmat ko‘rsatish faoliyatini yo‘lga qo‘yish sharti bilan, investitsiya majburiyati asosida, “nol” qiymatda, Davlat tender komissiyasi tomonidan tasdiqlangan shartlar asosida, hududiy tender komissiyalari orqali xususiylashtiriladi.

Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish jarayoni bilan bir vaqtning o‘zida bozor infratuzilmasining shakllanishi ham boshlandi. Mazkur jarayon natijasida fond bozori, tovar bozori, ko‘chmas mulk bozori, investitsion fondlar, auditorlik, konsalting xizmatlari kabi muhim infratuzilma elementlari tashkil etildi va rivojlanish bosqichiga kirdi. Bu holat iqtisodiyotni liberallashtirish va bozor mexanizmlarining samarali faoliyat yuritishini ta’minlash yo‘lidagi muhim bosqich bo‘ldi.

Yerishilgan ijobiy natijalarga qaramay, respublikamizning ayrim hududlarida xususiylashtirish va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash sohasidagi ishlar sustligicha qolmoqda. Aslida esa mulkdan samarali foydalanish va tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, dotatsiyadan voz kechish hamda byudjet daromadlarini oshirish – davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlaridan biridir.

Bugungi kunda davlat mulkini xususiylashtirish va undan samarali foydalanish borasidagi xususiylashtirish dasturi, Prezident qarori va Davlat mulki obyektlarini samarali boshqarish chora-tadbirlari to‘g‘risida Vazirlar Mahkamasi qarorlari loyihalarini ishlab chiqishga asosiy e’tibor qaratilgan bo‘lib, dasturlarning o‘ziga xos xususiyati korxonalarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalarni jalb qilishga ustuvor ahamiyat qaratilganligidir.

Investorlarning takliflari xususiylashtirilayotgan obyektning xarid qiymatiga emas, balki ularning investitsiya dasturining mazmuniga, ishlab chiqarishni kengaytirish, korxonani modernizatsiya qilish hamda samarali boshqaruvni joriy etishga qaratilganligiga ko‘ra baholanadi.

4.3. Davlat mulkini xususiylashtirishning usullari

Davlat aktivlari ahamiyati va xususiylashtirish usullariga ko‘ra quyidagi guruhlarga bo‘linib, sotiladi:

1-guruh: Butunligicha sotiladigan davlat korxonalari (obyektlari) hamda ochiq birja savdolarida to‘liq xususiy mulkka aylantiriladigan davlatga tegishli aktsiyalar paketlari va davlat ulushlari.

Bu guruhdagi korxona yoki obyektlarni xususiylashtirish mexanizmi juda oddiy: ular birja orqali sotiladi. Bunda obyekt yoki aktsiyalar paketi savdo maydonchasiga qo‘yiladi, keng reklamalar qilinadi, hamda sotishda yordam beruvchi tegishli institutlar faol ishtirok etadi. Agar xaridorlar talab bildirmasa, dastlabki sotish narxlari bosqichma-bosqich pasaytiriladi.

2-guruh: Investitsiya majburiyatlarini bajarish sharti bilan “nol” qiymatda tanlov savdolariga qo‘yiladigan korxona va obyektlar.

Ushbu guruhdagi obyektlar hududlarda tanlov e’lon qilinishi orqali sotiladi. Har bir hududda, shu hudud ma’muriyati rahbarligi ostida tanlov komissiyalari tashkil etilgan.

Sarmoyadorlarga “nol” xarid qiymati asosida sotiladigan past rentabelli, zarar ko‘rayotgan yoki iqtisodiy nochor davlat korxonalarining byudjet va byudjetdan tashqari fondlarga bo‘lgan, shu jumladan, penya va jarimalar bilan bog‘liq eski ishonchsiz qarzlari hukumat tomonidan bekor qilinadi.

3 - guruh: Davlatga tegishli aktsiyalar paketi xalqaro tenderlar orqali sotiladigan strategik ahamiyatga ega korxonalar.

Yirik strategik korxonalar ochiq tenderlar shaklida sotiladi, bunda yakka tartibdagi xususiylashtirish usuli qo‘llaniladi.

Bunday tenderlarda ishtirok etish uchun sarmoyadorlar xususiylashtirilayotgan korxonaga investitsiyalar kiritish hamda uni rivojlantirish bo‘yicha biznes-rejalarini taqdim etishlari shart.

Davlatga tegishli aktsiyalar paketi ushbu tenderlarda sotiladigan korxonalar Davlat investitsiya dasturiga kiritilishi mumkin. Bu esa korxonani 7 yil davomida daromad va foyda solig‘idan ozod qilish imkonini yaratadi.

Shuningdek, agar sarmoyador aktsiyalarning nazorat huquqini bermaydigan paketini xarid qilsa, ammo korxonaga katta miqdorda investitsiya kiritgan bo‘lsa, u holda Davlat mulki qo‘mitasi bilan boshqaruv nazoratini olish bo‘yicha shartnoma tuzishi mumkin.

Iqtisodiyotda davlat ulushini kamaytirish va xususiy sektorning rolini sezilarli darajada oshirish maqsadida quyidagi vazifalar belgilangan:

Avvalo, zarar ko‘rayotgan, past rentabelli va iqtisodiy jihatdan zaif davlat korxonalarini aniqlab, ularni professional xorijiy investorlarga “nol” qiymatida sotish lozim. Bu investorlar ushbu korxonalarni qayta tiklash va ular negizida yangi, zamonaviy ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish majburiyatini oladilar.

Respublika mintaqalaridagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish holatini o‘rganish natijalari shuni ko‘rsatadiki, xususiylashtirilgan korxonalar mulkdorlari ishlab chiqarish quvvatlaridan to‘liq va samarali foydalanmayapti. Ular uzoq muddatli rivojlanishga e’tibor bermaslik bilan birga, ixtisoslashtirilgan ishlab chiqarishlarni tiklashga harakat qilmayapti hamda mahsulotlarning raqobatbardoshligini ta’minlaydigan zamonaviy texnologiyalarni joriy eta olmayapti.

Bu holatlar Toshkent shahrida avval xususiylashtirilgan “Rele va avtomatika”, “Algoritm” zavodlari; Samarqanddagi “Qizil dvigatel” va Liftsozlik zavodlari; G‘ijduvondagi ip yigiruv fabrikasi; Xorazm viloyatining Urganch tumanidagi parranda fabrikasi; Termiz shahridagi

“16-sonli g‘isht zavodi” va boshqa ko‘plab obyektlar misolida yaqqol ko‘rinmoqda.

4.4. Davlat mulkini boshqarish - iqtisodiyotni tartibga solish vositasi sifatida. Investitsion majburiyat asosida mulkni xususiylashtirish

Davlat organlari xususiylashtirilgan korxonalarning asl holatini o‘rganish, ularning ishlab chiqarish faoliyati va moliyaviy-iqtisodiy ahvolini doimiy monitoring qilish, mavjud muammolarni tahlil etish hamda ularning sabablarini aniqlashda sustkorlik qilmoqda. Shuningdek, korxonalarni kredit va moddiy resurslar bilan ta’minlash, muhandislik va ishlab chiqarish infratuzilmasini tiklash hamda ichki va tashqi bozorlarga chiqishda amaliy yordam ko‘rsatishda yetarlicha faol emas.

Bunday holat vakolatli organlarning xususiylashtirilgan korxonalarga bo‘lgan yondashuvlari, ular bilan ishlash printsiplari va usullarini tubdan qayta ko‘rib chiqishni, faoliyat samaradorligini oshirish uchun har tomonlama ko‘maklashishni talab qiladi. Shuningdek, ishlab chiqarishni tiklash va rivojlantirish uchun “yo‘l xaritalari” ishlab chiqish va amalga oshirish, tadbirkorlik asoslarini o‘rgatish hamda xususiylashtirilgan korxonalarni qo‘llab-quvvatlash uchun moliyaviy manbalarni kengaytirish zarur.

Ushbu qarorga asosan, xususiy mulk va tadbirkorlikni rivojlantirish bo‘yicha ishlarning samaradorligini sezilarli darajada oshirish, xususiylashtirilgan korxonalar negizida amalga oshirilayotgan loyihalarni tizimli va manzilli tarzda qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, vakolatli organlar faoliyatini belgilangan vazifalar ijrosida zarur darajada muvofiqlashtirish maqsad qilib qo‘yiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Xususiylashtirilgan korxonalarga ko‘maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo‘mitasining faoliyatini unga yuklatilgan vazifalar va funktsiyalarga muvofiq tashkil etish;

Xususiylashtirilgan korxonalar reyestrini yaratish bo‘yicha chora-tadbirlarni belgilangan muddatlarda va to‘liq hajmda amalga oshirish,

shuningdek, ularning faoliyatini muntazam ravishda kuzatib borish va tahlil qilishni ta'minlash;

Shuningdek, ushbu korxonalarni tiklash hamda ularning ish faoliyatini samarali yo'lga qo'yish maqsadida maxsus "yo'l xaritalari"ni ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etishni tashkil etish, shu bilan birga, mazkur "yo'l xaritalari"ni amalga oshirish jarayonida vazirliklar, idoralar, mahalliy hokimliklar, tijorat banklari va boshqa tegishli tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirishni yo'lga qo'yish.

Xususiylashtirilgan korxonalar rahbarlari va ishlab chiqarish-texnik xodimlari uchun biznes-rejalar tuzish, tadbirkorlik qonunchiligi, menejment, moliyaviy boshqaruv hamda boshqa tegishli fanlar bo'yicha doimiy o'quv kurslarini tashkil etishga qaratilgan Tadbirkorlik faoliyati asoslarini o'qitish respublika markazi va uning hududiy filiallarini tashkil etish, shuningdek, ushbu markazlar faoliyatini samarali yo'lga qo'yishni ta'minlash.

O'zbekiston Respublikasi Xususiylashtirilgan korxonalarga ko'maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasining kadrlar salohiyatini mustahkamlash, qo'mita kadrlarini tizimli ravishda tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasi oshirilishini tashkil etish vazifalari belgilangan.

Mulk tushunchasi turli shakllarda namoyon bo'ladi: davlat mulki, munitsipal mulk va xususiy mulk. Davlat tadbirkorligi va davlat mulkining iqtisodiyotga ta'siri, xususan, bozor munosabatlariga ta'siri alohida ahamiyat kasb etadi. Davlat mulkini iqtisodiyotdagi ishtirokini bosqichma-bosqich kamaytirish maqsadida uni tasarrufdan chiqarish va xususiylashtirish mexanizmlari qo'llaniladi.

Xususiylashtirish jarayoni turli shakllarda amalga oshiriladi: mulkni ijaraga berish, investitsiya majburiyatlari asosida xususiylashtirish, xususiylashtirish dasturlari doirasida mulkni xarid qiymatida yoki "nol" qiymatda sotish. Shuningdek, xorijiy investorlar uchun investitsion majburiyatlar evaziga "nol" qiymatda xususiylashtirish amaliyoti mavjud.

Davlat mulkini xususiy sektor tasarrufiga o'tkazishning usullari quyidagilarni o'z ichiga oladi: to'g'ridan-to'g'ri sotish, fond birjasi

orqali xususiylashtirish, auktsion yoki tanlov (savdo)lar shaklida amalga oshirish, riyeltorlik tashkilotlari orqali sotish hamda davlat tender komissiyasi vositasida amalga oshirish

4.5 Investisiya siyosati va uning davlat mulkini xususiylashtirishdagi funktsiyalari (vazifalari)

Davlatning investisiya siyosati - *mamlakat iqtisodiyoti va uning alohida sohalari va tarmoqlariga kapital solinmalarning zarur darajasi va tarkibini ta'minlash, takror ishlab chiqarish faoliyatining barcha asosiy agentlari: aholi, tadbirkorlar va davlatning investisiya faolligini oshirish bo'yicha o'zaro bog'liq maqsadlar va ulardan kelib chiqadigan vazifalarni bajarish bo'yicha belgilangan tadbirlarni amalga oshirish jarayonlaridir.*

Davlat investisiya siyosatining asosiy vazifasi iqtisodiyot va ijtimoiy muhitni rivojlantirish uchun investisiya resurslarini jalb qilish va ulardan foydalanish samaradorligini oshirishga ko'maklashuvchi qulay muhitni shakllantirishdan iborat. Investisiya siyosati quyidagilarga yo'naltirilgan:

- har bir davr uchun maqsadga muvofiq bo'lgan investisiyalar hajmini va ularning tuzilishini: tarmoq, ishlab chiqarish, texnologik, hududiy va mulkchilik shakllari bo'yicha aniqlash;
- ustuvorliklarni tanlash;
- investisiyalar samaradorligini oshirish.

Investisiya siyosati samaradorligi me'zonlari tizimi:

• Investisiyalarning o'sishi, yalpi milliy mahsulotning o'sishi, aholi jon boshiga iste'mol va daromadning o'sishi;

• Tovarlar, xizmatlar, kapital bozorida xo'jalik aloqalari samaradorligini oshirish, Iqtisodiyotda moliyaviy xavfni kamaytirish;

• Milliy mahsulotni ishlab chiqarish va iste'mol qilish tuzilmasi samaradorligini oshirish, iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlaridagi korxonalarning tovar ishlab chiqarishi va ularning kapitallashuvining o'sishi;

• Milliy strategik manfaatlarni ta'minlash;

Investisiya siyosatini amalga oshirishda davlat ishtirokining shakllari:

• investisiya-moliya bozori tashkilotchisi;
• investisiya-moliya bozori ishtirokchisi;
• investisiya jarayonlari menejeri.

Davlat investisiya-moliya bozorining tashkilotchisi sifatida:

• Investisiyalarning tizimli xavfini kamaytirish;
• Investisiyalarning o‘ziga xos xatarini kamaytirish;
• Ichki investisiya imkoniyatlarini rivojlantirish;
• eksport salohiyatini oshirish;
• Iqtisodiyot tarkibining o‘zgarishi;
• Investision imkoniyatlarning globallashuvi;
• Bank sektorini qayta kapitallashtirish;
• Real sektorni kreditlashni ko‘paytirish;
• Fond bozori samaradorligini oshirish;
• Fond bozorining yangi vositalarini yaratish;
• Investisiya institutlarini rivojlantirish;
• To‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investisiyalarni jalb qilish;

Davlat investisiya-moliya bozori ishtirokchisi sifatida:

• Davlat mulkidan olinadigan daromadlarni oshirish;
• Davlat investisiyalaridan olinadigan daromadlarni oshirish;
• Qarz olish foizini pasayishi;

Davlat investisiya siyosatining menejeri sifatida:

• Davlat investisiya siyosatini amalga oshirish tizimini modernizasiya qilish;
• Xavflarni boshqarish;
• Investisiya siyosatining ijtimoiy-iqtisodiy siyosatning boshqa yo‘nalishlari bilan mutanosibligi va o‘zaro bog‘liqligini nazorat qilish.

Davlatning davlat investisiya siyosatini amalga oshirishdagi funksiyalari:

1) yo‘naltiruvchi (maqsadni belgilovchi);
2) safarbar etuvchi;
3) rag‘batlantiruvchi;
4) nazorat qiluvchi.

Davlatning belgilovchi (ustanovochnaya) funksiyasi strategik maqsadlar va ustuvor yo‘nalishlarni belgilash, investisiya siyosatining kelgusi davrga mo‘ljallangan vazifalarini belgilashdan iborat. Maqsadlar va ustuvorliklar tuzilmasini shakllantirish natijalarni tahlil qilishni, eng o‘tkir ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy muammolarni aniqlashni, ularni hal qilish bo‘yicha davlatning eng faol chora-tadbirlarini belgilashni nazarda tutadi.

Davlatning safarbar etuvchi funksiyasi investisiya resurslari manbalarini izlash, qo‘yilgan vazifalarni hal etish uchun ularni jalb etish yo‘llarini aniqlashdan iborat. Bu funksiyani amalga oshirish investisiya resurslari harakatini tartibga solish, ularni milliy iqtisodiyotning tarkibiy bo‘linmalari o‘rtasida taqsimlash va qayta taqsimlash bilan bog‘liq. Bu funksiyani amalga oshirishning asosiy vositalari monetar siyosat, soliqqa tortish, amortizasiya ajratmalari sohasidagi siyosat, byudjet siyosati, byudjetdan tashqari fondlarni tartibga solish hisoblanadi.

Davlatning rag‘batlantiruvchi funksiyasi investisiya siyosatining asosiy ustuvor vazifalarini so‘zsiz va jadal hal etishga qaratilgan. Bu funksiya soliq va moliyaviy imtiyozlar (subsidiyalar, subvensiyalar, dotasiyalar), offshor hududlarni yaratish, kredit va diskont (foiz) siyosati va boshqa vositalar orqali amalga oshiriladi.

Nazorat funksiyasi xo‘jalik yurituvchi subektlarning xo‘jalik faoliyati jarayonida davlat tomonidan belgilangan iqtisodiy va huquqiy me’yorlarga rioya qilishlari ustidan davlat tomonidan nazoratni nazarda tutadi. Davlat nazorati tegishli nazorat organlari va turli darajadagi boshqaruv organlari orqali amalga oshiriladi.

Investisiya (lot. invest - qo‘yish) - kelajakda daromad olishni mo‘ljallab, hozirgi vaqtda ma’lum iqtisodiy loyihalarni amalga oshirish.

O‘zbekiston Respublikasining "Investisiya faoliyati to‘g‘risida"gi Qonunida investisiyalar "foyda olish yoki boshqa foydali samaraga erishish maqsadida tadbirkorlik yoki boshqa faoliyat obektlariga kiritiladigan pul mablag‘lari, qimmatli qog‘ozlar, boshqa mol-mulk, shu jumladan mulkiy huquqlar va pul bahosiga ega bo‘lgan boshqa huquqlar" sifatida ta’riflanadi.

Investisiyalar deganda keng ma'noda davlat, yuridik va jismoniy shaxslarning foyda va (yoki) boshqa ijobiy samara olish maqsadida yangi korxonalar tashkil etish, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarni kengaytirish, rekonstruksiya qilish va texnik jihatdan qayta jihozlash, ko'chmas mulk, aktivlar, aksiyalar, obligasiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlarni sotib olishga yo'naltiriladigan pul mablag'lari, mulkiy va intellektual boyliklari tushuniladi.

Shuni ta'kidlash kerakki, iqtisodiy mazmuniga ko'ra investisiyalarga kapitalning o'sishiga va foyda olishga olib kelmaydigan "iste'mol qo'yilmalari" (avtomobillar, televizorlar, kvartiralar, dala hovlilar va hokazolarni sotib olish) kirmaydi. Bu mablag'lar, odatda, foyda keltirmaydigan bevosita uzoq muddatli iste'molga sarflanadi va agar ularni sotib olish keyinchalik sotish yoki ishlab chiqarishda foydalanish maqsadini ko'zlamasa.

Investisiyalar - keyinchalik uni ko'paytirish maqsadida kapital qo'yish. Kapitalning o'sishi investorning joriy davrda iste'mol uchun mavjud mablag'lardan foydalanishdan bosh tortishini qoplash, uni tavakkalchilik uchun mukofotlash, kelgusi davrda inflyasiyadan ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplash uchun yetarli bo'lishi kerak.

Kapital - daromad keltirishi mumkin bo'lgan narsa; tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarish uchun odamlar tomonidan yaratilgan resurslar; ishga kiritilgan, ishlab chiqarish vositalari ko'rinishida ishlaydigan manba.

Kapitalning o'sish manbai, investisiyalarni amalga oshirishning harakatlantiruvchi motivi foyda olishdir. Kapital qo'yish va foyda olish turli vaqt tartibida: ketma-ket, parallel va oraliqda sodir bo'lishi mumkin. Bu jarayonlar ketma-ket amalga oshirilsa, investisiyalash jarayoni tugashi bilanoq foyda olinadi. Ularning parallel kechishida foyda olish investisiyalash to'liq tugallanmasdan oldin (masalan, uning birinchi bosqichidan keyin) ham mumkin. Ko'rib chiqilayotgan jarayonlar oralig'ida investisiyalashni yakunlash va foyda olish o'rtasida ma'lum vaqt o'tadi. Vaqtdagi bu uzilishni **lag** deb atash qabul qilingan.

Shunday qilib, vaqt lagi bir hodisaning boshqa hodisaga nisbatan vaqt bo‘yicha orqada qolishi yoki ilgarilab ketishini aks ettiruvchi ko‘rsatkichdir (masalan, mablag‘ qo‘yilgan paytdan boshlab qaytim (foyda) olgunga qadar o‘tgan vaqt).

Lagning davomiyligi investisiyalash shakllariga, aniq investisiya loyihalarining xususiyatlariga va boshqa omillarga bog‘liq.

Shunday qilib, investisiyalar deganda, foyda yoki boshqa foydali samara olish maqsadida har qanday mablag‘larni moddiy, nomoddiy va moliyaviy aktivlarga qo‘yish tushuniladi.

Investisiyalarning iqtisodiy mohiyati ularning ko‘plab turlarini turli tasnifiy belgilar bo‘yicha guruhlash orqali ochib berilishi mumkin. Bundan tashqari, boshqa tasnifiy belgilar ham mavjud.

Tavakkalchilik darajasiga ko‘ra investisiyalar quyidagicha farqlanadi:

• **xavf-xatarsiz** - kutilayotgan daromad yoki kapitalni yo‘qotishning haqiqiy xavfi bo‘lmagan va rejalashtirilgan natija deyarli kafolatlangan investisiya obektlariga mablag‘ qo‘yilmalarini tavsiflaydi;

• yo‘l qo‘yilishi mumkin bo‘lgan tavakkalchilik darajasi bilan - kutilayotgan sof hisoblangan foydani yo‘qotish ehtimolini nazarda tutadi;

• kritik xavf darajasi bilan - nafaqat foydaning, balki hisoblangan yalpi daromadning butun kutilayotgan summasining yo‘qotilishini nazarda tutadi;

• halokatli xavf darajasi bilan - barcha o‘z aktivlarini yo‘qotish ehtimoliga yo‘l qo‘yadi, masalan, bankrotlik natijasida.

Tayanch iboralar. Mulk, davlat mulki, munitsipal mulk, davlat tadbirkorligi, davlat mulkining iqtisodiyotni tartibga solinishiga ta’siri, davlat tadbirkorligining bozorga ta’siri, davlat mulkini uning tasrrufidan chiqarish, davlat mulkini xususiylashtirish,mulkni ijaraga berish, investitsion majburiyat asosida mulkni xususiylashtirish.

Nazorat takrorlash uchun savollar

1. Davlat mulki nima va u qanday vazifalarni bajaradi?
2. Davlat mulki iqtisodiyotni tartibga solishda qanday rol o‘ynaydi?
3. Davlat tadbirkorligi deganda nimani tushunasiz?
4. Davlat tadbirkorligi iqtisodiyotni tartibga solishga qanday ta’sir ko‘rsatadi?
5. Davlat mulkini uning tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirishning mohiyati nimadan iborat?
6. Davlat mulki tushunchasini ta’riflang va uning xususiyatlarini tushuntiring.
7. Xususiylashtirish jarayonining mohiyati nimadan iborat?
8. Davlat tadbirkorligining bozor iqtisodiyotiga qanday ta’siri mavjud?
9. Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish jarayoni qanday amalga oshiriladi?
10. Davlat mulkini xususiylashtirish iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishga qanday ta’sir ko‘rsatadi?
11. O‘zbekistonda davlat mulkini xususiylashtirishdan ko‘zlangan maqsadlar nimalardan iborat?
12. O‘zbekistonda davlat mulkini xususiylashtirish jarayonlari qanday amalga oshirildi?
13. Davlat mulki qanday boshqariladi?
14. Davlat mulkini boshqarish va xususiylashtirish samaradorligini oshirish uchun nimalarni amalga oshirish kerak?
15. O‘zbekistonda xususiylashtirish qanday uch asosiy shaklda amalga oshiriladi?
16. Davlat mulkini xususiylashtirish usullarini taqqoslang va har birining afzalliklari hamda kamchiliklarini ko‘rsating.
17. “Nol” qiymatda xususiylashtirish nima va qanday hollarda qo‘llaniladi?
18. Investitsion majburiyat asosida mulkni xususiylashtirish jarayonini tushuntiring.

19. Birinchi guruh obyektlarini xususiylashtirish mexanizmi qanday ishlaydi?

20. Ikkinchi guruh obyektlari uchun tanlov savdolari qanday tashkil etiladi?

V BOB. IJTIMOIY-IQTISODIY RIVOJLANISHNI DASTURLASH, PROGNOZLASHTIRISH VA REJALASHTIRISH

5.1. Barqaror rivojlanish uchun dasturlash, prognozlash va rejalashtirishning ahamiyati.
5.2. Iqtisodiyotda prognozlashning mohiyati va zaruriyati. Prognozlashning tamoyillari, turlari va asosiy uslublari.
5.3. Iqtisodiy siyosatni asoslashda tashqi sharoitlarning o‘rni.
5.4. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarning o‘rni.

5.1 Barqaror rivojlanish uchun dasturlash, prognozlash va rejalashtirishning ahamiyati

Dasturlash, prognozlash va rejalashtirish ijtimoiy-iqtisodiy barqaror rivojlanishni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni dasturlash davlatlar va mintaqalarga barqaror o'sishga erishish, hayot sifatini yaxshilash va ijtimoiy adolat muammolarini hal qilishda yordam beradigan uzoq va qisqa muddatli strategiyalarni ishlab chiqishni anglatadi va uning xususiyatlari quyidagilardan iborat.

- **Uzoq muddatli maqsadlar**: Dasturlar ekologik barqarorlik, iqtisodiy o'sish, hayot darajasini oshirish va tengsizlikka qarshi kurash kabi uzoq muddatli barqaror rivojlanishga yo'naltiriladi.
- **Ijtimoiy innovatsiyalar**: Dasturlash tabiiy resurslardan barqaror foydalanish, qayta tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirish va ijtimoiy infratuzilmani yaxshilash kabi innovatsion yechimlarni joriy etishga yordam beradi.
- **Inklyuzivlik**: Dasturlar tenglikni yaxshilash, ta'lim, sog'liqni saqlash va boshqa ijtimoiy imtiyozlarga ega bo'lish imkoniyatini oshirish choralarini o'z ichiga olishi mumkin.

Barqoqor iqtisodiy rivojlanishda prognozlashtirish alohida ahamiyat kasb etadi va iqtisodiy siyosatni belgilashning muhim dastaklaridan hisoblanadi.

Prognozlash ma'lumotlar va joriy tendensiyalar tahliliga asoslangan holda kelajakdagi rivojlanishni (iqtisodiyot, ekologiya,

demografiya va boshqalar) bashorat qilish imkonini beradi, bu esa mumkin bo'lgan xavf va tahdidlarga oldindan tayyorgarlik ko'rishga yordam beradi. Uning xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- Muammolarni erta aniqlash: Prognozlash iqtisodiyot, ekologiya yoki ijtimoiy sohada yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolarni aniqlashga yordam beradi, bu ularning rivojlanishini oldini olish yoki oqibatlarini minimallashtirish imkonini beradi.
- O'zgarishlarga moslashish: Global o'zgarishlar (iqlim, texnologiya, demografiya) sharoitida prognozlar rejalar va strategiyalarni barqarorlikni ta'minlash uchun moslashtirishga yordam beradi.
- Resurslardan oqilona foydalanish: Prognozlash talab va ehtiyojlardagi mumkin bo'lgan o'zgarishlarni hisobga olgan holda resurslarni optimal taqsimlashga yordam beradi.

Iqtisodiyotni barqaror va tizimli rivojlantirishda rejalashtirish muhim hisoblanib uning mohiyatini ochib berish talab etiladi.

Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni rejalashtirish barqaror rivojlanish maqsadlarini amalga oshirish uchun aniq choralar va qadamlarni o'z ichiga oladi, bu mahalliy darajadan milliy darajagacha barqarorlikni ta'minlaydi va u quyidagi xususiyatlardan iborat:

- Barqarorlikni integratsiyalash: Rejalashtirish iqtisodiy o'sish, tabiiy resurslarni saqlash, uglerod chiqindilarini kamaytirish va suv, yer va energiya resurslarini barqaror boshqarish strategiyalarini yaratishni o'z ichiga oladi.
- Sa'y-harakatlarni muvofiqlashtirish: Rejalashtirish turli sektorlar va ishtirokchilar (davlat, xususiy, jamoat) harakatlarini muvofiqlashtirishga imkon beradi, bu barqaror rivojlanish muammolarini kompleks yechish uchun muhimdir.
- Baholash va tuzatish: Rejalashtirishning muhim qismi amalga oshirishni monitoring qilish bo'lib, bu rejalar va strategiyalarni tashqi va ichki muhit o'zgarishlarini hisobga olgan holda o'z vaqtida tuzatish imkonini beradi.

Iqtisodiy siyosatni shakllantirishda dasturlash, prognozlash va rejalashtirishning o'zaro ta'sirini o‘rganish iqtisodiyot taraqqiyotida yangi imkoniyatlarni yuzaga keltiradi.

Ushbu uch komponent bir-biri bilan chambarchas bog'langan bo'lib, barqaror rivojlanishga tizimli yondashuvni ta'minlaydi:

- Dasturlash strategik maqsadlarni yaratadi.
- Prognozlash kelajakdagi o'zgarishlar va xavflarni bashorat qiladi.
- Rejalashtirish ushbu maqsadlar va prognozlarni aniq qadamlar va harakatlarga aylantiradi.

Shunday qilib, ushbu uch vosita nafaqat barqaror rivojlanishga erishishga yordam beradi, balki iqlim o'zgarishi, iqtisodiy inqirozlar, ijtimoiy tengsizlik va boshqa muammolar kabi zamonaviy xavf-xatarlarga samarali javob berishga imkon beradi.

5.2. Iqtisodiyotda prognozlashning mohiyati va zaruriyati. Prognozlashning tamoyillari, turlari va asosiy uslublari.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida prognozlashtirish — bu iqtisodiy jarayonlarni ilmiy asosda oldindan ko‘ra bilish, o‘tmishdagi tajriba hamda hozirgi rivojlanish dinamikasiga tayangan holda, kelajakda yuz beradigan iqtisodiy holatlarni bashorat qilish tizimidir. U nafaqat mavjud tendensiyalarni tahlil qilishni, balki istiqboldagi taraqqiyot yo‘nalishlarini aniqlashni ham o‘z ichiga oladi.

Prognozlashtirish iqtisodiyotni boshqarishda strategik vosita sifatida xizmat qiladi – u orqali boshqaruv organlari optimal qarorlar qabul qiladi, uzoq muddatli maqsadlarni belgilaydi hamda bu maqsadlarga erishish uchun zarur bo‘lgan hozirgi harakatlarni aniqlaydi. Bu jarayon iqtisodiy xavf-xatarlarni kamaytirishga, resurslardan samarali foydalanishga va umumiy barqarorlikni ta’minlashga xizmat qiladi.

Prognozlash — bu nafaqat iqtisodiyotni tartibga solish jarayonining muhim bosqichlaridan biri, balki mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasini shakllantirishda asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, u o‘zining nazariy asoslari, uslubiy

yondashuvlari va amaliy mexanizmlari bilan mustaqil fan sifatida shakllangan bo‘lib, quyidagi o‘ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi:

- **Birinchidan**, prognozlar buyruq yoki ko‘rsatma shaklida berilmaydi, ya’ni ular direktiv xarakterga ega emas. Prognozlar — bu ehtimoliy rivojlanish ssenariylarini ko‘rsatib beruvchi ilmiy asoslangan takliflardir.
- **Ikkinchidan**, prognozlarda keltiriladigan miqdoriy ko‘rsatkichlar, odatda, **ehtimollik asosida** belgilanadi. Ular aniq raqamli natijalarni emas, balki mumkin bo‘lgan holatlarning oraliqlarini aks ettiradi.
- **Uchinchidan**, prognozlash jarayoni, avvalo, mavjud va kutilayotgan rivojlanish muammolarini aniqlash, ularning kelib chiqish sabablari va oqibatlarini tahlil qilish, hamda ushbu muammolarni hal etish yo‘llarini ishlab chiqishga yo‘naltirilgan.

Iqtisodiy prognozlashning asosiy vazifasi — bu jamiyatning iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanish yo‘nalishlarini real va obektiv baholash hamda ushbu rivojlanishni ta’minlashga qaratilgan optimal boshqaruv qarorlarini ilmiy asoslash uchun ustuvor ssenariy va variantlarni aniqlashdan iborat.

Bundan tashqari, prognozlash jarayoni quyidagi funksiyalarni ham bajaradi:

- iqtisodiyotning rivojlanish tendensiyalarini miqdoriy va sifat jihatdan tahlil qiladi;
- yuzaga kelayotgan muammolarni, yangi iqtisodiy jarayonlar va hodisalarni chuqur o‘rganadi;
- iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotning ehtimoliy ssenariylarini ishlab chiqadi;
- mavjud resurslar va imkoniyatlar doirasida istiqbolli yo‘nalishlarni baholaydi;
- ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy-texnik va boshqa strategik rivojlanish yo‘nalishlarini asoslab beradi.

“Prognoz” atamasi yunon tilidagi *“prognosis”* so‘zidan olingan bo‘lib, u “oldindan bilish”, “bashorat qilish” degan ma’nolarni

anglatadi. Iqtisodiy kontekstda esa bu tushuncha kelajakdagi voqealar va jarayonlarni ilmiy asoslangan usullar yordamida oldindan aniqlash, ularning ehtimoliy rivojlanish ssenariylarini ishlab chiqish jarayonini bildiradi. Shunday qilib, prognozlash – bu kelajakni ilmiy jihatdan koʻra bilish va unga ongli tayyorgarlik koʻrish vositasidir.

Prognoz — bu kelajakdagi voqea va hodisalarning ilmiy asoslangan modeli boʻlib, u ma'lum bir obekt yoki tizimning istiqboldagi ehtimoliy holatini, unga qanday muddatda erishilishi mumkinligini va shu yoʻldagi muqobil (alternativ) yoʻnalishlarni aniqlovchi ilmiy fikrlar va mulohazalar majmuasidir.

Prognozlash jarayonida kelajakdagi rivojlanish ssenariylari shakllantiriladi, ehtimollik tahlillari asosida qarorlar tayyorlanadi hamda strategik rejalashtirish uchun zarur boʻlgan axborot bazasi yaratiladi. Shuning uchun ham prognoz — bu oddiy taxmin emas, balki ilmiy-tadqiqot natijalariga tayangan holda ishlab chiqilgan bashorat modelidir.

Prognozlash — bu prognozni ishlab chiqish jarayoni boʻlib, u ma'lum bir iqtisodiy, ijtimoiy yoki demografik jarayonning istiqboldagi rivojlanishini ilmiy asosda tadqiq etishni oʻz ichiga oladi. Boshqacha aytganda, prognozlashtirish — bu kelajakda yuz berishi mumkin boʻlgan holatlar haqida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish hamda ular asosida ehtimoliy rivojlanish ssenariylarini shakllantirishdir.

Prognozning axborot bazasi sifatida quyidagi manbalar xizmat qiladi:

- **joriy statistik hisobotlar**, masalan, aholining tabiiy va mexanik harakatlari boʻyicha statistik ma'lumotlar;
- **maxsus tashkil etilgan statistik kuzatuvlar**, jumladan, aholini roʻyxatga olish natijalari, tanlama asosidagi ijtimoiy-demografik tadqiqotlar;
- **turli roʻyxatlar va kartotekalar**, aholi tarkibi, migratsiya oqimlari, tugʻilish va oʻlim koʻrsatkichlari haqida yigʻilgan ma'lumotlar.

Prognozlar **rejalashtirish jarayonida muhim vosita** hisoblanadi – ular nafaqat rejalarni ishlab chiqishda, balki ularning bajarilishini

nazorat qilishda, bajarilmagan hollarda esa sabablari va oqibatlarini aniqlashda tahliliy vosita sifatida xizmat qiladi. Prognoz tahlillari orqali rejalarning amalga oshish ehtimolligi baholanadi, shuningdek, muqobil rivojlanish yo‘nalishlari ham ishlab chiqilishi mumkin.

Prognozlar o‘z mohiyati, mazmuni, tahlil qilinayotgan obektning xarakteri va murakkablik darajasiga qarab turlicha shakl va ko‘rinishlarda bo‘lishi mumkin. Bu prognozlash jarayonining elastikligi va moslashuvchanligini belgilaydi.

Shuningdek, **“oldindan aytib berish”** va **“oldindan ko‘ra bilish”** tushunchalari ko‘pincha sinonim sifatida ishlatilsa-da, ular o‘rtasida muayyan farqlar mavjud:

- **Oldindan aytib berish** – bu obekt yoki subektning kelajakdagi holati haqida mantiqiy xulosalar asosida ilgari suriladigan mulohazalardir. Bu yondashuv asosan tajriba, kuzatuv va mavjud ma’lumotlarga tayanadi va bashorat xarakteriga ega bo‘ladi.
- **Oldindan ko‘ra bilish** esa – obektning ichki qonuniyatlarini, rivojlanish mexanizmlarini anglash orqali uning istiqboldagi holatini aniqlashga qaratilgan yondashuvdir. Bu ilmiy-analitik jarayon bo‘lib, rivojlanishning ichki mantig‘i va sabab-oqibat bog‘liqliklariga tayangan holda amalga oshiriladi.

Oldindan ko‘ra bilish uch turga bo‘linadi: ilmiy, ilmiy bo‘lmagan va empirik shakllar.

Ilmiy ko‘ra bilish — bu tabiat va jamiyatdagi jarayonlarning (masalan, ob-havo sharoitlari yoki mamlakat taraqqiyoti) qonuniy rivojlanishini ilmiy usullar asosida tahlil qilish natijasida hosil bo‘lgan ilmiy nazariy xulosalardir.

Ilmiy bo‘lmagan ko‘ra bilish esa real asosga ega bo‘lmagan, o‘zaro bog‘liq bo‘lmagan fantaziyaviy qarashlarga asoslanadi. Bunga fol ochish, Nostradamus bashoratlari kabi holatlar kiradi.

Yempirik ko‘ra bilish – insonlarning kundalik hayotda orttirgan tajribalariga tayanib shakllanadi.

Ilmiy oldindan ko‘ra bilishning uch asosiy shakli mavjud: **gipoteza**, **prognoz** va **reja**.

Gipoteza — bu ma'lum bir hodisaning yuz berishi yoki yuz bermasligi mumkinligi haqidagi farazdir. Odatda, gipoteza darajasida tadqiq qilinayotgan obektning rivojlanishiga doir umumiy qonuniyatlar va miqdoriy tavsiflar ilgari suriladi.

Prognoz esa obektning kelajakdagi holati, unga erishish muddati va ehtimoliy yo'llari to'g'risidagi ilmiy asoslangan taxminiy mulohazalardir. U gipotezaga nisbatan aniqroq bo'lib, nafaqat miqdoriy, balki sifat jihatlariga ham ega bo'ladi.

Reja (plan) — bu tadqiq qilinayotgan holat yoki obekt bo'yicha yaqqol shakllangan tasavvurdir, u aniq voqelikni ko'zda tutadi va belgilangan maqsadni aniq ravishda qo'yishni talab qiladi.

Prognoz va rejaning bir-biridan farqlari:

1) reja direktiv xarakterga ega bo'lsa, prognoz – esa tavsiya etuvchi;

2) rejani ishlab chiqishda doim prognoz ishlab chiqilishini talab etadi;

3) prognoz ko'p variantli, reja esa unday emas.

Prognoz va reja ishlab chiqilgandan keyin bir qator aniq chora-tadbirlar, davri boshlanadi. Ko'pincha bu jarayon dasturni ishlab chiqish shaklida amalga oshiriladi.

Prognoz kelajakdagi voqealarni oldindan tasvirlashga xizmat qiladi va ma'lum sohada yuz berishi kutilayotgan o'zgarishlardan oldinroq tayyorlanadi. Prognoz qilinayotgan obektning rivojlanish tendensiyalari qancha uzoq muddatga aniqlansa, boshqaruv samaradorligi shuncha yuqori bo'ladi. Amaliyotda prognozning uch asosiy turi mavjud:

- ❖ qisqa muddatli (1 yildan 5 yilgacha),
- ❖ o'rta muddatli (15 yilgacha)
- ❖ uzoq muddatli (15 yil va undan yuqori).

Bugungi kunda tezkor ilmiy-texnik taraqqiyot sharoitida uzoq muddatli prognozlarning ahamiyati kamaymoqda. Qo'shma korxonalarda esa qisqa muddatli prognozlar odatda 5 yildan oshmagan muddat uchun ishlab chiqiladi.

Prognozlashda asosiy prinsiplar quyidagi sxema orqali amalga oshiriladi:

- nazariy jihatdan erishilishi mumkin bo‘lgan maqsadlar;
- imkon qadar erishish yo‘llari va mablag‘lari;
- yehtimoliy resurslar.

Rejalashtirish esa quyidagi asosiy ko‘rinishga ega:

- tavsiya etilgan yoki majburiy maqsadlar;
- mavjud erishish yo‘llari va mablag‘lar;
- aniq belgilangan vazifalar;
- cheklangan resurslar.

Makrorejalashtirish esa makroprognoz bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, davlat dasturlari, byudjet va soliq rejalashtirish hamda bozorlarga taalluqlidir.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida prognozlash jarayonining asosiy tamoyillari quyidagicha ifodalanadi:

1. **Ilmiy asoslanganlik** — prognoz tabiat va jamiyatning rivojlanish qonuniyatlariga tayangan holda, ilmiy metodlar yordamida tuzilishi lozim;

2. **Uzluksizlik** — mamlakat va iqtisodiyotdagi holatlarning o‘zgarishiga qarab prognozlar doimiy ravishda yangilanib, to‘g‘rilanishi kerak;

3. **Istiqbol va joriy prognozlashning uyg‘unligi** — prognozlash jarayoni o‘zaro bog‘liq tarzda amalga oshiriladi, bunda ustuvor o‘rin istiqbol prognozlashga beriladi;

4. **Prognozlarning kelishilganligi** — ishlab chiqilgan prognozlar boshqa aralash prognozlar bilan uyg‘unlashgan bo‘lishi talab etiladi.

5. **Prognozning ko‘p variantliligi va al’ternativligi** — prognoz bir nechta variantda ishlab chiqilishi zarur; turli vaziyatlar yuzaga kelganda boshqa variantlardan foydalanish imkoniyati bo‘lishi talab etiladi. Odatda uch xil prognoz ko‘riladi: optimistik, pessimistik va realistik;

6. **Asosiy omillarni tanlash** — prognozlashda hisob-kitoblarga ta’sir etuvchi muhim omillar kiritilishi lozim. Bu muhim,

chunki iqtisodiy jarayonlar murakkab va ko‘p omilli bo‘lib, barcha omillarni hisobga olish qiyin;

7. **Prognoz ishlab chiqishning tizimliligi** — prognozlash jarayoni bir tomondan yagona tizim sifatida, boshqa tomondan mustaqil bo‘limlardan tashkil topgan murakkab tizim sifatida ko‘riladi;

8. **Prognozlarning verifikasiyalanganligi** — prognoz natijalari ishonchli va asosli bo‘lishi zarur;

9. **Adekvatlilik** — prognoz modeli real hayot, mavjud tendensiyalar va qonuniyatlarga maksimal darajada mos kelishi lozim;

10. **Rentabellik** — ishlab chiqilgan prognozdan olingan foyda uning tayyorlash xarajatlaridan yuqori bo‘lishi kerak.

Prognozlash tamoyillari prognozlash modellari va turli metodlarini metodologik yagonaligini ta’minlaydi.

Iqtisodiyotni davlat tomonidan prognozlashning asosiy yo‘nalishlari quyidagilar hisoblanadi:

1) Iqtisodiyotni asosiy sohalari rivojlanishini tavsiflovchi kengaytirilgan takror ishlab chiqarishda zarur proporsiyalarni ta’minlash muammolarni yechish;

2) Umumdavlat investision va ilmiy-texnik siyosatini amalga oshirish;

3) Davlatlar o‘rtasida tashqi iqtisodiy aloqalarni shakllantirish;

4) Davlat maqsadli dasturlari va favqulotdagi vaziyatlarda lokalizasiya dasturlarini amalga oshirish uchun zahiralarni tashkil qilish;

5) Mamlakatni himoya qobiliyatini ta’minlash;

6) Ko‘rsatilgan yo‘nalishlar ustuvorligini baholash:

a) jahon tendensiyalari bilan bozor konyukturasi bilan va rivojlanishi mumkin bo‘lgan yo‘nalishlari bilan taqqoslash orqali jamiyat va iqtisodiy holati;

b) makroiqtisodiy, demografik, ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-texnik prognozlar, shuningdek, ishchi kuchi joylashuv prognozi;

v) iqtisodiyot rivojlanishini balanslash maqsadida narx, antiinfilyasion, soliq, moliya-kredit va antimonopoliya siyosati yuritish;

g) davlat ijtimoiy sohalar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash maqsadida tarmoq potensialini oshirish;

d) iqtisodiyotda bozor infrastrukturasini va informasion oqimlarini rivojlanishi.

Iqtisodiy rejalashtirish va prognozlashning mamlakat miqyosidagi asosiy yo‘nalishlari:

1 Ijtimoiy ehtiyojlar va ularni qondiruvda zarur bo‘lgan moddiy, mehnat va moliyaviy resurs;

2 Resurslar rasional foydalanish;

3 Mamlakat mintaqalari va tarmoqlar o‘rtasida rivojlanishni balanslashtirishni ta’minlash.

Makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar soni modellashtirishni to‘la qonli egallab oladi. Lekin olingan natija mutaxassislar fikrini hisobga olib, to‘g‘rilangan bo‘lishi kerak. Makroiqtisodiy parametrlarni modellashtirish formulalari quyidagicha ko‘rinishga ega:

1 Mustaqil yoki bog‘lanmagan omillar modeli: y=f(0,z,u)

2 Bog‘lanagan omillar modeli: $y=f(x^1, x^2, x^3)$

3 Chiziqli model: $y= a^0+a^1x^1+a^2x^2+...+anxn$. Uni ko‘p qo‘llaniladi, sababi hisoblash oson va sodda

4 Darajali model: $y= a^0 x^1 a x^2 a…xn a$

5 Logorifmli model: $y= a^0+a^1 lg\ x^1+a^2\ lg\ x^2+…+a^n\ lgx^n$.

Bunda y- ko‘rsatkich prognozi, $x^{1,2,3}$ –bog‘langan omillar ta’siri, 0,z,u – mustaqil (bog‘lanmagan) omillar ta’siri, $a^{0,2,3,n}$ –ta’sirning asosiy parametrli omillari.

Ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni prognozlashda shartli ravishda metodlarini 3 xil muhim guruhlarga bo‘lish mumkin:

1. Ekstropolyasiya metodi

2. Ekspert baholash metodi

3 Modellashtirish metodi.

Yekstrapolyasiya metodining mohiyati shundaki, tahlil qilinayotgan obyektning o‘tgan zamonda alohida parametrlarini analiz qilish hamda o‘zgarishlarni keltirib chiqaradigan omillarni tadqiq qilishda jarayonlarni kelajakda shakllantirish yo‘llari va rivojlantirish qonuniyatlaridan xulosa qilinadi. Bu metodda prognozlash 2 turdagi

vazifalarni ajratish maqsadga muvofiqdir: a) dinamik va b) statik analiz vazifalari.

Yekspert baholash metodining mohiyati shundaki, malakali mutahassislarning beradigan bahosi asosida resurslarning shakllanishi yoki rivojlanishi, ustuvor yo‘nalishlari haqida hulosa qilinadi. Ekspertlar bilan ishning shakliga qarab ekspertizaning individual va kollektiv metodlari farqlanadi. Ekspertizaning individual metodi har bir ekspert bilan personal ish olib boradi va boshqa fikrlar ham hisobga olinib ekspert hulosasi beriladi.

5.3. Iqtisodiy siyosatni asoslashda tashqi sharoitlarning o‘rni

XX asrning oxirgi o‘n yilligi insoniyat tarixiga buyuk o‘zgarishlar davri bo‘lib kirdi, chunki yer yuzida vaziyat, kuchlar nisbati keskin o‘zgarib, bir-biriga qarama-qarshi bo‘lgan sobiq Ittifoq va AQSH yetakchilik qilgan ikki ijtimoiy-siyosiy tuzum, ikki harbiy-siyosiy blok barham topdi. Ijtimoiy tuzumning yemirilishi bilvosita butun mamlakatlar taqdiriga ta’sir etdi. Dunyo yangilanishi jarayonida har bir davlat o‘z taraqqiyot ko‘lami bilan jahon hamjamiyatidan munosib o‘rin olish uchun harakat boshladi. Shular qatori O‘zbekiston ham jahon hamjamiyatidan munosib o‘rin olish maqsadida o‘zining ijtimoiy-siyosiy yangilanish dasturini ishlab chiqdi. O‘zbekistonning o‘z taraqqiyot istiqbollari uchun qulay jo‘g‘rofiy-siyosiy imkoniyatlarga ega ekanligi ham mustaqil tashqi siyosat yuritish, jahon hamjamiyatidan munosib o‘rin olish uchun imkon berdi. Xususan, O‘zbekistonning Markaziy Osiyo mintaqasidagi o‘rni, bu hududda istiqomat qiladigan xalqlarning qadimdan hamfikr bo‘lib kelgani Markaziy Osiyo mintaqasida tashqi siyosat yuritishda ijtimoiy zarurat hisoblanib kelinmoqda. O‘zbekistonning bu borada amalga oshirgan ulkan yutuqlari umumjahon sivilizasiyasi bilan mushtarak ekanligini alohida qayd etish lozim.

Ma’lumki, sobiq ittifoq davrida O‘zbekiston tashqi siyosatda boshqa davlatlar bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri aloqa qilish imkonidan mahrum bo‘lib, respublikaning o‘rni faqat qog‘ozlarda federatsiya subyekti sifatida mustahkamlangan edi, xolos. O‘zbekiston o‘z

imkoniyatlarini dunyo miqyosida ko‘rsatishdan ajrab qolgan, xorij bilan xalqaro aloqalar faqat markazning ruxsati bilan amalga oshirilar edi.

Istiqlolning dastlabki kunlaridan boshlab O‘zbekistonda xalqaro tashkilotlar faoliyatini o‘rganish, xorijiy davlatlar bilan diplomatik, turistik aloqalarni yo‘lga qo‘yish va bu ishlarda faoliyat yuritish uchun yuqori malakali milliy kadrlar yetishtirish ehtiyoji kelib chiqdi. Shuni ta’kidlash kerakki, O‘zbekiston bu ishlarni rejali tarzda amalga oshirdi.

“Xalqaro hamjamiyatning to‘la huquqli a’zosi bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarda mustaqil davlat, xalqaro huquq subyekti sifatida qatnashadi. Uning maqsadlari mustahkam tinchlik, qurolsizlanish, o‘z hududini qurol-yarog‘lardan holi qilish, yadroviy qurolni va boshqa ommaviy qirg‘in qurollarini yo‘qotish, suveren davlatlar o‘rtasidagi nizo va ziddiyatlarni hal etishda kuch ishlatish va tazyiqqa yo‘l qo‘ymaslikdan iborat”, deb 1991-yil 31-avgustda Oliy Kengash VI sessiyasida qabul qilingan “Mustaqillik haqidagi Bayonot”da o‘z tashqi siyosatining asosiy yo‘lini belgilab oldi. O‘zbekiston Respublikasi 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan Konstitusiyamizning 17-moddasida bu yo‘lni qonun bilan mustahkamladi.

O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining asosiy ustuvor tamoyillarini quyidagilarni tashkil etadi:

• milliy-davlat manfaatlarini ustun qo‘ymagan holda tashqi siyosatda davlatlarning suveren tengligini hisobga olish;

• umumbashariy qadriyatlarni ustun qo‘ymagan holda nizoli mojarolarni tinch yo‘l bilan hal etish;

• tashqi siyosatdagi teng huquqlilik va o‘zaro manfaatdorlikni o‘rnatishda boshqa mamlakatlarning ichki ishlariga aralashmaslik;

• barcha tinchliksevar davlatlar bilan tashqi aloqalarni o‘rnatishga intilish;

• xalqaro huquq normalarini tan olgan holda jahon hamjamiyatida xalqaro talablarga rioya qilish;

• tashqi siyosatda ko‘p tomonlama aloqalarni o‘rnatishda xalqaro tashkilotlar doirasida aloqalarni kengaytirish masalalari kiritildi.

O‘zbekiston Respublikasi butun jahon jamoatchiligi oldida xalqaro huquqning umumjahon e’tirof etgan normalariga sodiqligini Konstitusiya darajasida ham mustahkamladi. Xalqaro huquqning tamoyillari va normalarining butun bu majmui Konstitusiyaga BMT Ustavidan, Inson huquqlari umumiy deklaratsiyasidan va inson huquqlariga oid boshqa xalqaro huquq bitimlardan, Xelsinki bitimi, Parij va Madrid xartiyalariga asoslandi. Shuningdek, asosiy qonunga kiritilgan qonunlarni rivojlantirish maqsadida “Diplomatik munosabatlarni o‘rganish tartibi”, “O‘zbekistonda xalqaro shartnomalarni tuzish, ijro etish va bekor qilish” haqida aktlar ham qabul qilindi. Ularda tashqi siyosatning har tomonlama asoslangan tamoyillari o‘z aksini topdi.

Mamlakatimizni jahon xalqlari tinchligi va xavfsizligini mustahkamlashga qaratilgan tinchliksevar tashqi siyosati uning jahon miqyosida mustaqil davlat sifatida tezda tan olinishini ta’minladi. O‘zbekiston Respublikasi o‘zining tashqi siyosatdagi yo‘nalishlarini demokratik prinsiplarga asoslangan holda olib borar ekan, 1991-yil dekabrdan 1992-yil iyul oyigacha bo‘lgan davr ichida respublikani 111 davlat, hozirgi kunga qadar esa O‘zbekiston mustaqilligini 180 dan ortiq davlat tan oldi, ularning 100 dan ortig‘i bilan diplomatik, siyosiy, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy aloqalar o‘rnatildi. Toshkentda AQSH, Turkiya, Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya, Xitoy, Hindiston, Pokiston va boshqa rivojlangan mamlakatlarning elchixonalari ochildi. Shuningdek, O‘zbekistonda 88 ta xorijiy mamlakatlar va xalqaro tashkilotlarning, 24 ta hukumatlararo va 13 ta nohukumat tashkilotlarning vakolatxonalari faoliyat ko‘rsatmoqda. O‘z navbatida O‘zbekistonning elchilari dunyodagi 20 dan ortiq yirik davlatlarda faoliyat ko‘rsatib turibdi.

O‘zbekiston tashqi siyosatining asosini ochiq-oydinlik, teng huquqlik, demokratik prinsiplariga sodiqlik, umuminsoniy qadriyatlarini ulug‘lash, respublika ijtimoiy hayotidagi demokratik jarayonga ta’sir qilish kabilar tashkil etadi va Respublika tashqi siyosati tinchlik va xavfsizlik uchun umumjahon e’tirof etgan ochiq yakdillik talablariga asoslanadi. 1992-yil 2-martda O‘zbekiston xalqaro

munosabatlarning to‘la huquqli subyekti sifatida Birlashgan Millatlar Tashkilotiga a’zo bo‘lib dunyo miqyosida tan olindi. Bu voqea Respublikaning mustaqil davlat sifatida xalqaro hamjamiyatda munosib o‘rin olishda ham katta ahamiyatga ega bo‘ldi. 1993-yil fevral oyiga kelib Toshkentda BMT vakolatxonasi ochildi.

O‘zbekiston BMTning to‘laqonli a’zosi sifatida Birlashgan Millatlar Tashkilotining yig‘ilishlarida ishtirok etishi bilan o‘zining xalqaro hamjamiyatga kirish jarayonini davom ettirdi. O‘zbekiston rahbariyatining dunyodagi global muammolarga jahon miqyosida e’tiborini qaratishi O‘zbekistonning tashqi siyosatda tutgan aniq o‘rnini belgilab berdi. Chunonchi, 1993-yil Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 48-sessiyasidagi ma’ruzasida O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning ilgari surgan birinchi xalqaro tashabbusi O‘zbekistonning xalqaro miqyosdagi adolatparvar siyosatidan darak berdi. I.A.Karimov bu ma’ruzasida bir qator aniq takliflarni tashladi. Bularga Markaziy Osiyoda xavfsizlik va hamkorlik masalalari bo‘yicha BMTning doimiy ishlaydigan seminarini chaqirish, BMT xavfsizlik kengashida yuzaga kelayotgan mojarolarni tahlil qilish va istiqbolini belgilash bo‘yicha maxsus guruh tuzish, Markaziy Osiyoni yadrosiz zona deb e’lon qilish, bu mintaqada kimyoviy modda hamda bakteriologik qurolni ta’qiqlash bo‘yicha xalqaro nazorat o‘rnatish, Markaziy Osiyoda narkobiznesga qarshi hamkorlikda kurashish uchun BMTning mintaqaviy komissiyasini tuzish, Orol muammosini hal qilish masalasi bo‘yicha BMTning maxsus komissiyasini tuzish kabilar kirdi.

O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov 1995-yil BMTning ellik yilligi munosabati bilan Bosh Assambleyaning maxsus tantanali yig‘ilishida so‘zlagan nutqida ham asosiy e’tiborni bu tashkilotning faoliyatini yanada kengaytirish bilan bir qatorda yana mintaqaviy xavfsizlik va barqarorlik, ekstremizm, terrorizm, narkobiznesga qarshi kurash masalalariga qaratdi. Birinchi Prezidentimiz muayyan “olovli nuqtalar” deb atalayotgan mintaqalarda birgalashib harakat qilib, tinchlik va barqarorlikka erishish lozimligi haqidagi aniq takliflarni kiritdi va O‘zbekiston “ommaviy qirg‘in

qurollarini tarqatmaslikni ta'minlash bo'yicha kerakli xalqaro kafolatlarni qabul qilishni, yadro sinovlarini butunlay to'xtatish haqidagi shartnomaning tezda tuzilishi tarafdori" ekanligini ham ko'rsatib o'tdi.

Ushbu yig'ilishda davlatimiz rahbari Sh. Mirziyoyev tomonidan Orol dengizi qurishi bilan bog'liq bo'lgan global muammoni ko'tarib chiqqani ham muhim ahamiyat kasb etdi. I.A.Karimov "Orol dengizining qurishi bilan bog'liq ekologik fojea, butun yer yuzini qamrab oladigan biosfera, o'nlab million kishilarning hayot sharoitlari, salomatligi, nasliga halokatli ta'sir ko'rsatuvchi global muammo" ekanligini ko'rsatib, bugungi kunda BMTning tashkilotchilik faoliyatisiz bu muammoni hal etish mumkin emasligini ham asoslab berdi.

Bunday muammolar Birinchi Prezidentimizning fundamental asari "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari" kitobida batafsil nazariy va amaliy jihatdan asoslab berildi. Asarda dunyoda barqarorlik va jo'g'rofiy-siyosiy muvozanat saqlanib qolgan sharoitdagina har qanday mintaqada rivojlanish kuchli bo'lishi asoslab o'tildi.

O'zbekiston rahbarining yuksak minbardan turib kiritgan xalqaro miqyosda manfaatli bo'lgan takliflari jahon hamjamiyati tomonidan qo'llab-quvvatlandi va shunga asoslanib 1995-yil 16-sentyabrda Toshkentda BMTning Markaziy Osiyoda xavfsizlik va hamkorlik masalalariga bag'ishlangan seminar-kengashi ish boshladi. Dunyoning ko'p davlatlari ishtirok etgan bu seminarda O'zbekiston rahbarining so'zlagan nutqi bosh hujjat sifatida qabul qilindi. I.A.Karimov bu uchrashuvning "Tinchlik, Barqarorlik, Hamkorlik" shiori ostida o'tayotganini mamnuniyat bilan izhor qilib, bu uchrashuv mintaqaviy barqarorlikni ta'minlashda muhim yo'l bo'lib xizmat qilishini ko'rsatib berdi.

Xalqaro munosabatlar ravnaqi mamlakatimizda xavfsizlik va barqarorlikning, aholi turmush darajasini yuksaltirishning o'ziga xos kafolati ekanligi hech kimga sir emas. Shu bois ham O'zbekiston rahbariyatining tashqi siyosatda mintaqaviy barqarorlikni saqlab qolish

maqsadida ilgari surgan tashabbuslari ko‘pgina davlatlar va BMT tomonidan doimo tasdiqlanib kelindi. BMT Bosh Assambleyasining sessiyalarida, Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkiloti sammitidagi yig‘ilishlarda O‘zbekiston Prezidentining kiritgan aniq tashabbuslari, mintaqa xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan taklifi BMT boshchiligidagi “6+2” guruhining tuzilishiga asos bo‘lgan edi. (O‘zbekiston, XXR, Rossiya, eron, Pokiston, Tojikiston, kuzatuvchi sifatida BMT, Birlashgan front va “Tolibon” harakati). Ushbu guruhning 1999-yil iyul oyida Toshkentda o‘tkazgan uchrashuvi muhim xalqaro voqea bo‘ldiki, bu uchrashuv mintaqaning o‘zida bo‘lib o‘tdi. Uchrashuvning yakuni sifatida 19-iyul kuni “Afg‘onistondagi mojorolarni tinch yo‘l bilan hal qilishning asosiy prinsiplari to‘g‘risidagi” tarixiy hujjat imzolandi. Ushbu hujjat BMTning rasmiy hujjati sifatida tarqatildi. Mazkur anjuman O‘zbekiston rahbariyatining ko‘p yillik sa’y-harakatlari natijasi edi. O‘zbekiston rahbariyatining tinchlik yo‘lidagi harakatlari mazkur uchrashuvdan Afg‘onistonda muxolif kuchlar o‘rtasida boshlangan jangavor harakatlarning oldini olish uchun Respublika Tashqi ishlar vazirligining Bayonotida ham yaqqol ko‘zga tashlandi. Mazkur Bayonot o‘zaro qon to‘qilishning oqibatlari haqida jiddiy tashvishlangan holda muxolif tomonlarning harakatlarini qoralab o‘tdi. Bularning barchasi dunyo hamjamiyati oldida O‘zbekistonning tinchlik yo‘lidagi real harakatlarining asosi sifatida yaqqol ko‘zga tashlanib qoldi.

5.4. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarning o‘rni

2017-yil 14-yanvar kuni Vazirlar Mahkamasining mamlakatimizni 2016-yildagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlarini har tomonlama tahlil qilish hamda respublika hukumatining 2017-yil uchun iqtisodiy va ijtimoiy dasturi eng muhim yo‘nalishlari va ustuvor vazifalarini belgilashga bag‘ishlangan kengaytirilgan majlisi bo‘lib o‘tdi.

Mamlakat Prezidenti o‘z ma’ruzasida mavjud hal bo‘lmagan muammolar va to‘liq ishlatilmagan zahiralarni batafsil va har tomonlama muhokama qilgan holda 2017-yildagi respublikaning

iqtisodiy va ijtimoiy dasturi eng muhim strategik vazifalari va ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha taklif kiritdi. Ustuvor vazifalar ichida “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili” Davlat dasturi doirasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar muhim ahamiyat kasb etdi. Jumladan, aholining turmush darajasi va sifatini yaxshilash, moddiy farovonligini oshirish hamda doimiy va ochiq muloqotni rivojlantirishga qaratilgan ijtimoiy siyosatni izchil davom ettirish masalalari markaziy o‘ringa chiqdi.

Ayniqsa bugungi kunda jahon amaliyotida dasturlar masalan, BMTning Barqaror rivojlanish dasturi 2030-yilgacha davlatlar iqtisodiy siyosatini belgilashda alohida ahamiyat kasb etadi.

Bu global tashabbus bo'lib, qashshoqlik va ochlikka qarshi kurashdan tortib, ekotizimlarni himoya qilish va tinchlik va adolatni ta'minlashgacha bo'lgan 17 ta Barqaror rivojlanish maqsadlariga (BRM) erishishga qaratilgan. Dastur quyidagi maqsadlarni o'z ichiga oladi:

- Qashshoqlik va ochlikni yo'q qilish.
- Ta'lim va sog'liqni saqlash.
- Atrof-muhitni himoya qilish.
- Tengsizlikni kamaytirish.
- Barqaror iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlash.

Hukumat, vazirliklar, idoralar, xo‘jalik birlashmalari hamda mahalliy hokimiyat rahbarlari zimmasiga quyidagi vazifalar yuklatildi: sohalar va hududlar rivojida yuzaga kelgan muammolarni bartaraf etish, real sektorda yuqori o‘sish sur’atlarini saqlash, investitsiyalarni faol jalb qilishni davom ettirish, eksport hajmini kengaytirish, hududlarni har tomonlama va izchil rivojlantirish, tadbirkorlarning huquqlari va manfaatlarini yanada samarali himoya qilish. Shu bilan birga, real sektorni boshqarishda davlat ishtirokini bosqichma-bosqich kamaytirish va tegishli boshqaruv organlari faoliyatini chuqur takomillashtirish vazifasi ham belgilandi.

Shahar va qishloq hududlarida aholining turmush sharoitini yaxshilash maqsadida arzon uy-joylar qurish, transport yo‘llari, muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari hamda ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish va zamonaviylashtirishga qaratilgan yangi maqsadli

dasturlarni amalga oshirish bo‘yicha muhim vazifalar va aniq choralar belgilab olindi.

Mamlakatimiz Prezidenti tomonidan hukumat, vazirliklar, idoralar, xo‘jalik birlashmalari va hokimliklar rahbarlari oldiga quyidagi aniq ustuvor vazifalar va talablar qo‘yildi:

Birinchi – 2017-yilgi iqtisodiy va ijtimoiy dasturning o‘n bitta eng muhim ustuvor vazifalarini amalga oshirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish;

Ikkinchi – iqtisodiyot tarmoqlari, ijtimoiy soha va respublika hududlarida ishlarning holatini tizimli tanqidiy tahlil qilish va shu asosda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning asosiy yo‘nalishlari hamda ustuvor vazifalariga tegishli tuzatishlar kiritish;

Uchinchi – yakuniy ish natijalari, qattiq intizomga rioya qilish hamda tobora ortib borayotgan zamonaviy talablarga muvofiq boshqaruv tizimi samaradorligini kuchaytirish borasida rahbarlar va mansabdor shaxslarning shaxsiy mas’uliyatini oshirish.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni loyihasi ishlab chiqildi. Harakatlar strategiyasining maqsadi olib borilayotgan islohotlar samaradorligini tubdan oshirishdan, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishini ta’minlash uchun shart-sharoitlar yaratishdan, mamlakatni modernizasiyalash va hayotning barcha sohalarini erkinlashtirishdan iboratdir.

Xususan, mamlakatni rivojlantirishning quyidagi 5 ta ustuvor yo‘nalishi belgilangan:

1 Davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirish;

2 Qonun ustuvorligini ta’minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilish;

3 Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirish;

4 Ijtimoiy sohani rivojlantirish;

5 Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta’minlash, chuqur o‘ylangan, o‘zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosat yuritish.

“Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirish” yo‘nalishida belgilangan chora-tadbirlarni amalga oshirish doirasida quyidagi ustuvor vazifalar belgilangan: milliy valyuta va narx barqarorligini ta’minlash, valyuta tartibga solishning bozor tamoyillariga asoslangan mexanizmlarini bosqichma-bosqich joriy etish, mahalliy byudjet daromadlarini kengaytirish, tashqi iqtisodiy aloqalarni faollashtirish. Shu bilan birga, eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish uchun ilg‘or texnologiyalarni joriy etish, transport va logistika infratuzilmasini rivojlantirish, tadbirkorlik va xorijiy investitsiyalar uchun qulay muhit yaratish, soliq boshqaruvini takomillashtirish, bank tizimini zamonaviy tamoyillar asosida tartibga solish, ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaliklarini kengaytirish hamda turizm sohasini tezkor sur’atlarda rivojlantirish vazifalari ham ko‘zda tutilgan. Xususan, iqtisodchi D.Ye.Umrzakova turizmni rivojlantirishda aynan “to‘siqsiz turizmni” rivojlantirishga alohida ahamiyat bergan va xususiyatlarini ochib bergan. Unda “imkoniyati cheklangan insonlarning talabiga ko‘ra, o‘ziga mos holda gid-yekskursavodlarning mavjud bo‘lishi”[1] deb imkoniyati cheklanganlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashga alohida e’tibor bergan.

Mazkur yo‘nalishda, shuningdek, xususiy mulk va moliya bozorini himoya qilish, qishloq xo‘jaligini zamonaviylashtirish, zargarlik sanoatini rivojlantirish, shuningdek, ayrim milliy korxonalarning aksiyalarini nufuzli xorijiy fond birjalarida dastlabki ommaviy joylashtirish (IPO)ga tayyorlash bo‘yicha zarur chora-tadbirlarni amalga oshirish ham nazarda tutilgan.

2017–2021-yillar davomida umumiy qiymati 40 milliard AQSH dollariga teng bo‘lgan 649 ta investitsiya loyihasini o‘z ichiga olgan tarmoq dasturlarini amalga oshirish rejalashtirilgan. Ushbu loyihalar natijasida, kelgusi besh yilda sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 1,5 barobarga ortishi, uning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 33,6 foizdan 36 foizgacha, qayta ishlash sanoatining ulushi esa 80 foizdan 85 foizgacha yetishi kutilmoqda.

[1] **D.E.Umrzakova.** To’siqsiz turizmning xususiyatlari va uni rivojlantirish omillari. Inson kapitali va ijtimoiy rivojlanish jurnali. ISSN 3030-3672. 2025 - volume 13, issue 1 246-254 b.

Tayanch iboralar: Prognozlashtirish, tamoyillar, rejalashtirish, tashqi sharoitlar, rivojlantirish dasturlari, ekstrapolyasiya metodi, ekspert baholash, modellashtirish, makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar, verifikasiya, ilmiy asoslanganlik, uzluksizlik, ko‘p variantlilik, tizimllik, adekvatlik, qisqa muddatli, o‘rta muddatli, uzoq muddatli.

Nazorat takrorlash uchun savollar

1. Prognozlashning ta’rifini bering va uning bozor iqtisodiyoti sharoitidagi ahamiyatini tushuntiring.
2. Prognozlashning 3 xil asosiy belgilarini sanab bering va har birini qisqacha tavsiflab bering.
3. Prognozlashning asosiy vazifasi nima va u qanday yo‘llar bilan amalga oshiriladi?
4. Prognoz va prognozlash tushunchalarini bir-biridan farqlang.
5. Prognoz va rejaning o‘rtasidagi 3 ta asosiy farqni sanab bering.
6. Prognozlashning vaqt jihatdan 3 xil turini nomlang va har birining muddatini ko‘rsating.
7. Prognozlashda prinsipial sxema qanday ko‘rinishga ega?
8. Makrorejalashtirish nimalarni o‘z ichiga oladi?
9. Prognozlashning 10 ta asosiy tamoyilini sanab bering.
10. Prognozlashning ilmiy asoslanganlik tamoyili nimani nazarda tutadi?
11. Prognozlashning ko‘p variantliligi tamoyili nima uchun muhim?
12. Iqtisodiyotni davlat tomonidan prognozlashning 6 ta asosiy yo‘nalishini sanab bering.
13. Makroiqtisodiy parametrlarni modellashtirish formulalarining 5 turini nomlang.
14. Ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni prognozlashning 3 ta asosiy metodini nomlang va har birining mohiyatini qisqacha tushuntiring.
15. Ekstrapolyasiya metodi qanday 2 xil vazifaga bo‘linadi?
16. Ekspert baholash metodining individual va kollektiv shakllari nimada farqlanadi?

17. XX asrning oxirgi o‘n yilligi nima bilan xarakterlanadi va bu O‘zbekistonga qanday ta’sir ko‘rsatdi?

18. O‘zbekiston Respublikasining mustaqillikdan keyingi tashqi siyosatining asosiy yo‘nalishini belgilab bergan qanday muhim hujjatlar qabul qilindi?

19. O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining 6 ta asosiy ustuvor tamoyilini sanab bering.

20. O‘zbekiston BMTga qachon a’zo bo‘ldi va bu voqeaning ahamiyati nimada?

VI BOB. IQTISODIY SIYOSATNI ISHLAB CHIQISHDA VOSITALAR VA CHEKLOVLAR

6.1. Iqtisodiy siyosatning asosiy vositalari, iqtisodiy siyosatni ishlab chiqishdagi cheklovlar.

6.2. Iqtisodiy siyosatda siyosiy cheklovlar (demokratiya, saylash huquqi va siyosiy raqobat).

6.3. Iqtisodiy siyosatni ishlab chiqishda ichki va tashqi iqtisodiy cheklovlar.

6.4. Iqtisodiy siyosatda saylovchilar, siyosiy partiyalar va taklif etilayotgan dasturlar. Parlament va institutsional uzgarishlar.

6.1. Iqtisodiy siyosatning asosiy vositalari, iqtisodiy siyosatni ishlab chiqishdagi cheklovlar

Iqtisodiy siyosat vositalari davlatning iqtisodiyotni boshqarishda foydalanadigan usullari va mexanizmlaridir. Ular iqtisodiy o'sish, barqarorlik va ijtimoiy adolatni ta'minlashga xizmat qiladi. Iqtisodiy siyosatning asosiy vositalari quyidagilardan iborat:

1. Pul-kredit siyosati vositalari

- Foiz stavkalari: Markaziy bank foiz stavkalarini o'zgartirib, kreditlar narxi va iqtisodiy faollikni tartibga soladi. Yuqori stavkalar inflyatsiyani pasaytiradi, ammo o'sishni sekinlashtirishi mumkin; past stavkalar esa iqtisodiy faollikni rag'batlantiradi, lekin inflyatsiyani oshirishi mumkin.
- Ochiq bozor operatsiyalari: Davlat obligatsiyalarini sotib olish yoki sotish orqali pul massasi boshqariladi. Sotib olish pul massasini oshiradi, sotish esa kamaytiradi.
- Majburiy zaxiralar: Banklar markaziy bankda saqlashi kerak bo'lgan zaxira miqdorini belgilash orqali kreditlash hajmi nazorat qilinadi.
- Diskont stavkasi: Tijorat banklarining markaziy bankdan qarz olish stavkasi bo'lib, bu bank likvidligi va iqtisodiy faoliyatga ta'sir qiladi.

2. Fiskal siyosat vositalari

- Soliqlar: Soliq stavkalarini oshirish yoki kamaytirish iste'mol va investitsiyalarga ta'sir qiladi. Kamaytirish talabni oshiradi, ko'paytirish esa iqtisodiy faollikni pasaytirishi mumkin.
- Davlat xarajatlari: Infratuzilma, ta'lim, sog'liqni saqlash va ijtimoiy dasturlarga sarflanadigan xarajatlar iqtisodiy o'sishni rag'batlantiradi.
- Davlat qarzi: Byudjet taqchilligini qoplash yoki loyihalarni moliyalashtirish uchun obligatsiyalar chiqariladi.
- Subsidiyalar va grantlar: Muayyan tarmoqlar yoki ijtimoiy guruhlarni qo'llab-quvvatlash uchun moliyaviy yordam.

3. Strukturaviy siyosat vositalari

- Xususiylashtirish: Davlat mulkini xususiy sektorga o'tkazish raqobatbardoshlikni oshiradi.
- Sanoatlarni tartibga solish: Energetika, transport kabi tarmoqlarda raqobat yoki monopoliyani boshqarish.
- Liberalizatsiya: Byurokratik to'siqlarni kamaytirish orqali biznes muhitini yaxshilash.
- Innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash: Tadqiqotlar, startaplar va yangi texnologiyalarni moliyalashtirish.

4. Ijtimoiy siyosat vositalari

- Ijtimoiy to'lovlar: Ishsizlik nafaqalari, pensiyalar, kam ta'minlangan oilalarga yordam.
- Sog'liqni saqlash va ta'lim: Davlat xarajatlari orqali ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish.
- Minimal standartlar: Eng kam ish haqi va turmush darajasini belgilash.

5. Tashqi savdo siyosati vositalari

- Bojxona tariflari va kvotalar: Mahalliy ishlab chiqarishni himoya qilish yoki eksportni rag'batlantirish.
- Savdo kelishuvlari: Xalqaro bozorlarga chiqishni yaxshilash uchun shartnomalar.
- Eksport subsidiyalari: Mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash.

6. Investitsiya siyosati vositalari

- Davlat investitsiyalari: Infratuzilma va ijtimoiy sohalarga to'g'ridan-to'g'ri sarmoya.
- Investitsiya muhiti: Soliq imtiyozlari va mulk huquqlarini himoya qilish.
- Grantlar va subsidiyalar: Startaplar va innovatsion loyihalarni moliyalashtirish.

7. Ekologik siyosat vositalari

- Atrof-muhit soliqlari: Ifloslantirish yoki resurslardan foydalanish uchun yig'imlar.
- Yashil subsidiyalar: Ekologik toza texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash.
- Standartlar: Emissiya va energiya samaradorligi me'yorlari.

8. Innovatsion siyosat vositalari

- Tadqiqot grantlari: Ilmiy ishlanmalar va texnologiyalarni moliyalashtirish.
- Startap dasturlari: Yangi kompaniyalar uchun imtiyozlar va yordam.
- Texnoparklar: Innovatsiyalarni rivojlantirish uchun markazlar tashkil qilish.

Iqtisodiy siyosat ishlab chiqishda davlat bir qator cheklovlarga duch keladi, bu esa maqsadlarga erishishni qiyinlashtiradi. Iqtisodiy siyosatni ishlab chiqishdagi cheklovlar quyidagilardan iborat:

1. Iqtisodiy cheklovlar

- Resurs cheklovlari: Cheklangan byudjet yoki yuqori davlat qarzi loyihalarni moliyalashtirishni qiyinlashtiradi.
- Inflyatsiya va deflyatsiya: Iqtisodiy beqarorlik prognozlarni murakkablashtiradi va qaror qabul qilishni cheklaydi.
- Ishsizlik: Yuqori ishsizlik iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishni qiyinlashtiradi.
- Global noaniqlik: Xom ashyo narxlari yoki moliyaviy inqirozlar iqtisodiy dasturlarni cheklaydi.

2. Siyosiy cheklovlar

- Siyosiy konsensusning yo'qligi: Partiyalar o'rtasidagi kelishmovchiliklar islohotlarni to'xtatishi mumkin.

- Qisqa muddatli tsikllar: Saylovlar hukumatni uzoq muddatli rejalardan voz kechishga majbur qiladi.
- Korruptsiya: Byurokratik to'siqlar va korruptsiya siyosat samaradorligini pasaytiradi.

3. Ijtimoiy cheklovlar

- Tengsizlik: Yuqori ijtimoiy tengsizlik adolatli taqsimlashni talab qiladi, bu resurslarni cheklaydi.
- Ijtimoiy barqarorlik: Noroziliklar ijtimoiy dasturlarni kengaytirishni talab qiladi.
- Madaniy farqlar: O'zgarishlarga qarshilik islohotlarni sekinlashtiradi.

4. Institutsional cheklovlar

- Samarasiz institutlar: Zaif sud tizimi yoki boshqaruv iqtisodiy siyosatni cheklaydi.
- Byurokratiya: Murakkab tartib-qoidalar dasturlarni sekinlashtiradi.
- Moliyaviy savodxonlik: Aholining ta'lim darajasi islohotlarni qabul qilishni qiyinlashtiradi.

5. Xalqaro cheklovlar

- Global iqtisodiy muhit: Narx o'zgarishlari yoki inqirozlar iqtisodiy erkinlikni cheklaydi.
- Xalqaro majburiyatlar: XVF yoki JST qoidalari siyosatni cheklashi mumkin.
- Savdo aloqalari: Tashqi cheklovlar ichki siyosatga ta'sir qiladi.

6. Texnik cheklovlar

- Ma'lumot etishmasligi: Aniq statistika yo'qligi qarorlarni murakkablashtiradi.

Texnologik tafovut: Innovatsiyalarni joriy etishda qiyinchiliklar rivojlanishni cheklaydi.

Iqtisodiy siyosatni amalga oshirishdagi cheklovlarni bartaraf etish bir qator muommolarni bartaraf etish imkoniyatini yaratadi bunday muammolar quyidagilardan iborat:

1. Tashqi muhitning noaniqligi

- Global inqirozlar: 2008 yilgi inqiroz yoki pandemiyalar rejalarni o'zgartiradi.
- Tovar narxlari: Xom ashyo narxlarining o'zgarishi byudjetni beqaror qiladi.
- Savdo urushlari: Tariflar yoki sanktsiyalar eksportni cheklaydi.

2. Siyosiy va institutsional muammolar

- Siyosiy iroda: Nomaqbul qarorlardan qochish islohotlarni to'xtatadi.
- Manfaatlar to'qnashuvi: Siyosiy nizolar uzoq muddatli dasturlarni cheklaydi.
- Korruptsiya: Byurokratik to'siqlar va korruptsiya dastur samarasini pasaytiradi.

3. Ijtimoiy va demografik muammolar

- Tengsizlik: Boy va kambag'al guruhlar manfaatlarini muvozanatlash qiyin.
- Demografiya: Qariyotgan aholi yoki yoshlar soni siyosatni murakkablashtiradi.

4. Iqtisodiy muammolar

- Davlat qarzi: Yuqori qarz xarajatlarni cheklaydi.
- Raqobatbardoshlik: Innovatsiyalar yetishmasligi o'sishni sekinlashtiradi.
- Ishsizlik: Malaka va bozor talablari nomuvofiqligi uzoq muddatli yechimlarni talab qiladi.

5. Texnik muammolar

- Ma'lumotlar yo'qligi: Aniq statistikasiz qarorlar samarasiz bo'ladi.
- Texnologik tafovut: Yangi texnologiyalarni joriy etish qimmat va sekin kechadi.

6. Islohotlar muammolari

- Qarshilik: Aholi yoki biznes elitasining qarshiligi islohotlarni to'xtatadi.
- Uzoq muddatli ta'sir: Islohotlarning natijasi kech ko'rinadi, siyosiy tsikllar esa buni cheklaydi.

7. Globallashuv muammolari

- Qaramlik: Global iqtisodiyotdagi muammolar ichki siyosatga ta'sir qiladi.
- Savdo to'siqlari: Sanktsiyalar eksport va investitsiyalarni cheklaydi.

8. Ekologik muammolar

- Barqarorlik: Yashil texnologiyalarga o'tish katta sarmoya talab qiladi.

Iqlim o'zgarishi: Tabiiy ofatlar va resurslar o'zgarishi rejalarni murakkablashtiradi.

6.2. Iqtisodiy siyosatda siyosiy cheklovlar (demokratiya, saylash huquqi va siyosiy raqobat)

Bugungi kunda esa, jamiyatda korrupsion holatlarga nisbatan salbiy munosabat bo‘lishiga qaramay, ko‘pchilik fuqarolar bunday holatlar haqida huquqni muhofaza qiluvchi organlarga xabar berishdan tiyilmoqda. Bunga asosiy sabab – mavjud ijtimoiy me’yorlar va norasmiy qoidalardir. Xususan, O‘zbekistonda kimdir haqida tegishli idoralarga ma’lumot berish “uyatli ish” sifatida baholanadi. Bunday harakatlar odamlar orasida ishonchsizlik va e’tibordan tushish xavfi bilan bog‘lanadi.

Shunday ekan, korrupsiyaga qarshi kurashda rasmiy siyosat va qonunlar bilan bir qatorda, ijtimoiy ong va madaniyatni o‘zgartirish, norasmiy institutlar ta’sirini ijobiy tomonga yo‘naltirish ham muhim omil sanaladi.

2. Yerkin fuqarolik jamiyati institutlarini mustahkamlash orqali ijtimoiy adolat va inson manfaatlarini ustuvor qo‘yuvchi xalqparvar davlat konsepsiyasi bosqichma - bosqich amalga oshiriladi. Shu asosda inson qadri, huquqlari va erkinliklarini ta’minlashga yo‘naltirilgan islohotlar yangi sifat bosqichiga ko‘tariladi.

3. Adolat va qonun ustuvorligini qaror toptirish – inson qadriyatlarini e’tirof etuvchi va fuqarolik jamiyatiga asoslangan davlatni shakllantirishda eng muhim omil sifatida e’tirof etiladi.

4. Milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini ta’minlash, barqaror o‘sish sur’atlarini zamonaviy global tendensiyalar bilan uyg‘unlashtirish davlat iqtisodiy siyosatining strategik yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilab olinadi.

5. Adolat mezonlariga tayanuvchi ijtimoiy siyosat olib boriladi, bunda inson kapitalini shakllantirish va rivojlantirishning asosiy sharti sifatli ta’lim va tarbiya tizimining uzluksiz takomillashuvi hisoblanadi.

6. Ma’naviy-axloqiy va ma’rifiy sohalarda olib borilayotgan islohotlar jamiyatning madaniy-ruhiy salohiyatini mustahkamlash va milliy ongni rivojlantirish nuqtai nazaridan muhim strategik ahamiyatga ega bo‘ladi.

7. Global iqlim o‘zgarishlari, atrof-muhitning ifloslanishi, shuningdek, radikalizm, ekstremizm, terrorizm hamda odam savdosi kabi jahondagi murakkab ijtimoiy-madaniy muammolarga kompleks va samarali yechimlar izlash bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridan biridir.

8. Mamlakatda tinchlik, xavfsizlik va suverenitetni ta’minlashda Qurolli Kuchlarning jangovar va mudofaa salohiyatini yanada kuchaytirish davlat siyosatining ustuvor vazifasi sifatida qolaveradi.

Demokratiya (“xalq hokimiyati”) — barcha insonlar tenglik asosida va jamoaviy holatda qaror qabul qilish orqali jamiyatni boshqaradigan boshqaruv tuzumi. Demokratiyada fuqarolar erkinligi va tengligi qonunlarda mustahkamlangan, xalq hokimiyatchiligining vosita va shakllari amalda o‘rnatilgan va yuzaga chiqarilgan bo‘ladi.

Demokratiya davlat bilan inson munosabatlarini belgilaydi. Shuningdek, demokratiya markaziy va mahalliy vakillik muassasalari, saylash va saylanish, qonuniylik tamoyillarini, turli partiyalar, jamoat tashkilotlarining amal qilishini taqozo etadi.

Demokratiyaning mohiyatini ochib berish uchun siyosatchilar quyidagi fiklarni ilgari surganlar.

Ronald Reygan: “Demokratiya qurbon bo‘lishga arziydi. Chunki u insonni sharaflaydigan davlat tuzumidir”

Uinston Cherchil: “Demokratiya davlat boshqaruvining eng yomon shaklidir, biroq insoniyat shu vaqtga qadar undan yaxshirog‘ini yarata olgani yo‘q”.

Demokratiyaning tarixiy ildizlari qadimgi Yunonistonga borib taqaladi. Ushbu davrda “demokratiya” atamasi teng huquqli fuqarolarning yig‘ini va ularning asosiy ommaviy qatlamlarini ifodalash ma’nosida ishlatilgan. Qadimgi Yunoniston shahar-davlatlarida, ayniqsa Afina shahrida, demokratiya fuqarolarning siyosiy hayotdagi faol ishtirokini ta’minlovchi asosiy tamoyil bo‘lgan. Bu tushuncha, siyosiy vakolatlarning keng doirada taqsimlanishi orqali jamiyatda keng qamrovli boshqaruvni shakllantirishga xizmat qilgan.

Miloddan avvalgi V-IV asrlarda Afinada demokratiya o‘zining eng mukammal va klassik ko‘rinishiga ega bo‘ldi. Aynan V asr boshlarida davlat lavozimlarini egallashdagi moliyaviy cheklovlar bekor qilingach, barcha afinalik fuqarolar qonunlarni muhokama qilish, ularga ovoz berish hamda siyosiy qarorlar qabul qilish jarayonlarida bevosita ishtirok etish huquqiga ega bo‘lishdi. Shuningdek, ular lavozimlarga aylanish tamoyili asosida saylanib, sud jarayonlarida va ma’muriy qo‘mitalarda faol qatnashish imkoniyatiga ega bo‘ldilar. Shu tarzda, Afinada fuqarolarning siyosiy faolligi mustahkamlanib, jamiyat boshqaruvida keng qamrovli ishtirok tamoyillari amalda mustahkamlandi va demokratiyaning asosiy prinsiplari shakllandi.

Hozirgi kungacha demokratik boshqaruvga oid turli nazariya va yondashuvlar shakllanib kelgan. Ayniqsa, XVIII asrda AQSH va Yevropada demokratiya tamoyillarining keng yoyilishi natijasida, amerikalik ma’rifatparvar va davlat arbobi Benjamin Franklin demokratiyani “chiqib kelayotgan quyosh”ga qiyoslagan edi. Turli davr va hududlarda demokratiya tushunchasi har xil guruhlar va shaxslar tomonidan o‘z manfaatlari asosida turlicha talqin qilingan. Masalan, G‘arbda u “adolatli boshqaruv” timsoli sifatida qaralsa, totalitar mafkura vakillari, jumladan Adolf Gitler, uni “ahmoqlar boshqaruvi” deb kamsitgan.

Zamonaviy rus siyosatshunoslari V.P. Pugachyov va A.I. Solovyovlarning fikricha esa, demokratiya – bu fuqarolarning rahbarlik

lavozimlariga erkin raqobat asosida saylovchilar ishonchini qozonib chiqish orqali jamiyatni boshqarish usulidir. Shu tariqa, demokratiya nafaqat boshqaruv shakli, balki fuqarolarning ijtimoiy faolligi va siyosiy ong darajasining o‘ziga xos ko‘zgusi sifatida ham namoyon bo‘ladi.

Saylov insoniyat o‘ylab topgan, hokimiyat vakolatini vujudga keltiruvchi eng qadimiy usullardan hisoblanib, u demokratiyaning yorqin ifodasi, fuqarolarning jamiyat va davlat ishlarida ishtirokining muhim shakli, davlat boshlig‘i, vakillik organlarini (qonunchilik organini) vujudga keltirishning asosiy vositasidir. Vujudga kelib, qo‘llanila boshlagandan to hozirgacha saylovlar takomillashib keldi va hamma joyda bir nechta ijtimoiy funksiyalarni bajarib kelmoqda.

Birinchidan, saylovlar mavjud hokimiyat tuzilmasining legitimligini ta’minlash vositasi sifatida xizmat qiladi. Ya’ni, saylov orqali shakllangan hukumat va vakillik organlari fuqarolar tomonidan qonuniy va adolatli yo‘l bilan shakllantirilgan deb e’tirof etiladi. Bu esa, o‘z navbatida, aholining hokimiyat qarorlariga ixtiyoriy bo‘ysunishi, siyosiy barqarorlik va boshqaruv samaradorligini oshiradi. Saylov yo‘li bilan hokimiyatga kelgan tuzilmalar jamoatchilik ishonchini qozonadi va o‘z faoliyatini ijtimoiy rozilik asosida olib boradi.

Ikkinchidan, saylovlar jamiyatdagi mavjud siyosiy kuchlar va ijtimoiy qatlamlar o‘rtasidagi nisbatlarni aniqlash imkonini beradi. Saylov natijalari orqali qaysi siyosiy partiya yoki harakat qanday darajadagi ijtimoiy tayanchga ega ekani, aholining siyosiy talab va istaklari qanday shakllangani yaqqol namoyon bo‘ladi. Bu holat siyosiy raqobat muhitining sog‘lom saqlanishiga, fuqarolar manfaatlarini yanada samarali ifodalovchi va himoya qiluvchi siyosiy institutlarning shakllanishiga xizmat qiladi.

Uchinchidan, saylovlar siyosiy hokimiyat almashinuvi jarayonini tinch, qonuniy va institutsional asosda amalga oshirish imkonini beradi. Bu orqali hokimiyatga yangi siyosiy kuchlar va yetakchilar kirib keladi, jamiyat ishonchini yo‘qotgan siyosiy arboblar esa siyosat maydonidan chetlatiladi. Shu tariqa, siyosiy tizimda yangilanish va qonuniy ravishda

yangicha yondashuvlarning shakllanishi ta’minlanadi. Saylovlar orqali hokimiyat almashinuvi – siyosiy barqarorlikni mustahkamlovchi va demokratik tamoyillarning amalda ishlashini kafolatlovchi asosiy mexanizmdir.

To‘rtinchidan, saylovlar xalq suverenitetining bevosita ifodasi sifatida xizmat qiladi hamda siyosiy elita faoliyatining omma tomonidan nazorat qilinishini ta’minlaydi. Demokratik tuzumda har bir saylov davri fuqarolarga ilgari saylangan vakillarning faoliyatini baholash, ulardan hisob talab qilish va ularning qayta saylanish masalasida qaror qabul qilish imkonini beradi. Bu esa siyosiy elita vakillarining xalq oldidagi mas’uliyatini oshiradi, ularni jamoatchilik manfaatlarini inobatga olgan holda faoliyat yuritishga majbur qiladi.

O‘zbekiston o‘z taraqqiyot yo‘lini insonparvar, demokratik va huquqiy davlat qurish bilan bog‘lamoqda. Bu maqsad yo‘lida hayotning barcha sohalarida bosqichma-bosqich va tizimli ravishda demokratik islohotlar amalga oshirilmoqda. Bunday keng ko‘lamli o‘zgarishlar natijasida demokratik tamoyillar ham tobora chuqurlashib, takomillashib bormoqda. Ayni jarayonda esa saylov institutining liberallashuvi va takomillashuvi alohida e’tibor markazida turadi. Chunki demokratik jamiyatda saylovlar – bu nafaqat hokimiyat vakolatini beruvchi vosita, balki jamiyatdagi siyosiy faollik, fuqarolik ongining o‘sishi, islohotlarning chuqurlashuvi va xalq ishonchining ifodasidir.

O‘zbekistonda bu borada muhim qadam sifatida 2010-yilda ilgari surilgan “Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish Konsepsiyasi”ni alohida ta’kidlash zarur. Mazkur Konsepsiyada “O‘zbekistonda saylov huquqi erkinligini ta’minlash va saylov qonunchiligini rivojlantirish” masalasiga maxsus bob ajratilgani saylov institutining demokratiya tizimidagi o‘ta muhim o‘rnini ko‘rsatadi. Bu esa mamlakatda fuqarolarning siyosiy huquqlari, xususan saylash va saylanish huquqlarining kafolatlanishi, shaffof va adolatli saylov tizimini shakllantirish borasidagi qat’iy siyosiy irodani yaqqol namoyon etadi.

O‘zbekiston o‘zining taraqqiyot yo‘lini insonparvar, demokratik va huquqiy davlat barpo etish orqali belgilab olgan. Bu yo‘lda siyosiy, huquqiy, ijtimoiy va iqtisodiy sohalarda keng ko‘lamli demokratik islohotlar amalga oshirilmoqda. Natijada mamlakatda nafaqat jamiyat hayoti zamonaviy asosda takomillashmoqda, balki demokratiya tamoyillari ham yangi sifat bosqichiga ko‘tarilmoqda.

Demokratiyaning rivojlanishi esa, eng avvalo, saylov tizimining takomillashuvi, ochiqligi va erkinligini ta’minlash bilan bevosita bog‘liqdir. Zero, saylov – bu fuqarolarning davlat boshqaruvida bevosita va bilvosita ishtirok etish huquqini ro‘yobga chiqaruvchi, ularning siyosiy irodasini erkin ifodalashga xizmat qiluvchi asosiy institut hisoblanadi. Saylovlar orqali hokimiyatning legitimligi mustahkamlanadi, siyosiy elita yangilanadi va jamiyatda ishonch muhitini shakllantirish imkoniyati yaratiladi.

Aynan shu jihatlarni hisobga olgan holda, 2010-yilda ilgari surilgan “Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish Konsepsiyasi”da saylov masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. Konsepsiyada “O‘zbekistonda saylov huquqi erkinligini ta’minlash va saylov qonunchiligini rivojlantirish”ga bag‘ishlangan maxsus bobning mavjudligi ham mazkur institutning davlat va jamiyat hayotidagi o‘ta muhim o‘rnini yaqqol ifodalaydi. Bu esa saylov huquqi va saylov tizimi – zamonaviy O‘zbekiston demokratik taraqqiyotining tayanch ustunlaridan biri ekanini anglatadi.

Konsepsiyada ta’kidlanganidek, “yerkin saylov va o‘z xohish-irodasini erkin bildirish prinsiplari, eng avvalo, har bir fuqaroning davlat hokimiyati vakillik organlariga saylash va saylanish bo‘yicha Konstitutsiyaviy huquqi – milliy davlatchiligimiz modelining asosini tashkil etadi”. Saylov esa aynan ana shu huquqni ro‘yobga chiqarish vositasidir. Saylov huquqi konstitusiyaviy huquqning muhim institutlaridan biri hisoblanadi.

Saylov – bu yangi tizim yoki tuzilmalarni shakllantirishga xizmat qiluvchi asosiy vosita bo‘lib, fuqarolarning o‘z xohish-irodasini ifoda etishning muhim shakli hisoblanadi. Saylov jarayonida bu xohish-iroda

bevosita ovoz berish orqali namoyon bo‘ladi. Ovoz berishning turlari turlicha bo‘lishi mumkin, biroq ular orasida eng muhim va keng ommani qamrab oladigan shakl – bu hokimiyat organlarini shakllantirishda qo‘llaniladigan saylovdir. Bunday ovoz berish tartibi qonun hujjatlarida fuqarolarning saylov huquqi sifatida mustahkamlanadi va u siyosiy huquq sifatida tan olinadi.

Saylov fuqarolarning saylov huquqi orqali amalga oshiriladi va ular o‘z ijtimoiy-siyosiy xohish-irodasini aynan shu jarayon orqali ifoda etadilar. Ayniqsa XX asrda saylov institutining roli keskin oshdi va u xalqaro miqyosdagi muhim siyosiy munosabatlar doirasiga chiqdi. Bugungi kunda har qanday demokratik davlatda saylov huquqi mavjud bo‘lib, u xalqaro-huquqiy standartlarga muvofiq tashkil etilishi talab etiladi. Mazkur standartlar Ikkinchi jahon urushidan so‘ng ishlab chiqilgan bo‘lib, ular asosiy xalqaro huquqiy hujjatlarda huquqiy jihatdan mustahkamlangan.

Fuqarolarning saylov huquqi xalqaro huquq normalarida o‘z ifodasini topgan bo‘lib, u eng avvalo Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan 1948 yilda qabul qilingan *Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi*da mustahkamlangan. Mazkur hujjatning 21-moddasi “a” bandida shunday deyiladi: *“Har bir inson bevosita yoki erkin saylangan vakillar orqali o‘z mamlakati boshqaruvida ishtirok etish huquqiga egadir.”* Xuddi shunday mazmundagi prinsip *Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro Pakt*da ham o‘z aksini topgan bo‘lib, saylov huquqi demokratik boshqaruvning ajralmas elementi sifatida e’tirof etilgan.

Bugungi kunda saylov huquqi – bu fuqarolarning davlat tomonidan rasmiy kafolatlangan, saylovlarda ishtirok etish huquqidir. Bu huquq orqali fuqarolar o‘z vakillarini saylash va davlat boshqaruvida faol qatnashish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Saylov huquqining mohiyatini to‘liq anglash uchun avvalo “saylov huquqi” atamasining o‘zini tushunish zarur. Chunki bu atama bir nechta ma’nolarga ega bo‘lib, turli manbalarda odatda ikki asosiy yo‘nalishda talqin etiladi. Biri – fuqarolarning saylash va saylanish

huquqi sifatida, ikkinchisi esa saylov jarayoni va tartibini nazarda tutuvchi huquqiy institut sifatida qaraladi.

“Saylov huquqi” ikki ma’noda qo‘llaniladi:

- Birinchisi – saylov yo‘li bilan shakllantiriladigan davlat organlari faoliyatini tartibga soluvchi huquqiy normalar tizimi sifatida;
- Ikkinchisi – fuqarolarning saylanish (passiv saylov huquqi) va saylash (faol saylov huquqi) huquqlarini o‘z ichiga olgan, saylov organlarini shakllantirish jarayonida ishtirok etish huquqi sifatida.

Ushbu ta’rifda saylov huquqi normalari davlat organlari faoliyatini tartibga soladi, degan fikrga to‘liq qo‘shilish qiyin. Chunki saylov huquqi faqat davlat organlarini tashkil qilish tartibini belgilaydi, ularning faoliyatini esa boshqa huquqiy normalar, masalan, “Parlament huquqi” tartibga soladi. Shuning uchun “saylov huquqi” atamasi faqat ushbu ikki ma’noga emas, balki boshqa ma’nolarga ham ega bo‘lishi mumkin.

Birinchidan, “saylov huquqi” atamasi ma’lum ijtimoiy munosabatlarni, ya’ni saylov munosabatlarini tartibga soluvchi huquqiy normalar yig‘indisini ifodalaydi. Shu bois, saylov huquqi huquqiy institut sifatida qaraladi.

Ikkinchidan, “saylov huquqi” fuqarolarning siyosiy huquqlariga taalluqlidir. U fuqarolarning saylash va saylanish huquqlarini o‘z ichiga oladi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 117-moddasida “fuqarolar davlat hokimiyati vakillik organlariga saylash va saylanish huquqiga egadirlar” deb belgilangan. Shunday qilib, fuqarolarning saylov huquqi – bu siyosiy huquq bo‘lib, saylash va saylanish huquqlarining umumiy ifodasidir.

Saylov huquqi huquq tizimidagi mustaqil tarmoq sifatida emas, balki Konstitusiyaviy huquqning muhim instituti sifatida tan olinadi. Saylov huquqi deganda, bir tomondan, mamlakatda saylovlarni tashkil etuvchi huquqiy normalar tushuniladi; boshqa tomondan esa, fuqarolarning saylash (aktiv saylov huquqi) va saylanish (passiv saylov huquqi) huquqlari nazarda tutiladi.

Siyosiy raqobatning mazmuni va mohiyati – omma, muayyan ijtimoiy qatlam va guruhlarga ta’sir ko‘rsatish uchun olib boriladigan

kurashdan iborat. Demokratik jamiyatda siyosiy maqsadlarga erishish faqat siyosiy partiya yoki uning yetakchisining jamoatchilik fikrini o‘z foydasiga aylantirish, odamlarni o‘z intilishlari va harakatlarining to‘g‘riligiga ishontirish qobiliyatiga bog‘liq bo‘ladi. Davlat lavozimiga faqat saylovchilarni o‘z tomoniga jalb qilish orqali saylanish mumkin. Shu bilan birga, odamlarning fikri va e’tiqodini o‘zgartirish orqali amaldagi davlat arbobining nufuzini oshirish, deputatlar va jamoatchilik fikriga ta’sir o‘tkazib, ularni qonun hujjatlariga zarur o‘zgartirishlar kiritish uchun ovoz berishga undash ham amalga oshiriladi.

6.3. Iqtisodiy siyosatni ishlab chiqishda ichki va tashqi iqtisodiy cheklovlar

Protektsionizm (fransuzcha - protektionnisme, lotincha protest — himoya,) — bu davlat tomonidan chetdan olib kiriladigan tovarlarning importini vaqtinchalik cheklash orqali mahalliy ishlab chiqarishni va xizmat ko‘rsatishni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan tashqi savdo siyosatidir. Protektsionizmning asosiy maqsadlari qatoriga yalpi milliy daromadni oshirish, bandlikni rag‘batlantirish hamda ijtimoiy ko‘rsatkichlarni yaxshilash kiradi.

Iqtisodiyot nazariyasida **protektsionistik ta’limot** erkin savdo doktrinasiga qarama-qarshi yo‘nalish sifatida qaraladi. Protektsionizm tarafdorlari erkin savdoni milliy ishlab chiqarishni rivojlantirish, bandlikni oshirish va demografik ko‘rsatkichlarni yaxshilash nuqtai nazaridan tanqid qiladilar.

Boshqa tomondan, erkin savdo tarafdorlari protektsionizmni erkin tadbirkorlik va iste’molchilar huquqlarini cheklash, aholining yashash sharoitlarini yomonlashtirish hamda iqtisodiy o‘sishni sekinlashtirish jihatidan tanqid qilishadi.

Protektsionistik siyosat. Protektsionizm iqtisodiy siyosatning maqsadlariga erishish uchun quyidagi cheklovchi vositalardan foydalanadi:

- Importga bojxona to‘lovlari joriy etish;
- Import kvotalari va savdo embargolari o‘rnatish;

- Mahsulot va xizmatlarning xavfsizligini sertifikatlash tizimini yo‘lga qo‘yish;
- Intellektual mulk, patentlar hamda mualliflik huquqlarini himoya qilish;
- Byurokratik taqiqlar, tasdiqlashlar va bojxona tartiblari kabi ma’muriy to‘siqlar;
- Yeksportga ixtiyoriy cheklovlar qo‘yish;
- Texnik talablar: mahsulotlarni qadoqlash, yorliqlash, standartlashtirish, sanitariya va veterinariya qoidalarini belgilash.
- Tovar va xizmatlar eksportida ishtirok etuvchi ishlab chiqaruvchilar uchun subsidiyalar: imtiyozli kreditlash, bir qator xarajatlarni qoplash, imtiyozli soliqqa tortish;
- Ichki bozor uchun tovar ishlab chiqaruvchi va xizmatlar ko‘rsatuvchi ishlab chiqaruvchilar uchun subsidiyalar;
- Yeksport qiluvchilar uchun grantlar va rag‘batlantirishning boshqa shakllarini taqdim etish;
- Valyuta nazorati: ayirboshlash operatsiyalariga cheklovlar, kapital nazorati;
- Mahalliy ishlab chiqaruvchilarga imtiyozli kreditlar va kreditlar berish;
- Xorijiy ishchilar va investorlar uchun diskriminatsiya qo‘llanilishi;
- Mahalliy ishlab chiqaruvchilardan mahsulot va xizmatlar sotib olgan iste’molchilarga subsidiyalar berilishi;
- Valyuta kursiga aralashuv, jumladan milliy valyutaning qadrsizlanishi;
- “Faqat mahalliy mahsulotni xarid qil” degan siyosiy vatanparvarlik kampaniyalarining o‘tkazilishi;
- Tijorat tenderlarida mahalliy tovar va xizmatlarga imtiyozlar taqdim etilishi;
- Mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo‘llab-quvvatlash uchun davlat xarajatlari ajratilishi va faqat mahalliy ishlab chiqaruvchilardan davlat xaridlari amalga oshirilishi.

- Ushbu iqtisodchilar o‘z qarashlarini asoslash uchun sanoatlashuv va iqtisodiy yuksalishga erishgan, protektsionistik siyosat yuritgan davlatlar tajribasiga, shuningdek, erkin savdo siyosatini qo‘llagan mamlakatlarda sanoatning sust rivojlanishi va qashshoqlik darajasining ortishiga oid misollarga murojaat qiladilar.
- Ularning fikriga ko‘ra, mamlakat yetakchi sanoat davlatlaridan qanchalik orqada qolsa, shunchalik kuchli protektsionistik chora-tadbirlarga ehtiyoj seziladi. Ayniqsa, tabiiy iqlim sharoitining og‘irligi, aholi zichligining pastligi, yirik transport yo‘llaridan uzoq joylashuv kabi iqlimiy va geografik omillar milliy sanoatning raqobatbardoshligini pasaytiradi. Bunday sharoitda sanoatni rivojlantirish uchun bozorni chet el raqobatidan himoyalash zaruratga aylanadi.

Bundan tashqari, ushbu iqtisodchilar fikricha, protektsionistik choralar quyidagi strategik maqsadlarga erishish uchun joriy etiladi:

- **Sanoatni modernizatsiya qilish uchun vaqtdan yutish** – ya’ni, mahsulot yoki tarmoqlarning hayotiy siklining ilk bosqichida ularni chet el raqobatidan himoya qilish orqali (ma’lum vaqt oralig‘ida) yangi sanoat tarmoqlarini rivojlantirish uchun imkon yaratish (bu ko‘pincha “yemik sanoat” nazariyasi bilan izohlanadi);
- **Milliy xavfsizlikni ta’minlash** – ayniqsa, mudofaa sanoati (harbiy-sanoat majmui) singari strategik tarmoqlarni saqlab qolish va rivojlantirish orqali;
- **Iqtisodiy mustaqillik va barqarorlikni ta’minlash** – ya’ni, milliy iqtisodiyotning global xavflar va tashqi ta’sirlarga nisbatan chidamliligini oshirish, iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlash;

- barqarorlik, mamlakatning siyosiy va iqtisodiy mustaqilligini mustahkamlash maqsadida ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish;

- mamlakat aholisining bandlik darajasini oshirish va himoya qilish, arzonroq xorijiy ishchi kuchidan himoya qilish;

- dempingdan himoya qilish: raqobatchini yo‘q qilish yoki monopol mavqeini o‘rnatish maqsadida xorijiy davlatga qiymatidan past tovarlarni demping qilgan mamlakatlardan;

- to‘lov balansini yaxshilash, importning qisqarishi hisobiga tashqi savdo taqchilligini kamaytirish;

- mamlakat davlat byudjeti daromadlarini bojxona to‘lovlari hisobiga to‘ldirish;

- mahalliy ishlab chiqaruvchilarning qo‘shimcha foydasi hisobidan mahalliy byudjet daromadlarini to‘ldirish;

- xorijiy ishlab chiqaruvchilar tomonidan nomukammal raqobatdan yo‘qotishlarni kamaytirish;

- davlat organlari tomonidan nazorat qilinadigan ishlab chiqarish mahsulotlarini sotish orqali fuqarolarning hayoti va sog‘lig‘i xavfsizligini ta’minlash.

Siyosiy raqobat - siyosiy tizim va rejimlarning tavsiflaridan biridir. Siyosiy raqobatning mavjudligi uzoq vaqtdan beri siyosiy tizimlarning rivojlanish darajasining muhim ko‘rsatkichi bo‘lib kelgan.

Proteksionizm siyosati - ichki bozorni turli xil iqtisodiy cheklovlar yordamida tashqi bozordan himoyalash siyosati. Proteksionizm siyosati olib borilganda, erkin savdo yo‘lida juda ko‘p to‘siqlar mavjud bo‘ladi. Ularning asosiylari quyidagilar:

Boj to‘lovlari. Boj to‘lovlari – import tovarlarga aksiz soliqlari hisoblanadi, u daromad olish maqsadida yoki himoya uchun kiritilishi mumkin;

Import kvotalari. Import kvotalari yordamida ma’lum bir vaqt oralig‘ida import qilinishi mumkin bo‘lgan tovarlarning maksimal hajmi o‘rnatiladi;

Tarifsiz to‘siqlar. Ta’rifsiz to‘siqlar deyilganda litsenziyalash tizimi, mahsulot sifatiga standartlar qo‘yish yoki oddiy ma’muriy taqiqlashlar tushuniladi;

Yeksportni ixtiyoriy cheklash. Eksportni ixtiyoriy cheklash savdo to‘siqlarining nisbatan yangi shakli hisoblanadi. Bu holda chet el firmalari o‘zlarining ma’lum mamlakatga eksportini ixtiyoriy ravishda cheklaydi.

6.4. Iqtisodiy siyosatda saylovchilar, siyosiy partiyalar va taklif etilayotgan dasturlar. Parlament va institutsional o‘zgarishlar.

Saylov huquqi — bu davlat boshlig‘i, vakillik organlari va boshqa saylanadigan lavozimlarni shakllantirish tartibini belgilovchi huquqiy normalar majmuasidir. U konstitutsiyaviy huquqning muhim institutlaridan biri hisoblanadi. Saylov huquqi odatda mamlakat konstitutsiyasi va saylovlarga oid maxsus qonunlar orqali tartibga solinadi. Bu hujjatlarda nomzodlar ko‘rsatish mexanizmlari, saylovchilarning vakillik normasi, ovoz berish tartibi hamda saylov natijalarini aniqlash va tasdiqlash bo‘yicha qoidalar aniq belgilab qo‘yiladi.

O‘zbekiston Respublikasida saylov huquqining asosiy tamoyillari **1992-yil 8-dekabrda** O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining o‘n birinchi sessiyasida qabul qilingan Konstitutsiyada mustahkamlab qo‘yilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining **VIII bobi – Siyosiy huquqlar** bo‘yicha, **32-modda**da fuqarolarning davlat boshqaruvidagi ishtiroki quyidagicha mustahkamlangan:

“O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita, shuningdek o‘z vakillari orqali ishtirok etish huquqiga egadirlar.”

Mazkur konstitutsiyaviy norma fuqarolarning demokratik boshqaruvda faol ishtirok etish huquqini ta’minlaydi. Ushbu ishtirok etish shakllari quyidagilar orqali amalga oshiriladi:

- mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatida qatnashish;
- referendumlarda ishtirok etish;
- davlat organlarini saylov yo‘li bilan demokratik tarzda shakllantirish**;**
- davlat hokimiyati va boshqaruv idoralari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish va rivojlantirish**.**

Bu norma fuqarolarga nafaqat saylovlarda qatnashish, balki davlat va jamiyat hayotiga turli demokratik institutlar orqali bevosita ta’sir o‘tkazish imkonini beradi. Shu orqali fuqarolik jamiyatining

mustahkamlanishi, ochiqlik va hisobdorlik prinsiplarining amalda qaror topishi ta'minlanadi.

Davlat organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlaridan biri bo'lib, uni amalga oshirish tartibi alohida qonun hujjatlari bilan belgilab qo'yilgan. Bu prinsip davlat boshqaruvida ochiqlik, shaffoflik va javobgarlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasida saylovlarni tashkil etish va o'tkazish tartibi tegishli huquqiy asosga ega. U quyidagi normativ-huquqiy hujjatlarga asoslanadi:

- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi;
- Saylov Kodeksi;
- hamda O'zbekiston Respublikasining boshqa tegishli qonunchilik hujjatlari.

3-modda. Saylovning asosiy prinsiplariga ko'ra:

O'zbekiston Respublikasida saylovlar quyidagi demokratik tamoyillar asosida o'tkaziladi:

- Umumiylik – barcha fuqarolar, belgilangan yoshga yetgan va qonunda belgilangan boshqa talablarga javob bergan holda, saylovda qatnashish huquqiga egadirlar;
- Tenglik – har bir saylovchi teng ovozga ega bo'ladi;
- To'g'ridan to'g'rilik – saylovchilar o'z vakillarini to'g'ridan to'g'ri ovoz berish yo'li bilan saylaydilar;
- **Yashirin ovoz berish** – har bir saylovchi o'z irodasini hech qanday bosimsiz, erkin va yashirin tarzda bildiradi.

Ushbu prinsiplar fuqarolarning siyosiy huquqlari va demokratik boshqaruv asoslari mustahkam himoya qilinishini anglatadi hamda saylov jarayonining adolatli, ochiq va qonuniy tarzda amalga oshishini ta'minlaydi.

Saylov ochiq va oshkora o'tkaziladi.

4-modda. Umumiy saylov huquqi

O'zbekiston Respublikasida saylovlar umumiylik prinsipiga asoslanadi. Bu prinsipga ko'ra, quyidagi lavozimlar bo'yicha o'tkaziladigan saylovlarda barcha fuqarolar ishtirok etish huquqiga ega:

- **O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti**;
- **Qonunchilik palatasi deputatlari**;
- **Mahalliy Kengashlar (xalq deputatlari kengashlari) deputatlari**.

Saylov huquqi fuqarolarga saylov kuni o‘n sakkiz yoshga to‘lganidan boshlab beriladi. Ya’ni, bu yoshga yetgan har bir fuqaro ovoz berishda ishtirok etish huquqiga egadir.

Fuqarolarning saylov huquqi ularning:

jinsi, irqi yoki millati, tili, diniy qarashlari, ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi, shaxsiy yoki ijtimoiy mavqei, ma’lumoti, kasbi yoki ish faoliyati turi va shakli

kabi omillardan qatiy nazar teng asosda ta’minlanadi. Bu bilan saylovda ishtirok etish fuqarolikning ajralmas huquqi sifatida e’tirof etiladi hamda barcha uchun teng imkoniyatlar kafolatlanadi.

5-modda. Teng saylov huquqi

Har bir saylovchi — O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi — saylovda bir ovozga ega bo‘lib, u teng huquqli ovoz hisoblanadi. Saylov jarayonida har bir fuqaroning ovozi boshqa fuqarolarning ovozlari bilan teng kuchga ega bo‘ladi.

Quyidagi shaxslar saylovda ishtirok eta olmaydi:

- Sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan fuqarolar;
- Sud hukmiga binoan ozodlikdan mahrum etilgan, ya’ni jazoni ijro etish muassasalarida saqlanayotgan shaxslar (faqat og‘ir va o‘ta og‘ir jinoyatlar sodir etganligi uchun).

Shuningdek, bunday shaxslar saylanish huquqiga ham ega emaslar.

Bu tartib fuqarolik huquqlarining aniqligini, saylov jarayonining adolatliligini va siyosiy tizimdagi ishtirokda barcha uchun teng shart-sharoitlar yaratilishini ta’minlashga xizmat qiladi.

6-modda. To‘g‘ridan-to‘g‘ri saylov huquqi

O‘zbekiston Respublikasida Prezident, Qonunchilik palatasi deputatlari hamda mahalliy Kengashlar deputatlari fuqarolar tomonidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri saylov yo‘li bilan saylanadi.

Bu – fuqarolar o‘z vakillarini vositachilarsiz, bevosita ovoz berish orqali tanlash huquqiga egaligini anglatadi. To‘g‘ridan-to‘g‘ri saylov prinsipi siyosiy jarayonda xalq irodasining bevosita namoyon bo‘lishiga xizmat qiladi.

7-modda. Yashirin ovoz berish

O‘zbekiston Respublikasida saylov erkin va yashirin ovoz berish tamoyili asosida amalga oshiriladi.

Saylovchi o‘z xohish-irodasini hech bir bosim yoki tashqi ta’sirlarsiz, erkin ravishda bildiradi. Saylovchilarning ovoz berish jarayonidagi tanlovi ustidan nazorat o‘rnatilishiga qat’iyan yo‘l qo‘yilmaydi.

Yashirin ovoz berishni ta’minlash maqsadida, saylov uchastkalarida har bir saylovchi o‘z tanlovini beg‘araz va mustaqil tarzda amalga oshira oladigan maxfiylik sharoitlari yaratiladi.

“Partiya” tushunchasi va uning ma’nosi

“Partiya” atamasi lotincha **“pars”** (yoki “partis”) so‘zidan olingan bo‘lib, **“qism”**, **“bo‘lak”** degan ma’nolarni bildiradi. Siyosiy nuqtayi nazardan, siyosiy partiya — bu muayyan g‘oya va maqsadlar atrofida birlashgan fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy tashkilotidir.

Siyosiy partiya, odatda, jamiyatdagi turli ijtimoiy qatlam va guruhlarning manfaatlarini ifodalaydi hamda davlat hokimiyati uchun kurash olib boradi. Ular saylovlarda ishtirok etish, ijtimoiy fikrga ta’sir ko‘rsatish, qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyat tizimlarida vakillikka erishish orqali o‘z dasturiy maqsadlarini amalga oshirishga intiladi.

Siyosiy partiyalar, ijtimoiy guruhlar manfaatlarini ifodalovchi, ularning eng faol vakillarini birlashtiruvchi siyosiy tashkilotlar. Siyosiy partiyalar jamiyat siyosiy tizimining muxim qismi, ular davlatning siyosiy yo‘nalishini belgilashda ishtirok etadi, hukumatning vakillik va ijro etuvchi muassasalarini shakllantiradi.

Siyosiy partiyalarning tarixiy rivojlanishi

Dastlabki siyosiy partiyalar XVII–XVIII asrlar inqiloblari davrida shakllana boshlagan bo‘lsa-da, siyosiy partiyalarga o‘xshash jamoa va tashkilotlar qadim zamonlardan beri mavjud edi. Antik davrda,

masalan, Afina geteriyalari va Rimda optimatlar hamda populyarlar kabi guruhlar siyosiy partiyalarning vazifasini bajargan.

Siyosiy partiyalarning universal shakllari ko‘pincha qarindoshlik aloqalariga asoslangan guruhlar va maxfiy tashkilotlar bo‘lib, buning yaqqol misoli sifatida o‘rta asrlar Angliyasidagi Yorklar va Lankasterlar, shuningdek, o‘rta asr Arabistonidagi Ali tarafdorlari keltiriladi.

Bugungi kunda ham Osiyo davlatlarida qarindoshlik va yurtdoshlik tamoyillari siyosiy partiyalarning shakllanishi va faoliyat ko‘rsatishida muhim ahamiyatga ega.

Markaziy Osiyoda siyosiy partiyalarning shakllanishi

Markaziy Osiyoda siyosiy partiyalar tuzish uchun tarixiy-ijtimoiy sharoitlar 19-asr oxiri – 20-asr boshlarida yuzaga kela boshladi. Ushbu davrda jadidlar va ma’rifatparvarlar xalq orasida ma’rifatni targ‘ib qilish, siyosiy faollikni oshirish, hamda o‘lkani Rossiya imperiyasi tarkibida muxtoriyatga erishishga chaqirish va mustaqil milliy davlat yaratish masalasini ilgari surish bilan shug‘ullandilar (qarang: Jadidchilik harakati).

Ammo ularning bu intilishlari chor hokimiyati va mahalliy hukmdorlarning keskin qarshiligiga uchradi. Natijada, mintaqada 1917-yilgacha siyosiy, nazariy va tashkiliy jihatdan yetuk siyosiy partiyalar shakllana olmadi.

1917-yil oktyabr to‘ntarishi arafasida va undan keyingi davrda paydo bo‘lgan siyosiy tashkilotlar va ularning rahbarlari qatag‘onga uchradi, badarg‘a qilindi yoki surgun qilindi (qarang: “Milliy ittifoq”, “Yosh buxoroliklar”, “Yosh xivaliklar”).

Sho‘rolar davrida esa hukmron bo‘lgan kommunistik partiyadan boshqa siyosiy partiyalarni tuzish qat’iyan taqiqlandi.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqil bo‘lganidan so‘ng Sp.ning shakllanishi va faoliyat olib borishiga imkoniyat yaratildi.

Mamlakatda hozirgi paytda 5 ta siyosiy partiya mavjud:

O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasi,

O‘zbekiston “Adolat” sotsialdemokratik partiyasi,

O‘zbekiston Milliy tiklanish demokratik partiyasi, O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasi,

O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasi,

O‘zbekiston ekologik partiyasi.

Siyosiy partiyalar o‘z faoliyatini O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (1992-yil 8 dekabr), “Siyosiy partiyalar to‘g‘risida”gi qonuni (1996-yil 26 dekabr), shuningdek boshqa tegishli qonun hujjatlari va o‘z ustavlari asosida amalga oshiradilar.

Siyosiy partiyalarni tashkil etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 34-moddasida mustahkamlangan. Ushbu qonunga ko‘ra, siyosiy partiyalar fuqarolarning huquq va erkinliklarini amalga oshirish, o‘z xohish-irodasini erkin ifoda etish, partiyaga ixtiyoriy ravishda kirish va undan chiqish, a’zolarning teng huquqliligi, o‘zini-o‘zi boshqarish, qonuniylik hamda oshkoralik tamoyillari asosida tashkil etiladi va faoliyat yuritadi.

Siyosiy partiyalar o‘z faoliyatini O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (1992-yil 8 dekabr), “Siyosiy partiyalar to‘g‘risida”gi qonuni (1996-yil 26 dekabr), shuningdek boshqa tegishli qonun hujjatlari va o‘z ustavlari asosida amalga oshiradilar.

Siyosiy partiyalarni tashkil etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 34-moddasida mustahkamlangan. Ushbu qonunga ko‘ra, siyosiy partiyalar fuqarolarning huquq va erkinliklarini amalga oshirish, o‘z xohish-irodasini erkin ifoda etish, partiyaga ixtiyoriy ravishda kirish va undan chiqish, a’zolarning teng huquqliligi, o‘zini-o‘zi boshqarish, qonuniylik hamda oshkoralik tamoyillari asosida tashkil etiladi va faoliyat yuritadi.

O‘zbekiston Respublikasining “Siyosiy partiyalar to‘g‘risida”gi qonuniga ko‘ra, quyidagi shaxslar siyosiy partiyalarga a’zo bo‘la olmaydi:

- huquqni muhofaza qiluvchi organlarda xizmat qiluvchi shaxslar, jumladan sudyalar, prokurorlar va prokuratura tergovchilari;
- ichki ishlar organlari, milliy xavfsizlik xizmati xodimlari, harbiy xizmatchilar;

- Xorijiy davlatlarning fuqarolari hamda fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar siyosiy partiyalarga a’zo bo‘la olmaydi.
- Siyosiy partiyalarga a’zolik faqat yakka tartibda qayd etiladi; bir shaxs ayni paytda ikki partiyaga a’zo bo‘la olmaydi.
- Siyosiy partiyalarni tuzish uchun kamida 8 ta hududiy subyekt (viloyat), jumladan Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Toshkent shahrida yashovchi, partiyaga qo‘shilish istagida bo‘lgan kamida 20 ming fuqaroning imzosi talab qilinadi.
- Siyosiy partiyalar saylab qo‘yiladigan davlat organlarida o‘z vakillari orqali qarorlar qabul qilish jarayonida ishtirok etadi hamda qonunchilikda belgilangan tartibda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va davlat hokimiyati organlari saylovlarida qatnashadi.
- Partiyalarning siyosiy yo‘nalishlarini izchil amalga oshirish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisida siyosiy partiyalarning fraksiyalari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi hamda mahalliy vakillik organlarida partiya guruhlari tashkil etiladi.

“O‘zbekiston Respublikasining “Siyosiy partiyalar to‘g‘risida”gi qonunida siyosiy partiyalarning faoliyati kafolatlari, ularni tuzish va ro‘yxatdan o‘tkazish tartibi, partiya mulkiga oid masalalar, shuningdek partiyalar faoliyatini to‘xtatish asoslari va tartibi batafsil belgilab berilgan”.

Parlament tuzilishi bir yoki ikki palatali bo‘lishi mumkin (ba’zi hollarda undan ko‘p palatalar ham bo‘ladi). Ikki palatali parlamentlarda odatda pastki palata umumxalq vakilligi asosida shakllanadi. Uning deputatlari hududiy saylov okruglari bo‘yicha saylanadi. Saylov majoritar tizim asosida (ya’ni har bir hududdan alohida nomzod saylash), proporsional tizim asosida (siyosiy partiyalar ro‘yxati bo‘yicha), yoki aralash saylov tizimi orqali amalga oshiriladi.

Parlamentning yuqori (ikkinchi) palatasi odatda hududiy vakillik prinsipiga asoslanadi. Ushbu palata a’zolari davlatning ma’muriy-hududiy birliklari — viloyatlar, respublikalar, mintaqalar — manfaatlarini ifoda etadi.

Bu palataga a’zolik quyidagi tartiblar asosida bo‘lishi mumkin:

- bevosita ushbu hudud aholisi tomonidan saylanadi;
- mintaqaviy qonunchilik organlari (masalan, mahalliy kengashlar) tomonidan saylanadi;
- hududiy ijro va qonun chiqaruvchi hokimiyat rahbarlari lavozimga ega bo‘lganliklari sababli avtomatik tarzda a’zo bo‘ladilar;
- ba’zida mintaqaviy ijro hokimiyati tomonidan tayinlanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi – O‘zbekiston parlamenti, oliy davlat vakillik, qonun chiqaruvchi organi. Dastlab bir palatali parlament sifatida tashkil etilgan va fuqarolarning umumiy, teng, to‘g‘ridan-to‘g‘ri saylov huquqi asosida shakllantirilgan. 1-chaqiriq Oliy Majlis ko‘p partiyalilik asosda 3 turda – 1994-yil 25-dekabr, 1995-yil 8- va 22-yanvarda bo‘lib o‘tgan saylovlarda saylangan va 1995 – 99 yillarda faoliyat ko‘rsatgan. 2-chaqiriq Oliy Majlisga saylovlar 1999-yil 5 va 19 dek.da bo‘lib o‘tgan va u 2000 – 2004-yillarda faoliyat ko‘rsatgan. Bir palatali parlament 250 deputatdan iborat bo‘lib, u ishlagan davrda 10 ta kodeks, ikkita milliy dastur, 240 ta qonun, 468 ta qaror qabul qilingan, qonun hujjatlariga 1573 ta qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritilgan.

Bu yillarda parlament, o‘z konstitutsiyaviy vakolatlariga asoslanib, demokratik jamiyatning huquqiy asoslarini shakllantirish, bozor iqtisodiyoti prinsiplarini rivojlantirish bo‘yicha muayyan ishlarni amalga oshirdi. Qonunchilik, davlat boshqaruvi, o‘tish davri muammolarini yechishda muayyan tajribaga ega bo‘ldi. 2002-yil 27-yanvarda o‘tkazilgan referendumda ikki palatali parlamentni tuzish masalasi O‘zbekiston xalqi tomonidan qo‘llab quvvatlandi. 2004-yil 26-dekabr va 2005-yil 9-yanvarda Oliy Majlisning Qonunchilik palatasiga, 2005-yil 17-20-yanvarda Oliy Majlis Senatiga saylovlar bo‘lib o‘tdi va Oliy Majlis 2 palatadan - Qonunchilik palatasi (quyi palata) va Senatdan (yuqori palatadan) iborat qilib shakllantirildi.

Tayanch iboralar: umumiy saylov huquqi, teng saylov huquqi, to‘g‘ridan-to‘g‘ri saylov huquqi, yashirin ovoz berish, ochiq va oshkora saylov, siyosiy partiya, partiya faoliyati, partiya a’zoligi, partiya fraksiyalari, ko‘p partiyalilik, ikki palatali parlament, bir palatali

parlament, majoritar saylov tizimi, proportsional saylov tizimi, Oliy Majlis, Konstitutsiyaviy huquq, jamoatchilik nazorati, demokratik tarzda tashkil etish, o‘zini o‘zi boshqarish.

Nazorat takrorlash uchun savollar

1. Iqtisodiy siyosat nima va u qanday asosiy maqsadlarni ko‘zlaydi?
2. Iqtisodiy siyosat vositalariga nimalar kiradi va ular qanday tasniflanadi?
3. Monetar siyosat va fiskal siyosat o‘rtasidagi asosiy farqlar nimalarda namoyon bo‘ladi?
4. Bozor mexanizmlari iqtisodiy siyosatga qanday ta’sir ko‘rsatadi?
5. Iqtisodiy siyosatni amalga oshirishda uchraydigan asosiy cheklovlar nimalardan iborat?
6. Iqtisodiy siyosatda davlatning aralashuvi qanday cheklovlarga duch keladi va bu cheklovlarni qanday yumshatish mumkin?
7. O‘zbekiston misolida iqtisodiy siyosat vositalari qanday qo‘llanilmoqda va ularning samaradorligi qanday baholanmoqda?
8. Jahon tajribasida iqtisodiy siyosatni ishlab chiqishda qo‘llaniladigan samarali vositalar qaysilar?
9. Iqtisodiy siyosatni ishlab chiqishda xalqaro tashkilotlar (IMF, JST va boshqalar) qanday rol o‘ynaydi?
10. Iqtisodiy siyosatni ishlab chiqishda ijtimoiy, siyosiy va ekologik omillar qanday cheklovlar yaratadi?

VII BOB. IQTISODIYOTDA MONOPOLIZIMGA QARSHI SIYOSAT VA RAQOBATNI RIVOJLANTIRISH

7.1. Raqobat tushunchasi va uning zarurligi.
7.2. Monopolistik raqobat va uning mohiyati.
7.3. O‘zbekistonda raqobatni rivojlantirish va monopoiliyaga qarshi kurashish.

7.1. Raqobat tushunchasi va uning zarurligi

Raqobat – bozorning ajralmas qismi Bozor iqtisodiyotining asosiy unsurlaridan biri bu – raqobatdir. U tovar xo‘jaligining rivojlanishiga xizmat qiladi va iqtisodiy manfaatlar to‘qnashuvi orqali yuzaga keladi. Raqobat – bozor ishtirokchilarining foyda va manfaat uchun olib boradigan kurashidir. Hozirgi zamon iqtisodiy tizimida raqobat quyidagi asosiy vazifalarni bajaradi: tartibga solish vazifasi; resurslarni joylashtirish vazifasi; innovatsion vazifa; moslashtirish vazifasi; taqsimlash vazifasi; nazorat qilish vazifasi.

Raqobatni tartibga solish vazifasi Raqobat ishlab chiqarishni talabga moslashtirish orqali bozorni boshqaradi. Bu orqali taklif talabga ta’sir qilib, ishlab chiqarish hajmi va tarkibi ham individual, ham ijtimoiy ehtiyojlarga muvofiq belgilanadi. Natijada iqtisodiyot bozor qonunlari asosida tartibga solinadi.

Raqobatning resurslarni joylashtirish vazifasi Raqobat ishlab chiqarish omillarini eng samarali korxona, hudud va mintaqalarga oqilona taqsimlashga yordam beradi.

Raqobatning innovatsion vazifasi Raqobat fan-texnika taraqqiyotiga asoslangan yangiliklarni joriy qilish va bozor sub’ektlarining rivojlanishini rag‘batlantirish vazifasini bajaradi.

Raqobatning moslashtirish vazifasi Raqobat korxonalar ichki va tashqi muhitga moslashib, o‘z faoliyatini kengaytirishiga yordam beradi.

Raqobatning taqsimlash vazifasi U ishlab chiqarilgan mahsulotlarni iste’molchilar o‘rtasida samarali taqsimlanishini ta’minlaydi.

Raqobatning nazorat vazifasi Raqobat bozorda monopoliyaga yo‘l qo‘ymaslik va adolatli raqobatni ta’minlashga qaratilgan.

Raqobat o‘z miqyosiga ko‘ra, raqobat ikki turga – tarmoq ichidagi va tarmoqlararo raqobatga bo‘linadi. Tarmoq ichidagi raqobat tovar ishlab chiqarish va sotishning qulay sharoitiga ega bo‘lish, qo‘shimcha foyda olish uchun bir tarmoq korxonalari o‘rtasida boradi. Tarmoq ichidagi raqobat natijasida texnika darajasi va mehnat unumdorligi yuqori bo‘lgan korxonalar qo‘shimcha foyda oladilar va aksincha, texnika jihatdan nochor korxonalar esa ishlab chiqarilgan tovar qiymatining bir qismini yo‘qotadilar va zarar ko‘radilar.

Tarmoqlararo raqobat – bu turli tarmoqlardagi korxonalar o‘rtasidagi eng yuqori foyda olish uchun olib boriladigan raqobatdir. Bu jarayon kapitalni kam foyda keltiradigan tarmoqlardan ko‘proq foyda beradigan tarmoqlarga yo‘naltiradi. Natijada, turli tarmoqlardagi foyda darajalari o‘rtacha foyda me’yoriga tenglashadi.

Iqtisodiy adabiyotlarda bir tarmoqdagi to‘rtta asosiy shakl ajratiladi: raqobat, sof monopoliya, monopolistik raqobat va oligopoliya. Sof raqobat sharoitida tarmoqda bir xil mahsulot ishlab chiqaruvchi ko‘plab korxonalar mavjud bo‘ladi, shuningdek, xaridor va iste’molchilar soni ham katta bo‘ladi. Bunday bozorda alohida korxonalar mahsulot narxiga sezilarli ta’sir ko‘rsatolmaydi yoki ta’sir juda kichik bo‘ladi.

Sof monopoliya – tarmoqda faqat bitta firma faoliyat yuritadigan holat bo‘lib, u mavjud mahsulot yoki xizmatning yagona ishlab chiqaruvchisi hisoblanadi. Bunda yakkahukmronlik yuzaga keladi va firma narxlarni sezilarli darajada nazorat qiladi.

7.2. Monopolistik raqobat va uning mohiyati

Monopolistik raqobat – bu monopoliya va raqobat unsurlarini birlashtiruvchi bozor shaklidir. Bu holatda o‘xshash mahsulot ishlab chiqaruvchi ko‘plab firmalar mavjud bo‘lib, ular o‘zaro narx va ishlab chiqarish hajmi uchun raqobatlashadilar. Shu bilan birga, har bir firma o‘z mahsulotini boshqalardan farqlashga harakat qiladi (masalan: sifati,

dizayni, qadoqlanishi yoki sotuv shartlari orqali) va shu yo‘l bilan mahsulotiga nisbiy yakkahukmronlik yaratadi.

Oligopoliya — bu bozor shakli bo‘lib, unda bir necha yirik korxonalar hukmronlik qiladi. Odatda, bu bozorda mahsulot yoki xizmatlarni ishlab chiqaruvchilar soni kam bo‘ladi va ular narxlar hamda bozor ulushini nazorat qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Iqtisodiy adabiyotlarda raqobat ikki asosiy shaklga bo‘linadi: **halol** va **g‘irrom raqobat**. **G‘irrom raqobat** – bu jamiyat tomonidan qabul qilinmagan usullardan foydalanishdir. Masalan, raqibga tuhmat qilish, jismoniy bosim o‘tkazish, obro‘sini tushirish yoki majburlash kabi yo‘llar kiradi. **Halol raqobat** esa — iqtisodiy vositalar orqali, qonun va axloq normalariga rioya qilgan holda raqobatlashishni bildiradi. Bunda raqobatchi o‘z manfaatini ko‘zlasa-da, jamiyat manfaatlariga zid ish tutmaydi.

Raqobatning ikki asosiy yo‘li mavjud: **narx asosidagi raqobat** va **narxdan tashqari raqobat**.

Narx vositasidagi raqobat – bu mahsulot yoki xizmat narxini pasaytirish orqali bozordagi raqobatchilardan ustunlikka erishish usulidir. Ishlab chiqaruvchilar xaridorni jalb qilish uchun o‘z mahsulotini raqibnikidan arzonroq narxda taklif qiladilar.

Narxsiz raqobat – bu mahsulot narxiga emas, balki uning sifati**,** xizmat ko‘rsatish darajasi**,** brend obro‘si kabi omillarga asoslangan raqobat shaklidir. Bu holatda xaridorlar tovarni arzonligi uchun emas, balki ishonchliligi**,** zamonaviyligi yoki xizmat ko‘rsatish qulayligi uchun tanlaydilar.

Monopoliyaga qarshi qonunlarni amalga oshirish maqsadida maxsus ma’muriy organlar va qo‘mitalar tashkil etiladi. Bu tuzilmalar korxonalarning tuzilmasi hamda qimmatli qog‘ozlarning taqsimoti jarayonlariga aralashib, hamma uchun majburiy bo‘lgan qarorlar qabul qiladi. Bu borada Yaponiyaning tajribasidan foydalanish mumkin. Xususan, Yaponiyada Ikkinchi jahon urushidan so‘ng monopoliya va yakkahokimlikni taqiqlovchi qonunlarga rioya etilishini nazorat qiluvchi qo‘mita tuzilgan bo‘lib, u keng vakolatlarga ega va mustaqil tarzda faoliyat yuritadi. Agar qo‘mita qonun buzilish holatini aniqlab,

sud uni tasdiqlasa, aybdor kompaniyaga katta miqdorda jarima belgilanadi. Mazkur qo‘mita raqobatdosh korporatsiyalar o‘rtasida kartel kelishuvlarini tuzishni taqiqlaydi. Agar bunday bitimlar iqtisodiy zarurat tufayli tuzilsa, ularning faqat qisqa muddatli bo‘lishi qat’iy nazorat qilinadi.

Monopoliyaga qarshi davlat idoralari tomonidan monopoliya faoliyatini nazorat qilish va uni cheklashga qaratilgan asosiy yo‘nalishlar quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

Monopoliyadan voz kechishni ko‘zda tutgan tarmoq dasturlarini ishlab chiqish va ularning bajarilishini nazorat qilish;

Muayyan mahsulot bo‘yicha bozor ulushi 35 foizdan yuqori bo‘lgan va maxsus reestrga kiritilgan xo‘jalik yurituvchi subyektlarning harakatlarini kuzatib borish;

Tovar bozorlarida ustun mavqega ega bo‘lgan subyektlarning monopoliyaga oid noqonuniy faoliyatining oldini olish va bunday harakatlarga barham berish;

Tovar bozorlariga kirishda yuzaga keladigan to‘siqlarni, shuningdek, xalqaro savdo va investitsiyalarga oid tarifli va tarifsiz cheklovlarni kamaytirishga yo‘naltirilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish;

Monopolistik tovar bozorlarida faoliyat yurituvchi subyektlar sonini oshirish maqsadida mavjud xo‘jalik subyektlarini ajratib yuborish yoki yangi subyektlarning bozorga kirishini rag‘batlantirish;

Xo‘jalik subyektlarining qo‘shilib ketishi hamda yuridik shaxslar tomonidan uyushmalar tuzilishini cheklash;

Adolatsiz va halol bo‘lmagan raqobatni oldini olish;

Tovar bozorlarida ustun mavqega ega bo‘lgan xo‘jalik subyektlarining bozor imkoniyatlarini cheklash.

2017-yil 18-apreldagi PQ-2897-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining xususiylashtirilgan korxonalarga ko‘maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq, Xususiylashtirilgan korxonalarga ko‘maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo‘mitasi

tarkibida, uning hududiy bo‘linmalari bilan birga, tadbirkorlik asoslariga o‘qitish bo‘yicha Respublika markazi tashkil etilgan.

7.3. O‘zbekistonda raqobatni rivojlantirish va monopoiliyaga qarshi siyosat

Monopoliyaga qarshi kurashish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining asosiy antimonopol siyosat yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

- Sog‘lom raqobat muhitini shakllantirish uchun zarur bo‘lgan tashkiliy, iqtisodiy va moliyaviy asoslarni yaratish, mustahkam huquqiy bazani ishlab chiqish hamda bu jarayonlarni muvofiqlashtiruvchi markaz sifatida faoliyat yuritish;
- Bozor iqtisodoti talablariga mos raqobat qonunchiligi, umume’tirof etilgan qoidalar va normalarning samarali tatbiq etilishini ta’minlaydigan kuchli antimonopoliya tartibga solish tizimini yo‘lga qo‘yish.
- Raqobatni hamda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish orqali bozor iqtisodiyotida islohotlarning yanada chuqurlashishiga ko‘maklashish;
- Insofsiz raqobatchilar tomonidan, ayniqsa iste’mol tovarlari bozorida, tovar va moliya bozorlarini monopollashtirishga qaratilgan har qanday urinishlarni oldindan aniqlash, ularni cheklash va butunlay yo‘q qilish;
- Monopoliyaga qarshi davlat siyosati konsepsiyasini hayotga tatbiq etish, shuningdek, monopoliyadan chiqarishga oid respublika, tarmoq va hududiy dasturlarni ishlab chiqish va ularning ijrosini muvofiqlashtirib borish.
- Monopoliyaga qarshi qonunchilik talablariga amal qilinishini ta’minlash, shuningdek, vakolat doirasida tabiiy monopoliya subyektlari faoliyatini nazorat ostida ushlab borish;
- Reklama sohasi hamda iste’molchilar huquqlarini himoya qilishga doir qonunlarga rioya etilishi ustidan doimiy nazoratni amalga oshirish;

- Iste'mol tovarlari narxlari va xizmatlar tariflarini monitoring qilish, shuningdek, iste'molchilar huquqlarini himoya qilish jamiyatlari bilan hamkorlikda narxlarning asossiz oshib ketishi, sifatsiz mahsulotlar sotilishi yoki past sifatli xizmatlar ko'rsatilishiga sabab bo'ladigan nohalol raqobatga qarshi chora-tadbirlar ko'rish.

Monopol xo'jalik yurituvchi subyektlarning faoliyatini samarali tartibga solish va nazorat qilish, raqobat muhitini rivojlantirish, reklama sohasini tartibga solish hamda iste'molchilar huquqlarini himoya qilishga yo'naltirilgan normativ va metodologik bazani takomillashtirish.

Bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tish jarayonida tovar bozorlarida raqobat muhitini saqlash va rivojlantirish, shuningdek, monopolistik faoliyatni cheklash maqsadida O'zbekiston Respublikasining "Tovar bozorlarida monopolistik faoliyatni cheklash va raqobat to'g'risida"gi Qonuni qabul qilingan. Ushbu Qonunga muvofiq, monopolistik faoliyat — bu xo'jalik yurituvchi subyektlarning raqobatni yuzaga keltirmaslik, uni cheklash yoki butunlay yo'q qilishga qaratilgan harakatlari yoki harakatsizligi sifatida talqin etiladi.

Tovar bozorida xo'jalik yurituvchi subyekt yoki shaxslar guruhining bozor ulushi quyidagi holatlarda ustun mavqe sifatida e'tirof etiladi:

1. Agar ularning bozor ulushi 50 foiz yoki undan ko'pni tashkil etsa;

2. Yoki ularning ulushi 35 foizdan 50 foizgacha bo'lsa, va shu bilan birga quyidagi shartlar bajarilgan bo'lsa:

Ushbu subyektning bozor ulushi kamida bir yil davomida barqaror saqlanib qolgan bo'lishi;

Bozorda boshqa raqobatchilarga tegishli ulushlar nisbatan tarqoq bo'lishi;

Bozorga yangi xo'jalik yurituvchi subyektlarning kirishi mavjud bo'lishi, ya'ni kirish uchun to'siqlar mavjud emasligi.

Mazkur shartlar asosida xo'jalik yurituvchi subyekt yoki shaxslar guruhining bozordagi mavqei ustun mavqe sifatida tan olinadi.

Moliya bozorida xo‘jalik yurituvchi subyekt yoki shaxslar guruhining ustun mavqeini aniqlash tartibi va unga qo‘yiladigan shartlar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Bozorda ustun mavqega ega bo‘lgan xo‘jalik yurituvchi subyektlar tomonidan raqobatni cheklovchi yoki boshqa xo‘jalik subyektlarining manfaatlarini buzuvchi (yoki buzilish xavfini keltirib chiqaruvchi) har qanday harakatlar qat’iyan man etiladi.

Xo‘jalik yurituvchi subyektning o‘z ustun mavqeidan **suiiste’mol qilgan holatlari** quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

Xo‘jalik yurituvchi subyekt tomonidan bozordagi ustun mavqedan **suiiste’mol qilish holatlari** quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- Tovar bozorida sun’iy taqchillikni yuzaga keltirish yoki uni saqlab turish, narxlarni sun’iy ravishda oshirish maqsadida tovarlarni muomaladan olib qo‘yish;
- Monopol narxlarni belgilash, ya’ni:

Monopol qimmat narx — bu, xo‘jalik yurituvchi subyektning ishlab chiqarish quvvatlaridan to‘liq foydalanmasligi natijasida yuzaga kelgan asossiz xarajatlarini qoplash yoki mahsulot sifatini pasaytirish evaziga ortiqcha foyda olish maqsadida belgilanadigan yuqori narx;

Monopol arzon narx – bu esa raqobatchilarni bozordan siqib chiqarish yoki ularning faoliyatiga jiddiy zarar yetkazish maqsadida mahsulotga belgilangan asossiz past narx.

Monopol arzon narx – bu xo‘jalik yurituvchi subyekt tomonidan mahsulotga belgilangan shunday past narxki, u orqali sotib olinayotgan tovarlardan qo‘shimcha foyda olish yoki subyektning asossiz xarajatlarini sotuvchi hisobiga qoplash maqsadi ko‘zlanadi.

Bundan tashqari, monopol mavqega ega xo‘jalik subyekt tomonidan bozordagi raqobatchini siqib chiqarish niyatida belgilangan, zarar keltiruvchi darajadagi past narx ham monopol arzon narx hisoblanadi.

Bunday narx belgilash amaliyoti raqobatni cheklab, bozordagi sog‘lom raqobat muhitiga jiddiy putur yetkazadi.

Insofsiz raqobat — bu xo‘jalik yurituvchi subyektlar tomonidan tadbirkorlik faoliyatida ustunlikka erishish maqsadida qo‘llaniladigan, bozordagi raqobatni yo‘qqa chiqaruvchi va iste’molchilarni chalg‘ituvchi usullarga asoslangan raqobat shaklidir.

O‘zbekiston Respublikasida esa monopoliyaga qarshi davlat organi ushbu holatlarga qarshi kurashishda muhim rol o‘ynaydi. U monopolistik faoliyat hamda insofsiz raqobatni cheklash va bartaraf etish yo‘nalishida davlat siyosatini shakllantiradi va amalga oshiradi.

Monopoliyaga qarshi davlat organi xo‘jalik sub’ektlarini tashkil etish, qayta tashkil etish, tugatish ustidan davlat nazoratini amalga oshiradi. Agar xo‘jalik sub’ektlarining qo‘shilishi, birlashtirilishi, xolding kompaniyalariga aylantirilishi oqibatida monopoliya vujudga keladigan bo‘lsa, u holda ularning iltimosnomalari rad etiladi.

Ushbu davlat organi aktsiyalar, ulushlar va boshqa mulkiy huquqlarni sotib olish jarayonida monopoliyaga qarshi qonun hujjatlarining buzilmasligini nazorat qiladi. Zarur va imkoniyat mavjud bo‘lganda, monopolistik korxonalar majburiy ravishda bo‘lib yuborilishi mumkin.

Agar monopoliyaga qarshi qonunlar buzilsa, ushbu organ qonun doirasida jarimalar qo‘llaydi yoki qonuniy tartibda buzilgan holatlarni sudga topshiradi.

O‘zbekiston Respublikasida monopolistik faoliyatni cheklash siyosati natijasida hozirda avval monopoliyaga ega bo‘lgan tekstil, qurilish materiallari ishlab chiqarish, farmatsevtika, mebel va oziq-ovqat sanoati kabi sohalarda sog‘lom raqobat muhiti shakllandi hamda yirik monopoliyalar tugatildi.

Monopoliyalashgan bozorlar tahlili tubdan qayta ko‘rib chiqilib, endilikda asosiy e’tibor tarmoqni o‘rganishdan tovar bozorlaridagi talab va taklif, hamda bozor muvozanatiga bevosita ta’sir etuvchi omillarga qaratilmoqda.

Shu asosda, har yili Qo‘mita tomonidan 100 ga yaqin tovar va moliya bozorlari segmentlari batafsil o‘rganilib kelinmoqda.

Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarni tekshirish o‘rniga, ayniqsa narxlar sohasidagi kelishuvlar va kelishib qilingan harakatlarni aniqlash

maqsadida “kartel” deb ataluvchi turli shakldagi kelishuvlar tahlil qilinmoqda.

Monopolist korxonalar davlat reestriga kiritilgan korxonalar va tabiiy monopoliya sub’ektlari davlat reestriga kiritilgan korxonalar sonining faoliyat yuritayotgan barcha xo‘jalik sub’ektlari soniga (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz) nisbati sifatida hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasining “Tabiiy monopoliyalar to‘g‘risida”gi Qonunining yangi tahririga asosan, tabiiy monopoliya subyektlari faoliyatida iste’molchilar va davlat manfaatlari muvozanati ta’minlanadi.

Ushbu qonunga ko‘ra, tabiiy monopoliya – bu texnologik xususiyatlar natijasida ma’lum tovarlar (ishlar, xizmatlar) turlariga bo‘lgan talabni raqobatli sharoitlarda qondirish imkoni bo‘lmagan yoki iqtisodiy jihatdan samarali hisoblanmaydigan holatdir.

O‘zbekistonda tabiiy monopoliya sub’ektlarining faoliyati davlat tomonidan quyidagi sohalarda tartibga solinadi:

- neft, neft mahsulotlari va gazni quvur orqali tashish;
- elektr va issiqlik energiyasini ishlab chiqarish hamda ularni tashish;
- temir yo‘l infratuzilmasidan foydalanish;
- umumiy erkin foydalaniladigan pochta aloqasi xizmatlari;
- suv ta’minoti va kanalizatsiya xizmatlari;
- aeronavigatsiya, portlar va aeroportlar xizmatlari;
- transport terminallari xizmatlari.

Qonunga muvofiq, tabiiy monopoliya subyektlari faoliyati O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi hamda uning vakolat bergan organi — O‘zbekiston Respublikasi Monopoliyadan chiqarish, raqobat va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash davlat qo‘mitasi va uning hududiy bo‘linmalari tomonidan tartibga solinadi.

Monopoliyaga qarshi davlat organi tomonidan tabiiy monopoliya subyektlari tomonidan qonun hujjatlarining buzilishi aniqlanganda, ushbu subyektlarga nisbatan qonunchilikda belgilangan tartibda jarimalar qo‘llanadi yoki qonun buzilish holatini bartaraf etish va uni

to‘xtatish bo‘yicha majburiy ko‘rsatmalar beriladi. Zarurat tug‘ilganda, organ sudga da’vo arizasi bilan ham murojaat qilishi mumkin.

Shuningdek, monopoliyaga qarshi davlat organi tomonidan mahalliy davlat hokimiyati organlariga ushbu qonunga zid ravishda qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarni bekor qilish yoki ularning mazmuniga o‘zgartirish kiritish yuzasidan, bajarilishi majburiy bo‘lgan rasmiy ko‘rsatmalar yuboriladi.

Monopolistik faoliyatni cheklash va bozor iqtisodiyoti tamoyillariga mos raqobat muhitini shakllantirishdan ko‘zlangan asosiy maqsadlardan biri – iste’molchilarning mahsulot va xizmatlarni erkin tanlash huquqini ta’minlash, ularning manfaatlarini himoya qilish hamda sog‘lom iqtisodiy muhitni barqarorlashtirishdan iboratdir.

O‘zbekiston Respublikasining “Iste’molchilarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq, **iste’molchi** — bu foyda olish maqsadini ko‘zlamagan holda, shaxsiy ehtiyojlarini qondirish yoki xususiy xo‘jaligida foydalanish uchun tovar xarid qiluvchi, ish yoki xizmatlarga buyurtma beruvchi yoki bu niyatda bo‘lgan fuqaro (jismoniy shaxs) sifatida belgilanadi.

Davlat, qonunchilikka muvofiq ravishda, iste’molchilarning tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni xarid qilish va ulardan foydalanish jarayonidagi huquqlari hamda qonun bilan himoya qilinadigan manfaatlarini to‘liq kafolatlaydi.

Raqobat muhitining barqarorligi va iqtisodiy adolat tamoyillarining ta’minlanishida xo‘jalik yurituvchi subyektlarga berilayotgan imtiyoz va preferensiyalarning maqbulligini tahlil qilish, ularni iqtisodiy asoslangan tarzda oqilonalashtirish muhim rol o‘ynaydi. Bu esa bozordagi teng sharoitlarni ta’minlash, sun’iy ustunliklar va raqobatga to‘sqinlik qiluvchi omillarni kamaytirishga xizmat qiladi.

Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev Oliy Majlisga murojaatnomasida “Bozor iqtisodiyotining talabi shundayki, resurs va imkoniyatlardan foydalanish imkoni, ya’ni faoliyat maydoni hammaga teng bo‘lishi kerak. Yakkahokimlikka hech kimning haqqi yo‘q. Shu nuqtai nazardan qaraydigan bo‘lsak, aholi ehtiyoji uchun zarur bo‘lgan mahsulotlarni mamlakatimizga import qilish faqat

ayrim guruhlar qo‘lida to‘planib, ular uchun mo‘may daromad manbaiga aylanib qolganini adolatdan deb bo‘lmaydi. Ba’zi bir korxonalarga imtiyozlar berish orqali o‘zimiz erkin raqobat muhitini bo‘g‘ib, narxlarning barqaror bo‘lishiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqdamiz. Endi biz bunday amaliyotdan voz kechamiz. Bu masalada hammaga teng sharoit yaratiladi. Imtiyozlar ayrim korxonalarga emas, balki alohida ishlab chiqarish va xizmat turlarini rag‘batlantirish maqsadida beriladi. Imtiyozni ro‘kach qilib, eng muhim faoliyat turlarini to‘la monopoliya qilib olishga mutlaqoyo‘l qo‘yilmaydi” deb ta’kidlangan.

Tayanch iboralar: raqobat, raqobat muhiti, raqobat turlari, raqobat usullari, monopoliya, iqtisodiy monopoliya, tabiiy monopoliya, antimonopol siyat, antimonopol siyosat usullari, raqobatni himoya qilish, raqobatni rivojlantirish, sof raqobat, monopolistik raqobat, oligopoliya, sof monopoliya, ustun mavqe, insofsiz raqobat, monopol narx, sof raqobat, monopolistik raqobat, oligopoliya, sof monopoliya, insofsiz raqobat, monopol narx, davlat nazorati.

Nazorat va takrorlash uchun savollar

1. Raqobat nima va uning ta’rifi qanday beriladi?
2. Raqobatning oltita asosiy vazifasini sanab bering va har birini qisqacha tushuntiring.
3. Raqobatning tartibga solish vazifasi nimadan iborat
4. Raqobatning innovatsion vazifasi qanday amalga oshadi?
5. Tarmoq ichidagi va tarmoqlararo raqobat o‘rtasida qanday farq bor?
6. Sof raqobatning asosiy belgilarini sanab bering.
7. Monopolistik raqobat nimadan iborat va uning xususiyatlari qanday?
8. Oligopoliya nima va uning belgilari qanday?
9. Halol va g‘irrom raqobat o‘rtasida qanday farq bor?
10. Narx va narxsiz raqobat usullarini tushuntiring
11. Sof monopoliya nima va uning asosiy xususiyatlari qanday?
12. Tabiiy monopoliya qanday shakllanadi va uning sabablari nimada?

13. Ustun mavqe qachon e'tirof etiladi? Foiz ko'rsatkichlari qanday?

14. Monopol qimmat va monopol arzon narxlar nimani anglatadi?

15. O'zbekistonda antimonopol siyosatning asosiy yo'nalishlarini sanab bering.

16. Monopoliyaga qarshi davlat organlarining vazifalari nimalardan iborat?

17. "Tovar bozorlarida monopolistik faoliyatni cheklash va raqobat to'g'risida"gi Qonunning asosiy qoidalari qanday?

18. Insofsiz raqobat nima va uning qanday ko'rinishlari mavjud?

19. O'zbekistonda qaysi sohalar tabiiy monopoliya deb hisoblanadi?

20. Tabiiy monopoliya sub'ektlari faoliyatini kim tartibga soladi?

21. Tabiiy monopoliyalar uchun qanday nazorat choralari qo'llaniladi?

22. Iste'molchi kimdir va uning huquqlari qanday himoya qilinadi?

23. Davlat iste'molchilar huquqlarini himoya qilishda qanday kafolatlar beradi?

24. Raqobatni himoya qilishda imtiyozlar masalasi qanday hal qilinadi?

25. Monopolistik faoliyatni cheklash natijasida O'zbekistonda qaysi sohalarda o'zgarishlar yuz berdi?

26. Prezident Sh.M.Mirziyoevning imtiyozlar va raqobat haqidagi fikrlarini tushuntiring.

27. Antimonopol organ qanday jarimalar qo'llaydi va qanday ko'rsatmalar beradi?

28. Raqobat va monopoliya o'rtasida qanday ziddiyat mavjud?

29. Bozor iqtisodiyotida raqobatning ahamiyati nimada?

30. Monopoliya iqtisodiyotga qanday salbiy ta'sir ko'rsatadi?

31. Yaponiya antimonopol tajribasidan qanday saboq olish mumkin?

VIII BOB. DAVLATNING IQTISODIYOTDA XUSUSIY TARMOQ VA TADBIRKORLIKNI QO‘LLAB-QUVVATLASH SIYOSATI

8.1. Xususiy tarmoqni rivojlantirishning iqtisodiy siyosati mohiyati, vazifalari, omillari.
8.2. Davlatning xususiy tarmoqni qo‘llab-quvvatlash siyosati.
8.3. Jahonda xususiy tarmoqni qo`llab-quvvatlash amaliyoti.

8.1. Xususiy tarmoqni rivojlantirishning iqtisodiy siyosati mohiyati, vazifalari, omillari

Tadbirkorlik va ishbilarmonlik Aristotelning “Ekonomika” asarida eng avvalo, dehqonchilik, hunarmandchilik, mayda savdoda band bo‘lganlarning asosiy va sharafli faoliyati, deb e’tirof etilgan. Amir Temur “Tuzuklar” risolasida “Azmi qat’iy, tadbirkor, xushyor, mard va shijoatli bir kishi mingta tadbirsiz va loqayd kishidan afzaldir”,-deb ta’kidlagan. R.Kantil`on bergan ta’rifiga ko‘ra tadbirkor – bu doimiy daromadga ega bo‘lmagan dehqon, hunarmand, savdogar, kambag‘al va boshqalar bo‘lib, o‘zgalar molini muayyan narxda sotib olib,ularni va o‘zining molini hammuayyan bo‘lmagan yuqoriroq narxda sotishga intiladi. Uning asosiy iqtisodiy vazifasi turli tovarlar bozorlarida talabga mos taklifni kiritish hisoblanadi.

Jozef Shumpeter(1883-1950) tadbirkor uchun mulk egaligi maqomining shart ekanligini inkor qilib, uning kishilarning turli tabaqalariga xosligini asoslaydi.

U o‘zining “Iqtisodiy rivojlanish nazariyasi” kitobida tadbirkorni novator, ya’ni yangilik yaratuvchi odam sifatida ta’riflagan. Uning fikricha, tadbirkorning vazifasi yangi kashfiyotlarni amalga tadbiq qilish orqali ishlab chiqarish uslubini reforma qilish(yangilash)dan iborat. Keng ma’noda ko‘rib chiqilganda tadbirkorning vazifasi – yangi ochilgan bozor yoki xom ashyo bazasi asosida yangi tovar ishlab chiqarish yoki eskirganini modernizatsiya qilish uchun yangi texnologiyalar ishlatishdan iborat.

O‘zbek olimlari A.O‘lmasov va M.Sharifxo‘jaevlar biznes keng ma’nodagi qonuniy yo‘l bilan daromad topishga qaratilgan faoliyatdir...

Tadbirkorlik-kishilar(mulkchiliksub'ektlari)ning moddiy va pul mablag'larini (kapitalini) amalda xo'jalik oborotiga tushirib, daromad topishga mo'ljallangan iqtisodiy faoliyatdir. Tadbirkorlik umuman pul topish emas, balki yaratuvchilik faoliyati orqali daromad olishni bildiradi, deb ta'rif beradilar.

Tadbirkor quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

• iqtisodiy faoliyatni tashkil etishning yangi shakllarini joriy etish;

• yangi sotish bozorlarini egallash va avvalgilaridan kengaytirilgan holda foydalanish;

• mavjud sanoat tarmog'ida ilgari qo'llanilmagan yangi ishlab chiqarish usullarini joriy etish;

Tadbirkor quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

• ishlab chiqarishda xom ashyoning yangi turidan foydalanish;

• yangi mahsulot ishlab chiqarish yoki avvalgisini sifat jihatdan takomillashtirish.

Biznes faoliyat turiga ko'ra tadbirkorlikdan tashqari iste'mol biznesi, kasb-korlik biznesi, ya'ni kasb, lavozim imkoniyatlaridan foydalanish asosida foyda va naf olish, boylikdan boylik undirish, tijorat-vositachilik biznesi va boshqa shakllarda ham namoyon bo'ladi.

Biznes mulkchilik turlariga ko'ra davlat, xususiy va aralash hamda huquqiy-qonuniylik nuqtai nazardan oshkora, rasmiy, norasmiy, yashirin(xufyona) shakllarida yuz beradi.

Respublikamizda tadbirkorlikning quyidagi shakllariga ruxsat etilgan:

• yakka tartibdagi faoliyat;

• yollanma mehnatni jalb etish asosida amalga oshiriladigan tadbirkorlik;

Jahonning barcha mamlakatlarida kichik biznes korxonalari milliy iqtisodiyotning poydevori hisoblanadi. Yalpi ichki mahsulot (YaIM) o'sish sur'atlari hal qiluvchi darajada aynan ularga bog'liq, aslida, aholining farovonlik darajasi ham uning qanchalik rivojlanganligi bilan belgilanadi.

Quyidagi tarmoqlarda band bo'lgan xodimlarning o'rtacha yillik soni:

- yengil va oziq-ovqat sanoti, metallga ishlov berish va asmavzusozlik, yog‘ochni qayta ishlash va mebel sanoati hamda qurilish materiallari sanoatida – 200 kishidan;

- mashinasozlik, metallurgiya, yoqilg‘i-energetika va kimyo sanoati, qishloq xo‘jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish va qayta ishlash, qurilish va boshqa sanoat-ishlab chiqarish sohalarida – 50 kishidan;

- fan, ilmiy xizmat ko‘rsatish, transport, aloqa, xizmat ko‘rsatish sohalari (sug‘urta kompaniyalaridan tashqari), savdo va umumiy ovqatlannish hamda boshqa noishlab chiqarish sohalarida – 25 kishidan oshmagan kichik korxonalar.

Bozor iqtisodiyotiga yo‘naltirilgan ko‘pgina mamlakatlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik eksport bozorlari faoliyatida faol ishtirok etib, YaIMning ko‘payishiga ko‘maklashib, aholi bandligini ta’minlab, iqtisodiyotning asosini tashkil qiladi.

Rivojlangan mamlakatlarda band aholining katta qismi aynan kichik biznesda band bo‘lib, ularning mamlakat YaIMni ishlab chiqarishdagi ulushi yuqoridir.

Shu sababli rivojlangan mamlakatlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka iqtisodiy o‘sish va aholi turmush darajasining oshishini ta’minlovchi asosiy richaglardan biri sifatida qaralishi bejiz emas. Buni 8.1-jadvalda keltirilgan ma’lumotlari asosida ham ko‘rish mumkin.

8.1-jadval

Xorijiy mamlakatlarda kichik biznesning rivojlanishi darajasi

Mamlakatlar	Kichik biznes sub’ektlari soni (ming)	1000 kishiga to‘g‘ri keladigan kichik biznes soni	Kichik biznesda bandlarning umumiy bandlikdagi ulushi (%)	Kichik biznesning YaIMdagi ulushi (%)
Buyuk Britaniya	2930	46	49	50-53
Germaniya	2290	37	46	50-54
Italiya	3920	68	73	57-60
Frantsiya	1980	35	54	55-62
AQSH	19300	74	54	50-52
Yaponiya	6450	50	78	52-55

O‘zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni rag‘batlantirish va qo‘llab-quvvatlash siyosatining olib borilayotganligi tufayli uning iqtisodiyotdagi o‘rni va roli ortib bormoqda.

Shunday qilib, har qanday mamlakatning iqtisodiy salohiyatida kichik biznesning roli g‘oyatda kattadir. Boshqacha qilib aytganda, u davlatning muvaffaqiyatli rivojlanishi va gullab-yashnashining garovidir. Shuning uchun O‘zbekistonda kichik biznes, yakka tartibdagi tadbirkorlik, fermer va dehqon xo‘jaliklari rivojlanishini rag‘batlantirishga kata e’tibor qaratilgan.

Shunday ekan, kichik korxonalarning roli va ahamiyati quyidagi omillarda namoyon bo‘ladi:

- kichik korxonalar bozorning tovarlar va xizmatlar bilan tez to‘ldirilishiga yordam beradilar, ichki bozorni o‘zlari tomonidan ishlab chiqarilgan tovarlar bilan boyitadi;

- kichik korxonalar yengil va oziq-ovqat sanoatining salmog‘ini oshirib, mamlakatni xom ashyo yoki yarim tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishga yo‘nalganlik holatidan chiqarib, iqtisodiyotni tarkibiy qayta qurishga faol ta’sir qiladi;

- kichik korxonalar, iqtisodiyotning dvigateli bo‘lgani holda, sohaviy va mintaqaviy yakka hokimlikni bartaraf qilishga, raqobat sohasini kengaytirishga yordam beradi;

- kichik firmalarning faoliyatida ilg‘or, ixcham texnologiyalardan foydalanish alohida o‘rin tutadi, zero, bu ilmiy-texnik taraqqiyotning muhim yo‘nalishlardan biridir;

- kichik korxonalar eksportga mo‘ljallangan va raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarish bilan shug‘ullanib, mamlakatning eksport salohiyatini oshiradi;

- mahalliy idoralarning iqtisodiy bazasini mustahkamlash, qishloq aholi punktlari, kichik shaharlarning rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatishda ularning roli kattadir;

- kichik korxonalar unutilgan, an’anaviy xalq amaliy san’ati, badiiy hunarmandchilikning tiklanishiga ko‘maklashadi, bu nafaqat iqtisodiyot, balki xalq madaniy merosini tiklashda g‘oyatda muhimdir;

- kichik korxonalar ko‘pincha yirik korxonalarni butlovchi detallar va qismlar bilan ta’minlab, ularning yo‘ldoshi bo‘ladi, bu yirik va kichik biznes manfaatlarini birlashtirishning samarali usuli bo‘ladi;

- kichik korxonalarda pensionerrlar, nogironlar, yoshlar, talabalar, uy bekalarining mehnat qilish imkoniyati bor, bu esa ularning moddiy ahvolining yaxshilanishiga yordam beradi;

Kichik biznes mehnatni qo‘llash sohasini kengaytirish, ish bilan band bo‘lmagan aholini va samarasiz ishlovchi korxonalardan ozod bo‘lgan xodimlarni ishga joylashtirish uchun yangi imko-niyatlar yaratishga, boshqacha qilib aytganda, ishsizlikni kamaytirishga imkon beradi;

- kichik biznesning rivojlanishi hisobiga xususiy mulkchilik sohasi kengayadi, bu jamiyat va davlatning tayanchi bo‘lib xizmat qiluvchi o‘rta hollar sinfining shakllanishi, mamlakatda barqa-rorlikning muhim sharti bo‘lib xizmat qiladi.

8.2. Davlatning xususiy tarmoqni qo‘llab-quvvatlash siyosati

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni davlat tomonidan tartibga solish va qo‘llab-quvvatlash- tadbirkorlikning barqaror rivojlanishi uchun qulay muhit, shart-sharoit yaratishga qaratilgan iqtisodiy,ijtimoiy, tashkiliy, huquqiy va siyosiy chora-tadbirlar tizimidir. Davlat organlarining iqtisodiyotni tartibga solish va tadbirkorlikning rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashdan ko‘zlagangan maqsadlari quyidagilardan iboratdir:

- iqtisodiy o‘sishni ta’minlash;

- mehnatga layoqatli aholini ish bilan band etishning yuqori darajasini ta’minlash;

- narxlar barqarorligini ta’minlash;

- pul muomalasi barqarorligini ta’minlash;

Davlatning tadbirkorlikni tartibga solish va qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha quyidagi vazifalari mavjuddir:

Davlat tomonidan iqtisodiyotning barcha sohalarida kishilarning faoliyat risklari bilan bog‘liq bo‘lgan innovatsiya imkoniyatlarini

amalga oshirishga qobiliyati bor bo‘lgan tadbirkorlik sub’ektlarini shakllantirish.

Erkin raqobat muhitini yaratish. Tadbirkorlik sub’ektlari erkin raqobat muhiti sharoitida o‘zlarining raqobat ustunliklarini ta’minlash uchun fanning ilg‘or yutuqlarini qo‘llagan holda texnika va texnologiyalarini uzluksiz yangilash, innovatsion menejment va marketingni jori etish, o‘zlarining innovatsion va risklarga bardoshlik qobiliyatlarini ishga solishga intiladilar. Davlatning tadbirkorlikni tartibga solish va qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha quyidagi vazifalari mavjuddir:

Tadbirkorlarning yuqori sifatli tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarishini va uning bozordagi taklifini rag‘batlantirish. Bunda davlat tomonidan soliq, moliyaviy, kredit, sug‘urta, amortizatsiya va boshqa iqtisodiy siyosat dastaklari yordamida rag‘batlantirish chora-tadbirlari amalga oshiriladi.

Innovatsion mahsulotlarga bo‘lgan talabni shakllantirish va rag‘batlantirish.

Tadbirkorlikning tashkiliy va bozor infratuzilmasini shakllantirish.

Tadbirkorlikning ijtimoiy yo‘naltirilishini ta’minlash.

Davlat tomonidan tadbikorlik rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash tizimini shakllantirish uchun quyidagi shart-sharoyitni amalga oshiradi:

Tadbirkorlikning rivojlanishini huquqiy jihatdan ta’minlash tizimini shaklantirish.

Soliqqa tortish tizimini tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirish.

Tadbirkorlik sub’ektlarini imtiyozli kreditlash tizimini shakllantirish, tijorat banklarining kreditlash amaliyotini rag‘batlantirish, ularni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash fondlarini, o‘z-o‘zlarini kreditlash jamiyatlarining, venchur kapitali, venchur firmalarining hamda innovatsion fondlarning shakllanishiga ko‘maklashish.

Davlat tomonidan tadbikorlik rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash tizimini shakllantirish uchun quyidagi shart-sharoyitni amalga oshiriladi:

Tadbirkorlik faoliyatini sug‘urtalash sohasini davlat tomonidan tartibga solish. Innovatsion jarayonlarni sug‘urtalashning davlat va bozor shakllarining uyg‘unligini ta’minlash.

Tadbirkorlikning tashkiliy infratuzilma tizimlarini shakllantirish.

8.3. Jahonda xususiy tarmoqni qo`llab-quvvatlash amaliyoti

Ko‘pgina xorijiy mamlakatlarda kichik biznesning vujudga kelishi va muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi davlat yordami vositasida ta’minlanadi. Ularda bu ishda juda katta ijobiy tajriba to‘plangan bo‘lib, undan bizning sharoitlarimiz va xususiyatlarimizni hisobga olgan holda foydalanish mumkin.

Ko‘pgina mamlakatlarda kichik korxonalar faoliyatini tartibga solishga umumiy yondashishlar va asosiy yo‘nalishlar xosdir. Ularga quyidagilar kiradi:

Jahonda xususiy tarmoqni qo‘llab-quvvatlash amaliyoti.

Kichik biznesni qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilgan maxsus qonunlarni qabul qilish;

Korxonalar faoliyatining umumiy va xususiy tomonlarini (masalan, kichik firmalarda boshqaruv usullarini) takomillash-tirishni, biznes bilan shug‘ullanishni istayottanlarga moliyaviy yordam ko‘rsatishni, kichik biznesni rivojlantirishni ko‘zda tutuvchi ma’lum maqsadga qaratilgan davlat rejalarini ishlab chiqish;

Kichik biznesni qo‘llab-quvvatlashning tarkibiy-tashkiliy xizmatlarini tashkil qilish;

Kichik bizneslarga davlatning moliyaviy yordam ko‘rsatishi (Italiyada kichik firmalar ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruk-torlik ishlarini moliyalashtirishga katta mablag‘lar ajratiladi);

Kichik biznesni kafolatlash va imtiyozli kreditlashtirish firmalarini tashkil qilish (Angliyada kichik korxonalarni moliyalashtirishni ta’minlovchi maxsus firmalar bor, buning ustiga davlat qarzlarining 70% ni kafolatlaydi);

Kichik korxonalar faoliyatini imtiyozli soliqqa tortishni keng tarqatish (masalan, Frantsiyada har yili 10000 ga yaqin korxonalar to‘liq yoki qisman soliq to‘lashdan ozod qilinadilar).

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakat iqtisodiyoti hamda jamiyat taraqqiyotida muhim o‘rin tutadi. Uning afzalligi bozor kon’yunkturasi o‘zgarishlariga tez moslashuvchanligi, kam mablag‘ talab etishi, yangiliklarni tez joriy etish va tarqatish imkoniyatlariga egaligida namoyon bo‘ladi.

Xalqaro moliya fondi (IMF)ning hisobotiga ko‘ra, 2020 yilga kelib, dunyoda 90 foiz korxonalar kichik va o‘rta biznesga tegishli bo‘lib, ular butun dunyoning 63% aholisini ish bilan ta’minlamoqda. Yevropa ittifoqi miqyosida kichik va o‘rta biznesning umumiy salmog‘i 99,8% ni tashkil etgani holda 85% aholini ish bilan ta’minlab, jami qo‘shilgan.

Tadbirkor va ishbilarmonlarning bunyodkorlik harakatlari mamlakatimizda bozor iqtisodiyotiga o‘tish yo‘lida olib borilayotgan islohotlarning ajralmas qismi sifatida o‘zining ijobiy samarasini bera boshladi. Eng asosiysi – so‘nggi yillarda ham iqtisodiy o‘sish sur’atlari barqaror tus oldi. Erkin iqtisodiyotning sinalgan tamoyillariga izchil amal qilinishi natijasida tadbirkorlikning iqtisodiyotdagi o‘rni va ahamiyati oshdi. Pirovardida, kichik biznesning shakllari kengayib, aholining mulkka egalik tuyg‘usi uyg‘ona boshladi. Bu hol kichik va o‘rta mulkdorlar sinfining shakllanishiga keng yo‘l ochib bermoqda.

Tayanch iboralar: tadbirkorlik, biznes, yakka tartibdagi faoliyat, jamoa tadbirkorlik, Yengil va oziq-ovqat sanoati, mashinasozlik va metallurgiya, xizmat ko‘rsatish sohalari, yalpi ichki mahsulot, tartibga solish va qo‘llab-quvvatlash, erkin raqobat muhiti, imtiyozli kreditlash, soliq imtiyozlari, venchur kapitali**,** kafolatlash tizimi, moliyaviy yordam, eksport salohiyati, innovatsion mahsulotlar, bandlik ta’minlash, raqobat sohasini kengaytirish.

Nazorat va takrorlash uchun savollar

1.Tadbirkorlik nima va uning asosiy maqsadi nimada?

2. Tadbirkorning asosiy vazifalarini sanab o‘ting.

3. Biznes qanday turlarga bo‘linadi?

4. O‘zbekistonda kichik korxonalar qanday mezonlar asosida belgilanadi?

5. Respublikamizda tadbirkorlikning qanday shakllari mavjud?

6. Kichik biznes milliy iqtisodiyotda qanday rol o‘ynaydi?

7. Rivojlangan mamlakatlarda kichik biznesning ahamiyati qanday?

8. Kichik korxonalarning roli va ahamiyati qanday omillarda namoyon bo‘ladi?

9. Davlatning tadbirkorlikni tartibga solish va qo‘llab-quvvatlashdagi maqsadlari nimadan iborat?

10. Davlatning tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha asosiy vazifalari qanday?

11. Angliya, Frantsiya va Italiyaning kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash amaliyotlarini solishtiring.

12. Xalqaro moliya fondi hisobotiga ko‘ra, 2020-yilda dunyoda kichik va o‘rta biznesning ulushi va bandlikdagi roli qanday?

13. O‘zbekistonda kichik biznesning rivojlanishi uchun qanday shart-sharoitlar yaratilgan va ularning samaradorligi qanday baholanishi mumkin?

14. Kichik biznes va yirik korxonalar o‘rtasidagi hamkorlik qanday shakllarda amalga oshirilishi mumkin?

15. Innovatsion jarayonlarni qo‘llab-quvvatlashda davlat va bozor mexanizmlarining o‘zaro ta’siri qanday ta’minlanishi kerak?

IX BOB. DAVLATNING MINTAQAVIY SIYOSATI VA HUDUDLAR RIVOJLANISHINING ISTIQBOLLARI

9.1. Mintaqa siyosati tushunchasi va uning mohiyati.
9.2. Mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining zarurati.
9.3. Mamlakatda davlatning mintaqaviy siyosatini amalga oshirishning shartlari.

9.1. Mintaqa siyosati tushunchasi va uning mohiyati

Mintaqa atamasi odatda dunyo yoki alohida bir davlat hududining ma'lum bir qismini ifodalash uchun ishlatiladi. Jahon miqyosida mintaqa geografik, siyosiy, iqtisodiy, ekologik, etnomadaniy, axborot, harbiy va boshqa mezonlar asosida bir nechta davlatlarni birlashtiruvchi hudud sifatida qaraladi. Masalan, Sharqiy Yevropa, G'arbiy Yevropa, O'rta Osiyo, Markaziy Osiyo va Janubi-Sharqiy Osiyo kabi hududlar turli mamlakatlarni o'z ichiga olgan mintaqalar hisoblanadi.

Biror davlat doirasida esa viloyat, tuman yoki shaharlar geografik, iqtisodiy, siyosiy, ekologik va etnomadaniy kabi ko'rsatkichlar asosida ajratilib, ma'muriy-hududiy birliklar sifatida shu davlatning ichki mintaqalarini tashkil qiladi.

Mintaqa iqtisodiyotining ayrim tizimlari mavjud bo'lib, ular har bir davlatning milliy xo'jaligida muhim o'rin egallaydi va mustaqil xo'jalik yuritish imkoniyatiga ega. Bu tizimlar o'zlarining tabiiy-iqlimiy sharoiti, geografik joylashuvi, tabiiy boyliklar va xom ashyo resurslari zaxirasi, mehnat resurslari bilan ta'minlanganligi, ishlab chiqarish salohiyati va tarmoqlari, infratuzilma darajasi, aholisining urf-odatlari va an'analari, mahsulot ishlab chiqarishga ixtisoslashuvi, ijtimoiy mehnat taqsimotidagi roli hamda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan yalpi hududiy mahsulot miqdoriga qarab bir-biridan ajralib turadi.

Bu yo'nalish makroiqtisodiyot va mikroiqtisodiyot o'rtasidagi oraliq bosqichni tashkil etadi. Uning faoliyat sohasi iqtisodiy nazariyada **mezoiqtisodiyot** (yunoncha "mesos" – oraliq) deb ataluvchi

fan bo‘limi orqali o‘rganiladi. Mezoiqtisodiyot doirasida mintaqalarda joylashgan sanoat tarmoqlari, yoqilg‘i-energetika kompleksi, qishloq va suv xo‘jaligi, qurilish sohasi, transport va aloqa tizimlari, uy-joy va kommunal xizmatlar, oliy hamda kasb-hunar ta’limi, sog‘liqni saqlash muassasalari, xonadon xo‘jaliklari, shuningdek kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, jumladan hunarmandchilik va kasanachilik faoliyati kabi sohalar o‘rganish obyekti hisoblanadi.

Shuningdek, mintaqaviy (hududiy) tarmoqlarning tarmoqlararo iqtisodiy masalalari hamda ekologik muammolarini o‘rganish ham mezoiqtisodiyot, ya’ni mintaqa iqtisodiyoti doirasida muhim o‘rin egallaydi. Mintaqa iqtisodiyoti har bir davlatning milliy iqtisodiy tizimining ajralmas va uzviy qismi bo‘lib, umumiy iqtisodiy siyosat ta’sirida yagona xo‘jalik mexanizmi sifatida faoliyat yuritadi.

O‘zbekistonda mustaqillik yillarida olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarning eng muhim yo‘nalishlaridan biri — bu iqtisodiy munosabatlarni erkinlashtirish orqali mintaqalarni jahon xo‘jalik tizimiga chuqur va samarali tarzda integratsiyalashuvini ta’minlashga qaratilgan davlat tomonidan tartibga solish siyosatidir.

Mintaqaviy siyosat — bu hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini davlat tomonidan muvofiqlashtirib, tartibga solish tizimidir. Ushbu siyosatning asosiy maqsadi — mamlakatning izchil va barqaror taraqqiyotiga to‘sqinlik qiluvchi hududiy nomutanosibliklarni bartaraf etish orqali ijtimoiy kelishmovchiliklarning oldini olishdir.

Mintaqaviy siyosatning bosh vazifasi — mavjud resurslar va imkoniyatlardan oqilona foydalanish asosida mamlakat hududlari o‘rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy tafovutlarni iloji boricha kamaytirish, aholining turli qatlamlari o‘rtasida moddiy ne’matlarning hududiy taqsimotidagi nomutanosibliklarni minimallashtirishdir. Shu bilan birga, ushbu siyosat hukumatning markazlashtirilgan boshqaruv funksiyalarini bosqichma-bosqich kamaytirib, mahalliy hokimiyat va o‘z-o‘zini boshqarish organlarining vakolatlarini kengaytirishga qaratilgan.

9.2. Mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining zarurati

Mintaqalarning ijtimoiyiqtisodiy rivojlanishini ta'minlashda quyidagi vazifalarni amalga oshirish ko'zda tutiladi:

1. **Mintaqaning mavjud resurs salohiyatidan samarali foydalanish** — ya'ni moddiy, moliyaviy va mehnat resurslarini kompleks ravishda safarbar etish orqali ishlab chiqarishning yuqori sur'atlari va mutanosibligini ta'minlash hamda natijada iqtisodiy samaradorlikni oshirish.

2. **Mintaqaviy rivojlanish istiqbollarini aniqlash** — hududlarning uzoq muddatli taraqqiyot sur'atlarini belgilashda mahalliy resurslardan to'liq va oqilona foydalanishga alohida e'tibor qaratish.

3. **Ilmiy-texnika taraqqiyoti yutuqlarini amaliyotga joriy etish** — bu borada mintaqada ilmiy-innovatsion faoliyatni jadallashtiruvchi iqtisodiy mexanizmni shakllantirish, ishlab chiqarish sohasiga ilg'or texnologiyalarni keng tatbiq etish hamda rejalashtirish tizimini yanada demokratiyalashtirish zarur.

Shuningdek, korxona va mintaqaviy birliklarga tavsiyaviy (intikativ) rejalarni tuzish imkonini beruvchi huquqiy va iqtisodiy sharoitlarni yaratish, shuningdek, bozor iqtisodiyoti sharoitida samarali raqobatni ta'minlash va bozor kon'yunkturasiga mos mahsulot ishlab chiqarishni amalga oshirish maqsadida quyidagi vazifalarni hal etish zarur:

A) Ishlab chiqarishni bozor hajmi va kon'yunkturasiga moslashtirish hamda uni rivojlantirish;

B) Valyuta tushumlarini oshirish maqsadida tashqi iqtisodiy faoliyatni kengaytirish;

V) Bozor talabiga javob beradigan tezkor o'zgaruvchan yangi texnologiyalarni joriy etish va mahsulot sifatini yaxshilash;

G) Tashqi iqtisodiy munosabatlarni Markaziy Davlat organlari bilan kelishgan holda, mahalliy manfaatlarni inobatga olgan holda rivojlantirish.

Ushbu fikrlar asosida mintaqaviy siyosatni shunday ta'riflash mumkin: bu — mintaqalar (hududlar) o'rtasida ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning muvozanatini saqlash, shuningdek makroiqtisodiy

koʻrsatkichlardagi farqlar va nomutanosibliklarni bartaraf etishga qaratilgan umummilliy siyosatning asosiy tarkibiy qismidir. Kengroq maʼnoda esa mintaqaviy siyosat mamlakat hududlarining siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishini boshqarish boʻyicha hokimiyat organlarining maqsad va vazifalari hamda ularni amalga oshirish mexanizmini ifodalaydi.

Mintaqa va hududlarning rivojlanishini davlat tomonidan tartibga solish maqsadida amalga oshiriladigan davlat mintaqaviy siyosatining asosiy dastaklari quyidagilarni oʻz ichiga oladi:

- rivojlanayotgan yoki davlat dasturlari asosida ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot maqsadida ayrim hududlarda ishlab chiqarish va xizmat koʻrsatish sohasidagi korxonalarga moliyaviy imtiyozlar va ragʻbatlantirish choralari koʻriladi. Bunga investitsiyaviy grantlar ajratish, past foizli kreditlar berish, shuningdek, soliqlar va ijara toʻlovlaridan ozod qilish kabi qulayliklar kiradi.
- Rivojlanayotgan hududlardagi korxona va firmalarning oʻz ofis, idora hamda ishlab chiqarish obyektlarini boshqa hududlarga koʻchirishining oldini olish maqsadida ularning faoliyatini nazorat qilish;
- Rivojlanayotgan hududlarda ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini yaxshilash uchun investitsiyalarni jalb etish, xususan, yoʻl qurilishi va aholi yashash sharoitlarini yaxshilashga alohida eʼtibor qaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

Hududlarni rivojlantirishga qaratilgan davlat mintaqaviy siyosatining asosiy tarkibiy qismi — mintaqaviy iqtisodiy siyosatdir. Mintaqaviy iqtisodiy siyosatning maqsadlari mintaqaviy (hududiy) rivojlanish maqsadlari bilan chambarchas bogʻliqdir. Iqtisodiy sohadagi mintaqaviy siyosatning asosiy vazifasi hududning mavjud salohiyati va cheklangan iqtisodiy resurslaridan, shuningdek hududlararo mehnat taqsimoti hamda kooperatsiya afzalliklaridan samarali foydalanish orqali aholi turmush darajasi va sifatini yaxshilashdir.

Ijtimoiy sohadagi mintaqaviy siyosatning maqsadi — har bir hududdagi barcha aholi qatlamlari uchun munosib turmush darajasi va yashash sharoitlarini taʼminlash, teng yashash kafolatlarini yaratishdir.

Shuningdek, bu siyosat kishilarga o‘z yashash joyi va mehnat qilish joyini tanlash huquqini amalga oshirish imkoniyatini berish hamda hududdagi ijtimoiy muhitning keskinlashishining oldini olishga qaratilgan.

Shu bilan birga, shakllanayotgan bozor iqtisodiyoti sharoitida mintaqa iqtisodiyotini tartibga solishga qaratilgan davlatning iqtisodiy mintaqaviy siyosatining maqsadlari yuqoridagilarga qo‘shimcha ravishda quyidagilardan iborat:

- hududlarda barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlab, aholining turmush darajasini yaxshilash uchun qulay sharoitlarni yaratish;
- Hududlar bilan hamkorlikda ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik jihozlashni amalga oshirish, yangi ishlab chiqarish texnologiyalarini joriy etish orqali ko‘p ukladli, ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirish va shu asosda aholi turmush darajasini oshirish;
- Hududlarda maqsadli tarkibiy, investitsiyaviy hamda ilmiy-texnik siyosatni amalga oshirish, iqtisodiyotning real sektorida tadbirkorlikni rivojlantirish hamda iqtisodiy islohotlar natijasida yuzaga keladigan ijtimoiy muammolarni hal qilishga qaratilgan faoliyatni rag‘batlantirish.

Hududning iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash. Iqtisodiy xavfsizlik hudud iqtisodiyotining barqarorligi va rivojlanishini ta’minlovchi shart-sharoitlar, omillar hamda mavjud holatlar majmuasini anglatadi.

Mintaqaviy siyosatni amalga oshirish jarayonida birinchi navbatda mamlakatdagi hududlar o‘rtasidagi notengliklarning sabablarini aniqlash zarur. Bunda quyidagi omillar e’tiborga olinadi:

- tabiiy iqlim sharoitlaridagi keskin farqlar mamlakatning ayrim hududlari aholisi turmush darajasi va tadbirkorlik faoliyatiga ta’sir ko‘rsatishi;
- mintaqalardagi tabiiy resurslarning turi, hajmi, sifati hamda ulardan foydalanish darajasi;
- chekka va olis hududlarda joylashuv tufayli transport xarajatlarining ortishi va natijada mahsulot narxlarining oshishi.

Bu esa o‘z navbatida milliy va mahalliy bozorlarning torayishiga olib keladi.Transport va kommunikatsiya aloqalarining yetarli darajada rivojlanmaganligi chetda joylashgan mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini sekinlashtiradi u yoki bu turdagi mahsulotlarni(xom ashyo resurslari, oraliq mahsulotlar, tayyor mahsulotlar va xizmatlar) ishlab chiqarishga ta’sir etuvchi texnologik rivojlanish bosqichi;

Mintaqaning avtonomiya darajasi, siyosiy shart-sharoitlari va rivojlanish tarixi;

Ishlab chiqarish infratuzilmasi — transport, telekommunikatsiya va axborot tizimlari, sanoat maydonlari bilan ta’minlanganlik darajasi;

Ijtimoiy-madaniy omillar — shaharlashuv darajasi, aholining bilim darajasi, ilmiy markazlarning mavjudligi, ta’lim va sog‘liqni saqlash muassasalari hamda sport inshootlari bilan ta’minlanishi;

Mintaqada bozor infratuzilmasining rivojlanish darajasi.

Bozor iqtisodiyoti rivojlangan aksariyat mamlakatlarda mintaqaviy siyosat, odatda, mintaqalar o‘rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajalarini bir-biriga yaqinlashtirishga qaratilgan bo‘lib, bu maqsadga erishish uchun investitsiyalar (kapital qo‘yilmalar)ni qayta taqsimlash mexanizmi asosiy vosita sifatida qo‘llaniladi. Ushbu siyosat quyidagi asosiy yo‘nalishlarda amalga oshiriladi:

Birinchi yo‘nalish — iqtisodiy rivojlanish darajasi past bo‘lgan, sanoat salohiyati sust hududlarda infratuzilma obyektlarini barpo etish va ularni boshqa mintaqa hamda hududlar bilan samarali iqtisodiy aloqalarga integratsiyalashuvini ta’minlashdan iborat.

Ikkinchi yo‘nalish — sanoati yuqori darajada rivojlangan va iqtisodiyoti yetakchi bo‘lgan mintaqalarga, xususan, yirik shaharlarga nisbatan ma’muriy yoki moliyaviy cheklov choralarini qo‘llash orqali ularning haddan tashqari o‘sib ketishining oldini olish.

Uchinchi yo‘nalish — iqtisodiy jihatdan muammoli hududlarda sanoat korxonalarini joylashtirishni ta’minlash maqsadida xorijiy va milliy xususiy investitsiyalarni jalb etishni rag‘batlantirish.

Ta’kidlash joizki, davlat mintaqaviy siyosat doirasida hududiy iqtisodiyotni tartibga solishda bevosita va bilvosita usullardan keng foydalanadi. Davlatning hududiy iqtisodiyotga **bevosita** aralashuvi,

odatda, ma’muriy vositalar orqali amalga oshiriladi. Bu usullar davlat hokimiyati vakolatlariga tayanadi va ruxsat berish, taqiqlash hamda majburlash kabi choralarni o‘z ichiga oladi.

Bilvosita tartibga solish — bu turli iqtisodiy chora-tadbirlar, moliyaviy vosita va mexanizmlar orqali hududiy rivojlanishga ta’sir ko‘rsatishdir. Bu yondashuv bozor mexanizmlaridan foydalanishga asoslanadi va hududiy takror ishlab chiqarish jarayonlarini rag‘batlantirish orqali amalga oshiriladi.

Hududiy takror ishlab chiqarish subyektlariga nisbatan davlat boshqaruvining yuqori organlari tomonidan mavjud iqtisodiy va ijtimoiy holatga ta’sir ko‘rsatishga qaratilgan ma’muriy farmoyishlar va qarorlar qabul qilinadi;

Hududdagi korxonalar va tashkilotlar faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy qoidalar ishlab chiqiladi va qo‘llaniladi;

Turli tavsiyalar, taftishlar (xususan, moliyaviy-byudjet tekshiruvlari), hamda nazorat tadbirlari (masalan, sanitar-epidemiologik nazorat) orqali hududiy xo‘jalik yurituvchi subyektlarning faoliyatiga aralashiladi.

Shakllanayotgan bozor iqtisodiyoti sharoitida davlatning mintaqaviy siyosati iqtisodiy erkinlik tamoyillariga asoslangan holda ishlab chiqiladi. Ushbu siyosat mamlakatning ma’muriy-hududiy birliklari uchun moliyaviy va xo‘jalik mustaqilligini bosqichma-bosqich kuchaytirish, respublika darajasidagi markaziy boshqaruv organlari bilan mahalliy hokimiyatlar o‘rtasida funksiyalarni aniq taqsimlash va qayta taqsimlash mexanizmlarini hisobga olgan holda shakllantiriladi. Bunda hududlar iqtisodiy faolligining rag‘batlantirilishi, ularning o‘ziga xos xususiyatlari va resurs salohiyatiga tayangan holda rivojlanishiga alohida e’tibor qaratiladi.

O‘zbekistonda yuqorida bayon qilinganlardan kelib chiqqan holda davlatning mintaqaviy siyosati bosh maqsadlari sifatida quyidagilar belgilab olingan:

- mamlakatning barcha hududlarida O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida belgilangan huquqlarning

ta’minlanishi uchun teng siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarni yaratish;

- respublika barcha aholisining ijtimoiy kafolatlarini hamda teng ijtimoiy va huquqiy himoyalashni ta’minlash.

Ushbu maqsadlarning amalga oshirilishi quyidagilarni taqozo etadi:

- mintaqa (hudud)larda yangi iqtisodiy munosabatlarni va umumiqtisodiy sharoitlarni qaror toptirish uchun qulay sharoitlar yaratish. Buning oqibatida turli mulkchilik shakllariga ega bo‘lgan xo‘jalik sub’ektlarining faoliyati uchun qulay sharoitlar yaratiladi;

- mintaqa (hududlarda) ularning va aholining manfaatlarini ro‘yobga chiqarish uchun sharoitlar shakllantiriladi;

- mahalliy hokimlik va o‘z-o‘zini boshqarish organlarining mintaqa (hududlarni) boshqarishdagi roli va faolligi ortadi;

- mintaqa (hudud)lararo infratuzilmani tiklash, qayta tiklash. Buning oqibatida mamlakat miqiyosida yagona iqtisodiy makon, xalq xo‘jali kompleksi shakllantiriladi. Shuningdek samarali hududiy samarali mehnat taqsimoti va ijtimoiy mehnat integratsiyalashuvi vujudga keltiriladi hamda bozor munosabatlari rivojlantiriladi;

- kam rivojlangan hududlarni rivojlanishini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, istiqbolli hududlarni ustuvor ravishda rivojlantirish.

Ushbulardan kelib chiqib, davlat mintaqaviy siyosatni amalga oshirishning asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

- respublika davlat hokimiyati va boshqaruvi hamda mahalliy o‘z-o‘zini boshqarishning huquqiy asoslarini, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi sub’ektlarining o‘zaro teng

huquqligining konstitutsion tamoyillarini ta’minlash;

- O‘zbekiston Respublikasini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi prognoz (istiqbol) ko‘rsatkichlarini va maqsadli dasturlarni muntazam ravishda ishlab chiqish;

- O‘zbekiston Respublikasi davlat hokimiyati va boshqaruvi hamda mahalliy o‘z-o‘zini boshqarish organlarini uslubiy va me’yoriy jihatdan ta’minlash va qo‘llab-quvvatlash;

- mamlakatning ma'muriy-hududiy bo'linishini zarur holatlarda o'zgartirib turish. Bu mamlakatdagi siyosiy va ijtimoiyiqtisodiy o'zgarishlar in'ikosi sifatida amalga oshirilib turiladi.

9.3. Mamlakatda davlatning mintaqaviy siyosatini amalga oshirishning shartlari

Mamlakatda davlatning mintaqaviy siyosatini samarali amalga oshirish uchun zarur bo'lgan muhim shart-sharoitlar mavjud bo'lib, ular quyidagilarda o'z ifodasini topadi:

- Butun mamlakat miqyosida yagona iqtisodiy makonning shakllanishi va barqaror faoliyati ta'minlanishi. Buning uchun yagona davlat boshqaruvi tamoyillariga asoslangan holda markazlashtirilgan pul-kredit, soliq, byudjet va moliyaviy tizimlarning izchil faoliyat yuritishi, integratsiyalashgan axborot makonining mavjudligi hamda institutsional, ya'ni ma'muriy boshqaruv tizimlarining rivojlanishini tartibga solish zaruriy shart sifatida qaraladi.
- Ishlab chiqarish jarayonlarini barqarorlashtirish hamda mamlakatning barcha hududlarida izchil iqtisodiy o'sishni ta'minlash orqali aholining turli ijtimoiy qatlamlari uchun hayot sifati va farovonlik darajasini oshirishga erishish;
- Davlat boshqaruvi tizimida faoliyat yuritayotgan rahbar kadrlar va xizmatchilarning kasbiy salohiyatini uzluksiz rivojlantirish maqsadida ularni qayta tayyorlash, malaka oshirish va strategik rahbar kadrlar zaxirasini shakllantirish tizimini yo'lga qo'yish;
- Davlat xizmatchilari malakasini oshirish bilan shug'ullanuvchi ixtisoslashtirilgan muassasa va markazlar faoliyatini samarali tashkil etish va ularning boshqaruv salohiyatini kuchaytirish.

Mamlakat hududlarining iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishini muvofiqlashtirish hamda tartibga solishning asosiy vazifalari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Mamlakatning barcha hududlarida barqaror rivojlanishni ta'minlash, ularning iqtisodiy va ijtimoiy ko'rsatkichlari o'rtasidagi tafovutlarni imkon qadar kamaytirish orqali tenglikni oshirish;

- Hududlarning tabiiy va iqtisodiy salohiyatidan samarali va oqilona foydalanishni ta’minlash;
- Ishlab chiqarish resurslari va kuchlarining joylashishidagi asossiz nomutanosibliklarni bartaraf etish orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirish;
- Hududlarning ixtisoslashuvini ratsional darajaga keltirish va tumanlararo iqtisodiy hamkorlik aloqalarini optimallashtirish;
- Hududlararo va xalqaro iqtisodiy integratsiyani rivojlantirish, shuningdek, ayrim hududlarda yuzaga kelgan iqtisodiy va ijtimoiy cheklovlarga barham berish.

Davlat iqtisodiyotini tartibga solishda asosiy huquqiy vositalar sifatida qonunlar, qonunosti hujjatlar hamda sud qarorlari va aktlari xizmat qiladi. O‘zbekistonda hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini boshqarishda esa Prezident farmonlari va qarorlari, shuningdek, Vazirlar Mahkamasining farmoyishlari va qarorlari muhim o‘rin tutadi. Bu huquqiy hujjatlar hududiy siyosatni amalga oshirishda asosiy yo‘nalish va qoidalarni belgilab beradi.

Hududlarning rivojlanishini tartibga solishdagi tashkiliy va institutsional tuzilma Respublikadagi ijro hokimiyati darajasida — Vazirlar Mahkamasi hamda turli vazirliklar va idoralar tomonidan shakllantiriladi. Hududlarni rivojlantirish bo‘yicha umumiy siyosat Iqtisodiyot vazirligi tomonidan ishlab chiqilib, amalga oshiriladi.

Ayrim iqtisodiyot tarmoqlari va yo‘nalishlari bo‘yicha hududiy muammolarni hal qilish vazifalari esa Markaziy bank, Moliya vazirligi, Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi, Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi, O‘zdavmulk agentligi, Monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish Davlat qo‘mitasi, Qurilish va arxitektura bo‘yicha qo‘mita, “O‘zkommunxizmat” agentligi kabi boshqa muassasalarga yuklatilgan. Ular o‘z sohalarida hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta’minlashga mas’uldirlar.

O‘zbekiston Respublikasida mustaqillik yillarida hududlarning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishini davlat tomonidan tartibga solish

quyidagi strategik yo‘nalishlar asosida izchil amalga oshirib kelinmoqda:

- alohida hududlar, tumanlar guruhlari va tumanlar miqyosida ularning tabiiy, iqtisodiy, demografik xususiyatlarini inobatga olgan holda kompleks rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish va bosqichma-bosqich amalga oshirish;
- hududlar miqyosida mavjud mineral-xomashyo resurslaridan kompleks va tejamkor foydalanish, yer va suv resurslarining samarali boshqaruvi hamda ekologik barqarorlikni ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlar tizimini yo‘lga qo‘yish.

- sanoat tarmoqlarini rivojlantirish bo‘yicha respublika va hududiy darajadagi dasturlarni ishlab chiqish, mavjud ishlab chiqarish quvvatlarini zamonaviy iqtisodiy sharoitlarga mos holda diversifikatsiyalash (profilini o‘zgartirish), shuningdek, xorijiy investitsiyalar asosida yangi sanoat korxonalarini tashkil etish orqali hududiy sanoat infratuzilmasini modernizatsiya qilish;

- hududlarning tabiiy-iqlim sharoitlarini hisobga olgan holda qishloq xo‘jaligini ratsional ixtisoslashtirish, agrar sohada islohotlarni chuqurlashtirish va barqaror rivojlantirish bo‘yicha respublika hamda mahalliy dasturlarni ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish.

- ish bilan bandlik darajasini oshirish, ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish, shuningdek, qishloq aholisi uchun tabiiy gaz, ichimlik suvi va boshqa hayotiy zarur resurslar bilan ta’minot darajasini yaxshilashga qaratilgan respublika miqyosidagi kompleks dasturlarni amalga oshirish;

- respublika va mahalliy darajadagi davlat boshqaruvi tizimlarini zamonaviy talablar asosida takomillashtirish, ularning institutsional salohiyatini kuchaytirish;

- mahalliy byudjetlar moliyaviy barqarorligini mustahkamlash, zaruratga qarab hududlarga davlat byudjetidan dotatsiya va subventsiyalar ajratish orqali ularning ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash;

- boshqaruvning hududiy-xo‘jalik tizimini samarali tashkil etish maqsadida mamlakatning amaldagi ma’muriy-hududiy bo‘linishini qayta ko‘rib chiqish va uni oqilona asosda takomillashtirish.

Mintaqalarda ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanish masalalarini muvofiqlashtirish va boshqarish viloyat, shahar hamda tuman hokimliklari huzuridagi Iqtisodiyot va statistika bosh boshqarmalari zimmasiga yuklatilgan. Ushbu boshqarmalar mahalliy iqtisodiy siyosatning strategik yo‘nalishlarini shakllantirish, resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish va hududiy muvozanatni ta’minlash bo‘yicha asosiy tahliliy va rejalashtiruvchi markaz hisoblanadi.

Hududiy hokimliklar huzurida faoliyat yurituvchi iqtisodiy profilga ega barcha idoralar istiqboldagi rivojlanish muammolarini aniqlash va hal etish bo‘yicha o‘z faoliyatlarini rejalashtirish boshqarmalari bilan uzviy hamkorlikda amalga oshiradi. Shu bilan birga, iqtisodiyotning turli tarmoqlari bilan shug‘ullanadigan moliyaviy va tashkiliy tuzilmalarga xalq deputatlari mahalliy kengashlari rahbarlik qiladi, bu esa hududiy boshqaruvda demokratik ishtirok va mas’uliyatni kuchaytiradi.

Hududiy rejalashtirish tashkilotlari o‘z faoliyatini respublika darajasidagi tegishli vazirlik va idoralar, shuningdek, maxsus kompaniyalar bilan hamkorlikda, mahalliy hokimiyatlar tomonidan tasdiqlangan nizomlar asosida olib boradi. Ushbu nizomlarda rejalashtirish boshqarmalarining vazifalari, funksiyalari, huquqlari hamda javobgarlik doirasi aniq belgilangan bo‘lib, ular hududiy iqtisodiy boshqaruvning institutsional asoslarini shakllantiradi.

Viloyat Iqtisodiyot bosh boshqarmasining quyidagi asosiy vazifalari belgilangan;

Viloyatni ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan kompleks rivojlantirish rejasini ishlab chiqish, shu asosda ijtimoiy xizmatlar sohasi bilan ishlab chiqarish sektorining barqaror va o‘zaro uyg‘un o‘sishini ta’minlash, ekologik muvozanatni saqlash hamda atrof-muhitni muhofaza qilish choralarini belgilash.

Aholining iste'mol ehtiyojlarini qondirish darajasini oshirish maqsadida, viloyatda ishlab chiqariladigan va tashqaridan keltiriladigan xalq iste'moli tovarlari bilan bozorni to'liq ta'minlash, aholining pul daromadlari va iste'mol xarajatlari o'rtasidagi iqtisodiy muvozanatni saqlash.

Mahalliy byudjet va xo'jalik subyektlarining daromadlari asosida o'z-o'zini moliyalashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich joriy etgan holda, ilgari uzoq yillar davomida ikkinchi darajali hisoblangan ijtimoiy infratuzilma tarmoqlarini rivojlantirishni ustuvor yo'nalish sifatida qo'llab-quvvatlash.

Viloyatning ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanish strategiyasini belgilash va rejalashtirish ishlarini tashkil etish. Bu jarayonda tegishli tartib va muddatlarga muvofiq ravishda hududiy rivojlanish dasturlarini ishlab chiqish, shuningdek, viloyat miqyosida faoliyat yurituvchi barcha korxona, tuman va shaharlar biznes-rejalarini metodik jihatdan muvofiqlashtirish va ularga uslubiy ko'mak ko'rsatish kiradi.

Respublika darajasida ishlab chiqaruvchi kuchlarni hududiy joylashtirish bo'yicha tuzilayotgan strategik dasturlarda faol ishtirok etish, mintaqaviy ishlab chiqarish salohiyatini baholash, uni optimallashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish orqali hududiy taraqqiyotga hissa qo'shish.

Mehnat va resurslar balansini tuzish, yangi ish o'rinlari tashkil etishni rejalashtirish, ishlab chiqarish va moddiy-texnik ta'minot bo'yicha balanslar tuzish, shuningdek, ishlab chiqilgan rejalarning ijrosini tizimli monitoring qilish va zarur hollarda korreksion chora-tadbirlar ishlab chiqish.

Mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlash – mamlakat ichidagi ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik va raqobatbardoshlikni ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Bu yo'nalish mintaqaviy siyosatning ajralmas qismi bo'lib, asosiy maqsad – mamlakat va uning barcha hududlarining iqtisodiy mustahkamligini oshirish, ularni global iqtisodiy tizimda faol ishtirok etishga tayyorlashdan iborat.

Hududlar va mamlakat miqyosidagi xalqaro integratsiyani chuqurlashtirish: Ichki ishlab chiqarish salohiyatini rivojlantirish bilan

birga, mintaqalarni xalqaro bozorga chiqarish, tashqi iqtisodiy aloqalarni kengaytirish va eksport salohiyatini oshirish orqali iqtisodiy xavfsizlik kafolatlanadi.

Ishlab chiqaruvchi kuchlarning hududiy joylashuvini optimallashtirish: Resurslar, ishlab chiqarish vositalari va mehnat kuchlarini mintaqaviy ixtisoslashuv, sanoat kooperatsiyasi va o‘zaro iqtisodiy integratsiya tamoyillari asosida joylashtirish orqali har bir hududning iqtisodiy roli va samaradorligi oshiriladi.

Hududiy infratuzilmani rivojlantirish: Transport, aloqa, energetika, logistika va raqamli infratuzilmalarni modernizatsiya qilish orqali mintaqaviy iqtisodiyotlarning barqaror ishlashi uchun muhim sharoitlar yaratiladi.

Mahalliy ishlab chiqarish sohalarining raqobatbardoshligini kuchaytirish: Innovatsion texnologiyalarni joriy etish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, mahsulot sifatini yaxshilash orqali mintaqalarning iqtisodiy mustaqilligi mustahkamlanadi.

Hududlar rivojlanishidagi nomutanosibliklarni kamaytirish: Iqtisodiy imkoniyatlar, infratuzilma, bandlik va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish darajasidagi farqlarni kamaytirish orqali ijtimoiy-iqtisodiy tenglikka erishiladi va ijtimoiy barqarorlik mustahkamlanadi.

Tayanch iboralar: mintaqa, mezoiqtisodiyot, mintaqaviy siyosat, hududiy tengsizliklar, investitsiyaviy grantlar, hududiy iqtisodiy xavfsizlik, mahalliy manfaatlar, yagona iqtisodiy makon, ma’muriy-hududiy bo‘linish, hududlararo integratsiyalashuv, Kompleks rivojlantirish dasturlari, dotatsiya va subventsiyalar, hududiy ixtisoslashuv, mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlik, instituttsional tarkib, hududiy mutanosiblik, mahalliy o‘z-o‘zini boshqarish.

Nazorat va takrorlash uchun savollar

1. Mintaqa nima va uning asosiy belgilariga ta’rif bering?
2. Mezoiqtisodiyot nima va uning tarkibiga nimalar kiradi?
3. Mintaqaviy siyosatning ta’rifi va asosiy maqsadini tushuntiring.
4. Mintaqa iqtisodiyotini milliy iqtisodiyotdan farqlovchi xususiyatlarni sanab bering.

5. O‘zbekistonda mustaqillik yillarida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning mintaqaviy siyosatdagi o‘rni qanday?

6. Mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida qanday asosiy vazifalar amalga oshiriladi?

7. Bozor iqtisodiyoti sharoitida mintaqalarni rivojlantirish uchun qanday A, B, V, G kabi vazifalar belgilangan?

8. Mintaqaviy siyosatning keng ma’nodagi ta’rifini bering.

9. Rivojlanayotgan hududlardagi korxonalarga qanday moliyaviy imtiyozlar beriladi?

10. Mintaqaviy iqtisodiy siyosatning maqsadlari nimalardan iborat?

11. Ijtimoiy sohadagi mintaqaviy siyosatning asosiy maqsadi nima?

12. Hududiy notengliklarning asosiy sabablarini sanab bering.

13. Bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda mintaqaviy siyosatning uch asosiy yo‘nalishini tushuntiring.

14. Davlatning hududiy iqtisodiyotga bevosita va bilvosita aralashish usullari qanday amalga oshiriladi?

15. O‘zbekistonda davlatning mintaqaviy siyosati bosh maqsadlari nimalardan iborat?

16. Mamlakatda davlatning mintaqaviy siyosatini amalga oshirishning eng muhim shartlarini sanab bering.

17. Mamlakat hududlarini iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishini tartibga solishning asosiy vazifalarini tushuntiring.

18. Hududlar rivojlanishini tartibga solishning huquqiy shakllari qanday?

19. Viloyat Iqtisodiyot bosh boshqarmasining asosiy vazifalari nimalardan iborat?

20. Mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashning asosiy maqsadi nima?

21. Mintaqaviy siyosatning samaradorligini oshirish uchun qanday yondashuvlar taklif qilgan bo‘lardingiz?

22. Hududlar o‘rtasidagi tengsizliklarni bartaraf etishda qanday choralar eng samarali deb hisoblaysiz?

23. Zamonaviy sharoitlarda mintaqalarning raqobatbardoshligini oshirish uchun qanday omillar muhim?

24. Mahalliy o‘z-o‘zini boshqarish organlarining rolini kuchaytirishning afzalliklari va kamchiliklari nimalardan iborat?

25. Mintaqaviy rivojlanishda innovatsion texnologiyalarning roli qanday baholanadi?

26. O‘zbekistonning biror viloyatini misol qilib, uning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish muammolari va yechimlari haqida tahlil qiling.

27. Mintaqaviy siyosatning muvaffaqiyatli amalga oshirilishini baholash uchun qanday ko‘rsatkichlardan foydalanish mumkin?

28. Hududlararo hamkorlikni rivojlantirish uchun qanday mexanizmlar yaratish kerak?

29. Mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash uchun qanday choralar ko‘rish lozim?

30. Davlatning mintaqaviy siyosatida fuqarolar va nodavlat tashkilotlarining ishtiroki qanday ta’minlanishi mumkin?

X BOB. YUKSALISH, RIVOJ LANISH VA IQTISODIY SIYOSAT

10.1. Iqtisodiy yuksalish (o‘sish) tushunchasi, dolzarbligi (nazariy asoslari, omillari).
10.2. Davlatning siklik, antisiklik tartibga iqtisodiy siyosati.
10.3. Iqtisodiy siosatda muvozanatlik (barqarorlashtirish) siyosati.

10.1. Iqtisodiy yuksalish (o‘sish) tushunchasi, dolzarbligi (nazariy asoslari, omillari)

Bugungi kunda jahonning ko‘pgina davlatlarida postindustrial iqtisodiy tizimga o‘tish jarayonlari kuzatilmoqda. Jahon iqtisodiyotida globalizatsiya jarayonlari shakllanishi sharoitda iqtisodiy o‘sish kategoriyasida sezilarli o‘zgarishlar yuz bermoqda. Iqtisodiy o‘sishda miqdor ko‘rsatkichlar emas, balki iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish va unda iqtisodiy rivojlanishni ta’minlash maqsadida ko‘proq darajada sifat ko‘rsatkichlarga, tarkibiy o‘zgarishlarga e’tibor qaratilmoqda.



10.1-rasm

Iqtisodiy o‘sish - ishlab chiqarishni takomillashtirish, iqtisodiyotda progressiv o‘zgarishlar va qayta qurishlarning muhim shart- sharoitidir. U taraqqiyotning ajralmas qismi, ijtimoiy rivojlanishning asosini tashkil qiladi. Iqtisodiy o‘sish - aholining moddiy faravonligini oshirish vositasi hisoblanadi. Shu sababli u davlat iqtisodiy siyosatining negizi bo‘lib qoladi. Iqtisodiy o‘sish nafaqat ishlab chiqarish, balki taqsimot munosabatlarini takomillashtirish, mehnat resurslarining bandligini ta’minlash, investitsion faollikni oshirish va pirovard natijada davlat byudjeti daromadlarining ko‘payib borishini ta’minlash manbai hisoblanadi. U ko‘pgina ichki va xalqaro darajadagi ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni muvaffaqiyatli hal etish imkonini beradi. Iqtisodiy o‘sish mamlakat aholisining turmush darajasini oshirishga, ekologiya, mudofaa muammolarini hal etishga imkoniyat tug‘diradi.

Ma’lumotlardan ko‘rinadiki, aholi ehtiyojiga ko‘ra ishlab chiqarish 1000 yil oralig‘ida o‘smagan va aholi shu davr mobaynida o‘rtacha yillik sur’atda 0,1 %ga o‘sgan. Ayrim ko‘rsatkichlar o‘sishi keyingi uch yuz yillik mobaynida kuzatilgan, lekin ularning o‘sish sur’ati juda pastligicha qolgan. Shiddatli sakrash zamonaviy kapitalizm davrida yuz bergan. Bunda aholi ehtiyoji bo ‘yicha ishlab chiqarishning o‘sish sur’ati 1,6 % gacha ko‘tarilgan, aholi soni esa yiliga taxminan 1 %ga o‘sgan.

Boshqa amerika tadqiqotchisi, iqtisodiy o‘sishni tushuntirishga miqdoriy yondashuv asoschisi S. Kuznets Angliya, Germaniya, AQSh kabi mamlakatlardagi iqtisodiy o‘sish sur’atlari tezligi sanoat burilishi va kapitalizmning yetakchi iqtisodiy tizimga aylangan davri bilan bog ‘liq deb hisoblaydi. Kapitalizm mohiyatan, kapitalistik rivojlanish yo‘lida turgan mamlakatlar iqtisodiy o‘sishida o‘zakli o‘zgarish bilan ta’minlaydigan birinchi iqtisodiy tizim bo‘lib qoldi. Antik davrda iqtisodiy o‘sishga yordam bergan qishloq xo‘jaligi, savdo, urbanizatsiya, texnologik innovatsiyalar, siyosiy barqarorlik va xalqaro munosabatlar kabi omillarga alohida e’tibor qaratilgan. XVIII-asrga o‘tib, Adam Smit va Tomas Maltusning hissalarini mavjuddir, ularning faoliyati iqtisodiy o‘sishni tizimli o‘rga-nishga asos solgan. Smitning

erkin bozor va mehnat taqsimotining roli haqidagi qarashlari o‘sishning demografik chegaralari haqidagi Maltusning pessimistic g‘oyalariga ziddir.

10.2. Davlatning siklik, antisiklik tartibga iqtisodiy siyosati

Bugungi kunda iqtisodiy o‘sish omillari o‘zgarmoqda. An’anaviy omillar (mexnat, yer, kapital, tadbirkorlik qobiliyati) kabi omillar o‘rniga fan va ta’lim, ya’ni umumlashtirib aytilganda millatning intelekti bo‘lgan omillar birinchi o‘ringa chiqmoqda. Shu munosabat bilan Respublikamizda iqtisodiy islohotlarning keyingi bosqichida milliy iqtisodiyotda barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlash muammosi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Iqtisodiy adabiyotda bu mavzu bo‘yicha mavjud munozaralar iqtisodiy tadqiqotlarning turli jihatli va turli yo‘nalishda ekanligini ta’kidlamoqda. Shu munosabat bilan ushbu mavzu nafaqatgina amaliy nuqtai-nazardan, balki nazariy jihatdan ham dolzarb axamiyat kasb etadi.

Har qanday ishlab chiqarishning pirova rd maqsadi - bu jamiyat ehtiyojlarini qondirishdan iboratdir, deb ta’kidlash albatta adolatdan bo‘lar edi. Ammo bu o‘rinda ehtiyojlarni yuqori darajada qondirish, bu farovonlikning asosiy maqsad va vazifasi ekanligini unutishimiz mumkin emas.

Shunday qilib, iqtisodiy farovonlik-iqtisodiyot va takror ishlab chiqarishning pirovard maqsadi bo‘lsa, iqtisodiy o‘sish esa - oraliq maqsad, ya’ni ijtimoiy mahsulot yaratish zaruriyatidir. Mahsulot yaratish-bu sof ishlab chiqarishga xos masaladir, ammo takror ishlab chiqarishning barcha bosqichlarini hisobga olgan holda farovonlikning o‘sishini ta’minlash- bu pirovard maqsad hisoblanadi va shu yo‘sinda biz iqtisodiy rivojlanishni talqin etishimiz mumkin.

Shu tariqa, biz iqtisodiy o‘sish va iqtisodiy rivojlanish kategoriyalarini talqin etish borasida tez-tez uchrab turadigan ko‘pgina chalkashliklarni bartaraf etishga harakat qilamiz. Buning uchun iqtisodiy o‘sish va iqtisodiy rivojlanish kategoriyalarini farqlashning quyidagi me’zonlarini taklif etamiz:

Iqtisodiy o‘sish ko‘proq ijtimoiy mahsulotning o‘sishi bilan, iqtisodiy rivojlanish esa - farovonlikning yaxshilanishi bilan uyg‘unlashadi;

Iqtisodiy o‘sishga iqtisodiy ıj ihat (oraliq tavsifga ega bo‘lgan mahsulot ishlab chiqarish) xos bo‘lgani holda, iqtisodiy rivojlanishga ijtimoiy ıjihat xosdir, bunda ıjamiyat farovonligining o‘sishi pirovard maqsad sifatida namoyon bo ‘ladi.

Jadal iqtisodiy yuksalish bosqichida, tovar zapaslarining keskin kamayishi, ish xaqi, ishlab chiqarish xarajatlari va umumiy narx darajasining o‘sishi xavfi vujudga kelganda hukumat soliqlarni oshiradi va davlat xarajatlarini kamaytiradi. Bunday fiskal restriktsiya iqtisodiy o‘sishning sezilarli darajada sekinlashiga, yashirin iqtisodiyot ko‘lamining kengayishiga, ish o‘rinlarining qisqarishiga olib keladi. Ammo restriktiv byudjet -soliq siyosati orqalijami talab, investitsiyalar, ishlab chiqarish va bandlik o‘sishining to‘htatilishi byudjet defitsitining qisqarishiga, hatto ijobiy salbdoning tiklanishiga olib keladi. Buning natijasi da vujudga keladigan byudjetdagi ortiqcha mablag‘lari davlat tashqi qarzlarini to‘lashga yo‘naltirilib, ular qoplanadi hamda zahira fondlari tashkil etiladi.



10.2.-rasm. Iqtisodiy o‘sish turlari

Keyingi 10-15 yil ichida ko‘pgina iqtisodchilar diqqati Janubiy-Sharqiy mamlakatlari iqtisodiy o‘sish bilimlariga borib taqalmoqda.

Bu mamlakatlarning iqtisodiy rivoj lanishlaridagi yutug‘i haqiqatdan ham afsonaviy xarakterga ega. Boshqa hech qanday rivojlanayotgan mamlakatlar guruhi bunday o‘sish su’rati, qashshoqlikni pasayishi darajasi, jahon bozoriga integratsiyasi, shuningdek hayotiylik darajasi ning oshishi bo‘yicha o‘rnak bo‘la olmaydi. Keyingi 25 yil ichida bu yerda aholi talabi deyarli 4 barobar oshdi. Qashshoqlikda yashayotgan aholi qismi ta’xminan 2- 3 hajmda kamaydi, aholi o‘sish su’rati tez tushib ketdi, ta’lim darajasi va salomat ko‘rsatkichlari sezilarli yaxshilandi. "Osiyo yo‘lbarslari" (Janubiy Koreya, Singapur, Gankong, Tayvan)ning ketidan "ikkinchi avlod" (lndoneziya, Malaziya) bordi, hozir esa oqilona o‘sishning yangi harakati sifatida Xitoy nomoyon bo‘ldi. Barqaror iqtisodiy o‘sish - bu uzoq vaqt davomida iqtisodiyotni yuqori sur’atlar bilan o‘sib borishidir. Makroiqtisodiyot nazariyasi va jahon amaliyoti ko‘rsatishicha mamlakatlarni yillik YAIMni o‘sish sur’ati 7% dan kam bo‘lmasa YAIMning hajmi 10 yilda 2 marta ko‘payadi. Aksincha YAIMning yillik o‘sish sur’ati 10% dan kam bo‘lmasa, mamlakat YAIM hajmi 7 yilda 2 marta ko‘payadi.

Real iqtisodiy o‘sish mohiyati iqtisodiyotni asosiy ziddiyatlarning yangi darajasida qayta tiklash va ruxsat berishdan iborat: ishlab chiqarish resurslarining cheklanmaganligi va jamiyat ehtiyojlarining cheklanmaganligi orasida. Bu qarama- qarshilik ikki asosiy usulda bo‘ladi:

- ishlab chiqarish quvvatining oshishi hisobiga;
- ishlab chiqarish quvvati va jamiyat ehtiyojlari rivojlanishiga ega bo‘lgan samarali foydalanish hisobiga.

Birinchidan, bozor tizimi samarali faoliyat ko‘rsatishini ta’minlaydigan huquqiy baza va ijti moiy muhitni ta’minlash raqobatni himoya kilish.

Ikkinchi guruh vazifalarini bajarishda davlat bozor tizimi faoliyatini kuchaytiradi va turlaydi. Bu yerda davlatning quyidagi uchta vazifasi asosiy axamiyatga ega.

-daromad va boyliklarni qayta taksimlash;

- milliy mahsulot tarkibini o‘zgartirish maqsadida resurslartaqsimotini tartibga solish;

-iqtisodiyotni barqarorlashtirish.

Davlat jamiyatdagi daromadlar nomutanosibligini kamaytirish vazifasini bajaradi. Bu vazifalar bir nechta siyosiy tadbirlar va dasturlarda o‘z yechimini topgan.

Birinchidan, transfert to‘lovlari orqaliyordamga muhtoj, boqimanda, nogiron va ishsizlarni nafaqalar bilan ta’ minlaydi.

Ikkinchidan, davlat bozorga aralashuvi orqali daromadlar taqsimlanishini o‘zgartiradi. Fermerlarga kafolatlanadigan baho va minimal ish haki to‘g‘risidagi qonunchi lik davlatning aholi ayrim guruhlari daromadlarini tenglashtirish maqsadida bahoni tartibga solib turishga misol bo‘la oladi. Bundan tashqari aholidan olinadigan daromad soliqlarining foizlar bo‘yicha tabaqalanishi ham aholining kam ta’minlangan qismini qo‘llab-quvvatlash maqsadida olib borilayotgan dasturlardan biridir.

Dotatsiya - byudjet va byudjetdan tashqari fondlardan qaytarib olmaslik sharti bilan xo ‘jaliklarning zararlarini qoplash, shuningdek, mahalliy byudjetlar mutanosibligini ta’minlash uchun ajratilgan pul mablag‘ laridir.

Subvensiya - qat’i maqsadlar uchun beriladigan dotatsiya turi bo‘lib, foydalanish sharti buzilganda uni qaytarib olish mumkin.

Subsidiyalar - bu pul yoki natura ko‘rinishidagi yordam turi bo‘lib, byudjet va byudjetdan tashqari fondlardan ko‘rsatiladi. Subsidiyalar bevosita va bilvosita bo‘lish mumkin. To‘g‘ri subsidiyalar - kapital qo‘yilmalar, ilmiy tadqiqotlar, kadrlarni qayta tayyorlashga ajratilgan mablag‘lar, egri subsidiyalar soliq imtiyozlari, imtiyozli shartlarda kreditlar berish, pasaytirilgan bojxona bojlari va hokazolardir. Bundan tashqari davlat aholini davlat transfertlari ko‘rinishida himoya qiladi.

Davlat fiskal siyosati - bu davlat byudjeti daromadlari va xarajatlari tarkibiy qismini o‘zgartirish orqali milliy iqtisodiyotga ta’sir qilishni anglatadi.

“Fiskal” lotincha so‘zidan olingan bo‘lib, xazina degan ma’noni bildiradi. Bu o‘z navbatida "xazina siyosati " degan tushunchani ham yuzaga keltiradi.

Fiskal siyosatning asosiy maqsadi, - ishsizlik va inflya- siyani yumshatishdan iboratdir. Tanazzul davrida kun tarti bida rag‘batlantiruvchi fiskal siyosat to‘g‘risidagi masala paydo bo‘ladi u quyidagilarni o‘z ich iga oladi:

- davlat xarajatarining ko‘payishi
- soliqlarning pasayishi,

yoxud (1) va (2)ni birga qo‘shib olib borish.

Iqtisod iyotning siklikrivojlanishi va inqirozlarni bartaraf etishning asosiy dastagi bu - davlat xarajatlaridir. Keynsning fikricha, uning

shakllanishi, tuzilishi va o‘sishi “samarali talab”ga erishishdagi muhim omildir.

Fiskal siyosat oldiga qo‘yilgan maqsad va vazifalardan kelib chiqib, uning uchta yo‘nalishi, ya’ni iqisodiy o‘sishni rag‘batlantirish, barqarorlashtirish va iqtisodiy faoliyatni chegara - lash siyosatlarni alohida ajrati b ko‘rsatish mumkin.

• Iqtisodiy o‘sish maqsadlaridan kelib chiqilgandi, fiskal siyosat bandlik darajasini va shu orqali YaIM real hajmini oshirishga qaratiladi. Bunda rag‘batlantiruvchi fiskal siyosatning dastaklari davlat xarajatlarining o‘sishi va soliq stavkalarining pasayishi hisoblanadi

• Davlatning byudjet barqarorligini ta’minlashga qaratilgan moliyaviy siyosati iqtisodiy inqiroz yoki turg‘unlik davrida byudjet taqchilligini bartaraf etish maqsadlariga qaratilishi zarur.

Hozirgi davrda davlatning antitsiklik tartibga solish siyosati ikki ilmiy model, kontseptsiyalarga, ya’ni J.M.Keyns qarashlariga tayanuvchi neokeynschilik va M. Fridman qarashlariga tayangan neokonservativ (monetar) nazariy kontseptsiyalarga asoslangan. Neokeynschilar kontseptsiyasi ustuvor ravishda byudjet -soliq siyosati vositalari yordamida jami talabni tartibga solishga yo‘naltirilgan. Bu makroiqtisodiy yondashuv hisoblanadi. Monetar nazariya ustuvor ravishda pul- kredit siyosati vositalari yordamida jami taklifni tartibga

solishga, ayrim kompaniyalar uchun rag‘bat (stimul) larni yaratishga yo‘naltirilgan. Bu mikroiqtisodiy yondashuvdir.



10.3. Davlatning siklik, antisiklik tartibga solish siyosati

O‘zbekistonda davlatning maroiqtisodiy tartiblash va barqarorlashtirish siyosati ham zamonaviy makroiqtisodiy tartiblash modellarini chuqur tahlil qilish va respublikamizning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda qo‘llanishiga asoslangan. Mamlakatimiz iqtisodiyotining mustaqillikka erishgan dastlabki davrdagi makroiqtisodiy ahvolining o‘ziga xosligi O‘zbekistonga totalitar tuzumdan zaif; bir yoqlama rivojlangan, xom ashyoga ixtisoslashgan, paxta yakkahokimligiga asoslangan iqtisodiyot meros bo‘lib qolganligi bilan izohlanadi. Sobiq ittifoqning inqirozi tufayli respublikalar o‘rtasida ro‘y bergan iqtisodiy aloqalarning buzilishi XX asr 90-yillari boshida ishlab chiqarish hajmining keskin kamayib ketishiga olib keldi.

10.3. Iqtisodiy siosatda muvozanatlik(barqarorlashtirish) siyosati

Mustaqillikka erishilgandan so‘ng mamlakat iqtisodiyotini chuqur tanazzuldan chiqarish, uning makroiqtisodiy barqarorligini ta’minlash maqsadida ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlashtirish siyosati ishlab chiqildi. Barqarorlashtirish dasturini ishlab chiqishda tanglik hodisalarining oldini olish, iqtisodiyotning holatini ifoda qiladigan ko‘rsatkichlarni yaxshilashga, shu bilan birga mamlakatni tanglikka olib kelgan ichki sabablarni chuqur o‘rganish, chalg‘ishlar va nomutanosibliklar bo‘lishi mumkinligiga o‘z vaqtida ehtibor qaratish, tanglik hodisalari kelib chiqishining oldini olish tadbirlarini faol amalga oshirish g‘oyat muhim ekanligi belgilab olindi. Barqarorlashtirish siyosatni ishlab chiqishda jahon tajribasida barqarorlashtirish siyosatini amalga oshirishning ikki yondashuvi tahlil qilinib, qattiq monetarizmga tayan maslik kerakligi asoalandi. O‘zbekistonda makroiqtisodiy barqarorlashtirish dasturi doirasida quyidagilar amalga oshirildi:

- milliy valyuta joriy qilinib, mustaqil pul muomalasi yo‘lga qo‘yildi;
- pul muomalasida ilgari yuzaga kelgan giperinflyatsion jarayonlar so‘ndirilib, inflyatsiya darajasi nazorat qilish mumkin bo‘lgan darajaga tushirildi;
- tovarlar va xizmatlar bozorida to‘lovga qobil jami talab bilan jami taklifni muayyan darajada baravarlashtirishga erishildi;
- qat’iy moliyaviy siyosatni o‘tkazish asosida davlat byudjetidagi kamomad yo‘l qo‘yilgan eng kam daraja (yalpi ichki mahsulotning 3 - 4%i atrofida) doirasida ushlab turildi;
- yonilg‘i-energetika resurslari hamda g‘alla importini keskin kamaytirish, shuningdek, energetika resurslari va rangli metallarni eksport qilishni oshirish hisobiga tashqi savdoda ijobi y saldoga erishildi.

Tayanch iboralar: iqtisodiy o‘sish, iqtisodiy rivojlanish, barqaror iqtisodiy o‘sish, real iqtisodiy o‘sish, an’anaviy omillar, zamonaviy omillar, postindustrial tizim, byudjet siyosati, pul-kredit siyosati, dotatsiya, subvensiya, subsidiyalar, fiskal siyosat, rag‘batlantiruvchi

fiskal siyosat, restriktiv fiskal siyosat, neokeynschilik, neokonservativ (monetar) nazariya,YaIM (Yalpi Ichki Mahsulot), inflyatsiya, bandlik, byudjet defitsiti, barqarorlashtirish siyosati, milliy valyuta, giperinflatsiya, globalizatsiya, osiyo yo‘lbarslari, tashqi savdo balansi, transfert to‘lovlari, daromadlarni qayta taqsimlash, ijtimoiy himoya, iqtisodiy sikl, inqiroz, turg‘unlik.

Nazorat va takrorlash uchun savollar

1. Iqtisodiy o‘sish nima va uning dolzarbligi nimada?
2. Iqtisodiy o‘sish va iqtisodiy rivojlanish o‘rtasidagi farqni tushuntiring.
3. An’anaviy iqtisodiy o‘sish omillari (mehnat, yer, kapital, tadbirkorlik) o‘rniga zamonaviy sharoitda qanday omillar birinchi o‘ringa chiqmoqda?
4. Adam Smit va Tomas Maltusning iqtisodiy o‘sish nazariyasiga qanday hissa qo‘shgan?
5. S. Kuznetsning iqtisodiy o‘sishga miqdoriy yondashuvi nimadan iborat?
6. Barqaror iqtisodiy o‘sish nima? Uning asosiy ko‘rsatkichlari qanday?
7. Makroiqtisodiyot nazariyasiga ko‘ra, YAIMning yillik o‘sish sur’ati qanday bo‘lganda uning hajmi 10 yilda 2 marta ko‘payadi?
8. Real iqtisodiy o‘sishning mohiyati nimadan iborat?
9. “Osiyo yo‘lbarslari”ning iqtisodiy o‘sish tajribasi qanday xususiyatlarga ega?
10. Davlatning iqtisodiyotdagi asosiy vazifalarini sanab bering.
11. Fiskal siyosat nima va uning asosiy maqsadlari nimadan iborat?
12. Rag‘batlantiruvchi fiskal siyosat qanday sharoitlarda qo‘llaniladi va uning vositalari nimalar?
13. Restriktiv fiskal siyosat qachon va qanday maqsadlarda amalga oshiriladi?
14. Dotatsiya, subvensiya va subsidiyalar o‘rtasidagi farqni tushuntiring.

15. Transfert to‘lovlari orqali davlat qanday ijtimoiy vazifalarni bajaradi?

16. Davlat byudjeti, pul-kredit siyosati va soliq mexanizmi qanday o‘zaro bog‘liq?

17. Neokeynschilik va neokonservativ (monetar) nazariyalarning asosiy farqlari nimada?

18. Makroiqtisodiy va mikroiqtisodiy yondashuvlar qanday farqlanadi?

19. O‘zbekiston sharoitida antisiklik siyosat qanday xususiyatlarga ega?

20. O‘zbekiston mustaqillikka erishgan dastlabki davrdagi makroiqtisodiy ahvolning o‘ziga xos xususiyatlari nimalar edi?

21. Barqarorlashtirish siyosatini ishlab chiqishda qanday asosiy tamoyillarga amal qilindi?

22. O‘zbekistonda makroiqtisodiy barqarorlashtirish dasturi doirasida qanday tadbirlar amalga oshirildi?

23. Giperinflatsiya sharoitida qanday iqtisodiy siyosat olib boriladi?

24. Tashqi savdo balansini ijobiy qilish uchun qanday choralar ko‘rilishi mumkin?

25. Postindustrial iqtisodiy tizimga o‘tish jarayonida iqtisodiy o‘sish kategoriyasida qanday o‘zgarishlar yuz bermoqda?

26. Globalizatsiya sharoitida milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda qanday yondashuvlar samarali?

27. Iqtisodiy sikl va inqirozlarni bartaraf etishda davlat xarajatlarining roli qanday?

XI BOB. DAROMADLARNI QAYTA TAQSIMLASH, BOYLIK VA IQTISODIY SIYOSAT

11.1. Iqtisodiy siyosatda davlat budjeti daromadlarini shakllanishining iqtisodiy jihatlari, prinsiplari, xuquqiy asoslari.

11.2. Iqtisodiy siyosatda budjet daromadlarini shakllanishining manbalari buyicha guruxlanishi.

11.3. Daromadlarni davlat tomonidan tartibga solishning zaruratining iqnisodiye asosi.

11.1. Iqtisodiy siyosatda davlat budjeti daromadlarini shakllanishining iqtisodiy jihatlari, prinsiplari, xuquqiy asoslari

Davlat budjetining daromadlari mamlakat yalpi ichki (milliy) mahsulotini taqsimlash va qayta taqsimlash umumiy jarayonining elementlaridan biri bo‘lib, ular oraliq (tranzit) xarakterga ega. Ular yuridik va jismoniy shaxslarga tegishli bo‘lgan daromadlar va jamg‘armalarning bir qismini budjetga o‘tkazilishi natijasida vujudga keladi. Budjet daromadlarining moddiybuyumlashgan mazmunini davlatning ixtiyoriga borib tushgan pul mablag‘lari tashkil etadi.

Bu moliyaviy (budjet) kategoriyaning namoyon bo‘lish shakli budjetga borib tushuvchi turli soliqlar, to‘lovlar, yig‘imlar, bojlar va ajratmalardan iborat. Miqdoriy jihatdan davlat budjetining daromadlari yaratilgan (ishlab chiqarilgan) yalpi ichki (milliy) mahsulotda (milliy daromadda) davlatning ulushini ko‘rsatadi.

Ularning absolyut hajmi va salmog‘i mamlakatning yalpi ichki (milliy) mahsuloti (milliy daromadi)ning umumiy hajmi, u yoki bu davrda davlatning oldida turgan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, mudofaa va boshqa vazifalar bilan belgilanadi.

Davlat byudjeti daromadlarining shakllantirishning iqtisodiy asosi quyidagilarda namoyon bo‘ladi, bunda byudjet daromadini shakllantiruvchilar:

- davlatning moddiy ishlab chiqarish sohasida yaratadigan milliy daromadi;
- mulkchilikning turli shakllariga asoslangan korxonalar;

- iqtisodiyot tarmoqlari;
- moddiy ishlab chiqarish sohalari;
- mamlakat hududlaridan olinadigan daromadlar;
- davlat byudjeti xarajatlari yo‘naltiriladigan tarkib:
- ijtimoiy soha;
- aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashga;
- iqtisodiyot tarmoqlariga;
- markazlashtirilgan investitsiyalarga;
- davlat hokimiyatini saqlashga;
- boshqaruv va sud organlariga va boshqalarga;

Davlat byudjeti – bu davlat daromadlari va xarajatlari hamda ularni moliyaviy qoplash manbalarining yillik rejasi.

Iqtisodiy siyosatni shakllantirishda davlat byudjetining asosiy vazifasi moliyaviy vositalar yordamida iqtisodiyotni samarali rivojlantirish va umumdavlat miqyosidagi ijtimoiy vazifalarni hal qilish uchun sharoit yaratishdan iborat.

Davlat byudjetining 2 tomoni bo‘lib, bir tomondan byudjetga kelib tushadigan daromadlar tarkibi va ularning manbalari va ikkinchi tomondan asosiy xarajatlarining tarkibi va miqdori o‘z ifodasini topadi.

11.1-jadval

Davlat byudejeti daromadlari to'g'risida ma'lumot (mlrd.so'm)

Asosiy byudjet ko'rsatkichlari	2012	2014	2016	2017	2018	2020
Davlat byudjeti daromadlari	20614,1	31730,5	41030,7	49684,8	79099,1	112160,4
Shu jumladan: bevosita soliqlar	5196,4	7433	9853,6	11538,9	15436,6	31671,7
Bilvosita soliqlar	11187,8	16852,3	21131	26133,6	40949	46427,2
Resurs soliqlari	2746,4	4311,5	5306,2	6867,4	12663,4	19680,8
Boshqa daromadlar	1483,5	3133,7	4739,9	5144,7	10050	14380,7

11.2-jadval

Davlat byudjeti xarajatlari to'g'risida ma'lumot (mlrd.so'm)

Ko'rsatkichlar	2012	2014	2016	2017	2018	2020
Davlat byudjeti xarajatlari	21571	31425,4	40930	49344,9	79736,1	118008,6
Ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xarajatlari	12513	18493,7	24106,7	26922,7	42901,1	63580,1
Iqtisodiyot xarajatlar	2372	3363,3	4346,9	5280,7	8461,8	18481
Markazlashgan investitsiyalarni moliyalashtirish	1059	1624,7	2131,8	3234,8	5396,4	7048,5
Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, sud organlari xarajatlari	629	1414,2	1790,8	1932,9	3666,1	6020,3
Boshqa xarajatlar	4735	6529,4	8553,8	11973,8	19310,7	22878,7

Byudjet daromadlarini shakllantirish prinsiplari budjet daromadlarini shakllantirish jarayonining quyidagi prinsiplarga asoslanishi maqsadga muvofiqdir:

– soliqlarning budjetga olinishi mamlakat milliy boyligi manbalarining tugashiga olib kelmasligi kerak;

– soliqlar ularni to‘lovchilar o‘rtasida teng taqsimlanmog‘i lozim;

– soliqlarni ishlab chiqaruvchilarning aylanma fondlari hajmiga ta’sir ko‘rsatmasligi;

– soliqlarning sof daromadga nisbatan hisoblanishi;

– davlat uchun soliqlarning undirilishi iloji boricha arzonroq bo‘lishi lozim;

– soliqlarning undirilish jarayoni xususiy sektorni siqib chiqarmasligi kerak

– sub’ektlarning mustaqil faoliyat ko‘rsatishiga sharoit yaratish. Ya’ni, sub’ektlarga tegishli bo‘lgan mablag‘larning bir qismini davlat budjetiga olinishi ularning mustaqil rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatmasligi kerak. Chegaradan o‘tib ketilganda sub’ektlarning mustaqilligini yo‘qotishiga, kasodga uchrash hollari-ning vujudga kelishiga, ichki rezervlarni qidirib topishga va ishlab chiqarishning

o‘sish sur’atlarini ta’minlashga intilish susayadi, xufyona iqtisodiyotning rivojlanishi boshlanadi;

– sub’ektlarning xatti-harakati va intilishiga bog‘liq bo‘lmagan holda vujudga kelgan daromadlarning to‘liq yoki qisman byud-jetga olinishi. Ma’lum bir xarajatlarni amalga oshirmasdan olingan barcha daromadlar davlatning ixtiyoriga o‘tishi kerak. Bu printsipning ta’siri ostiga sub’ektlar ma’muriyatining noto‘g‘ri, noqonuniy harakati (masalan, davlat standartlarini buzish va boshqa-lar) natijasida olingan daromadlar ham kiritilmog‘i lozim;

– ishlab chiqarishni kengaytirish va boshqa maqsadlar uchun korxonaning rejalashtirilgan ehtiyojidan ortgan summalarni byudjetga olish. Bu prinsip davlat budjeti daromadlarini davlat korxonalarining mablag‘lari hisobidan tashkil etishda qo‘llanilishi mumkin. U davlat korxonalarining moliyaviy holatini tartibga soladi va bir vaqtning o‘zida ijtimoiy ehtiyojlarni qondirishda davlatning manfaatlarini ta’minlaydi;

– budjet mexanizmining rag‘batlantiruvchi ta’sirini ta’min-lash. Mablag‘larni sub’ektlar ixtiyorida budjetga o‘tkazilishi ular-ning samarali faoliyat ko‘rsatishga rag‘batlantirishi kerak. Bunda maqsad faqat davlat budjeti daromadlarini miqdoriy jihatdan ta’minlash emas, balki shu yo‘l bilan korxonada faoliyat ko‘rsatayot-gan mehnat jamoalarining manfaatlariga, ular faoliyatining sifat ko‘rsatkichlariga to‘lovlarning ta’sirchanligini kuchaytirishdir;

– budjet daromadlarini shakllantirishda ulushli ishtirok etish. Bu prinsip budjet daromadlarini aholi mablag‘lari hisobidan shakllantirishda qo‘llanilib, uning natijasida aholi daro-madlari darajasiga bog‘liq ravishda bir qismi budjetga o‘tkaziladi.

11.2. Iqtisodiy siyosatda budjeti daromadlarini shakllanishining manbalari bueicha guruxlanishi

Davlat budjetining daromadlari o‘zlarining manbalari, ijtimoiy-iqtisodiy xarakteri, mulkchilik shakli, soliq va to‘lovlarning turi, mablag‘larning tushish shakli va ularni budjetga undirish metodlariga muvofiq klassifikatsiya qilinishi mumkin.

Davlat budjetining daromadlari o‘z manbalariga ko‘ra quyidagi guruhlarga bo‘linadi:
soliqli daromadlar; soliqsiz daromadlar; tiklanmaydigan (qaytarilmaydigan) tarzda o‘tkaziladigan pul mablag‘lari.

Soliqlarning byudjetga olinishi mamlakat milliy boyligi manbalarining tugashiga olib kelmasligi kerak. soliqlar ularni to‘lovchilar o‘rtasida teng taqsimlanmog‘i lozim. soliqlarni ishlab chiqaruvchilarning aylanma fondlari hajmiga ta’sir ko‘rsatmasligi. soliqlarning sof daromadga nisbatan hisoblanishi davlat uchun soliqlarning undirilishi iloji boricha arzon-roq bo‘lishi lozim soliqlarning undirilish jarayoni xususiy sektorni siqib chiqarmasligi kerak subyektlarning mustaqil faoliyat ko‘rsatishiga sharoit yaratish sub’ektlarning xatti-harakati va intilishiga bog‘liq bo‘lmagan holda vujudga kelgan daromadlarning to‘liq yoki qisman byudjetga olinishi ishlab chiqarishni kengaytirish.

Budjetning soliqli daromadlari tarkibi mamlakat soliq qonunchiligiga muvofiq:

- umumdavlat soliqlari va yig‘imlari
- mahalliy soliqlar va yig‘imlar
- bojxona bojlari
- boj yig‘imlari
- boshqa boj to‘lovlari, davlat boji, penya va jarimalardan iborat.

Soliqsiz daromadlar tarkibiga quyidagilar kiradi: davlat mulkidan foydalanish tufayli olingan daromadlar (soliqlar va yig‘imlar to‘g‘risidagi qonunchilikka muvofiq to‘langan soliq va yig‘imlardan so‘ng); budjet tashkilotlari tomonidan ko‘rsatilgan to‘lovli xizmatlardan kelgan daromadlar (soliqlar va yig‘imlar to‘g‘risidagi qonunchilikka muvofiq to‘langan soliq va yig‘imlardan so‘ng); fuqarolik-huquqiy, ma’muriy va jinoiy choralarni qo‘llash na-tijasida olingan mablag‘lar, jumladan, jarimalar, musodaralar, tovon to‘lashlar va davlat sub’ektlariga etkazilgan zararlarni tiklash bo‘yicha olingan mablag‘lar hamda majburiy undirilgan boshqa mablag‘lar; moliyaviy yordam ko‘rinishidagi daromadlar (budjet ssudalari va budjet kreditlaridan tashqari); boshqa soliqsiz daromadlar.

Tushumlarning quyidagi ko‘rinishlari ham budjet daromadlarining tarkibida hisobga olinishi mumkin:

- davlat mulkini vaqtinchalik foydalanishga berish natijasida ijara haqi yoki boshqa ko‘rinishda olinadigan mablag‘lar;
- kredit muassasalaridagi hisobvaraqlarda budjet mablag‘larining qoldig‘i bo‘yicha foizlar ko‘rinishida olinadigan mablag‘lar;
- davlat mulkiga tegishli bo‘lgan mol-mulkni garovga yoki ishonchli boshqaruvga berishdan olinadigan mablag‘lar;
- qaytarish va haq olish asosida boshqa budjetlarga, xorijiy davlatlarga yoki boshqa yuridik shaxslarga berilgan budjet mablag‘laridan foydalanganlik uchun haq;
- davlatga qisman tegishli bo‘lgan xo‘jalik jamiyatlari ustav kapitalining hissasiga yoki aktsiyalar bo‘yicha dividendlarga to‘g‘ri keladigan foyda ko‘rinishidagi daromadlar; davlat unitar korxonalari foydasining bir qismi (soliqlar va yig‘imlar to‘g‘risidagi qonunchilikka muvofiq to‘langan soliq va yig‘imlardan so‘ng); davlatga tegishli bo‘lgan mol-mulkdan foydalanish natijasida olinadigan qonunchilikda ko‘zda tutilgan boshqa daromadlar.

Tiklanmaydigan (qaytarilmaydigan) tarzda o‘tkaziladigan pul mablag‘lari. Budjetning daromadlar qismini to‘ldirishning manbalaridan biri budjet tizimida boshqa darajada turgan dotatsiyalar, subventsiyalar va subsidiyalar yoki mablag‘larni qaytarilmaslik va tikla-maslikning boshqa shakllarida olinadigan moliyaviy yordamdir. Bun-day moliyaviy yordamlar mablag‘larni oluvchi budjetning daromad-larida o‘z ifodasini topishi kerak. Jismoniy va yuridik shaxslardan, xalqaro tashkilotlar va xorijiy davlatlar hukumatlaridan qaytarilmaydigan yoki tiklanmaydigan shaklda o‘tkazilayotgan mablag‘lar ham budjetning shunday daromadlari tarkibiga kiradi. O‘zining ijtimoiy-iqtisodiy belgisiga ko‘ra davlat budjetining daromadlari quyidagi guruhlarga bo‘linishi mumkin:

– xo‘jalik yurituvchi sub’ektlardan olinadigan daromadlar;
– aholidan tushumlar.

Mulkchilik shakliga ko‘ra davlat budjetining daromadlari quyidagi ko‘rinishlarda bo‘lishi mumkin:

– nodavlat sektordan olinadigan daromadlar;
– davlat xo‘jaliklaridan olinadigan daromadlar;
– aholidan olinadigan mablag‘lar.

Byudjet daromadlarining yuqorida sanab o‘tilgan har bir guruhlari daromadlarning manbalari, to‘lovlarning turlari va hokazo-lar bo‘yicha kichik guruhlarga bo‘linishi ham mumkin.

Masalan, davlat xo‘jaliklaridan olinadigan daromadlarga davlat korxona va tashkilotlarining to‘lovlari, davlat mulkini sotishdan olinadigan daromadlar, davlat tashkilotlari tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatlardan olinadigan daromadlar kiradi. Aholidan budjetga kelib tushadigan mablag‘lar esa soliqlar va boshqa ixtiyoriy to‘lov-lardan iborat bo‘lishi mumkin. O‘z navbatida, har bir kichik guruhlarga biriktirilgan davlat budjetining daromadlari tushumlarning alohida turidan iborat. Masalan, davlat korxonalari tomonidan budjetga o‘tkaziladigan daromadlarning tarkibiga qo‘shilgan qiymat solig‘i, aktsizlar, daromad (foyda) solig‘i va boshqalar kiradi.

Shuningdek, davlat mulkidan olinadigan daromadlar tarkibi bojxona daromadlaridan, egasiz va musodara qilingan mol-mulkni, talab qilib olinmagan yuklar va pochta jo‘natmalarini, meros huquqi bo‘yicha davlatga o‘tgan mol-mulklarni realizatsiya qilishdan olingan tushumlardan iborat.

Davlat tashkilotlari va muassasalari tomonidan ko‘rsatilgan xizmatlar uchun olingan daromadlarga davlat avtomobil inspektsiyalari tomonidan undiriladigan yig‘imlar, tovar belgilarini qayd etganlik uchun yig‘imlar, o‘lchov asboblarini davlat tekshiruvidan o‘tkazilganligi uchun haq, sud va arbitraj organlari hamda notarial idoralari tomonidan aholiga ko‘rsatilgan xizmatlar uchun olinadigan haq va boshqalar kiradi. Davlat budjetining daromadlari majburiy yoki ixtiyoriy tarzda jalb qilinishi mumkin. Bunda daromadlarni majburiy shaklda jalb qilish hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Ixtiyoriy shakldagi to‘lovlarga davlat obligatsiyalarini va pulbuyum lotereyalarini realizatsiya qilishdan olingan tushumlar kiradi. Davlat budjeti

daromadlarini shakllantirishdagi majburiylik yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan ma'lum bir mablag'lar belgilangan muddatlarda budjetga o'tkazilishi zarurligini anglatadi. U yoki bu to'lovni qonun tomonidan majburiy deb e'tirof etilishi to'lanmagan summalarning majburiy undirilishini ko'zda tutadi. Bu holat budjetning ijrosi uchun juda katta ahamiyatga ega bo'lib, mablag'larni to'liq va o'z vaqtida budjetga jalb etishga yo'naltirilgan.

11.3. Daromadlarni davlat tomonidan tartibga solishning zaruratining iqtisodiy asosi

Daromadlarni davlat tomonidan tartibga solishning asosiy maqsadi – davlat byudjeti orqali milliy daromadni qayta taqsimlash mexanizmini samarali yo'lga qo'yishdan iboratdir. Buning natijasida, ijtimoiy tengsizlikni yumshatish, aholining kam ta'minlangan qatlamlarini qo'llab-quvvatlash, ularning mehnat salohiyatini saqlab qolish va takror ishlab chiqarish imkoniyatlarini ta'minlash ko'zda tutiladi.

Shuningdek, bu jarayon orqali iqtisodiy resurslarning hududlar va aholi qatlamlari o'rtasida nomutanosib taqsimlanishi (disproportsiya)ni kamaytirish, mehnat bozorini muvozanatlash va ijtimoiy tanglikning oldini olish kabi muhim vazifalar ham hal qilinadi.

Davlatning daromadlarni tartibga solish borasidagi faoliyati, avvalo, markaziy hamda mahalliy byudjetlar orqali amalga oshiriladigan ijtimoiy xarajatlar miqdori va ularning maqsadli yo'naltirilishiga bog'liq holda shakllanadi. Bu xarajatlar aholining turli qatlamlarini moddiy qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash va iqtisodiy tengsizlikni yumshatishga xizmat qiladi.

Biroq, davlat tomonidan daromadlarni qayta taqsimlashning amaliy imkoniyatlari mavjud byudjet daromadlari hajmi bilan chegaralanadi. Ya'ni, byudjetga tushumlar qancha ko'p bo'lsa, davlat ijtimoiy ehtiyojlarni qamrab olishda shuncha kengroq imkoniyatga ega bo'ladi. Aksincha, tushumlar yetarli bo'lmaganda, ijtimoiy dasturlarni moliyalashtirishda cheklovlar yuzaga keladi.

Daromadlarni davlat tomonidan tartibga solishning asosiy obyektlari quyidagilar: daromadlar, ish haqi minimumi; bandlik, kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash; soliqlar, narxlar; ijtimoiy kafolatlar, ijtimoiy munosabatlar (shu jumladan, ish beruvchi va yollanib ishlovchilar o‘rtasidagi munosabatlar), ijtimoiy ta’minot; huquqiy ta’minot (xavfsizlik, hayot, mulk va jamg‘armalarni himoyalash).

Daromadlar siyosati konstitutsiya va unga tenglashtirilgan qonuniy hujjatlarda belgilangan ma’lum tamoyillar asosida yuritiladi. Bu tamoyillar quyidagilardan iborat:

ijtimoiy adolat;

ijtimoiy hamkorlik va aholi barcha qatlamlarining birdamligi;

o‘z moddiy ahvoli uchun shaxsiy mas’uliyat;

mehnat huquqi va uni munosib rag‘batlantirish;

kasaba uyushmalari huquqi;

iqtisodiy maqsadga muvofiqlik va boshqalar.

Ma’lumki, Ushbu yondashuv iqtisodiy siyosatning barcha tarkibiy qismlarini bir butun strategik maqsadlar asosida uyg‘unlashtirishni nazarda tutadi. Dasturlashning asosiy vazifasi – iqtisodiy o‘sishni barqarorlashtirish, resurslardan samarali foydalanish va ijtimoiy adolatni ta’minlashga yo‘naltirilgan kompleks chora-tadbirlarni rejalashtirish va muvofiqlashtirishdir. Davlat daromadlar siyosatida yollanma ishchilarni ijtimoiy himoya qilishning muhim vositalaridan biri — bu eng kam ish haqini belgilashdir. Ushbu ko‘rsatkich nafaqat ishchilarning mehnati uchun minimal to‘lov chegarasini belgilab beradi, balki ularning jismoniy va ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish darajasini ham ifodalaydi.

Eng kam ish haqi **“iste’mol savatchasi”** tarkibiga muvofiq belgilanmog‘i lozim. Bunda u insonning mehnat qobiliyatini tiklash va saqlab qolish, hayot sifatini minimal darajada ta’minlash uchun zarur bo‘lgan oziq-ovqat, kiyim-kechak, uy-joy, transport, sog‘liqni saqlash, ta’lim va boshqa asosiy xizmatlar xarajatlarini o‘z ichiga olgan normativ xarajatlar yig‘indisiga mos bo‘lishi kerak.

Shu sababli, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlisga yo‘llagan Murojaatnomasida quyidagilarni

alohida ta'kidladi: "Biz ilg'or xalqaro tajribaga tayangan holda, aholining munosib hayot darajasini ta'minlash uchun zarur bo'lgan daromad miqdorini aniqlovchi 'iste'mol savatchasi' tushunchasini qonunchilikda mustahkamlashimiz va uni amaliyotga joriy etish mexanizmlarini yaratishimiz zarur. Shu bilan birga, aholining real daromadlarini, ish haqi, stipendiya, pensiya va ijtimoiy nafaqalar miqdorini bosqichma-bosqich oshirish bo'yicha ham aniq va tizimli chora-tadbirlar amalga oshiriladi."

Prezidentning ushbu bayonoti aholining ijtimoiy himoyasini mustahkamlash, daromadlar adolatli taqsimotini ta'minlash va hayot sifatini yaxshilash bo'yicha yangi bosqichdagi islohotlarga asos bo'lmoqda.

O'zbekistonni rivojlantirishning "harakatlar strategiyasi"da "taraqqbyot strategiyasi"kura aholi bandligi va real daromadlarini quyidagi yo'nalishlarda izchil oshirish ko'zda tutilgan:

-aholining real pul daromadlarini va xarid qobiliyatini oshirish, kam ta'minlangan oilalar sonini va aholining daromadlari bo'yicha farqlanish darajasini yanada kamaytirish;

-byudjet muassasalari xodimlarining ish haqi, pensiya, stipendiya va ijtimoiy nafaqalar hajmini inflyatsiya sur'atlaridan yuqori miqdorda bosqichma-bosqich oshirish;

-yangi ish o'rinlari yaratish hamda aholining, eng avvalo, o'rta maxsus va oliy o'quv muassasalari bitiruvchilari bandligini ta'minlash, mehnat bozori infratuzilmasining mutanosib rivojlanishini ta'minlash, ishsizlik darajasini kamaytirish;

Mehnatga layoqatli aholining bandligini ta'minlash va ularning iqtisodiy faolligini oshirish maqsadida quyidagi yo'nalishlarga alohida e'tibor qaratilishi lozim:

- Mehnat va tadbirkorlik faoliyatini erkin amalga oshirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish;
- Ishchi kuchining raqobatbardoshligini ta'minlash maqsadida ularning malaka va kasbiy tayyorgarlik darajasini oshirish;

- Ishsiz va ish topishga muhtoj shaxslarni kasb-hunarga o‘rgatish, ularni qayta tayyorlash va malakasini doimiy ravishda yangilash tizimini kengaytirish.

- Ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyoti — bu ham bozor tamoyillariga asoslangan, ham ijtimoiy adolat va inson manfaatlarini ustuvor deb biladigan iqtisodiy tizimdir. Bozor iqtisodiyoti rivojlanar ekan, uning ayrim salbiy oqibatlari ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlar paydo bo‘lishiga olib keladi. Aynan shuning uchun zamonaviy jamiyatda bozor erkinligi bilan birga, aholining ijtimoiy zaif guruhlarini qo‘llab-quvvatlash, ularning farovonligini ta’minlashga qaratilgan mexanizmlar — ya’ni ijtimoiy himoya tizimi zaruriy tus oladi. Bu tsivilizatsiyalashgan jamiyatlarning ajralmas talabi hisoblanadi.

Ijtimoiy himoya sohasida eng dolzarb masala — aholining bozor baholarining tez o‘sishi va inflyatsiyaning salbiy ta’siridan samarali himoyalanish hamda uning oldini olishdir. Ayniqsa, bozor iqtisodiyotiga o‘tish jarayonida mollar narxining uzluksiz oshishi tabiiy holga aylangan. Bunday vaziyatda oylik ish haqi yoki belgilangan daromadga ega bo‘lgan aholining tovarlar va xizmatlar narxlarining oshishidan zarar ko‘rishini kamaytirish katta ijtimoiy ahamiyat kasb etadi. Xususan, nafaqaxo‘rlar, talabalar va boshqa ijtimoiy himoyaga muhtoj guruhlar bu jarayonda alohida e’tibor talab qiladi.

Bu holatda maosh, stipendiya va nafaqalarni faqat vaqti-vaqti bilan ozgina oshirish muammoni to‘liq hal qilmaydi. Shu sababli, indeksatsiya mexanizmini joriy etish zarur. Indeksatsiya turmush darajasiga bo‘lgan og‘ir ta’sirlarni yumshatishga yordam beradi. Qabul qilingan indekslar daromadlarni narx-navo darajasiga muvofiq avtomatik tarzda moslashtirib boradi va narxlarning oshishi sababli yuzaga keladigan zararlarning katta qismini qoplaydi.

Shuningdek, bozor narxlarining salbiy ta’siridan aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini asrash maqsadida ta’minotning maqsadli va aniq yo‘naltirilgan shakllaridan foydalanish muhim hisoblanadi.

Jahon amaliyoti shuni ko‘rsatadiki, rivojlangan davlatlar aholining zaif ijtimoiy guruhlari uchun turli ko‘rinishdagi kompensatsion

mexanizmlarni joriy etgan. Masalan, kam ta'minlangan oilalar, nogironlar, pensiya yoshidagilar yoki ko'p bolali oilalar uchun subsidiya asosidagi maxsus ta'minot tizimi joriy qilinadi.

Ijtimoiy himoya faqat yuqorida aytilgan usullardan iborat emas, balki sharoitga qarab aniq shakllar va vositalarni topib, ularni doimiy ravishda qo'llab boradi. Ayniqsa, kam ta'minlangan qatlamlarni bozorning salbiy ta'siridan himoya qilish va ularning turmush darajasining pasayishiga yo'l qo'ymaslik davlat uchun ustuvor vazifadir. O'zbekiston iqtisodiyotini tubdan isloh qilishda beshta asosiy tamoyil belgilangan bo'lib, ulardan biri — demografik holat va aholining turmush darajasini hisobga olgan holda ijtimoiy hmoya chora-tadbirlarini amalga oshirishdir.

Davlatning ijtimoiy siyosatida aholining ijtimoiy himoyasini ta'minlash ustuvor yo'nalishlardan biri bo'lib, u quyidagi asosiy tamoyillar orqali amalga oshiriladi:

- Ijtimoiy iste'mol fondlarini shakllantirish va ularni adolatli taqsimlashni huquqiy jihatdan kafolatlash. Bu orqali sog'liqni saqlash, ta'lim, turar joy bilan ta'minlash, madaniyat va boshqa muhim sohalardagi xizmatlardan har bir fuqaro foydalanish huquqiga ega bo'ladi.
- Markazlashtirilgan ijtimoiy sug'urta tizimini barpo etish. Uning vositasida fuqarolarga vaqtinchalik mehnatga layoqatsizlik, ishsizlik, nogironlik, qarilik yoki boshqa sabablarga ko'ra daromadsiz qolgan hollarda iqtisodiy yordam ko'rsatiladi.
- Samarali mehnat faoliyati va ijtimoiy xizmatlar uchun davlat tomonidan beriladigan rag'bat va imtiyozlar tizimini rivojlantirish. Bu, xususan, soliq imtiyozlari, ijtimoiy xizmatlar uchun to'lovlarni qisqartirish yoki ularni subsidiya asosida moliyalashtirishni o'z ichiga oladi.
- Minimal ish haqi va pensiya miqdorini davlat kafolati ostiga olish. Bu orqali aholi turmush darajasining minimal ijtimoiy standartlardan pastga tushib ketishining oldi olinadi hamda iqtisodiy tengsizlikni yumshatish imkoniyati yaratiladi.

- ko'p bolali oilalarga to'lanadigan nafaqalar;

- kam ta’minlangan aholi tabaqalariga moddiy yordam ko‘rsatish;

- bolalikdan nogiron va boshqa mehnat qobiliyatini yo‘qotganlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash;

- talabalar uchun to‘lanadigan davlat stipendiyalari;

- ishsizlik nafaqasi;

- eng muhim oziq-ovqat mahsulotlari turlarining belgilangan narxlarda sotilishini ta’minlash;

- ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan xizmatlar bahosidagi farqlarni byudjet hisobidan qoplash;

- ijtimoiy sohaning eng muhim tarmoqlari (sog‘liqni saqlash, ta’lim, jismoniy tarbiya, sport va madaniyat) moddiy bazasini qo‘llab-quvvatlash va mustahkamlash.

Endilikda kuchli ijtimoiy siyosat aholining ijtimoiy-iqtisodiy faolligini oshirishga, ishonchli, aniq manzilli, ya’ni shunga muhtoj aholi guruhlarini ijtimoiy himoya qilishga qaratiladi.

Buning uchun aholi daromadlari va mehnat haqlarining faol iqtisodiy faoliyatni rag‘batlantirishdagi rolini oshirish lozim bo‘ladi. Shuningdek, aholining oqilona, samarali ish bilan bandligini ta’minlash ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Buning uchun kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni rag‘batlantirish, iqtisodiyotning aniq sektorida yangi ish o‘rinlarini yaratish, mehnat bozori infratuzilmalari, shu jumladan, mehnat birjalari faoliyati samaradorligini oshirish lozim bo‘ladi. Kam ta’minlangan aholini maqsadli, ishonchli ijtimoiy himoyalash uchun, avvalambor, aniq ehtiyojlardan va imkoniyatlardan kelib chiqqan holda muhtoj oilalarga subsidiya, mikrokreditlar berish, ularga mikrofirma, kichik korxona, fermer xo‘jaliklarini tashkil etishlari uchun sharoitlar yaratish kerak bo‘ladi.

Davlat turli soliq, kredit imtiyozlari tizimini yaratish orqali fuqarolarning, jamoat tashkilotlari hamda xo‘jalik sub’ektlarining homiylik, xayriya ishlariga mablag‘lar ajratishlarini rag‘batlantirish chora-tadbirlarini kuchaytirishi ham maqsadga muvofiqdir.

Ijtimoiy himoya tizimida mehnat jamoalari ham muhim rolь o‘ynaydi. Mehnat jamoalari o‘z xodimlarini ijtimoiy jihatdan qo‘llab-quvvatlashi quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshiriladi:

• Mehnat jamoasi tomonidan ijtimoiy himoya qilish uchun huquqiy sharoitlarning yaratilishi;

• iqtisodiy ahvoli nochor xodimlarga vaqtinchalik yordam ko‘rsatish;

• yaxshi ishlagan xodimlarga turli imtiyozlar yaratish;

• xodimlarning mehnat sharoitlarini yaxshilash, ishlab chiqarishni insonparvarlashtirish;

• xodimlarni imtiyozli asosda uy–joy bilan ta’minlash;

• xodimlarning malakasini oshirish, yangi ixtisoslikka o‘qitish bilan bog‘liq xarajatlar; korxona xodimlarning sog‘lig‘ini mustahkamlash:

a) tibbiy xizmat ko‘rsatishni tashkil etish yoki tibbiy sug‘urta qilish;

b) og‘ir mehnat sharoitda ishlaydiganlarga turli imtiyozlar yaratish;

v) xodimlarning dam olish va hordiq chiqarishni tashkil etish bilan bog‘liq xarajatlar qilish.

Endilikda aholini ijtimoiy himoyalash, uning samarasini oshirishning quyidagi muhim vazifalarini amalga oshirish maqsadga muvofiq bo‘ladi:

Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash asosida barqaror va mutanosib o‘sishini ta’minlash;

davlat mablag‘lari bilan bir qatorda mehnat jamoalari, jamoat va hayriya tashkilotlari va jamg‘armalarining mablag‘larini keng jalb qilish;

odamlarning kuch va qobiliyatlari to‘la– to‘kis faollashuvini ta’minlashga qodir bo‘lgan kuchli mexanizmni vujudga keltirish;

xususiy mulk miqiyoslarini kengaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishini rag‘batlantirish;

aholining daromadlari va turmush darajasida asossiz katta farqlarga yo‘l qo‘ymaslik. Jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta’minlaydigan o‘rta mulkdorlar qatlamini shakllantirish;

kambag‘allikka, qashshoqlikka qarshi kurash. Aholining eng muhtoj qatlamining davlat tomonidan qo‘llab–quvvatlanishini kuchaytirish. Ijtimoiy xizmatlar sohalarining rivojlanishi. Iqtisodiyotning jadal rivojlanishi mamlakatda tub ijtimoiy islohotlarni amalga oshirishga va ijtimoiy sohada katta yutuqlarga erishishga zamin yaratdi. 2017–2021 yillarda O‘zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasida sog‘liqni saqlash tizimini takomillashtirish borasida quyidagi yo‘nalishlar belgilangan:

- sog‘liqni saqlash sohasini, tez va shoshilinch tibbiy yordam tizimini yanada isloh qilish, aholi o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, tibbiyot muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash;

- oila salomatligini mustahkamlash, onalik va bolalikni muhofaza qilish, chaqaloqlar va bolalar o‘limini kamaytirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni yanada keng amalga oshirish;

- pensionerlar, nogiron, yolg‘iz keksalar, aholining boshqa ehtiyojmand toifalariga tibbiyijtimoiy yordam ko‘rsatish tizimini yanada rivojlantirish va takomillashtirish;

-farmatsevtika sanoatini yanada rivojlantirish, aholi va tibbiyot muassasalarining arzon, sifatli dori vositalari va tibbiyot buyumlari bilan ta’minlanishini yaxshilash;

-aholi o‘rtasida kasallanish ko‘rsatkichlari pasayishini va umr uzayishini ta’minlash.

Ushbu tadbirlarni amalga oshirish borasida 78 ta tuman tibbiyot birlashmasini, 7 ta shahar va 2 ta viloyat ko‘p tarmoqli tibbiyot markazini qayta qurish, tez tibbiy yordam xizmatini 1200 ta maxsus avtotransport bilan ta’minlash rejalashtirilmoqda.

O‘zbekiston Rspublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev Oliy Majlisga murojaatnomasida inson salomatligini muhofaza qilish borasida quyidagi vazifalarni amalga oshirish vazifalarini belgilab berdi:

Masofadan turib profilaktika qilishni ta'minlaydigan "Aqlli tibbiyot" va "Yagona tibbiy axborot markazi" kontseptsiyalarini o'z sharoitimizga moslashtirib tatbiq etish;

xususiy tibbiyotni jadal rivojlantirish uchun xorijiy investorlarni jalb etish va chet ellik mutaxassislar mamlakatimizda doimiy faoliyat yuritishini ta'minlash;

- aholini dori-darmon bilan ta'minlash.Yaqin vaqt ichida aholini arzon va sifatli dori vositalari bilan ta'minlaydigan 2 mingta ijtimoiy dorixona qurilib, ishga tushirish;

- ona va bola salomatligini asrashda muhim omil bo'lgan skrining markazlari faoliyatini tubdan qayta ko'rib chiqish. 2018-yilda 46 ta tuman va shahar tibbiyot birlashmasi negizida tumanlararo perinatal markazlar tashkil etiladi.

- qishloq vrachlik punktlarida kasalliklarni barvaqt aniqlash va ularning oldini olish bo'yicha zamonaviy diagnostika laboratoriyalarini tashkil etish.

Mustaqillik yillarida uy-joy kommunal xo'jalik sohasi ham rivoj topdi. Mustaqillikning dastlabki yillarida amalga oshirilgan "Kichik" xususiylashtirish natijasida 96 foizdan ziyod oila ilgari davlat tasarrufidabo'lgan uy-joylarni shaxsiy mulk qilib olishdi. Aholining uy-joy bilan ta'minlanish darajasi 1990-yilda xar bir kishiga 12,1 kvadrat metrni tashkil etgan bo'lsa, 2010-yilda bu raqam 15,2 kvadrat metrga yetdi yoki 1,26 barobar ortdi. Respublikadagi oilalarning qariyb 77,4 foizi alohida uy va kottejlarda istiqomat qilmoqda. Ta'kidlash joizki, qishloq aholisi turmish sharoitlarini yaxshilash, ularni shahar hayot sharoitlarga yaqinlashtirish maqsadida keyingi yillarda qishloq joylarda namunaviy loyihalar asosida xususiy uy-joylarni qurish bo'yicha dastur amalga oshirilmoqda. 2017-yilda imtiyozli ipoteka kreditlari asosida arzon uy-joylar qurish loyihasini amalga oshirishga kirishdik. Shahar va qishloqlarimizda jami 3,5 million kvadrat metrdan ziyod namunaviy uylar va ko'p qavatli uy-joylar barpo etildi. Bu raqam 2007-yilga nisbatan 20 barobar, namunaviy uy-joylar qurish dasturi boshlangan 2010-yilga nisbatan 3,5 barobar, 2014-yilga nisbatan esa 2 barobar ko'pdir.

Mamlakatimizda keyingi 25 yil davomida birinchi marta aholi uchun arzon, barcha qulayliklarga ega bo‘lgan ko‘pqavatli uy-joylar qurish boshlandi. 2017-yilning o‘zida 800 ming kvadrat metrdan ziyod ana shunday uy-joylar qurib foydalanishga topshirildi. Birgina Toshkent shahrining o‘zida joriy yilda 420 ming kvadrat metr ko‘pqavatli uy-joy fondi foydalanishga topshirildi. Bu o‘tgan yilga nisbatan qariyb 3 barobar ko‘pdir.

Bugungi kunda ijtimoiy sohaning barqaror rivojlanishi, avvalo, ushbu yo‘nalishni samarali moliyalashtirishga bevosita bog‘liqdir. Davlat byudjeti xarajatlarining katta qismi – yarmidan ortig‘i har yili aynan ijtimoiy sohaga yo‘naltirilayotgani buning yaqqol isbotidir.

Aholining turmush darajasini oshirish, hayot sifatini yaxshilash va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash maqsadida ijtimoiy sohaga yo‘naltirilgan mablag‘lar hajmi yildan-yilga ortib bormoqda. Biroq, ijtimoiy sohani istiqbolda yanada rivojlantirish faqat moliyaviy ko‘mak bilan cheklanib qolmasligi kerak. Bu jarayon quyidagi yirik iqtisodiy vazifalar bilan chambarchas bog‘liq:

Tayanch iboralar: davlat byudjeti, byudjet daromadlari, yalpi ichki mahsulot (YIM), milliy daromad, soliqli daromadlar, soliqsiz daromadlar, qaytarilmaydigan o‘tkazmalar, barqarorlik printsipi, tenglik printsipi, samaradorlik printsipi, majburiylik printsipi, rag‘batlantirish printsipi, daromadlar, ish haqi minimum, bandlik, soliq siyosati, ijtimoiy kafolatlar, ijtimoiy adolat, ijtimoiy hamkorlik, shaxsiy mas’uliyat, mehnat huquqi, ijtimoiy sug‘urta, ijtimoiy nafaqalar, davlat kafolatlari, maqsadli yordam, ijtimoiy xizmatlar, indeksatsiya, imtiyozlar, kompensatsiya, subsidiya, soliq siyosati, byudjet siyosati, kredit siyosati, valyuta siyosati, mehnat bozorini tartibga solish, ijtimoiy ta’minot, demografik siyosat, hududiy siyosat, raqamli iqtisodiyot, yashil iqtisodiyot, innovatsion rivojlanish, kichik biznes, daromadlar farqini kamaytirish, turmush sifatini oshirish, iqtisodiy o‘sishni ta’minlash, xalqaro integratsiya.

Nazorat va takrorlash uchun savollar

1. Davlat byudjeti nima va uning asosiy tarkibiy qismlari qaysilar?
2. Byudjet daromadlarining iqtisodiy mohiyatini tushuntiring.
3. Davlat byudjetining 2 tomoni qanday o‘z ifodasini topadi?
4. Milliy daromad va yalpi ichki mahsulot o‘rtasidagi bog‘liqlikni tushuntiring.
5. Byudjet daromadlarining moddiybuyumlashgan mazmuni nimadan iborat?
6. Davlat byudjetining daromadlari nima uchun oraliq (tranzit) xarakterga ega?
7. Byudjet daromadlarining absolyut hajmi va salmog‘i nimaga bog‘liq?
8. Iqtisodiy siyosatni shakllantirishda davlat byudjetining asosiy vazifasi nima?
9. Barqarorlik printsipi - soliqlarning milliy boylik manbalariga ta’siri qanday bo‘lishi kerak?
10. Tenglik printsipi - soliqlarning to‘lovchilar o‘rtasida taqsimlanishi qanday amalga oshirilishi kerak?
11. Samaradorlik printsipi - soliqlarning ishlab chiqarishga ta’siri qanday bo‘lishi lozim?
12. Sub’ektlarning mustaqilligi printsipi nimani nazarda tutadi?
13. Majburiylik printsipi qanday hollarda qo‘llaniladi?
14. Rag‘batlantiruvchi ta’sir printsipining mohiyati nimadan iborat?
15. Ulushli ishtirok etish printsipining qo‘llanilish sohasini tushuntiring.
16. Ishlab chiqarishni kengaytirish printsipining ahamiyati nimada?
17. Soliqli daromadlar tarkibiga qanday to‘lovlar kiradi?
18. Soliqsiz daromadlar ning asosiy turlarini sanab bering.
19. Qaytarilmaydigan o‘tkazmalar qanday mablag‘larni o‘z ichiga oladi?
20. Davlat mulkidan foydalanish qanday daromadlar beradi?

XII BOB. JAMIYATNING IJTIMOIY SOHASI VA DAVLATNING IJTIMOIY SIYOSATI

12.1. Iqtisodiy siyosatda ijtimoiy siyosatning mohiyati, kelib chiqish tarixi, aholining turmush darajasini oshirish masalalari.

12.2. Davlatning ijtimoiy siyosati: shakllari, xususiyatlari, asosiy yo‘nalishlari.

12.3. Iqtisodiy siyosatda ijtimoiy davlat tushunchasi va uning mohiyati. O‘zbekistonning ijtimoiy davlat sifatidagi iqtisodiy siyosati.

12.1. Iqtisodiy siyosatda ijtimoiy siyosatning mohiyati, kelib chiqish tarixi, aholining turmush darajasini oshirish masalalari.

Ijtimoiy soha – bu jamiyat hayotining eng muhim bo‘g‘ini bo‘lib, aholining turmush darajasini bevosita belgilovchi sohalarni o‘z ichiga oladi. U quyidagi tarmoqlarni qamrab oladi:

- **sog‘liqni saqlash**;
- **ta’lim**;
- **uy-joy-kommunal xo‘jaligi**;
- **madaniyat**;
- **sport va turizm**;
- **ijtimoiy xizmat ko‘rsatish**;
- **ijtimoiy ta’minot**;
- **ijtimoiy sug‘urta va pensiya ta’minoti**.

Mazkur tarmoqlar bir nechta umumiy xususiyatlarga ega bo‘lib, ular orqali ijtimoiy sohaning o‘ziga xos roli va ahamiyati yuzaga chiqadi:

- **Bevosita inson ehtiyojlariga xizmat qiladi** – ya’ni ijtimoiy soha faoliyatining markazida insonning moddiy, jismoniy, intellektual va ma’naviy ehtiyojlarini qondirish turadi.
- **Ijtimoiy ne’matlarni xizmat ko‘rinishida taqdim etadi** – bu xizmatlar sog‘liqni tiklash, bilim berish, madaniy rivojlanish, ijtimoiy himoya kabi yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi.

- **Jiddiy tashqi samaradorlikka ega** – ijtimoiy soha xizmatlari jamiyatda sog‘lom muhit, intellektual salohiyat va ijtimoiy barqarorlikni shakllantirishga xizmat qiladi.
- **Doimiy monitoring va baholash talab etadi** – chunki bu sohalarning samaradorligi aholining turmush darajasi bilan bevosita bog‘liq bo‘ladi. Sport soglomlashtirishinsonlarni jismoniy jixatdan xar tomonlama kamol toptirish. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida, 1-modda. O‘zbekiston – boshqaruvning respublika shakliga ega bo‘lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat. 50-modda. Har kim ta’lim olish huquqiga ega. Davlat uzluksiz ta’lim tizimi, uning har xil turlari va shakllari, davlat va nodavlat ta’lim tashkilotlari
rivojlanishini ta’minlaydi.

Ijtimoiy soha muassasa va tashkilotlarining mulk shakli bo‘yicha tasnifi



12.1-rasm. Xizmat ko‘rsatish turlari

12.1-jadval

Jahonda inson kapitalining ahamiyati

Mamlakatlar	Inson kapitali qiymati, mlrd. AQSh dollari	Milliy boylikda inson kapitalining ulushi, %	Milliy inson kapitalining jahon inson kapitali jamlanmasidagi ulushi, %
AQSh	99,0	77,0	26,0
Rossiя	30	50,0	8,0
Xitoy	25,0	77,0	7,0
Braziliя	9,0	74,0	2,0
Hindiston	7,0	58,0	8,0

Ijtimoiy soha tarmoqlari

Ijtimoiy soha xizmat iqtisodiyotining ilmiy yo‘nalish sifatidagi asosiy vazifasi quyidagilardan iborat:

• iqtisodiyot va jamiyat ijtimoiy hayotini tadqiq etish;

• iqtisodiyotning ijtimoiy jarayonlar rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatadigan mexanizmlarini aniqlash;

• ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar tizimida insonning tutgan o‘rniga aniqlik kiritishdir. Ijtimoiy soha iqtisodiyotining ilmiy yo‘nalishlari.

Ijtimoiy soha xizmatlari iqtisodiyoti aholini ijtimoiy muhafaza qilish kontseptsiyasining mikro- va makroiqtisodiyot bilan bog‘liq ikki xususiyatiga ega. Bir tomondan, bu aholining o‘zini-o‘zi ta’minlash uchun shartsharoit yaratishni, ikkinchi tomondan, o‘zining tirikchiligini ob’ektiv ravishda yo‘lga qo‘yishga qodir bo‘lmaganlarga yordam ko‘rsatishni nazarda tutadi.

Bilimga asoslangan talim xizmatlarining iqtisodiyotining tarkibiy qismlari Bilimlar (talim) iqtisodiyoti nazariy va amaliy jihatdan sifatli talim kursatib jamiyat a’zolari faoliyatini “moddiy iqtisodiyot”dan “intellektual iqtisodiyot”ga o‘tishni taqozo etadi.

Talim xizmatlari mamlakatlar rivojlanishi darajasiga muvofiq iqtisodiy usishni taminlaydi.

Bunda sanoat ishlab chiqarish va fan-texnika taraqqiyotini, shuningdek, yuqori fan sig‘imiga ega tarmoqlar, shu jumladan axborot texnologiyalari, ayniksa raqamli iqtisodiyotni rivojlanishin taminlaydi.

Ta’lim xizmatlari deyilganda, insonning, davlat, jamiyat va boshqa bilim olish istagidagi sub’ektlarning bilimga bo‘lgan, uzoq muddatga mo‘ljallangan ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan, naf keltiradigan xizmat jarayoni bilan bog‘liq ongli faoliyati tushuniladi

Bilimga asoslangan talim xizmatlari iqtisodiyotning tarkibiy qismlari

Bilimlarga asoslangan iqtisodiyot

Hozirgi davrda bilim asoslangan talim xizmatlari iqtisodiyotida uch asosiy tarkibiy qismda namoyon bo‘ladi.

Ular quyidagilardan iborat:

- innovatsion ilmiy tadqiqotlar va tajribakonstruktorlik ishlanmalari;
- inson kapitalini yangi asnoda shakllantirib rivojlan-tiradigan ta’lim darajasi;
- axborot va kompyuter texnologiyalari.

Biror-bir davlatning bilimga asoslangan talim xizmatlari iqtisodiyotini aniqlashda quyidagi mezonlar ajratib ko‘rsatiladi:

- iqtisodiyotning yuqori texnologiyaga asoslangan sektorining rivojlanish darajasi;

talimning sanoatdagi ulushi (salmog‘i);

Bilim, fan, ilmiy tadkikot natijalarining innavatsion maxsulot yaratishdagi ulushi.

- Bilimga asoslangan iqtisodiyot tizimi;
- Bilimga asoslangan talim xizmatlari iqtisodiyot tizimi.

Taraqqiyotning hozirgi bosqichida iqtisodiy rivojlanish bosqichlarini shakllantirishda inson kapitali – uning bilimi, intellekti, malaka darajasi asosiy omilga aylangan. Rivojlangan davlatlar jahonda inson kapitalining asosiy salmog‘iga egalik qiladi. Ular investitsiyalarining asosiy ulushini ham bevosita inson kapitaliga yo‘naltirmoqdalar.

Iqtisodiy rivojlanishning sanoat rivojlanishi, sanoat rivojlanishidan keyingi bosqichlari, ayniqsa, innovatsion bosqichi inson kapitali ahamiyatini beqiyos oshirib yubordi.

Hozirgi davrda inson kapitali tushunchasi iqtisodiy rivojlanish intensiv ishlab chiqarishining bosh omili, mehnat resurslarining bilimli qismi, intellektual va boshqaruv mehnatini qamrab olgan. Inson kapitali kontseptsiyasi XVII asrda paydo bo‘lgan deb hisoblansa ham uning zamonaviy talqinlari T. Shults va G. Bekker nomlari bilan bog‘liq.

Teodor Uilyam Shults (ingl. Theodore William Schultz, 1902–1998) – amerikalik iqtisodchi, “rivojlanayotgan mamlakatlardagi iqtisodiy rivojlanish muammolari tadqiqotlari uchun” 1979 yilgi Nobel mukofoti laureati.

Geri Stenli Bekker (ingl. Gary Stanley Becker, 1930 yilda tug‘ilgan) – amerikalik iqtisodchi, “mikroiqtisodiy tahlil sohasini insonning qator xususiyatlariga qo‘llash uchun” 1992 yilgi Nobel mukofoti laureati.

Bilimlarni yaratish va ulardan foydalanish ta’lim tizimlariga bog‘liqdir. Har bir mamlakatda tarixiy an’analar, iqtisodiy imkoniyatlar, mehnat bozorining talabidan kelib chiqqan holda o‘z ta’lim tizimi shakllantirilgan. Ayni paytda umuman, jahonda ta’lim xizmatlarining uch - Yevropa, AQSh va Osiyo modellari farqlanadi.

1. Ta’lim xizmatlarining Yevropa modeli uchun boshlang‘ich maktabdan boshlab o‘quvchilarga yuksak talab, ularga fundamental bilimlar, shu jumladan, tabiiy va muhandislik sohasida chuqur bilimlar berish xos. Mazkur modelda maktabgacha ta’lim ko‘zda tutilgan. Boshlang‘ich va o‘rta maktablarda o‘qitish odatda 10-12 yilni tashkil etadi va umumiy hisoblanadi. Ta’limning navbatdagi bosqichlari kasbiy, oliy ta’lim va oliy ta’limdan keyingi ta’limdir. Ta’limning barcha darajalari davlat tomonidan tartibga solinadi.

2. Ta’lim xizmatlarining Amerika modeli ta’limni moliyalash-tirishda davlatning faol ishtirok etishi bilan birga bu ishda xususiy biznesning salmog‘i kattaligi bilan ajralib turadi. Maktablar munitsipial organlar tasarrufida bo‘lib, davlat va xususiy oliy o‘quv yurtlari deyarli tengdir.

Mamlakatda boshlang‘ich va o‘rta ta’lim bepul, oliy ta’lim, asosan, pullikdir. Shu bilan birga studentlar oliy ta’lim olish uchun to‘lovlarni amalga oshirishda grantlar va kreditlarning keng tizimdan foydalana oladilar.

Amerika Qo‘shma Shtatlarida boshlang‘ich va o‘rta umumiy ta’lim mamlakat shtatlaridagi qonunchilikka muvofiq 8–10 yilni tashkil etadi.

3. Ta’lim xizmatlarining Osiyo modeli. Qator nufuzli tashki-lotlar, xususan, Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti ekspertlarining fikricha, mazkur model, jumladan Yevropa ta’lim tizimiga qaraganda mukammalroqdir.

Masalan, AQShda yuzlab litseylar matematika fanini o‘qitishda Xitoy va Singapur dars-liklaridan foydalanish hamda ularning mashg‘ulotlarni o‘tkazish uslubiyotiga o‘tishga qaror qilgan.

Ta’lim tizimining Osiyo modeli quyidagilar bilan farq qiladi:

• boshlang‘ich umumta’limga alohida e’tibor (ko‘pgina mamla-katlar, xususan, Yaponiya va Janubiy Koreyada boshlang‘ich maktablar olti yillikdir); ,

• o‘quvchilarda ijodiy, o‘ziga xos fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish (masalan, Singapurda boshlang‘ich maktab o‘quvchilari egallashlari kerak bo‘lgan yetti fazilatdan biri – “fikrlash va o‘z fikrini bayon qilish”, “atrofdagi narsalarga jonli qiziqish bildirish” hisoblanadi);

• ta’lim muassasalari, shu jumladan boshlang‘ich maktablarni kompyuterlashtirish va Internetga ulash (Janubiy Koreya Singapurdan keyin jahonda ikkinchi bo‘lib hamma, hatto olis qishloqlar va orollardagi maktablarini Internetga ulagan. Bu ta’lim darajasini oshirish bilan birga darsliklar, o‘quv qo‘llanmalari nashr etish uchun xarajatlarni qisqartirishdan iborat iqtisodiy samara ham keltirdi);

• aholi barcha qatlamlari uchun ta’lim barcha darajalaridan foydalanish imkoniyati (shu tufayli Janubiy Koreyada eng yuksak natijaga – 25–37 yoshdagi fuqarolarning 97,0 %i oliy ma’lumotga ega bo‘lishi ta’minlandi);

• xususiy kapitalning ta’lim muasssasalarini moliyalashti-rishda faol ishtirok etishi (Janubiy Koreyada maktabgacha tarbiya muassasalari xarajatlarining 50,0 %, oliy ta’limning 80,0 % xususiy manbalardan moliyalashtiriladi).

Jahon tiklanish va taraqqiyot banki tomonidan 192 mamlakatda o‘tkazilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra, hozirgi davrda iqtisodiy o‘sishning 16,0 %i jismoniy kapital (ishlab chiqarish vositalari, infratuzilma va h.k), 20,0 %i tabiiy resurslar ta’minlaydi. Qolgan 64,0 %i inson omili, birinchi navbatda bilim va malaka darajasi ulushiga to‘g‘ri keladi.

Jahon mamlakatlarida iqtisodiy o‘sishni ta’minlashda inson omili – bilim va malakaning salmog‘i (umumiy ko‘rsatkichga nisbatan % hisobida)

Hozirgi davrda jahonning deyarli barcha mamlakatlarida ta’limni rivojlantirishga e’tibor ortgan. Bundan 100 yil muqaddam ta’lim uchun davlat xarajatlari yalpi ichki mahsulotining 1,0 %ni tashkil etardi. Hozirga vaqtda esa bu ko‘rsatkich 5,1 %ga yetdi. Natijada dunyoda boshlang‘ich ta’limga ega bo‘lganlar soni jami aholining 94,0 %iga yetdi.

Uzbekistonda talim ulushi 34,5%dan iborat

Ijtimoiy soha tarixi

Ijtimoiy soha tarmoqlari shakllanishi va tadrijiy rivojlanishi o‘z tarixiga ega. Azal-azaldan bilim berish, nogironlar, nochor shaxslar, yetimlarga yordam ko‘rsatish faqat oilalar, qabilalarnigina emas, shuningdek, davlat va diniy tashkilotlarning ham zimmasida bo‘lgan. Davlat tomonidan ta’lim muassasalari, harbiylar va keksa kishilar uchun kasalxonalar ochilgan. Diniy tashkilotlar ham o‘z mablag‘lari hisobiga cherkov maktablari va madrasalar, nogironlar, yetimlar uchun kasalxonalar tashkil etgan.

Yevropada ijtimoiy sug‘urta tashkilotlari O‘rta asrlarda shakllana boshlagan. Hunarmandlar uyushmalari o‘zaro yordam jag‘armalari va jamiyatlari tashkil etishgan, ularga a’zo bo‘lgan va muayyan miqdorda badal to‘laganlar betob bo‘lgan yoki jarohatlangan hollarida bu

jamg‘arma va jamiyatlardan moddiy yordam olish huquqiga ega bo‘lganlar.

Angliyada kambag‘allar to‘g‘risida 1388 yilda birinchi qonun qabul qilingan, 1601 yilgi qonunga binoan esa nochor fuqarolarga yordam ko‘rsatish tizimini shakllantirishga kirishilgan. Bunday yordam ko‘rsatish cherkovlar zimmasiga yuklangan.

Iqtisodiyotni industrlashtirish yangi ommaviy ijtimoiy qatlam – manufaktura, zavod va fabrika ishchilarini paydo qildi. Ularning yakkayu yagona daromadi ish haqi bo‘lib, bu ishchilar mehnat qobiliyatini yo‘qotganlarida tirikchilik vositasidan to‘la mahrum bo‘lar edi. Shuning uchun korxonalar ishchilarining o‘zlari o‘zaro yordam jamg‘armalari va jamiyatlarini tashkil etdilar. Mazkur tashkilotlar bemor, jarohatlangan ishchilarga moddiy yordam ko‘rsatish bilan birga asta-sekin o‘z tibbiyot muassasalarini tashkil qilishga ham kirishdilar.

Industrlashtirish va aholining ijtimoiy harakatchanligining ortishi davlatning ijtimoiy ta’minot va ijtimoiy xizmat ko‘rsatishdagi ishtirokini kengaytirishni talab etdi. 1834 yilda Angliyada jahonda birinchi marta kam ta’minlangan fuqarolarga davlat nafaqalari to‘lash yo‘lga qo‘yildi. Umuman, bu davrga kelib ushbu davlatlarda majburiy ijtimoiy sug‘urtalash tizimi shakllana boshladi. Ana shunday tizim XIX asrning 80-yillarida Germaniyada yaratildi. Bu davlatda 1883 yilda kasallanishdan, 1884 yilda baxtsiz hodisalardan, 1889 yilda nogironlik va qarilikdan sug‘urtalashga doir qonunlar qabul qilindi.

Ijtimoiy soha xizmatlari iqtisodiyoti asoslari soha iqtisodiyotining bosh maqsadi insonning erkin rivojlanishini, har bir fuqaro va umuman, mamlakat butun aholisining munosib turmush darajasi va turmush sifatini ta’minlashdan iborat. Bunday maqsadga erishish vositasi fan va texnikaning so‘nggi yutuqlari hamda inson omilidan samarali foydalanish hisobiga jo‘shqin rivojlanayotgan milliy iqtisodiyot hisoblanadi.

Ijtimoiy soha iqtisodiy funktsiyasi esa shaxs, oila va jamiyatning moddiy va ma’naviy o‘sishini ta’minlaydigan resurs bazasi sifatida, barcha iqtisodiy bosqichlarda kerakli shartsharoitlarni ta’minlashdan

iborat bo‘lib, aholini maqsadli ijtimoiy muhofaza qilish tizimi sub’ektlarining unumli faoliyatini taqozo etadi.

Aholi turmush darajasini oshirish samarali ijtimoiy siyosatning maqsadi ekanligi. Asosiy yo‘nalishlari, ijtimoiy sohada davlat boshqaruvining shakllari va ulushi. Daromadlar siyosati va aholi turmush darajasini o‘stirish. Kuchli ijtimoiy siyosat mexanizmining va kam ta’minlangan aholini ijtimoiy himoyalash tizimining shakllanishi va rivojlanishi. Davlatning ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat va sport sohalaridagi siyosatining maqsadlari va ularni amalga oshirishning yo‘nalishlari.

Insonning ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlari uning manfaatlarida namoyon bo‘ladi. Jamiyat, shu jumladan iqtisodiyot rivojlanishi uchun inson, jamiyat, davlat manfaatlarining mushtarakligini hamda ular o‘rtasidagi nisbatlarning uyg‘unligini ta’minlash zarurdir. Turli nazariyalarda bu borada turlicha yondashuvlar mavjuddir. Neoklassik nazariyada shaxs manfaati asosiy va belgilovchi xisoblanadi. V.Pareto, A.Bergson va P.Samuelsonlar jamiyat manfaatini shaxslar manfaatlarining majmuasi deb tariflaganlar. Iqtisodiy sotsiodinamika nazariyasiga ko‘ra shaxs va jamiyat manfaatlari komplementar, yani o‘zaro teng, bir-birini to‘ldiruvchi.

Bozorda xar bir subekt o‘z shaxsiy manfaatini ko‘zlaydi. Jami talab individual va ijtimoiy naflilik tasirida shakllanadi. Davlat ilmiy-tadqiqot faoliyatini, ish o‘rinlarini yaratishni, madaniyatni, tashqi muhitni saqlash va rivojlantirishni moliyalashtirish orqali iqtisodiy o‘sishning sotsiodinamik multiplikatorini yaratadi.

Ijtimoiy soha rivojlanishining asosiy ko‘rsatkichlari insonning xar tomonlama rivojlanishi, hayot sharoitlarining yaxshilanishi, moddiy va ijtimoiy farovonligining oshishida o‘z ifodasini topadi. Bu ko‘rsatkichlarning umumlashtirilgan ifodasi sifatida inson potentsial(salohiyati) rivojlanishi indeksi qo‘llaniladi.

Inson potentsiali rivojlanishi indeksi(IPRI) kutilayotgan

umr uzoqligi, aholi jon boshiga xarid qobiliyati pariteti bo‘yicha AQSH dollarida YaIM va savodxonlik darajalarining o‘rtacha arifmetik

indeksi bilan o‘lchanadi. Jahon mamlakatlarining ijtimoiy- iqtisodiy rivojlanish darajalari ushbi indeks bilan ham o‘lchanadi.

Shuningdek, Ijtimoiy sohaning rivojlanishi aholi jon boshiga inson kapitali-davlat, korxona, shaxs tomonidan sog‘liqni saqlash, talim, ijtimoiy sohaning boshqa tarmoqlariga qilingan aholi jon boshiga investitsiyalar hamda aholi turmush darajasi va sifati ko‘rsatkichlari bilan o‘lchanadi.

Ijtimoiy soha aholi daromadlarini qayta taqsimlash, inflyatsiyani qisqartirish, kambag‘allikni qisqartirish, mintaqalararo ijtimoiy farqlarni bartaraf etish va boshqa ijtimoiy dasturlarni amalga oshirishni maqsad qilib qo‘ygan. Ijtimoiy dasturlarni bajarish innovatsion iqtisodiyotga o‘tish va ijtimoiy mehnat unumdorligining o‘stirilishiga bog‘liqdir.

12.2. Davlatning ijtimoiy siyosati: shakllari, xususiyatlari, asosiy yo‘nalishlari

Davlatning ijtimoiy siyosati deganda davlatning jamiyatdagi ijtimoiy muammolarning hal qilinishiga bo‘lgan munosabati,ijtimoiy infratuzilmalar samarali va bir maromda amal qilishini ta’minlashga qaratilgan kundalik davlat faoliyati,ijtimoiy ahamiyatga molik vazifalarni bajarilishini ta’minlanishidagi strategiya va taktik yondashuv nazarda tutiladi. Davlatning ijtimoiy siyosati bozor iqtisodiyoti sharoitida ijtimoiy sohani davlat tomonidan tartibga solishga yo‘naltiriladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ijtimoiy sohani davlat tomonidan tartibga solishning zarurati shu sohadagi bozor va bozor mexanizmi qondira olmaydigan shunday ijtimoiy ehtiyojlar mavjudligi bilan bog‘liqdir. Bundan tashqari, bozor pensiya yoshidagi kishilarning ijtimoiy himoyasiga, ishsizlarga, mehnat nogironlariga, tug‘ilgandan nogironlarga, ko‘p bolali oilalarga yordam berish kabi jamiyat xarajatlariga befarq. Bozor hattoki aholi daromadlari darajasini keskin tabaqalashuvining o‘sishiga sabab bo‘ladi va mavjud tarixiy madaniy qadriyatlarga bozor befarqlik bilan qaraydi.

Davlat ijtimoiy siyosati orqali ijtimoiy sohani tartibga solishda asosiy qonunchilik aktlari, byudjet-kredit va soliq shakllari, ijtimoiy sohaning bir qismini, ya'ni davlatga tegishli bo'lgan korxona va tashkilotlarni to'g'ridan-to'g'ri boshqarish kabi usullardan foydalaniladi.

O'zbekistonda ijtimoiy sohani tartibga solishning quyidagi shakllari qo'llaniladi:

1) mulkchilik shaklidan qat'iy nazar ishchilar uchun eng kam ish haqi darajasi, pensiya, ish kunining davomiyligi, mehnat tatilining davomiyligi qonunda belgilash yo'li bilan tartibga solish;

2) byudjet xodimlari uchun va davlat tashkilotlaridagi ishchilar uchun mehnatga haq to'lash tizimi tariflarini o'rnatish;

3) pensiya, nafaqalar, stipendiyalar darajasini o'rnatish, urush va mehnat fronti qatnashchilari uchun imtiyozlar tizimini o'rnatish;

4) ishchilar uchun progressive soliq stavkalarini o'rnatish;

5) ijtimoiy soha tarmoqlari o'rtasida davlat byudjeti xarajatlari eng optimal proportsiyasini o'rnatish;

6) ko'proq ijtimoiy-zaruriy maxsulot va xizmatlarning yuqori narxlarini o'rnatish orqali aholi daromadlarini tartibga solish, inflyatsiya jarayonida esa pesionerlar, davlat ijtimoiy soha ishtirokchilari ishchilarining daromadlarini indeksatsiyalash.

O'zbekistonda mustaqillik e'lon qilingandan so'ng aholi turmush darajasini yuqori daraja ta'minlash, inson manfaatlarini ro'yobga chiqarish va uni har tomonlama rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish maqsadida ijtimoiy yo'naltirilgan barqaror bozor iqtisodiyoti, ochiq tashqi siyosatga ega kuchli demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati barpo etish maqsadida keng qamrovli islohotlar amalga oshirila boshlandi.Ushbu maqsadlarni amalga oshirish uchun O'zbekistonda mustaqillikning dastlab davridayoq davlat ijtimoiy siyosatining asoslari yaratilib, amalga oshirila boshlandi. O'zbekistonda ijtimoiy siyosat ustuvor yo'nalish hisoblanadi va u bosqichma-bosqich amalga oshiriladi.

O'zbekistonda ijtimoiy siyosatning o'ziga xos xususiyatlari mavjud bo'lib, ular quyidagilardan iboratdir:

Ijtimoiy siyosatni o‘tkazishda davlatning boshqarish funktsiyasiga egaligi;

Ijtimoiy islohotlarning bosqichma-bosqichligi;

Aholining yashash darajasini keskin tushib ketishiga yo‘l qo‘ymaslik;

Mahalliy o‘zini-o‘zi boshqarish idoralari mahallalar orqali aholiga aniq manzilli ijtimoiy yordam ko‘rsatish;

Ijtimoiy islohotlarning iqtisodiy va huquqiy asoslarini yaratish.

O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan ijtimoiy siyosatning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat qilib belgilangan:

Aholining iqtisodiy faolligini qo‘llab-quvvatlash;

Mahsulot, xizmat va uy-joyning kuchli ichki iste’mol bozorini shakllantirish;

Aholining to‘lov talablarini keng miqiyosda qondirish va uning o‘sishini ta’minlash;

Aholining daromad va mulkka egalik darajasining keskin tabaqalashuvining oldini olish;

Ijtimoiy xizmatlarga bo‘lgan zarur kafolatni ta’minlash.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiyiqtisodiy islohotlarning maqsadi va vazifalaridan kelib chiqqan holdadavlat ijtimoiy siyosati quyidagi asosiy yo‘nalishlarda olib borilmoqda:

Davlat ijtimoiy iste’mol fondlarini tashkil etish va ulardan jamiyatning har bir a’zosining foydalanishini
kafolatlaydigan qonunlarni qabul qilish;

Davlatning markazlashgan ijtimoiy sug‘urta fondini tashkil etish;

Ko‘rsatilgan xizmatlar va samarali mehnatlari uchun davlat tomonidan beriladigan imtiyozlar;

Ish haqi va pensiya minimumining davlat tomonidan kafolatlanishi;

Ko‘p bolali oilalarga to‘lanadigan nafaqalar;

Kam ta’minlangan aholi tabaqalariga moddiy yordam ko‘rsatish;

Bolalikdan nogiron va boshqa mehnat qobiliyatini yo‘qotganlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash;

Talabalar uchun to‘lanadigan davlat stipendiyalari;

Ishsizlik nafaqasi;

Eng muhim oziq-ovqat mahsulotlari turlarini belgilangan narxlarda sotilishini ta’minlash;

Ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan xizmatlar baholaridagi farqlarni byudjet hisobidan qoplash;

Ijtimoiy sohaning eng muhim tarmoqlari (sog‘liqni saqlash, ta’lim, jismoniy tarbiya, sport va madaniyat) moddiy bazasining rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash va mustahkamlash.

Demak, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tub demokratik islohotlar ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotiga asoslangan demokratik jamiyat barpo etishga qaratilgan. Buni ijtimoiy sohadagi islohotlarni amalga oshirish orqali ta’minlash mumkin. Chunki, har qanday jamiyatning rivojlanganlik darajasi ijtimoiy masalalarning qay darajada hal etilayotganiga bog‘liq. Ijtimoiy masalalar mamlakat taraqqiyotining muhim omili sifatida iqtisodiy rivojlanishga ta’sir etadi. Shuning uchun ham O‘zbekiston Respublikasida davlat ijtimoiy siyosati ijtimoiy islohotlarni davomli amalga oshirib borish orqali aholi turmush darajasini barqaror o‘stirib borishdan
iboratdir.

12.3. Iqtisodiy siyosatda ijtimoiy davlat tushunchasi va uning mohiyati. O‘zbekistonning ijtimoiy davlat sifatidagi iqtisodiy siyosati

Ijtimoiy davlat – mazkur sohaga ustuvorlik qaratiladigan, fuqarolar tengligi ta’minlanadigan, ularning tabaqalarga ajralishiga yo‘l qo‘yilmaydigan, umumiy farovonlik bo‘ladigan jamiyat demak. Ikkinchi jahon urushidan keyin ijtimoiy davlat rivojlanishining sifat jihatidan yangi bosqichi – uni konstitutsiyaviy tamoyilda qurish, davlatning alohida turi sifatida talqin qilish boshlangan. Urushdan ko‘p o‘tmay, ijtimoiy davlat konstitutsiyaviy tamoyil sifatida Yaponiya, Germaniya, Frantsiya, Italiya, keyinroq 70-yillarda Ispaniya, Portugaliya, Shvetsiya konstitutsiyalarida mustahkamlangan. Hozirgi vaqtda dunyoning barcha rivojlangan mamlakatlari u yoki bu darajada de-fakto ijtimoiy davlatlar hisoblanadi. O‘zbekiston Konstitutsiyasida

ham ijtimoiy tenglik va ijtimoiy adolat printsiplarini amalda ta'minlash bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

O'tgan besh yillikdagi Harakatlar strategiyasi barcha islohotlar bo'yicha ustuvor yo'nalishlarni bajarishga asos bo'lgan muhim hujjat sifatida tarixdan joy oldi. Parlamentimiz tomonidan so'nggi besh yilda aynan inson huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlariga, uning ijtimoiy ehtiyojlariga daxldor 158 ta qonun qabul qilindi, 14 ta xalqaro hujjat ratifikatsiya bo'lib, 5 ta xalqaro hujjatga qo'shildik. 2021-yil 1-apreldan boshlab kam ta'minlanganlarni ijtimoiy himoya qilishning yagona reestri axborot tizimiga kiritish orqali bolalar nafaqasi, moddiy yordam berish bo'yicha ro'yxatga olishning yangi mexanizmi joriy etildi. Ovoragarchiliklar, qog'ozbozliklarning oldi olindi. Yurtimizda ochiq siyosat yuritilib, ilk bor aholining kambag'allik darajasi tan olindi. Aytish kerakki, bu muammoni echish uchun Prezidentimiz tashabbusi bilan tizimli choralar ko'rilmoqda.

Muhim jihati, ijtimoiy himoya bo'yicha davlat boshqaruvi tizimida ham institutsional o'zgarishlar yuz berdi. Jumladan, alohida Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi, shuningdek, Tibbiy-ijtimoiy xizmatlarni rivojlantirish agentligi, Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi kabi ijtimoiy himoya tizimida alohida maxsus vakolatli davlat organlari tashkil etildi. Yana bir masala: nogironligi bo'lgan shaxslarga jamiyat va davlat hayotida to'laqonli ishtirok etish uchun keng va teng imkoniyatlar yaratildi. Davlatimizda nogironligi bo'lgan qariyb 1 millionga yaqin shaxsning huquqlarini bevosita ta'minlashga qaratilgan 35 ta normativ-huquqiy hujjat, jumladan, "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi qonun amaliyotga yo'naltirildi, BMTning Nogironlar huquqlari to'g'risidagi xalqaro konventsiyasi ratifikatsiya qilindi. Nuroniy va faxriylarimizni har tomonlama qo'llab-quvvatlash tizimi takomillashtirildi.

O'zbekistonda aholining qariyb 9 foizini keksalar tashkil etadi. Ularni moddiy qo'llab-quvvatlash va g'amxo'rlik ko'rsatish uchun mahalla darajasida tizim yaratilmoqda. Mamlakatimizda 376 ta davlat ijtimoiy muassasasi, shundan 52 tasi kattalar ijtimoiy tashkiloti sifatida

faoliyat yuritayotganini ta'kidlash lozim. Shu o'rinda mamlakatimizda ijtimoiy siyosat borasidagi barcha sa'yharakatlar BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlariga hamohangligini ta'kidlash mumkin. O'zbekistonda ijtimoiy himoya tizimining asosiy va kuchli tomoni insonning barcha faoliyatini qamrab oluvchi turli dasturlarning keng doirasi mavjudligidir. Bugungi islohotlar va o'zgarishlar haqida soatlab gapirish mumkin. Asosiysi, boshlangan keng qamrovli ishlarni, erishilgan natijalarni yanada yuqori sur'atda davom ettirishdir.

Prezidentimiz ta'kidlaganidek, "Inson qadrini ulug'lash, mehr va yordamga muhtoj aholini qo'llab-quvvatlash — davlatimiz ijtimoiy siyosatining muhim yo'nalishidir". Bunda, eng avvalo, ushbu masalalarning konstitutsiyaviy asoslarini takomillashtirish hal qiluvchi ahamiyatga ega. Qolaversa, Taraqqiyot strategiyasining to'rtinchi ustuvor yo'nalishi "Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish", deb nomlanib, bevosita ijtimoiy himoya masalalariga qaratilgan. Ijtimoiy davlat tushunchasi esa ayni shu loyihalarda o'z aksini topadi. Bu aholi farovonligi va fuqarolar tengligini kafolatlaydi. Demak, yuqoridagi keltirilgan ayrim raqamlar, ijtimoiy sohadagi islohotlar, ehtiyojmand aholining ijtimoiy muhofazasiga qaratilgan siyosat yurtimizda ijtimoiy davlatning poydevori yaratilganini ko'rsatib turibdiki, O'zbekiston de-fakto ijtimoiy davlat. endi uni de-yuro Konstitutsiyada mustahkamlab qo'yishga etarli darajada asoslar, faktlar, amaliy ishlar mavjud va bugun buning ayni vaqtidir.

Xo'sh, ijtimoiy davlat bizga nima uchun kerak, degan savol tug'ilishi tabiiy. Mazkur tizimda boshqaruvning ustuvor mohiyatida iqtisod yoki siyosat emas, balki inson manfaati, uning qadri turadi. Byudjet taqsimotida kambag'allarga yordam ta'minlanadi. Bunday davlatning asosiy xususiyati biznesni qo'llab-quvvatlash va kuchli iqtisodiyotni ta'minlash hisoblanadi. Sababi, biznes, ishlab chiqarishning rivojlanishi natijasida soliq tushumi hisobiga iqtisodiyot o'sadi, byudjet mablag'lari ko'payadi. Bu tarmoqda yangi g'oyalar amalga oshirilishiga va mablag'ning ijtimoiy sohaga yo'naltirilishiga yordam beradi. Shu bilan birga, bugun "ijtimoiy siyosat", "ijtimoiy himoya", "ijtimoiy kafolat" kabi tushunchalar mazmun-mohiyati

avvalgidan ancha kengaydi. Bosh qonunimizdagi ijtimoiy huquqlarni kengaytirgan holda, ular qatorida bolalar mehnatiga yo‘l qo‘ymaslik, nogironligi bo‘lgan shaxslar, keksa avlod vakillari, yoshlar, xotin-qizlar, migrantlar huquqlarini ishonchli himoya qilishga oid normalar o‘z ifodasini topishi maqsadga muvofiq.

Tayanch iboralar: ijtimoiy soha, ijtimoiy siyosat, ijtimoiy himoya, ijtimoiy kafolat, ijtimoiy davlat, ta’lim huquqi, inson kapitali, inson potentsiali rivojlanishi indeksi (IPRI), inson omili, yevropa modeli, Amerika modeli, Osiyo modeli, normativ tartibga solish, byudjet tizimi, ijtimoiy ta’minot, soliq siyosati, byudjet taqsimoti, narx siyosati, davlat boshqaruvining etakchiligi, bosqichma-bosqich islohotlar, ijtimoiy barqarorlik, mahallalar tizimi, huquqiy asoslar.

Nazorat va takrorlash uchun savollar

1. Ijtimoiy soha deganda nimani tushunasiz? Uning asosiy tarmoqlarini sanab o‘ting.
2. Ijtimoiy sohaning umumiy xususiyatlarini tushuntiring.
3. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 1-moddasiga ko‘ra davlatning qanday shakli belgilangan?
4. Konstitutsiyaning 50-moddasi nimaga bag‘ishlangan va uning mohiyati nimadan iborat?
5. Ijtimoiy soha muassasalari mulk shakli bo‘yicha qanday tasniflanadi?
6. Inson kapitali nima? Uning zamonaviy talqini kim nomlari bilan bog‘liq?
7. Teodor Shults va Geri Bekkerning iqtisodiyot fani rivojlanishidagi xizmatlari nimadan iborat?
8. Inson potentsiali rivojlanishi indeksi (IPRI) qanday hisoblanadi?
9. Jahon bo‘yicha iqtisodiy o‘sishda inson omilining ulushi qancha foizni tashkil qiladi?
10. Bilimga asoslangan iqtisodiyotning uchta asosiy tarkibiy qismini sanab o‘ting.

11. Bilimga asoslangan iqtisodiyotni aniqlashda qanday mezonlar qo‘llaniladi?

12. Ta’lim xizmatlarining Yevropa modelining asosiy xususiyatlari nimalardan iborat?

13. Amerika ta’lim modelining o‘ziga xos jihatlari qanday?

14. Ta’lim xizmatlarining Osiyo modeli qanday farq qiladi?

15. Osiyo modelida boshlang‘ich ta’limga nima uchun alohida e’tibor beriladi?

16. Qaysi mamlakatlarda ta’lim tizimining Osiyo modeli muvaffaqiyatli qo‘llanilmoqda?

17. Ijtimoiy soha tarmoqlarining shakllanish tarixini qisqacha bayon qiling.

18. Yevropa mamlakatlarida ijtimoiy sug‘urta tashkilotlari qachon va qanday shakllangan?

19. Angliyada kambag‘allar to‘g‘risidagi birinchi qonun qachon qabul qilingan?

20. Germaniyada majburiy ijtimoiy sug‘urtalash tizimi qachon va qanday yaratilgan?

XIII BOB. TABIIY RESURSLARDAN SAMARALI FOYDALANISH, ATROF-MUHITNI MUHOFAZA QILISH VA EKOLOGIK XAVFSIZLIK SIYOSATI

13.1. Respublikada tabiiy resurslardan samarali foydalanish va atrof muxitni muhofaza qilishning iqtisodiy siyosati.

13.2 Davlatning agrar iqtisodiy siyosati va uning asosiy yo‘nalishlari, bosqichlari.

13.3. Agrar sektorni davlat tomonidan tartibga solish va qo‘llab-kuvvatlashning shakllari, usullari, mexanizmlari va dastaklari (regulyatorlari) hamda O‘zbekiston Respublikasi agrar siyosatining asosiy bosqichlari.

13.4. Ekologik xavfsizlik bo‘yicha davlat iqtisodiy siyosati. O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish Strategiyasi, maqsad va vazifalari va uni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari.

13.5. Davlatning tabiatdan foydalanish vazifalari. Atrof muhit monitoringi. Ekologik standartlar.

13.1. Respublikada tabiiy resurslardan samarali foydalanish va atrof muxitni muhofaza qilishning iqtisodiy siyosati

Davlatning ekologik siyosatining shakllanishi.

- O‘zbekiston Respublikasidagi milliy monitoring tizimi uch turni o‘z ichiga oladi: sanitariya – gigiyena monitoringi, ekologik monitoring, iqlim monitoringi. Ularning funktsiyalari qo‘yidagilar: atrof muhit holatini kuzatish, holatini baholash, va bashoratlash.
- Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi tahliliy nazorat davlat inspeksiyasi hozirgi vaqtda respublikamizning havo muhiti, tuproq va ochiq suv havzalari yagona monitoring tizimini barpo etish ishlarini amalga oshirayotir. Uning asosiy faoliyati ifloslantirish manbalari monitoring dasturini amalga oshirishga yo‘naltirilgan.
- Monitoring tizimini yanada takomillashtirish uchun muntazam kuzatuvlarning texnologik darajasini takomillashtirish va monitoring tarmog‘ini kengaytirish lozim.

• Ekologik standartlar va normativlar. Har bir mamlakatda bo‘lgani kabi atrof muhitni muhofaza qilishning va tabiiy resurslardan foydalanishning standartlari va normativ huquqiy tizimi O‘zbekistonda ham yaratilgandir.

• Mazkur standart va normativlar atrof muhit sifatiga qo‘yilgan cheklashlar va talablarning o‘zaro bog‘liq kompleksi, shuningdek ishlab chiqariladigan mahsulot va xizmatlarning ishlab chiqarish texnologik va tashkiliy boshqaruv jarayonlariga talablar bo‘lib, ular vositasida aholi va ishlab chiqarishning ekologik xavfsizligi kafolatlanadi. Genetik fondni saqlash, iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ularni takror ishlab chiqarishni ta’minlash ham uning asosiy vazifalaridan hisoblanadi.

• O‘zbekistonda qabul qilingan standart va normativlarga quyidagilar kiradi:

• ifloslantirishning turg‘un va harakatdagi manbalari chiqaradigan ifloslantiruvchi moddalariga normativ va limitlar;

• zaharli chiqindilarning shakllanishi va joylashish normativi;

• suv olish va o‘rmondan foydalanish limitlari;

• bioresurslardan foydalanishga kvotalar;

• muhofaza qilinadigan hududlardan foydalanish va borib ko‘rish normativlari;

• yovvoyi o‘simlikni yig‘ish va hayvonlarni ovlash normativlari ;

• alohida xududlarda ifloslantiruvchi hamda zaharli moddalardan foydalanishni taqiqlash normalari

• “Tabiatni muhafaza qilish to‘g‘risida” gi qonunning oltinchi bo‘limi atrof muhit sifatini normativlar va standardlar bilan tartibga solishga bag‘ishlangandir. Shuningdek, O‘zbekston Respublikasi “Davlat sanitariya nazorati to‘g‘risidagi”gi qonunining qator moddalarida sanitariya normalari, qoidalari va gigiyena normatevlariga qo‘yiladigan talablar berilgan.

• Atrof muhitga ta’sirining yo‘l qo‘yish mumkin bo‘lgan eng yuqori darajasi normatevlarning iqtisodiy, ijtimoiy, rekrasiya, tabiiy muhitga fizik, kimyoviy, biologik, o‘zgarishlari ko‘rsatkichlarini

belgilashga asos bo‘ladi. Atrof muhit sifatiga ta’sirining yo‘l qo‘yish mumkin bo‘lgan normatevlari vakolatli davlat organlari tasdiqlagan texnik normalardir.

• Ekologik normatevlar ikki guruhga bo‘linadi:

1 sanitariya-gigiyena;

2 ishlab chiqarish-xo‘jalik;

3 Sanitariya-gigiyena normatevlari inson salomatligiga muvofiq keluvchi atrof muhit ko‘rsatkichlarini belgilaydi. U aholini sanitariya-yepedimologiya masalalarida xotirjamlikligini ta’minlash asosining tarkibiy qismiga kiradi. Bunda zaharli moddalar, radiaktev moddalar, hamda shovqinning yo‘l qo‘yish mumkin bo‘lgan normalarini belgilaydi.

4 Ishlab chiqarish-xo‘jalik normatevlari zararli ta’sir manbalarining zararli moddalar ni chiqarib yuborish va tashlash normatevlari bo‘lib, ular faoliyatining ma’lum boshlang‘ich holatini cheklaydi.

• Ishlab chiqarish-xujalik normativlari zararli ta’sir manbalarining zararli moddalarni chiqarish va tashlab yuborish normativlari bo‘lib, ular faoliyatini ma’lum boshlang‘ich holatini cheklaydi. Bu kategoriyaga atrof tabiiy muhitni muhofaza qilishning ekologik talablarnio‘z ichiga olgan texnologik, qurilish, shaharsozlik qoidalari kiradi. Yo‘l qo‘yilishi mumkin bo‘lgan chiqarmalar korxonalar, muassasalar, tashkiloklar bo‘yicha emas, balki inventarizasiya asosida tashlanmalar va chiqindilar manbalari bo‘yicha aniqlanadi, chunki bir korxonada bir nechta shunday manbalar bo‘lishi mumkin.

Tabiatni muhofaza qilish faoliyatini standartlashning uchta asosiy yo‘nalishi bor:

1 Atrof-muhitga yuqori ta’sir ekologik normativlarini belgilash. Atrof-muhitga ta’sir normativlari ta’sir manbalaridan atrof muhitga moddalar yoki energiyaning yo‘l qo‘yishi mumkin bo‘lgan shakldagi miqdorda tushishini belgilaydi; xududiy-mamuriy birliklar doirasida turli xujalik va boshqa obektlarning atrof muhitga umumiy ta’siri miqdori(atrof-muhitga ta’sirning xududiy normativlari).

2 Ekologik-tashkiliy standartlarni belgilash. Bu atrof-muhitni muhofaza qilishni tashkil etishga qo‘yiladigan asosiy talablarni ifoda itadi.

3 Ekologiya atamalarini standartlashtirish U yordamchi ahamiyatga ega bo‘lib, atamalarni talqinini o‘rnatishga imkon beradi, hamda yangi standartlarni ishlab chiqish va mavjutlaridan samarali foydalanishga imkon beradi.

• O‘zbekistonda standartlashtirish va normativlashtirish borasida qator tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bunda atrof muhit muhofazasi va tabiiy resurslardan samarali foydalanishga yo‘naltirilgan.

• O‘zbekistonda standartlashtirish va normativlash bo‘yicha asosiy organ davlat standartlashtirish va metrologiya qumitasi hisoblanadi. Tabiatni muhofazasi va tabiiy resurslardan samarali foydalanish sohasidagi standartlashtirish va metrologiyasi bilan Tabiatni muhofaza qilish Davlat qo‘mitasini “Davlat ixtisoslashgan tahlil nazorati inspeksiya”si shug‘ullanadi.

Tabiiy resurslari, tabiiy boyliklar — jamiyatning moddiy va ma’naviy ehtiyojlarini qondirish maqsadlarida (xo‘jalikda) foydalaniladigan hamda insoniyatning yashashi uchun zarur bo‘lgan, uni o‘rab turgan tabiiy muhitning barcha tabiat komponentlari, energiya manbalari majmuasi.

Tabiat resurslariga yer, suv, quyosh energiyasi, yerning ichki issiqligi, mineral boyliklar, foydali qazilmalar, o‘simliklar, tuproqlar, hayvonot dunyosi kiradi. Tabiat resurslari tugaydigan (ko‘pgina foydali qazilmalar), tugamaydigan (suv, havo, Quyosh nuri, Yerning ichki energiyasi) va tiklanadigan (biologik elementlar, ayrim foydali qazilmalar) boyliklarga bo‘linadi. Tabiiy xom ashyolarni ko‘p darajada iste’mol qiluvchi kuchlarning jadal rivojlanishiga bog‘liq ravishda tabiat resurslari bilan ta’minlash muammolari yanada dolzarblashib bormoqda. Tuproq, atmosfera va gidrosferaning ifloslanishiga qarshi kurashishda jahonning barcha mamlakatlari kelishib faoliyat yuritishlari zarur bo‘lib, tabiat resurslari muhofazasi global xarakterga ega bo‘lmoqda.

Tabiat resurslarini o‘zlashtirishning muhim bosqichlari — ularni aniqlash (razvedka qilish), o‘rganish, alohida turlari bo‘yicha kadastrlar (masalan, yer kadastri, suv kadastri) tuzishdan iborat.

O‘zbekiston Respublikasida tabiat resurslari kadastrlarini tuzish va yuritish O‘zbekiston Respublikasining “Davlat kadastrlari to‘g‘risida” qonuni (2000-yil, 15 dekabr)ga muvofiq olib boriladi.

Tabiiy resurslarini iqtisodiy siyeyosatini belgilashda baholash muxim xisoblanadi va uning ilmiy asoslangan 3 tipi mavjud: **texnologik, iqtisodiy, ijtimoiy (ya’ni, sotsial).** Tabiat resurslarini to‘g‘ri baholash ulardan foydalanishda eng yuqori samaralarga erishishning muhim sharti hisoblanadi. Inson tafakkuri o‘sishi bilan bog‘liq holda tabiat resurslari turlari ham kengayib bormoqda, bunda eng zamonaviy texnik vositalardan foydalaniladi. Ilmiy-texnik taraqqiyotni rivojlanib borishi bilan tugaydigan tabiat resurslari o‘rnini bosuvchi yangi sun’iy materiallar ishlab chiqarilmoqda, dunyo okeani boyliklari o‘zlashtirilmoqda.

Ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotning rivojlanishi yo‘lida tabiat resurslaridan samarali foydalanish va tabiatda ekologik muvozanatni ta’minlab turuvchi yangi sifatli texnologiyalarni yaratish talab etilmoqda. Xom ashyo va energiya manbalaridan rejali tarzda foydalanish uni uzoq muddatga yetishini ta’minlaydi.

Atrof-muhitni muhofaza qilish (yoki tabiatni muhofaza qilish, tabiatni muhofaza qilish) - inson faoliyatining atrof-muhitga (tabiatga) salbiy ta’sirini cheklash va uning buzilishining oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar majmui. Bunday choralar quyidagilar bo‘lishi mumkin:

- umumiy ekologik vaziyatni yaxshilash maqsadida atmosfera va gidrosferaga chiqindilarni cheklash;
- tabiat komplekslarini saqlash maqsadida qo‘riqxonalar, milliy bog‘lar yaratish;
- ba’zi turlarni saqlab qolish uchun baliq ovlash, ov qilishni cheklash.

Chiqindilarni cheklash. Atrof-muhitni muhofaza qilishning ilmiy asoslarini ekologiya o‘rganadi. Fan-texnika taraqqiyotining tabiiy muhitga (biosferaga) turli ta’sirini o‘rganish hozirgi zamonning eng

muhim muammolaridan biridir. Bunday tadqiqotlarning yakuniy maqsadi hozirgi va kelajak avlodlar farovonligi uchun atrofmuhitni muhofaza qilish va yaxshilashdir. Ekologik faollik (yekologik, ekologizm) atrof-muhitni muhofaza qilish choralarini kuchaytirishga qaratilgan ijtimoiy harakat. Faollar atrof-muhitning ifloslanishiga qarshi norozilik namoyishlarini uyushtiradilar va ba'zan ekologik xavfli iqtisodiy faoliyatni faol ravishda sabotaj qiladilar. Yeng radikal ekolog tashkilotlar (masalan, Yerni ozod qilish fronti) o'z faoliyatida ekoterrorizm usullariga ruxsat beradi.

"O'zbekiston — 2030" strategiyasi doirasida "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida..." belgilangan va amalga oshirilishi zarur bo'lgan Respublikada tabiiy resurslardan samarali foydalanish va atrof muhitni muhofaza qilishning iqtisodiy siyosatining asosiy yo'nalishlari quyidagilar xisoblanadi:

- atrof muhitning ifloslanish darajasini baholash mexanizmlarini takomillashtirish, atrof muhitni kuzatish, uning ifloslanish darajasini prognoz qilish tizimini rivojlantirish;

- yuqori samaradorlikka ega changgaz tozalash uskunalari va lokal suv tozalash inshootlarini o'rnatish hamda mavjudlarini modernizatsiya qilish, 14 ta ekologik toza hudud rejimini joriy qilish;

- atrof muhitga ta'sir xavfi yuqori daraja (I toifa)dagi obektlarning ifloslantiruvchi manbalaridan avtomatik ravishda namunalar olish tizimini tatbiq etish;

- qishloq xo'jaligi sohasida suv resurslaridan oqilona foydalanishni ta'minlash;

- ryespublikada suvdan oqilona foydalanish madaniyatini va suv ishlatish samaradorligini 25 foizga oshirish, qishloq xo'jaligi ekinlarini sug'orishda suv tejaydigan texnologiyalar bilan qamrab olingan yerlarning umumiy maydonini 2mln gektargacha, shu jumladan tomchilab sug'orish texnologiyasini 600 ming gektargacha yetkazish;

- tuproq qoplamali kanallarni beton qoplamaga hamda ichki sug'orish tarmoqlarining yopiq quvurli sug'orish tizimlariga o'tkazish bo'yicha yetti yillik dastur doirasida irrigatsiya tizimi va sug'orish

tarmoqlarining foydali ish koyeffitsiyenti ko‘rsatkichini 0,73 gacha yetkazish;

- Uzoq muddatga mo‘ljallangan respublikaning suv resurslari balansini ishlab chiqish va uning ustidan doimiy monitoring o‘rnatish tizimini joriy qilish;

- Suvni qayta ishlash, yetkazish va taqsimlash tizimiga xususiy sektorni jalb etish, dalalarga suv yetkazadigan obektlarni tadbirkorlar (fermer xo‘jaliklari va klasterlar) boshqaruviga berish;

- qo‘shni davlatlar bilan suv resurslarini integrallashgan holda boshqarish, transchegaraviy suv resurslari va davlatlararo suv xo‘jaligi obektlaridan birgalikda foydalanish masalalarida faol ikki taraflama manfaatli hamkorlikni davom ettirish;

- Barcha ichimlik suv iste’molchilariga hisoblagichlar o‘rnatishni ta’minlash;

- Ichimlik suv sifati, ichimlik suv bilan ta’minlanganlik darajasi, suv ta’minoti va kanalizatsiya korxonalari samaradorlik ko‘rsatkichlarini joriy etish;

Cho‘llanish, qurg‘oqchilik qarshi iqtisodiy siyosat:

- kuchli va o‘rta sho‘rlangan sug‘oriladigan yer maydonlarini 430,0 ming gektargacha, yer osti suv sathi muammoli holatda bo‘lgan yer maydonlarini 773,4 ming gektargacha kamaytirish;

- o‘rmon fondining tog‘ va tog‘oldi hududlari plantatsiyalarini barpo qilish, cho‘l hududlarida o‘simliklarni ko‘paytirish, hududlarda himoya o‘rmonzorlarini barpo etish;

- o‘rmon xo‘jaliklari va milliy tabiat bog‘lari, tog‘li va cho‘l hududlari hamda suv obektlarining suvni muhofaza qilish zonalarida ekoturizm, tog‘, ov va safari turizmini joriy qilish;

- ryespublikada o‘rmon bilan qoplangan maydonlarni 6,1 million gektarga yetkazish, daraxt va buta urug‘lari tayyorlashni 840 tonnaga oshirish;

- Orolbo‘yi mintaqasidagi o‘rmonzorlarni 2,3 million gektarga yetkazish;

- Orol dengizining qurigan tubida qo‘shimcha 600 ming gektar yashil maydonlarni barpo etib, ularning umumiy hajmini 2,6 million gektarga yoki hududning 80 foiziga yetkazish;

- cho‘llanish, qurg‘oqchilik, chang-qum bo‘ronlari va haroratning ko‘tarilishiga qarshi chora sifatida jami 600 ming gektar maydonda “yashil qoplamalar” — himoya o‘rmonzorlarini barpo etish;

- suvsizlik va qurg‘oqchilikka chidamli, har bir hududning iqlimiga mos ekinlar, meva va uzumning yuqori hosildor navlarini yaratish va hosildorlikni 30 — 35 foizga oshirish;

- muhofaza qilinadigan tabiiy hududlarni 12 foizgacha kengaytirish, 2 million gektar hajmda tabiiy yaylovlarva pichanzorlar o‘simliklarini biobotanik tekshirishni har yili amalga oshirish;

- qattiq maishiy chiqindilarni to‘plash va olib chiqish xizmatlari bilan qamrab olish darajasini 100 foizga, chiqindilarni qayta ishlash darajasini 65 foizga oshirish;

- kuydiriladigan chiqindilar ulushini 35 foizga yetkazish, maishiy chiqindi poligonlarini kamida 50 foizga qisqartirish;

- atrof-muhitga ta’siri bo‘yicha I va II toifaga kiruvchi xo‘jalik yurituvchi subektlardagi ifloslantiruvchi texnologiyalarni to‘liq modernizatsiya qilish, 249 ta sanoat korxonalarida lokal oqova tozalash inshootlarini qurish va rekonstruksiya qilish.

13.2. Davlatning agrar iqtisodiy siyosati va uning asosiy yo‘nalishlari, bosqichlari

Davlatning iqtisodiy siyosati uning strategik vazifalaridan kelib chikib jamiyatda ishlab chiqarish, daromad va ne’matlarni taksimlash jarayonlarini tartiblash uchun davlat tomonidan joriy davr ichida qo‘llaniladigan chora-tadbirlar tizimini ifodalaydi.

Davlatning iqtisodiy siyosati uz ichiga tashqi iqtisodiy, tarkibiy-investitsiyaviy, institutsional, agrar, sanoat, ijtimoiy, narh moliyaviy, soliq-byudjet, pul-kredit, hududiy (mintakaviy) siyosatlarni oladi.

Agrar iqtisodiy siyosat - iqtisodiy siyosatning tarkibiy qismlaridan biri bo‘lib, u qishloq xo‘jaligi va unga bog‘liq xo‘jalik soxdlarini kamrab oladi, mamlakat oziq-ovqat xavfsizliginiva aholini oziqovqat

mahsulotlari bilan ta’minlashni yaxshilash, agrar sektor ishlab chiqarishining samaradorligini oshirish, qishloqlarni obod etish asosida qishloq aholisining daromadlari va turmush darajasini yuksaltirish vazifalarining amalga oshirilishini kuzda tutadi.

Agrar siyosatni agrar iqtisodiyot soxdsida eng ta’sirchan shakl va usullar orqali yuz beradigan iqtisodiy jarayonlarning o‘zaro ta’siri orqali amalga oshuvchi agrar sektorda xo‘jalik-moliyaviy va ijtimoiyiqtisodiy shart-sharoitlarni yaratishga karatilgan davlatning faoliyati sifatida belgilash mumkin.

Davlatning agrar iqtisodiy siyosati qishloq xo‘jaligi va hududlarini barqaror rivojlantirishga karatilgan davlat ijtimoiy-iqtisodiy siyosatining tarkibiy qismi bo‘lib xisoblanadi.

Agrar iqtisodiy siyosat uzida qishloq axolisining moddiy, ijtimoiy, xukukiy va iqtisodiy shartsharoitlarini shakllantiradigan davlat faoliyatini kamrab oladi. Agrar bozor, investitsiya, kredit, moliya, ilmiy texnikaviy va texnologik faoliyat, soliklar va solikka tortish, ijtimoiy muhit, maqsadli va tarkibiy kayta shakllanish agrar siyosatning asosiy soxalaridir.

Agrar siyosatning umumiy maqsadi muayyan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, hududiy, tarmok, ekologik maqsadlar bilan tavsiflanadi. Davlat rivojlanishi bosqichlari va tabiiy-tarixiy sharoitlarga bog‘liq ravishda anik maqsadlar o‘zaro nisbati uzgaradi (2.2-rasm).

Davlat agrar siyosatining asosiy maqsadlari quyidagilar:

- qishloq xo‘jaligi mahsulotlari va tovar ishlab chiqaruvchilar rakobatbardoshligini oshirish, oziq-ovqat mahsulotlari sifatini ta’minlash;

- qishloq hududlari barqaror rivojlanishini, qishloq axolisi bandligini ta’minlash, ularning turmush darajasini, shuningdek qishloq xo‘jaligida band bo‘lganlarning ish xakini oshirish;

- qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi extiyojlari uchun qo‘llaniluvchi tabiiy resurslarni takror ishlab chiqarish va asrab avaylash;

- qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari daromadliligi oshishini va shu bozorlar infratuzilmasi rivojlanishini ta’minlovchi

xomashyo, qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat mahsulotlari samarali faoliyat yurituvchi bozorlarini shakllantirish.

Davlat agrar siyosatining asosiy yo‘nalishlari:

- oziq-ovqat tovarlari bilan axolini barqaror ta’minlash;

- qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat mahsulotlari, xomashyo bozorlarini shakllantirish va tartibga solish, uning infratuzilmasini rivojlantirish;

- qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilarini davlat qo‘llab-kuvvatlashi;

- ichki va tashqi bozorda qishloq xo‘jaligi tovar mahsulotlarini ishlabchiqaruvchilar iqtisodiy manfaatlarini ximoya kilish; agrosanoat majmuasi soxasida fanni va innovatsion faoliyatni rivojlantirish;

- qishloq hududlarini barqaror rivojlantirish; qishloq xo‘jaligi uchun mutaxassislarni o‘qitish, tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini takomillashtirish.

Agrar siyosat negizida agrar konunchilik va agrar tarkib shakllanadi. Agrar konunchilik - qishloq xo‘jaligida va qishloq axolisi xayoti bilan bog‘liq xolda amalga oshayotgan jarayonlarga ta’sir utkazuvchi xuquqiy me’yorlardir. Yerga egalik munosabatlari, kredit va solikka tortish, mexnat munosabatlari, mulkiy munosabatlar, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish, taksimlash, ayirboshlash va iste’moli yuzasidan vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlar, ijtimoiy ta’minot va boshkalar agrar konunchilikning muxim soxalariga kiradi: Agrar tarkib - agrar qonunchilikka asoslangan, qishloq xo‘jaligi rivojlanishi, axolining yashash va ishlash sharoiti xususiyatlari xisobga olingan, ishlab chiqarish omillariga bog‘liq agrar soxaning iqtisodiy, texnik va ijtimoiy unsurlari yigindisidir. U mutlaq va nisbiy ko‘rsatkichlarda ifodalanadi. Agrar siyosatning asosiy vazifasi - agrar soxadagi jarayon va karashlarni aks ettiribgina kolmasdan, balki kishilarning shu soxadagi karashlari, jarayonlari va konunlari tizimidagi faoliyatini ochib berishdir. Uning vazifalariga kuyidagilar kiradi: agrar siyosatning tarixiy, xukukiy va institutsional asoslari zamonaviy agrar iqtisodiyot mamlakatimiz iqtisodiy xayotida muxim urin tutadi. Uning rivojlanish xolati doimiy e’tiborga molikdir. Mustaqillikning dastlabki

yillaridan boshlab O‘zbekiston agrar siyosatning tarixiy asoslari quyidagilardan iborat:

- birinchidan, kup yillar davomida yerga nisbatan davlat mulki munosabatlari xukmronlik kilgani va kishilarda eskicha fikrlashning xukmronlik kilishi iqtisodiy islohatlarni amalga oshishiga salbiy ta’sir ko‘rsatdi;

- ikkinchidan, qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishiga fan-texnika yutuklarini qo‘llash va uni amalga oshirishning qiyinlashib qolganligi;

- uchinchidan, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida keragidan ortiqcha mexnat resurslarining yig‘ilib qolganligi, ularni bushatish va boshqa ish bilan ta’minlash xukumat oldiga yana bir ulkan muammoni qo‘yganligi;

- turtinchidan, qishloq xo‘jaligi texnikalarining eskiligi va tarmokda mexanizatsiyalashtirish darajasining pasayib ketganligi, yangi texnika sotib olish va ishlab chiqarishga jalb kilish kimmatligi va ishlab chiqaruvchilarda buning uchun kerakli mablagning yukligi.

Agrar siyosatning asosiy vazifasi bu kabi muammolarga imkon kadar tezrok barham berish va iqtisodiy islohatlarning samarali amalga oshirilishiga erishishdir. Shu maqsadda keyingi yillarda mamlakat agrar tarmogini rivojlantirish uchun bir qator tadbirlar amalga oshirildi. Ular ichida eng muximlaridan biri mamlakat agrar siyosatining xukukiy asoslari yaratildi. O‘zbekiston agrar siyosatining xukukiy asoslarini quyidagilar tashkil etadi:

- O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi;
- Yer Kodeksi;
- Mexnat Kodeksi;
- Fermer xo‘jaligi to‘g‘risidagi qonun;
- Dexqon xo‘jaligi to‘g‘risidagi qonun;
- Qishloq xo‘jalik kooperativlari (shirkat xo‘jaligi) to‘g‘risidagi konun;
- Qishloq xo‘jaligini rivojlantirish, undagi ishlab chiqarish, moliya, solik, kredit va boshka munosabatlarni takomillashtirish borasidagi konunlar, farmonlar, karorlar, me’yoriy xujjatlar va boshka konunosti xujjatlari.

Institutsional o‘zgarishlar - texnika tarakkiyoti, mulkchilik munosabatlarining uzgarishi, milliy iqtisodiyotni boshkarishning tashkiliy tuzilishini ya’ni, bozorga xos yangi muassasalarni yaratish va rasmiy normalarning kabul kilinishidir.

Shu nuqtai nazardan, agrar islohatlarning institutsional asosi yangi iqtisodiy institutlarning-mulk, ishlab chiqarish va boshqarishning iqtisodiy – xuquqiy shakllarining, moliyaviy institutlarva bozor infratuzilmasining qaror topishi hisoblanadi.

Tanlangan yul asosida O‘zbekistonda agrar soxani rivojlantirishning asosiy vazifalari belgilab olindi va qishloq xo‘jaligida iqtisodiy islohatlarni yanada chuqurlashtirish, soxani barqaror rivojlantirishga karatilgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmon va qarorlari, Davlat dasturlarida belgilangan tadbirlarning ijrosini tashkil etish, ularning uz muddatlarida va tulaqonli bajarilishini ta’minlash maqsad qilib qo‘yilgan.

1 Tizimdagi korxonalarni modernizatsiyalash va maxalliylashtirish, sifat va narxlar borasida rakobatbardosh sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish xajmlarini kengaytirish, eksport saloxiyatini oshirish yuli bilan ularning barqaror ishlashini ta’minlash masalalari buyicha;

2. Eksport mahsulotlari ishlab chiqarish va ularni xorijga sotish kulamini oshirish, import xajmini optimallashtirish masalalari buyicha;

3 Xorijiy investitsiyalarni jalb etish, ulardan maqsadli foydalanish va loyixalar monitoringini tashkil etish masalalari buyicha;

4 Qishloq xo‘jaligida amalga oshirilayotgan tarkibiy uzgarishlar jarayonida Korakalpogiston Respublikasi Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi, viloyatlar Qishloq va suv xo‘jaligi boshkarmalari hamda tumanlar Qishloq va suv xo‘jaligi bulimlari faoliyatini takomillashtirish masalalari buyicha;

5 Qishloq infratuzilma obektlari faoliyatini rivojlantirish hamda fermer xo‘jaliklari Bilan ta’minotchi, xizmat ko‘rsatuvchi, tayyorlov idoralari urtasida shartnoma majburiyatlarining bajarilishi ustidan monitoring yuritish masalalari buyicha;

6 Suv tankisligining salbiy ta’sirini yumshatish, suv resurslarini okilona boshkarish va suvdan samarali foydalanish hamda tomchilatib sug‘orish tizimini tashkil kilish masalalari buyicha;

7 Paxtachilik, g‘allachilik va moyli ekinlar masalalari buyicha;

8 Sabzavot, poliz, kartoshka, meva va uzum mahsulotlarini yetishtirish, kayta ishlash, ichki iste’mol bozorini tuldirish hamda eksport kilish xajmlarini kuchaytirish masalalari buyicha;

9 Usimliklarni ximoya kilish, biolaboratoriyalarva agrokimyostansiyalar faoliyatini takomillashtirish masalalari buyicha;

10 Chorvachilik va korakulchilikni rivojlantirish masalalari buyicha.

Davlat tomonidan agrar siyosati orqali tartibga solish kuyidagi yo‘nalishlarda amalga oshiriladi:

- oziq-ovqat, xom-ashyo va qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bozorlarini shakllantirish va rivojlantirish;
- moliya, kredit, sugurta, imtiyozli solikka tortish; tashqi iqtisodiy faoliyatda maxalliy ishlab ishlab chiqaruvchilar manfaatlarini ximoyalash;
- agrosanoat ishlab chiqarish soxalarida ilmiy faoliyatni qo‘llash va fanni rivojlantirish;
- qishloq joylarda ijtimoiy soxalarni rivojlantirish.

Davlat agrariqtisodiy siyosati orqali tartibga solishda bir qator usullardan foydalanadi. Bu usullarni umumlashtirib kuyidagicha guruxlash mumkin:

- bevositata’sirkilish usullari;
- bilvositata’sirkilish usullari;
- tashqi iqtisodiyusullar.

Markazdan boshkarish tartibi ustun bo‘lgan mamlakatlarda davlatning iqtisodiy jarayonlargaaralashuvida bevosita ta’sir kilish usullari ustun bulsa, bozor iqtisodiyoti esa asosan iqtisodiy jarayonlarni bilvosita tartibga solish bilan boglangan. Davlat iqtisodiyotni bevosita tartibga solishda ma’muriy vositalardan foydalanadi. Ma’muriy vositalardavlat xokimiyati kuchiga tayanadi va ta’kiklash, ruxsat berish va majbur kilish xususiyatidagi tadbirlarni uz ichiga oladi. Tartibga

solishning ma'muriy vositalaridan foydalanilgandayaxlit takror ishlab chiqarish jarayoni yoki uning aloxida tomonlarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri tartibga solish kuzda tutiladi. Ayniksa ishlab chiqarish tanazzulga uchragan davrda iqtisodiyotga bilvosita ta'sir kilish tadbirlari kam samarali bo‘lib, ma'muriy vositalardan foydalanishga ustunlik beriladi.

Iqtisodiyotni bilvosita tartibga solishda iqtisodiy dastak va vositalarga ustunlik beriladi. U davlatning pul-kredit va byudjet siyosatida uz ifodasini topadi. Shuningdek, iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning bir qator shakllarini ham ajratib ko‘rsatish mumkin:

- davlat iqtisodiy dasturlarining ishlab chikilishi;
- ilmiy tadkikot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalari, ixtirolarni davlat tomonidan ragbatlantirish hamda iqtisodiyotdagi ijobiy tarkibiy siljishlarni ta'minlash.

Amerikalik iqtisodchi olimlar K.R.Makkonnel va S.L.Bryular davlatning agrar soxaga faol aralashuvi zaruriyatini kuyidagi muammolarga bog‘laydilar:

- qishloq xo‘jalik mahsulotlariga bo‘lgan talabning noelastikligi;
- texnik rivojlanish natijasida fermerlar mahsulotlarining talabdan oshikcha ishlab chiqarilishi;
- qishloq xo‘jalik resurslarining nisbatan immobillik xususiyati;
- qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bozorida sof rakobat kurashi xukm surgan xolda, unga resurslar yetkazib beruvchi bozorlarda monopoliya elementlarining mavjudligi.

Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining tabiiy-iklimiy sharoitlarga bog‘liqligi bu tarmokda narxlar va fermer xo‘jaligi daromadining barqarorligiga ham salbiy ta'sir ko‘rsatadi. Masalan, qulay ob-xavo sharoitida bozorga talabdan ortikcha mahsulotning kirishi narxlarning keskin pasayishiga olib kelishi mumkin. Bunday xolatni kuprok g‘alla, sabzavot, poliz, meva va uzum mahsulotlari bozorida kuzatish mumkin. Ba'zan narxlarning bunday pasayishi mahsulot tannarxini koplashga ham imkon bermasligi okibatida fermerlar katta zarar kuradi.

Davlatning agrar iqtisodiy siyosatni qo‘llab quvvatlashning vazifalari sifatida quyidagilarni belgilash mumkin:

1 **Ma'muriy-xuquqiy tartibga solish vazifasi** - fermer xo'jaliklari faoliyatining tashkiliy, xukukiy, iqtisodiy, ijtimoiy va boshka asoslarini tartibga solib turuvchi konuniy me'yorlar xujjatlarni ishlab chikish, kabul kilish va ularga rioya etilishini nazorat etishni nazarda tutadi.

2 **Xuquqiy ximoyalash va kafolatlash vazifasi** – fermer xo'jaliklarining barqaror rivojlanishini, boshka xo'jalik yurituvchi subektlar bilan teng sharoitlarda faoliyat yuritishini ta'minlashga va ular faoliyatiga turli nazorat etuvchi hamda tekshiruvchi organlarning nokonuniy aralashuvlarini cheklashga imkon beruvchi konuniy-me'yoriy asoslarini yaratish va ularga rioya etilishini nazorat etishni nazarda tutadi.

3 Barqarorlashtirish vazifasi - agrar iqtisodiyotda inkirozli xolatlarni bartaraf etish, ishlab chiqarishning pasayishiga yul kuymaslik, inflyatsiya va ishsizlik darajasini kamaytirish, qishloq xo'jaligi tarmoklari tarkibining mutanosibligini ta'minlash bilan bog'liq.

4 Rag'batlantirish vazifasi - fermer xo'jaliklarini, shuningdek, ularga xizmat ko'rsatuvchi tarmoklar faoliyatini turli iqtisodiy dastaklar yordamida ragbatlantirish va qo'llab- kuvvatlash choralarini ifodalaydi.

5 Taksimlash vazifasi - ijtimoiy adolat va ximoyalash sifatida daromadlarni kayta taksimlash, shuningdek, fermer xo'jaliklarining moddiy-texnikaviy resurslardan imtiyozli asoslarda foydalanishiga sharoit yaratish maqsadida resurslar taksimotiga tuzatishlar kiritish bilan bog'liq.

6 Ijtimoiy kafolatlash vazifasi - ijtimoiy ta'minot va ximoyalashning samarali tizimini yaratish, shuningdek fermer xo'jaliklarining ta'lim, soglikni saklash va madaniy tadbirlarga bo'lgan extiyojini kondirish bilan bog'liq chora-tadbirlarni uz ichiga oladi.

7 Muxofaza kilish vazifasi - qishloq xo'jaligini salbiy xarakterdagi tashqi ta'sirlardan (masalan, atrof-muhitning ifloslanishi, qishloq xo'jaligiga yarokli yerlarning shurlanishi, kurgokchilik yoki tabiiyofatlar va b.) saklash, tovar ishlab chiqaruvchilarini tashqi

eksportyorlardan yoki jaxon bozoridagi kuchli rakobatdan ximoyalash kabi vazifalardan iborat.

8 Nazorat etish vazifasi - konuniy-me'yoriy xujjatlar, xukumat karorlari va boshka xujjatlarning bajarilishi ustidan nazorat urnatish bilan bog'liq.

9 Axborot-maslaxat ta'minot vazifasi - fermer xo'jaliklarining axborot ta'minoti tizimidan teng sharoitlarda, tusiklarsiz foydalanish imkoniyatini yaratish, ular uchun iqtisodiy muammolarning samarali yechimini topish, xom-ashyo va resurslar ta'minoti, ilg'or texnika va texnologiyalarni qo'llash yuzasidan maslaxat berishni nazarda tutadi.

10 Analitik-taxlil vazifasi - davlatning fermer xo'jaliklari rivojlanishini kuzatib borish, chukur taxlil kilish va shu asosda tegishli chora-tadbirlar ishlab chikish vazifasini nazarda tutadi.

11. Ekspertlik vazifasi - fermer xo'jaliklari va agrar tarmokni barqaror rivojlantirishga oid loyixalarni, dasturlarni, shuningdek mahsulot va tovarlarni davlat standartlariga mos kelishini davlat ekspertizasidan utkazish hamda tegishli xulosalar chiqarishdan iborat.

12 Tashqi iqtisodiy faoliyatni mukobillashtirish vazifasi - xalkaro bozorlarda fermer xo'jaliklari manfaatlarini ximoyalash, imtiyozli bojxona ta'riflari va soliklar orqali eksport uchun kulay iqtisodiy muhit xosil kilish tadbirlaridan iborat.

13 Istikbolni belgilash vazifasi - agrar tarmok va fermer xo'jaliklarini istikbolda rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash choralarini izchil amalga oshirishni uz oldiga maqsad kilib kuyadi.

13.3. Agrar sektorni davlat tomonidan tartibga solish va qo'llab-kuvvatlashning shakllari, usullari, mexanizmlari va dastaklari (regulyatorlari) hamda O'zbekiston Respublikasi agrar siyosatining asosiy bosqichlari.

O'zbekiston iqtisodiyotida agrar siyosatning rivojlanish tarixini shartli ravishda bir necha davrlarga bulish mumkin.

1. 1920-yillargacha bo'lgan davr. Bu davrda qishloq xo'jaligi tarkok xolda rivojlangan. Qishloq xo'jaligi asosan oziq-ovqat muammosini xal kilish va qisman xorijiy bozorlarga muxim tovarlarni

ayirboshlash vositasi bo‘lib xizmat kilgan. Yerga asosan ma’lum gurux egalik kilgan va ularning shaxsiy manfaatlari agrar siyosatning moxiyatini tashkil kilgan. Agrar siyosat soliklar va tulov vositalari orqali amalga oshirilgan.

2. 1920-1991-yillar. Mamlakat agrar siyosati asosan paxta yakkaxokimligi siyosatiga karatilgan, yerga egalik davlatning kulida, ishlab chiqarish va mulk munosabatlari umumiylikka asoslangan. Agrar siyosat davlat tomonidan, asosan sanoatning manfaatlariga asoslangan xolda amalga oshirilgan.

3. 1991-1997-yillar. Barcha soxalarda olib borilayotgan iqtisodiy islohatlar mulkni davlat tasarrufidan chiqarishga qishloq xo‘jaligida ham amalga oshirilishga xarakat kilindi.

4. 1998-2016-yildan keyingi davr. Bu davr mamlakat xukumatining qishloq xo‘jaligiga keskin e’tibor karatishi bilan boshlandi. Mamlakat qishloq xo‘jaligida iqtisodiy islohatlarni keskin chukurlashtirish borasida qator konun va me’yoriy xujjatlarning kabul kilinishi bu tarmokka e’tiborning kuchayishidan dalolat berdi. Bu davrdagi agrar siyosatning asosiy xususiyatlariga yerga munosabatning keskin uzgartirilishi, rivojlangan mamlakatlar tajribalari va mamlakat ichki xususiyatlari e’tiborga olinib amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohatlar, ishlab chiqarishni fan yutuklari asosiga kurish, yangi texnologiyalardan foydalanish kabi bir qator xususiyatlar xosdir.

5. 2017 yildan hozirgi kungacha bo‘lgan davrlar. Bu davrda agrar siyosatda mutlaqo yangi innovatsion va raqamli agrar iqtisodiyoti shakillantirish davri hisoblanadi. Ushbu davrda 2017-2021-yillarga mo‘ljallangan agrar sohasini rivojlantirishning “Rivojlanish strategiyasi ” va 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonnning “Taraqqiyot strategiyasi” muxim asos bo‘lib xizmat qiladi.

13.4. Ekologik xavfsizlik buyicha davlat iqtisodiy siyosati. O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish Strategiyasi, maqsad va vazifalari va uni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari

Strategiyaning asosiy maqsadi mamlakatda ekologik xavfsizlik buyicha davlatning iqtisodiy siyosatini amalga oshirish xamda

tuzilmaviy islohotlarga “yashil” iqtisodiyot tamoyillarini integratsiya qilish orqali ijtimoiy rivojlanishga, mustahkam iqtisodiy taraqqiyotga yerishishdan iborat.

Yekologik xavfsizlik buyicha davlatning iqtisodiy siyosati strategiyani maqsadlariga erishish uchun quyidagi asosiy vazifalarni amalga oshirish zarur:

- “Yashil”iqtisodiyotni rivojlantirish va “yashil” energiya samaradorligini oshirish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish; davlat investitsiyalari va xarajatlarining ustuvor yo‘nalishlariga ilg‘or xalqaro standartlarga asoslangan “yashil” mezonlarni kiritish; davlat tomonidan rag‘batlantirish mexanizmlarini, davlat-xususiy sherikligini rivojlantirish hamda xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlikni faollashtirish orqali “yashil” iqtisodiyotga o‘tish yo‘nalishlari bo‘yicha tajriba-sinov loyihalarini amalga oshirishga ko‘maklashish; “yashil” iqtisodiyotdagi mehnat bozori bilan bog‘liq kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini rivojlantirish;

“Yashil”iqtisodiyotni rivojlantirish asosida Orolbo‘yidagi ekologik inqirozning salbiy ta’sirini yumshatish choralarini ko‘rish;

- “yashil” iqtisodiyot sohasida, shu jumladan ikki tomonlama va ko‘p tomonlama shartnomalar tuzish orqali xalqaro hamkorlikni mustahkamlash;

- “Yashil” iqtisodiyotni rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlashning moliyaviy va nomoliyaviy mexanizmlarini ishlab chiqish va rivojlantirish;

1 “Yashil” texnologiyalarni joriy etishning institutsional asoslarini rivojlantirish:

- texnologik ehtiyojlarni baholash, ustuvor vazifalarni belgilash va yeng muhim texnologiyalarni tanlash, ularni ishlab chiqish transferga ko‘mak berish;

- “yashil” texnologiyalarni tijoratlashtirish mexanizmlarini rivojlantirish, innovatsion faoliyatni qo‘llab-quvvatlash uchun tashkiliy tuzilmalar — texnologiyalarni yetkazib berish agentliklari, texnologik biznes-inkubatorlar, texnoparklar, klasterlar yaratish.

2 “Yashil” iqtisodiyot sohasidagi normative-huquqiy bazani takomillashtirish:

- Strategiyaning ustuvor yo‘nalishlarini qamrab oluvchi normativ-huquqiy bazani inventarizatsiya qilish, uni takomillashtirish bo‘yicha takliflar tayyorlash;

- iqtisodiy choralar va vositalar ishlab chiqish, xususan, issiqxona gazlarining ajratmalarini qisqartirganlik uchun haq to‘lashni joriy yetish;

- energiya samaradorligiga qo‘yiladigan majburiy talablarni ishlab chiqish va joriy yetish.

3. Energiya samaradorligini tartibga solish va nazorat qilish mexanizmlarini rivojlantirish bo‘yicha:

- energiya tejash va yenergiya samaradorligi bo‘yicha maqsadli ko‘rsatkichlarni ishlab chiqish hamda ularning bajarilishini monitoring qilish, verifikatsiyalash va hisobotini yuritish tizimini joriy yetish;

- energiya sarfi hajmi yuqori bo‘lgan korxonalarning yenergomenejmenti va auditini o‘tkazish;

- barcha toifadagi iste’molchilar, shu jumladan sanoat va yenergetika obektlari uchun yelektr yenergiyasi iste’molini hisobga olishning avtomatlashtirilgan davlat tizimini rivojlantirish.

4 “Yashil” iqtisodiyot tamoyillarini ta’lim va fanga integratsiya qilish bo‘yicha:

- “Yashil” iqtisodiyot asoslari, qayta tiklanuvchi yenergiya manbalarini joriy yetish, “sof” transportni rivojlantirish, energiya tejash va boshqa masalalarni e’tiborga olgan holda oliy va o‘rta maxsus ta’limning tegishli yo‘nalishlari o‘quv dasturlarini takomillashtirish, shuningdek, umumiy o‘rta ta’limning tegishli dasturlariga “yashil” iqtisodiyot asoslari bo‘yicha mavzular kiritish;

- oliy, o‘rta maxsus, kasb-hunar, umumiy o‘rta ta’lim uchun tegishli o‘quv adabiyotlarini (yo‘nalishlar bo‘yicha) tayyorlash yoki qayta nashr yetish jarayonida ularga “yashil” iqtisodiyot asoslari bo‘yicha mavzular kiritish;

- pedagog va ilmiy xodimlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish dasturlariga “yashil” iqtisodiyot asoslari, xususan, “Yashil

texnologiyalar", "Yashil mezonlarni hisobga olgan holda ekologik me'yorlashtirish asoslari", "Qayta tiklanuvchi yenergiya manbalari texnologiyalari", "yenergiya tejamkorligi va energiya samaradorligi muammolari", "yashil" iqtisodiyot asoslari, qayta tiklanuvchi yenergiya manbalarini joriy yetish, energiya tejash va boshqa masalalarni e'tiborga olgan holda oliy va o'rta maxsus ta'limning tegishli yo'nalishlari o'quv dasturlarini takomillashtirish;

-umumiy o'rta ta'limning tegishli dasturlariga "yashil" iqtisodiyot asoslari bo'yicha mavzular kiritish; oliy, o'rta maxsus, kasb-hunar, umumiy o'rta ta'lim uchun tegishli o'quv adabiyotlarini (yo'nalishlar bo'yicha) tayyorlash yoki qayta nashr yetish jarayonida ularga "yashil" iqtisodiyot asoslari bo'yicha mavzular kiritish;

- pedagog va ilmiy xodimlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish dasturlariga "yashil" iqtisodiyot asoslari, xususan, "Yashil texnologiyalar", "Yashil mezonlarni hisobga olgan holda ekologik me'yorlashtirish asoslari", "Qayta tiklanuvchi yenergiya manbalari texnologiyalari", "yenergiya tejamkorligi va energiya samaradorligi muammolari" mavzularini joriy yetish; "yashil" texnologiyalar sohasidagi ilmiy tadqiqotlarva innovatsion ishlanmalarni qo'llab-quvvatlash.

5 "Yashil" iqtisodiyotga o'tish uchun salohiyatni oshirish va qulay muhit yaratish bo'yicha:

- mamlakatimizning Parij bitimi bo'yicha miqdoriy majburiyatlari bajarilishini uzluksiz kuzatish uchun issiqxona gazlari ajratmalarini milliy sharoitlarni e'tiborga olgan holda monitoring qilish, hisobini yuritish va verifikatsiyalash tizimini (MRV) yaratish hamda issiqxona gazlari ajratmalari bo'yicha hisobot berishni ta'minlash;

- iqlim monitoringi tizimini rivojlantirish;

- "yashil" texnologiyalarni ilgari surish uchun davlatxususiy sheriklik salohiyatini rivojlantirish;

- "yashil" innovatsiyalarni joriy yetishda xususiy investorlarga, jumladan kichik biznesga ko'mak ko'rsatish; tovar (ish, xizmat)lar yenergiya-resurs samaradorligining turli hisoblagichlari, spetsifikatsiyalar kataloglarini yaratish, shuningdek, tovar (ish,

xizmat)lar energiya-resurs samaradorligini sertifikatlashtirish tizimini joriy yetish orqali davlat “yashil” xaridlarini rag‘batlantirish mexanizmlarini ishlab chiqish;

- kadrlar malakasini oshirish, yenergiya va resurslarga yehtiyotkorona munosabatda bo‘lish madaniyatini shakllantirish;

- kasbiy ko‘nikmalarga “yashil” iqtisodiyotning rivojlanishi bilan qo‘yiladigan yangi talablarni hisobga olgan holda tarmoqlar xodimlari, shu jumladan rahbar va muhandislar tarkibi xabardorligi va malakasini oshirish;

- kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash davlat ta’lim dasturlarini ishlab chiqishda “yashil” iqtisodiyot asoslarini hisobga olish; ekoinnovatsion texnologiyalarni yana-da samarali joriy yetish uchun ilmiy-tadqiqot muassasalarining kadrlar va texnik salohiyatini oshirish;

- iqlim o‘zgarishi oqibatlarini yumshatish va unga moslashish masalalari bilan bog‘liq sohalarda tadqiqotlarni rivojlantirish;

- milliy va xorijiy ilmiy tashkilotlarning “yashil” texnologiyalarni ilgari surish sohasidagi hamkorligini mustahkamlash.

“Yashil” investitsiyalarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha:

- “yashil” kreditlash, venchur moliyalashtirish tizimini joriy yetish; “yashil” fondlar, yenergiya tejamkorligi maxsus fondlari va boshqa xuddi shunday mexanizmlar yaratish;

- “yashil” iqtisodiyotga o‘tish bo‘yicha loyihalarni moliyalashtirishda xususiy sektorni faollashtirish, shuningdek, “yashil” investitsiyalarga nisbatan bank tizimini rag‘batlantirish;

- fiskal (xazinaga oid) siyosat orqali davlat tomonidan “yashil” iqtisodiyotning barqaror o‘sishini qo‘llab-quvvatlash.

13.5. Davlatning tabiatdan foydalanish vazifalari. Atrof muhit monitoringi. Ekologik standartlar.

• Bu inspeksiya tabiatni muhofaza qilish qo‘mitasining strukturasi, hamda tegishli idora va vazirliklar bilan birgalikda standartlashtirish sohasida metodik, normativ-texnik va boshqa xujjatlarni ishlab chiqadi, joriy etadi, amalga oshishini nazorat qiladi. Xozirda tabiatni muhofaza qilish sahasida va tabiiy resurslardan

foydalanishda standartlashtirish va metrologiya bo‘yicha ma’lumotlar banki shakllanayotir, atrof muhit muhofazasi bo‘yicha normative va metodik hujjatlar fondi yaratilgan.Tabiatni muhofaza qilish Davlat ixtisoslashgan tahlil nazorati inspeksiyasi tomonidan qo‘yidagi ekologik standartlar qo‘llanilmoqda; atmosfera havosining sifati:

ish joylarida havo sifati;

yer usti suvlari sifati;

tuproq sifati;

yer osti suvlari sifati;

oziq ovqat mahsulotlari sifati;

atmosfera havosiga ifloslantiruvchi moddalar chiqarish normativlari;

oqar suv manbalariga ifloslantiruvchi moddalarni tashlash narmativlari;

chiqindilarni shakllanishi normalari;

- Tabiatdan foydalanish faoliyatlarini lisenziyalash. Yangi iqtisodiyot sharoitida tabiiy resurslardan samarali foydalanish asosiy masalalardan hisoblanadi.
- Tabiiy resurslardan foydalanish va tabiiy muhitga ta’sir o‘tkazish bilan bog‘liq xo‘jalik va boshqa faoliyatga faqat tegishli lisenziya mavjudligidagina ruxsat beriladi. Litsenziya uning egasiga aniq tabiiy resursdan foydalanishni xuquqi bo‘lib, unda oldindan kelishilgan talab va shartlar belgilangan bo‘ladi. Litsenziya berish xuquqi O‘zbekiston respublikasida Vazirlar Maxkamasini tegishli kamissiyasi tamonidan amalga oshiriladi.
- Tabiatdan foydalanishni lisenziyalash-ma’muriy-xuquqiy-yo‘l bilan ekologik – iqtisodiy munosabatlarni tasdiqlash, ruxsat berish, vakolat berish kabi metodlar orqali tartibga solishning nomoyon bo‘lishidir. Tabiatdan foydalanishni lisenziyalashning mohiyati qo‘yidagicha:

tabiiy resurs egasining yoki uning mulkdori akti;

tabiiy resurslardan foydalanish ustidan davlat nazaratini amalga oshirish shakli;

tabiatdan oqilona foydalanishni tartibga solish vositasi;

- Lisenziyalash bir yil muddatga talabgorni arizasi yoki tanlov asosida beriladi. Ekologik talablarni buzganlik yoki amal qilmaganligi kabi sabablar aniqlansa, lisenziya mavjud qonunlar asosida bekor qilinadi yoki boshqa shaxsga beriladi.
- Tabiiy resurslardan foydalanishni ekologik lisenziyalash Tabiiatni Muhofaza qilish Davlat qo‘mitasini joylardagi xududiy organlari tomonidan amalga oshiriladi.
- Yekologik sertifikatlash. Ekologik sertifikatlash quyidagi maqsadlarda amalga oshiriladi:
- a) mahsulotning atrof-muhit, hayot, salomatlik, mulk uchun xavfsizligini nazorat qilish;
- b) tayyorlovchi (ishlab chiqaruvchi)ning mahsulot sifati ko‘rsatkichlari bo‘yicha bayonotining tasdiqlanishi;
- v) iste’molchini tayyorlovchi, sotuvchi, ijrochining insofsizligidan himoya qilish;
- g) iste’molchiga mahsulotni kompetentli tanlashga yordam berish;
- d) O‘zbekistonning yagona tovar bozorida va undan tashqarida (xalqaro iqtisodiy, ilmiy-texnik hamkorlik va savdo) korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, tadbirkorlar faoliyati uchun sharoit yaratish.
- Yekologik sertifekasiyalashda ekologik havfsiz, ekologik talablarga mos tushadigan, inson hayotiga va faoliyatiga, hamda atrof muhitga zarar yetkazmaydigan maxsulot va tavarlarga beriladi. Rivojlangan mamlakatlarda diyarli barcha mahsulot va xizmatlar ekologik sertifikatlanadi. O‘zbekiston respublikasida ham bu sohada katta ishlar amalga oshirilmoqda. Xozirgi paytda majburiy sertifikatlanadigan mahsulotlar 80 turdan oshiqdir. Bundan tashqari xoxlovchilar o‘z mahsulot va xizmatlarini ekologik sertifikatsiyalash xuquqiga ham ega.
- Yekologik sertifikasiya vazifalariqo‘yidagilar:
- atrof muhit va tabiiy resurslar salohiyatidan samarali foydalanish, muhofaza qilish, takror ishlab chiqarishini ta’minlash;

- hayot, salomatlik, mulk uchun havfli mahsulotlarni istimolchilar sotib olishdan yoki ulardan foydalanish jarayonid atrof muhitni zararlanishidan himoya qilish;
- inson hayoti va faoliyati sharoitiga va atrof muhit holatiga ishlab chiqarish jarayonlariga, mahsulot iste'moli, chiqindilarni utilizasiyalash, tabiiy resurslardan foydalanish bilan bog'liq omillarning noqulay ta'sirlardan ogohlantirish;
- mamlakatga ekologik notoza mahsulotlar kirib kelishidan saqlash;
- tabiiatdan foydalanish va muhofaza qilishda ilmiy-texnika taraqqiyotidan foydalanish;
- mamlakatimiz mahsulotlarini xalqaro maydonda roqobotbardoshligini oshirish;
- yekologik adolatli bozorni tashkil etish;
- jamiyat va tabiiatning o'zaro aloqalarida ekologik havfsizlikni ta'minlash.

Yekologik sertifikasiya obektiga quyidagilar kiradi:

- tabiiy muhit va tabiiy resurs manbalari;
- ishlab chiqarish va istimol chiqindilari;
- texnologik jarayonlar;
- yekologik xizmatlar va iste'mol mahsulotlari.
- O'zbekiston Respublikasida "Mahsulotlar va xizmatlar sertifikasiyasi to'g'risida"gi (1993) qonuniga muvofiq "O'zdavstandartga" sertifikasiya bo'yicha milliy organ statusi berilgan. Bundan tashqari tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi qoshida mahsulotlar va xizmatlar ekologik sertifikasiyasi markazi tuzilgan va uning bo'linmalari barcha viloyatlarda tashkil etilgandir.
- Mamlakatimizda ekologik sertifikat bo'yicha obektlar aniqlangan, normativ – texnik hujjatlar paketi ishlab chiqilgan. Bunda quyidagi tadbir va harakatlar amalga oshirilayotir:
- yekologik xavfsiz texnologik jarayonlar ishlab chiqish va joriy etish;
- yekologik xavfsiz mahsulotlarni ishglab chiqarishni tashkil etish;

• normativ-huquqiy va iqtisodiy mexanizmlarni yaratish, fuqarolarni qulay atrofmuhit va mahsulotlarga ega bo‘lish, salomatligi va mulkiga ziyon yetkazuvchi axborotlarni to‘plash hamda ekologik ziyon yetkazuvchilarga yo‘l bermaslik;

• mamlakatimizga xavfli mahsulotlar kirib kelishi, ishlab chiqarilishi hamda hududimizdan olib o‘tilishini bartaraf etish;

• tabiat muhofazasiga mo‘ljallangan ishlar va xizmatlar bozorini tartibga solish;

• atrof-muhit sifatin yaxshilash;

• resurslarni tejash va atrof muhitga yo‘l qo‘yib bo‘lmaydigan ta’sirdan ogohlantirish;

• ekologik ekspertiza. O‘zbekiston Respublikasida ekologik ekspertiza to‘g‘risidagi qonun 2000 yil qabul qilingan. Bu qonunning mohiyati rejalashtirilayotgan yoki amalga oshirilayotgan xo‘jalik va boshqa faoliyatlarni ekologik talablarga muvofiqligini aniqlashdan iborat. Davlat ekologik ekspertizasining obektlariga quyidagilar kiradi:

1) davlat dasturlarining kontseptsiyalarining, ishlab chiqarish kuchlarining ijtimoiy va iqtsiodiy soha tarmoqlarini joylashtirish hamda rivojlantirish sxemalariniing loyihalari;

2) barcha turdagi qurilishlar uchun yer uchastkalarini ajratish materiallari;

3) loyiha olid va loyiha hujjatlari;

4) tabiiy resurslar bilan foydalanish bilan bog‘liq xo‘jalik va boshqa xil faoliyatni tartibga soluvchi normativ texnik va yo‘riqnoma uslubiy hujjatlarining loyihalari;

5) texnika, texnologiya, mahsulotlar, moddalarning yangi turlarini tayyorlashga doir hujjatlar;

6) atrof tabiiy muhit holatiga va fuqarolar sog‘ligiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi ishlab turgan korxonalar va boshqa obektlar;

7) keyinchalik ularga muhofaza etiladigan tabiiy hududlar, favqulodda ekologik ofat zonalari maqomini berish maqsadida o‘tkazilgan hududlarni kompleks tekshirish materiallari; 8) shaharsozlik hujjatlarining barcha turlari; 9) maxsus huquqiy rejimli obektlar.

• ekologik ekspertizaning maqsadi qo‘yidagilar:

• loyixa qarorlarini ularni amalga oshirishdan oldin ekologik ta'lablarga muvofiqligini ilmiy asosda aniqlash;

• rejalashtirilayotgan, loyixalashtirilayotgan va ishlab turgan obeklarning tabiatga extimol tutilayotgan salbiy ta'siri va zkologik xavflilik darajasini aniqlash;

• xalq xujaligini rejalashtirishida tabiiiy tizimlar muvozanatini saqlab qolish;

• Yekologik ekspertiza davlat, idoraviy, jamoat, ilmiy shakillarda tashkil etiladi.

• O'zbekiston Respublikasida davlat ekologik ekspertizasi o'tkazish Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasining Davlat ekologik ekspertizasi tamonidan amalga oshiriladi.

• Yekologik audit. Ekologik audit korxona, kompaniyaning ichki ekologik salohiyatini, ularning xavfxatarlari va imkoniyatlarini doimiy tekshirib turish instrumentidir.

• Yekologik audit – korxonalarning mol-mulkni berish va joriy operasiyalar bilan bog'liq bo'lgan ekologik muammolari va potensial majburiyatlarini aniqlash maqsadida atrof-muhit holatini obektiv, muntazam, hujjatlashtirilgan va doimiy takroriy tekshirishlar(taftishlar) bo'lib, ular iqtisodiy faoliyatning turi va sharoitlari, ma'muriy boshqaruv tizimlari yoki bu obektlar to'g'risidagi axborotlarning normativ-qonunchilik talablariga, atrof-muhit muhofazasi sohasidagi samaradorlik mezonlariga va ekologik xavfsizlikka mos kelishini aniqlash maqsadida o'tkaziladi. Ekoaudit o'tgan asrni 70 yillarida AQShda, 1980 yildan boshlab esa, Yevropa mamlakatlarida ham ishlab chiqaruvchi korxonalarni "Yekoaudit" qonunchiligi asosida tekshirishlardan o'tkazmoqda.

• Yekologik auditni asosiy maqsadi:

1 Korxona va tashkilotlarni faoliyatini ekologik normativlarga mos kelishini aniqlash.

2 Korxona va tashkilotlarni tabiatni muhofaza qilish tadbirlariga foydali tadbirlar ishlab chiqish.

• ekologik auditning asosiy obektlariga quyidagilar kiradi:

- mulklar (yer uchastkalari, tabiiy ofatlar, binolar, inshoatlar, mashina va jihozlar va h.k.);
- korxona va tashkilotning joriy faoliyati;
- favqulotda vaziyatlarda korxanalarning boshqaruv tizimi;
- atrof muhitni muhofaza qilish dasturlari va xodimlarning havfzisligini ta'minlash va boshqalar.
- Yekollogik audit asosiy funktsiyalari, korxonalarni ekologik qonunchilikka mosligi va ekologik siyosatni qonunlariga rioya qilinishi, atrof muhit sohasida qaroorlar qabul qilish uchun axborotlar yig'ish, aholini va atrof muhitni zararli ta'sirlardan saqlash, ekologiik havfli avariyalar chiqishini imkoniyatlarini tahlil qilish, korxonaning real ta'sirini aniqlash va boshqalarni o'rganadi.
- Xalqaro standartlarga muvofiq ekoaudit qo'yidagi prinsiplarga asoslanadi:

1 Maqsad va ish hajmini aniq belgilash.

2 Obektevlik, mustaqillik, va kompenentlik.

3 kerakli kaspiy ihtiyotkorlilik.

4 Tizimlilik.

5 Audit mezonlarini belgilash, auditor ma'lumotlarining to'liqligi, sifatliligi va yetarli ekanligi.

6. Auditor natijalarini va xulosalarini ishonchliligi.

7. Auditorning kelishlgan maqsadi va hajmini hisobga olib auditor xulosalarini to'liqligi.

- Yekologik audit ishlab chiqarish obektlarini auditi va hududlarning ekologik auditi yo'nalishlarida amalga oshiriladi.
- Yekologik audit majburiy yoki ixtiyoriy bo'lishi mumkin.

1 Tabiatdan foydalanish va uni muhofaza qilish faoliyatini moliyalashtirish. Xozirgi kunda tabiatdan foydalanish va uni muhofaza qilish faoliyatini moliyalashtirish masalalariga katta e'tibor berilmoqda. Sobiq ma'muriy buyruqbozlik iqtisodiyotidagi moliyalashtirish esa hozirgidan farq qilardi va uning asosiy xususiyati markaziy rejalashtirish tizimining ustivorligida ko'rinardi. Ya'ni davlat miqyosida ijtimoiy — iqtisodiy rivojlanishning asosiy yo'nalishlari belgilanib, ana shu yo'nalishlarda tabiatni muhofaza qilish borasida

aniq vazifalar belgilanardi. Bu vazifalarning yechimi davlat, tarmoq va hududlar miqyosida o‘z aksini topar edi. Ushbu reja asosida moliyaviy, moddiy — texnikaviy resurslarga ehtiyojlar aniqlanardi, markaziy moliyalashtirish tizimi esa fondlar ajratish (moddiy —texnik resurslarni markazdan taqsimlash) tizimi bilan to‘ldirgan.

• Tabiatni saqlash tadbirlari moliyaviy vositalarining asosiy manbai davlat byudjeti hisoblanardi. Lekin davlat byudjetidan tashqari: mintaqalar byudjeti, vazirlik va idoralarning mablag‘lari, korxonalarning mablag‘lari ham mavjud bo‘lgan edi. Lekin shuni alohida ta’kidlash joizki, davlat byudjetidan tashqari moliyaviy manbalarni davlat byudjetidan ayrim holda ko‘rib bo‘lmasdi.

• Shu sababli ham moliyalashtirishning bu tizimi samarasiz bo‘lgan. Byudjetdan mablag‘rlar yetarli darajada ajratilmasdi, chunki ekologik vaziyatni sog‘lomlashtirish vazifasi davlatning ustivor vazifalari qatoriga kiritilmasdi.

• Ma’muriy buyruqbozlik iqtisodiyoti sharoitida tabiatni muhofaza qilish faoliyatini moddiy texnik ta’minoti (turli fond va limitlar tizimi orqali) ustivor ahamiyatga ega bo‘lgan bo‘lsa, bozor munosabatlariga o‘tish sharoitida esa yagona taqchil resurs moliyaviy resurslar hisoblanadi. Tabiati muhofaza qilish sohasini samarali faoliyat ko‘rsatishi uning barqaror moliyaviy ta’minotiga uzviy bog‘liq bo‘ladi.

• Mustaqillik yillarida tabiat resurslaridan foydalanganlik va ifloslantirganlik uchun to‘lovlar kabi iqtisodiy dastaklardan keng foydalana boshlanganligi sababli tabiatni muhofaza qilishning yangi moliyaviy manbalarini shakllantirish imkonini berdi.

• O‘zbekiston Respublikasining “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risidagi” qonuniga muvofiq tabiatni muhofaza qilish tadbirlari va ekologik dasturlarni moliyalashtirish quyidagi manbalarga asosan amalga oshirilishi ta’kidlangan:

1 byudjet mablag‘lari;

2 korxonalar, muassasalar va tashkilotlar mablag‘lari;

3 byudjetdan tashqari resurslar va hududlar bo‘yicha ekologik fondlar.

4 yekologik sug‘urta fondlari; Bank kreditlari;

5 homiylar mablag‘lari;

6 aholi mablag‘lari (shu jumladan xorijiy yuridik va jismoniy shaxslarning ixtiyoriy badallari);

• Quyida ba’zi moliya manbalarining shakllanish xususiyatlari va ahamiyati hakida fikr yuritiladi.

• Byudjetning daromad qismiga soliqlar, tabiiy resurlardan foydalanganlik va atrof muhitni ifloslantirganlik uchun ajratmalar va to‘lovlar kiritiladi

• O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga binoan investision ekologik dasturlarni amalga oshirish uchun davlat va byudjetdan tashqari fondlardan subvensiya ko‘rinishidagi moliyaviy yordam ko‘rsatish nazarda tutilgan. Bu subvensiyalarni ajratish shartlari va tartibi, ulardan foydalanish qonuniy aktlar bilan tartibga solinadi.

• Korxonalarning mablag‘lari xo‘jalik yurituvchi subektlarning daromadi hisobiga shakllantiriladi. Tabiatni muhofaza qilish tadbirlari va tabiatni muhofaza qilish asosiy fondlari ishlatishga ketgan joriy xarajatlar korxona ishlab chiqargan mahsulotlarning tannarxiga qo‘shiladi.

• Byudjetdan tashqari maqsadli resurslar bo‘yicha fondlar tabiatni muhofazasi uchun mablag‘ ajratishning “qoldik tamoyilini” bartaraf qilish uchun tuziladi. Mineral xom ashyo bazasini takror ishlab chiqarish, o‘rmonlarni muhofaza qilish va ko‘riqlash, suv obektlarni tiklash va qo‘riqlash kabi byudjetdan tashqari fondlar tuzilgan.

• Byudjetdan tashqari ekologik fondlar — atrof muhitni muhofaza qilishni investisiyalashni qo‘llab — quvvatlash tizimining yangi elementi hisoblanadi. Mazkur fondlar kechiktirib bo‘lmaydigan tabiatni muhofaza qilish tadbirlarini, atrof tabiiy muhitdagi yo‘qotishlarni tiklash, keltirilgan zararni kompensasiyalashni moliyalashtirish uchun tuziladi.

• Atrof muhitni muhofaza qilishning ijtimoiy fondlari aholi daromadlari, ijtimoiy birlashmalarning ixtiyoriy badallari va xayriyalari va boshqa manbalar hisobiga tashkil etiladi. Makur fondlar ijtimoiy ekologik birlashmalar va O‘zbekiston Respublikasining kasaba

uyushmalari tomonidan tashkil etilib, ularning mablag‘lari faqat atrof muhitni muhofaza qilishga sarflanadi.

- Tabiatni muhofaza qilish tadbirlariga jalb qilinayotgan moliyaviy manbalarining turli-tuman bo‘lishi ulardan oqilona uyg‘unlikda foydalanishni talab etadi.
- Rivojlangan xorijiy mamlakatlarning tajribalariga ko‘ra tabiatni muhofaza qilish tadbirlariga ajratilayotgan moliyaviy manbalarning kuchli differensiyalashuvi kuzatiladi.
- Tabiatni muhofaza qilish tadbirlariga ajratilgan va yig‘ilgan mablag‘lar o‘zining maqsadga yo‘naltirilganlik xususiyati bilan tavsiflanadi.
- Barcha darajalardagi byudjet tabiatni muhofaza qilish va ekologik dasturlarni moliyalashtirishga alohida e’tibor beriladi va moddiy texnik resurslar bilan ta’minlanadi.

Tayanch iboralar: tabiiy resurslar, atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslarni, baholash tugaydigan resurslar, tugamaydigan resurslar, tiklanadigan resurslar, atrof-muhitni muhofaza qilish, ekologik xavfsizlik,biosfera, gidrosfera, atmosfera, ekologik monitoring, ifloslanish darajasi , qo‘riqxonalar, milliy bog‘lar, suv resurslaridan oqilona foydalanish, tomchilatib sug‘orish texnologiyasi, suv tejaydigan texnologiyalar, irrigatsiya tizimi, foydali ish koeffitsiyenti, transchegaraviy suv resurslari, davlat kadastrlari, ekologik monitoring, suv tejamkorligi, cho‘llanishga qarshi kurash, issiqxona gazlari, qayta tiklanuvchi energiya, davlat-xususiy sheriklik, ekologik sertifikatlashtirish.

Nazorat va takrorlash uchun savollar

1. Tabiiy resurslar qanday turlarga bo‘linadi va har bir turga misol keltiring?
2. O‘zbekiston Respublikasida tabiiy resurslar kadastrini tuzish jarayoni qanday amalga oshiriladi?
3. Tabiat resurslarini baholashning uchta asosiy tipi nima va ulardan har biri qanday ahamiyatga ega?

4. Tabiiy resurslardan samarali foydalanish va ekologik muvozanatni saqlash uchun qanday yangi texnologiyalar ishlab chiqilmoqda?

5. Atrof-muhitni muhofaza qilishda qanday chora-tadbirlar amalga oshiriladi? Ularning samaradorligi qanday baholanadi?

6. O‘zbekistonning agrar iqtisodiy siyosati qanday asosiy yo‘nalishlarga ega?

7. Agrar siyosatning asosiy bosqichlarini qanday belgilash mumkin?

8. Qishloq xo‘jaligida tabiiy resurslardan foydalanishning muhim jihatlari nimalardan iborat?

9. “Yashil iqtisodiyot”ga o‘tish strategiyasi qanday maqsad va vazifalarga ega?

10. Ekologik xavfsizlikni ta’minlashda davlatning roli qanday?

11. O‘zbekistonda ekologik xavfsizlikni ta’minlash uchun qanday asosiy dasturlar ishlab chiqilgan?

12. “Yashil” iqtisodiyotda qanday moliyaviy va nomoliyaviy mexanizmlar mavjud?

13. Davlat iqtisodiy siyosatining qanday asosiy shakllari mavjud?

14. Agrar siyosatning tarixiy asoslari qanday rivojlangan?

15. Qishloq xo‘jaligida davlatning aralashuvini zarur deb hisoblagan amerikalik iqtisodchilar kimlar?

16. O‘zbekiston agrar siyosatining asosiy bosqichlari qanday?

17. 2017 yildan hozirgi kungacha O‘zbekistonda agrar sohada qanday o‘zgarishlar bo‘lgan?

18. O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasida qaysi asosiy tamoyillar mavjud?

19. Orolbo‘yi mintaqasidagi ekologik inqirozni yumshatish uchun qanday choralar ko‘rilishi kerak?

20. Ekologik xavfsizlikni ta’minlashda davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi hamkorlik qanday ahamiyatga ega?

XIV BOB. DAVLATNING IQTISODIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASH VAZIFALARI

14.1. Davlatning iqtisodiy xavfsizligi milliy xavfsizlikning tarkibiy qismi ekanligi, mohiyati.

14.2. Iqtisodiy xavfsizlik siyosatining namoyon bo‘lish shakllari.

14.3. Mamlakatning barqaror iqtisodiy xavfsizlik siyosatining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini kursatkichlari.

14.4. Barqaror iqtisodiy xavfsizlik siyosatining tarkibiy siyosatini amalga oshirish zarurati.

14.1. Davlatning iqtisodiy xavfsizligi milliy xavfsizlikning tarkibiy qismi ekanligi, mohiyati

Milliy xavfsizlikni ta'minlashda iqtisodiy xavfsizlik alohida o‘rin tutadi. Chunki mamlakatning barqaror taraqqiyoti, aholi farovonligi, ijtimoiy barqarorlik va mustaqillikni saqlab qolish bevosita iqtisodiy barqarorlik va xavfsizlik darajasiga bog‘liqdir.

“Iqtisodiy xavfsizlik” atamasi ilmiy adabiyotlarda turlicha talqin qilinadi. Uning umumiy, keng qamrovli talqiniga ko‘ra:

Iqtisodiy xavfsizlik — bu mamlakat (yoki hudud, firma, kompaniya)ning turli ichki va tashqi iqtisodiy tahdidlarga, inqiroz holatlariga duch kelmasligi yoki ularning salbiy oqibatlarini minimallashtirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar tizimidir.

Rivojlangan mamlakatlarda I.x.ni ta'minlash maqsadlarida yirik firma, kompaniyalarda maxsus xizmatlar tashkil qilinadi. Ular bozorlarni o‘rganish, talab va taklifni prognozlash, ilmiy-texni-ka taraqqiyotini kuzatish va b. ishlarni bajaradilar. I.x.ni ta'minlashda mahsulot turini muntazam yangilab turish, raqobatbardosh mahsulotlarni i. ch., harajatlarni qisqartirish muhim ahamiyatga ega.

Iqtisodiy xavfsizlik — bu milliy xavfsizlik tizimining ajralmas va strategik jihatdan muhim bo‘lgan tarkibiy qismi bo‘lib, u mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligini saqlab turish, shuningdek, mavjud va potensial iqtisodiy tahdid hamda xatarlarga qarshi samarali qarshilik ko‘rsatish salohiyatini ifodalaydi.

Bu tushuncha makroiqtisodiy toifa sifatida qaraladi va bevosita milliy iqtisodiyotning ichki holati, barqarorlik darajasi, tashqi iqtisodiy aloqalarning ishonchliligi hamda iqtisodiy resurslardan foydalanish samaradorligi bilan chambarchas bog‘liqdir.

Zamonaviy bozor munosabatlari sharoitida xavfsizlikka tahdid soluvchi omillardan to‘liq holi bo‘lgan iqtisodiy tizim mavjud emas. Global iqtisodiy muhitda raqobat kuchayib borar ekan, iqtisodiy xavfsizlik konsepsiyasi yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Aks holda iqtisodiyot izdan chiqadi. Milliy iqtisodiyot darajasida I.x.ning muhim 3 yo‘nalishi (oziq-ovqat, yoqilg‘i-energetika, eksport) mavjud.

Mamlakat aholisining oziqovqatga bo‘lgan talabini qondirilishi 80%, mamlakatning energiya omillariga bo‘lgan talabining o‘z hisobidan 70-80% ga qondirilganda xavfsizlikka erishilgan hisoblanadi.

Eksport xavfsizligi mamlakat eksport salohiyatini amalga oshirish imkoniyati bilan belgilanadi. Eksport tarkibida iste’molga tayyor mahsulotlar, birinchi navbatda, ishlov beruvchi sa-noat mahsulotlari bo‘lishi talab etiladi.

Eksportga yo‘naltirilgan iqtisodiyot sharoitida mamlakatning iqtisodiy xavfsizligiga tahdid soluvchi asosiy omillardan biri – bu eksport tuzilmasining xomashyo va energiya resurslari kabi narxi global bozorda o‘zgaruvchan bo‘lgan cheklangan turdagi tovarlarga bog‘lab qo‘yilganligidir. Jahon bozorida bunday mahsulotlar narxining keskin pasayishi eksport tushumlarining kamayishiga olib keladi va bu holat makroiqtisodiy barqarorlikka jiddiy salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Bunday sharoitda eksport risklari faqat ichki omillar bilan emas, balki global iqtisodiy tendensiyalar, geosiyosiy vaziyatlar va savdo sheriklari bilan bo‘lgan munosabatlar orqali ham shakllanadi. Shu bois, iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashda faqat o‘z ishlab chiqarish imkoniyatlariga tayanish yetarli emas.

Iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash har bir mamlakatning milliy manfaatlarini himoya qilishda muhim o‘rin tutuvchi strategik yo‘nalish bo‘lib, davlat siyosatining ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. Ushbu yo‘nalishda samarali siyosat yuritilishi uchun, eng avvalo, uning

siyosiy-tashkiliy, institutsional va huquqiy asoslari shakllantirilishi lozim.

Bu boradagi ishlar, odatda, iqtisodiy xavfsizlik konsepsiyasini ishlab chiqishdan boshlanadi. Konsepsiya esa mavjud iqtisodiy muhit, ichki va tashqi tahdidlar, hamda iqtisodiyotning holatini obyektiv baholash, shuningdek rivojlanishning asosiy tamoyillari va istiqbolli yo‘nalishlarini prognoz qilish asosida tayyorlanadi. Shuningdek, iqtisodiy xavfsizlikni saqlash va mustahkamlashga mas’ul, javobgar davlat organlari, taslikilot va muassasalar belgilanadi. Bir guruh olimlar mazkur iqtisodiy tushuncha mazmunini mamlakatning yetarli mudofaa salohiyatini, davlat siyosatining ijtimoiy yo‘naltirilganligi, milliy manfaatlarni himoya qilishni kafolatlashga qodir bo‘lgan iqtisodiyot va hokimiyat institutlarining holati sifatida ta’riflaydilar.

Shuningdek, uni hokimiyat institutlarining iqtisodiyotni rivojlantirishga qaratilgan milliy manfaatlarni himoya qilish va ro‘yobga chiqarish hamda jamiyatning ijtimoiy-siyosiy barqarorligini qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini yaratishga qodirligi va tayyorligi deb ham talqin qiladilar. Ikkinchi guruh olimlar mazkur tushunchani xalqning mustaqil ravishda tashqi kuchlarning aralashuvisiz va tazyiqisiz o‘z iqtisodiy taraqqiyot yo‘li va shakllarini belgilab olishiga imkon beradigan holat sifatida tavsiflaydilar. Uchinchi guruh olimlar esa “iqtisodiy xavfsizlik” tushunchasini iqtisodiyotning ijtimoiy ehtiyojlarni samarali qondirishga qodirligi deb ta’riflaydilar. To‘rtinchi guruh olimlar esa mazkur tushunchani iqtisodiyotning progressiv rivojlanishi va normal darajada amal qilishining muhim sharti, iqtisodiyot sohasida shaxs, jamiyat va davlatning hayotiy muhim manfaatlarining ichki va tashqi tahdidlardan himoyalanishi deb tavsiflaydilar.

Taniqli rus iqtisodchisi L.I.Abalkin ushbu tushuncha mohiyatini ochib beruvchi uch elementni ko‘rsatib bergan:

- iqtisodiy mustaqillik. Hozirgi jahon xo‘jaligi sharoitida iqtisodiy mustaqillik absolyut xarakterga ega emas, chunki xalqaro mehnat taqsimoti milliy iqtisodiyotlarni bir-biriga o‘zaro bog‘liq qilib qo‘yadi;

- milliy iqtisodiyotning barqarorligi. Bu shaklidan qat'i nazar mulkchilikning himoya qilinishi, tadbirkorlik faolligi uchun ishonchli sharoit va kafolatlarning yaratilishi, mamlakatdagi holatning yomonlashuviga, beqarorlikka olib keluvchi omillarning jilovlanishini taqozo etadi;

- o'z-o'zidan rivojlanishga va taraqqiy etishga qodirligi. Bu esa investitsiyalar va innovatsiya uchun qulay muhitning yaratilishi, ishlab chiqarishning muntazam modernizatsiyalashuvi, yangilanishi va takomillashib borishi hamda xodimlarning bilim, kasb-malaka, umumiy madaniy darajalarining o'sib borishi milliy iqtisodiy barqarorligi va mavjudligining zaruriy shartiga aylanishini ifodalaydi.

14.2. Iqtisodiy xavfsizlik siyosatining namoyon bo'lish shakllari

Iqtisodiy xavfsizlikning namoyon bo'lish shakllarini uning sub'ektlari va ob'ektlari nuqtai nazaridan turkumlash mumkin. Iqtisodiyot sub'ektlari nuqtai nazaridan iqtisodiy xavfsizlik quyidagi shakllarda namoyon bo'ladi:

- shaxsning iqtisodiy xavfsizligi;

- korxona iqtisodiy xavfsizligi; - davlatning iqtisodiy xavfsizligi.

Shaxsning iqtisodiy xavfsizligi uning hayotiy manfaatlarining, ya'ni yashash va shaxsiy dahlsizlik, erkin mehnat qilish, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish, mulkdor bo'lish, hayotiy iste'mol ehtiyojlarini qondirish, salomatligini saqlash, bilim olish va kasbga ega bo'lish, qariganda va mehnat layoqatini yo'qotganda ijtimoiy ta'minot olish huquqlarining himoyalanganligini ifodalaydi.

Korxona (firma)ning iqtisodiy xavfsizligini tahlil qilganda ularni ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, moliyaviy, savdotijorat hamda notijorat va jamoatchilik tashkilotlari mavqelarida faoliyat yuritishlari nuqtai nazaridan turkumlash maqsadga muvofiq bo'ladi.

Iqtisodiy adabiyotlarda xavfsizlik xo'jalik faoliyati sohalarida yuzaga kelishi nuqtai nazaridan asosan uch yo'nalish, ya'ni ishlab chiqarish-xo'jalik, xo'jalik-iste'mol va moliyaviy sohalar bo'yicha turkumlanadi.

Bizning nazarimizda, ushbu uch yo‘nalish barcha mamlakatlar uchun umumiy bo‘lgani bilan, ayrimlari uchun qo‘shimcha yo‘nalishlar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, O‘zbekiston uchun xalqaro bozorlarga chiqish jarayonida yangi transport yo‘llari, kommunikatsiyalari ham muhim hisoblanadi. SHuningdek, aholining turmush darajasi, daromadlar bo‘yicha tabaqalanishi bilan bog‘liq ijtimoiy xavfsizlikni ta’minlash ham katta ahamiyat kasb etadi.

Shunga ko‘ra, bizning fikrimizcha, iqtisodiy xavfsizlikni ishlab chiqarish-xo‘jalik, xo‘jalik-iste’mol, moliyaviy, transport kommunikatsiyalari va ijtimoiy sohalar bo‘yicha turkumlash maqsadga muvofiqdir.

O‘zbekiston uchun texnologik xavfsizlikni ta’minlash g‘oyat muhimdir. Chunki respublikamizga sobiq totalitar tuzumidan mo‘rt, zaif, bir yoqlama rivojlangan, asosan, xom ashyo va oraliq mahsulotlar ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan iqtisodiyot meros bo‘lib qolgan edi. Paxtaning 95 foizi qayta ishlanmasdan respublikadan tashqariga olib ketilar edi. Sobiq sho‘rolar davrining 50 yili mobaynida yengil sanoatning umumiy tarmoq ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 54 foizdan 37 foizga, oziqovqat sanoati ulushi esa 30 foizdan 14 foizgacha tushib qoldi.

Bu esa mustaqillikni mustahkamlashda texnologik xavfsizlikni ta’minlashning o‘ta zarurligidan dalolat beradi. Buning uchun respublikamizda iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va chuqur tarkibiy jihatdan o‘zgartirishlar amalga oshirilmoqda. Bularning natijasi o‘laroq sanoatda yuksak texnologiyaga asoslangan va istiqbolli tarmoqlarning chunonchi, mashinasozlik, yoqilg‘i-energetika, kimyo va yengil sanoat kabilarning hissasi ortib bordi.

Shuningdek, respublika uchun tamomila yangi bo‘lgan avtomobilsozlik sanoati vujudga keltirildi. Xorijiy investitsiyalarni jalb etish yo‘li bilan samolyotsozlik, radioelektronika va elektronika sohalarini rivojlantirishga katta e’tibor berilmoqda. Bu esa ishlab chiqarishni jadal modernizatsiya qilish, zamonaviy quvvatlarni ishga tushirish, iste’mol bozorini sifatli va raqobatga bardoshli mahsulotlar

bilan to‘ldirish asosida nafaqat texnologik, shu bilan birga, oziq-ovqat xavfsizligini ham ta’minlash imkoniyatini beradi.

Oziq-ovqat xavfsizligi mamlakat aholisining asosiy oziq-ovqat mahsulotlari bilan yetarli darajada ichki imkoniyatlardan foydalangan holda ta’minlanishini, importga bog‘liqlikni minimum darajasiga erishishni ifodalaydi. O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan so‘ng oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash uchun ikki yo‘nalishda chora-tadbirlar amalga oshirildi:

- qishloq aholisi tomorqa maydonlarini kengaytirish va yangilarini ajratib berish;

- qishloq xo‘jaligi ekinlari tarkibini qayta ko‘rib chiqish.

Davlatning oziq-ovqatga oid siyosati kartoshka, mevasabzavot mahsulotlari bilan ham o‘z-o‘zini ta’minlashni ko‘zda tutadi. Aholiga yetarli darajada chorvachilik mahsulotlari va o‘simlik yog‘i yetkazib berish,

qishloq xo‘jalik mahsulotlarini qayta ishlash va saqlash uchun zarur bo‘lgan bazani barpo etish, shuningdek, oziqovqat mahsulotlari asosiy turlarining yetarli zaxirasini shakllantirish, ularning chakana baholari barqarorligini ta’minlashga erishish, chetdan keltirilayotgan mahsulotlar hajmlarini qisqartirib borish kabilar ham oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashning muhim yo‘nalishlari hisoblanadi.

Ekologik xavfsizlik tabiiy muhitga turli noxush ta’sirlardan, tabiiy ofat va halokatlardan hamda insonlarning va xo‘jalik sub’ektlarining atrof-muhitga salbiy ta’sir ko‘rsatishidan himoyalanganlikni ifodalaydi.

Mazkur tushuncha tabiiy muhit bilan insonning fiziologik va ijtimoiy xususiyatlari o‘rtasidagi nisbatni ifodalaydi.

Moliyaviy xavfsizlik mamlakat va uning hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligi va rivojlanishi uchun zaruriy moliyaviy sharoit va resurslarning yaratilganligi, moliyaviy tizimning yaxlitligini saqlash hamda ichki va tashqi iqtisodiy manfaatlar tahdidlariga muvaffaqiyatli qarshilik qilishni ifodalaydi.

Bu xavfsizlik pul, byudjet, kredit, soliqqa tortish va valyuta tizimlarida vujudga keladigan tahdidlarning oldini olish, ulardan muhofazalanish kabilarni o‘z ichiga oladi.

Ijtimoiy tavsifdagi xavfsizlik aholining eng boy va eng quyi tabaqalari daromadlari o‘rtasidagi farq, kambag‘allik va qashshoqlik muammosi, turli yuqumli kasalliklar ko‘lamining kengayishini oldini olish zaruratida o‘z ifodasini topadi.

14.3. Mamlakatning barqaror iqtisodiy xavfsizlik siyosatining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini kursatkishlari

Mamlakatning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta’minlashda, uning jahon iqtisodiy tizimiga integratsiyalashuvida ichki va tashqi transport yo‘l va aloqa kommunikatsiyalari tizimining yaratilishi oqibatida transport yo‘l va aloqa kommunikatsiyalari xavfsizligi ta’minlanadi.

Mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirish uchun uning indikatorlari monitoringini tashkil etish zarur.

Iqtisodiy xavfsizlikning umumiy ko‘rsatkichlari
(indikatorlari) quyidagilardan iborat:

- turmush darajasi va sifati;
- inflyatsiya sur’ati;
- iqtisodiy o‘sish;
- byudjet defitsiti; davlat qarzi;
- jaxon iqtisodiyotiga kirib borganlik;
- "xufyona iqtisodiyot" faoliyati;
- mulk tarkibi;
- soliq tizimi;
- bozor infratuzilmalarining rivojlanishi.

Hududiy darajada umumiy ko‘rsatkichlardan tashqari yana quyidagi ko‘rsatkichlar iqtisodiy xavfsizlikni ifodalaydi:

- aholi daromadlari; chakana narxlar darajasi;
- uy-joy bilan ta’minlanganlik;
- qochoqlar, emigrantlar va boshqalar soni;
- hududning mamlakat YaIMdagi ulushi;
- hududning to‘lov balansi;
- eksport-import saldosi

Iqtisodiy xavfsizlikning quyi tahlikali chegarasi indikatorlari milliy iqtisodiyot sohalari va ularning har qaysisidagi milliy manfaatlar nuqtai nazaridan turkumlanadi.

Adabiyotlarda iqtisodiy xavfsizlik quyi tahlikali chegarasi indikatorlari o‘z ichiga ko‘rsatkichni olgan holda quyidagicha turkumlangan:

1) iqtisodiyotning barqaror rivojlanishga qodirligini ifodalovchi ko‘rsatkichlar. Ushbu guruhga yalpi ichki mahsulot hajmi, sanoat ishlab chiqarish va uning tarkibi, mashinasozlik mahsulotlari hajmida yangi turdagi mahsulotlar ulushi, mudofaa va fan uchun xarajatlar ulushi, investitsiyalar, foydali qazilma boyliklarining zaxiralari bo‘yicha quyi tahlikali chegarani ifodalovchi indikatorlar kiradi;

2) moliyaviy tizim barqarorligi ko‘rsatkichlariga davlat byudjeti kamomadi, davlat qarzi, pul muomalasi, o‘zaro hisob-kitob va soliq intizomini ifodalovchi ko‘rsatkichlar kiradi;

3) ijtimoiy soha ko‘rsatkichlari aholi daromadlari darajasi va uning mulkiy jihatdan tabaqalanishi, ishsizlik va ijtimoiy soha xarajatlari bo‘yicha quyi tahlikali chegaralarni o‘z ichiga oladi;

4) tashqi savdo va iqtisodiy faoliyat ko‘rsatkichlari guruhiga mamlakat ichki iste’molida importning ulushi va milliy ishlab chiqarish hajmida eksportning ulushi bo‘yicha quyi tahlikali chegaralarni ifodalovchi indikatorlar kiradi.

Bozor munosabatlariga o‘tishga qaratilgan iqtisodiy islohotlar sharoitida davlat xo‘jalik sub’ektlari faoliyatining iqtisodiy xavfsizligini ta’minlashi va fuqarolarga ziyon keltirishiga yo‘l qo‘ymasligi kerak. Ushbu maqsadlarda davlat, eng avvalo, tadbirkorlik muhitini yaxshilash, kichik va o‘rta biznesning mamlakat iqtisodiyotidagi ulushini ko‘paytirish, iqtisodiyotni monopoliyadan chiqarish va raqobatbardoshligini rivojlantirish, fond bozori, yer va ko‘chmas mulk bozorlarini shakllantirish bo‘yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqishi kerak. Bundan tashqari, hokimiyatning barcha bo‘g‘inlarida qonun loyihalarining sifati va asoslanganlik darajasini oshirish hamda qonunga barchani, hatto davlat hokimiyati

organlarining ham qat'iy rioya etishlari bo'yicha tadbirlar amalga oshirilishi zarur bo'ladi.

Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash uchun davlat quyidagilarni ko'zda tutishi lozim: ijtimoiy institutlar strategiyasini bir-biriga yaqinlashtirish, ularning faoliyatini koordinatsiyalashtirishga imkon beradigan institutsional o'zgarishlarni amalga oshirish xo'jalik jarayonlarining barcha ishtirokchilari uchun lobbizmni qonuniy cheklash, qonunchilikni maksimal unifikatsiyalash (ya'ni imtiyozlari va turli preferentslarni qisqartirish va yo'qotish) uchun iqtisodiy va ijtimoiy xatti-harakatlarning umumiy tamoyillarini ishlab chiqish va qabul qilish iqtisodiyot sub'ektlari va davlat boshqaruv organlari tomonidan qonunlarga, faoliyat tartib – qoidalariga rioya qilinishini nazorat qilish;

iqtisodiy munosabatlar sohasida vujudga keladigan munozara va ziddiyatlarni hal qilish mexanizmini yaratish kadrlarni korxonalar xo'jalik faoliyatini tahlil qilish va investitsiya loyihalarini baholashning zamonaviy usullariga o'qitishni tashkil qilish jamiyatda iqtisodiy barqarorlikni oshirish va ijtimoiy keskinlikning o'sishiga yo'l qo'ymaslik;

mamlakat iqtisodiy manfaatlarini hisobga olgan holda yaqin va uzoq xorijiy mamlakatlar bilan iqtisodiy, siyosiy munosabatlarni har tomonlama rivojlantirish.

Bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan mamlakatlar yaqin istiqbolda quyidagi vazifalarni amalga oshirishlari lozim bo'ladi:

1) samarali va raqobatbardosh ishlab chiqarishni qo'llabquvvatlash va istiqboli yo'q, eskirgan ishlab chiqarishni to'xtatib qo'yish;

2) tarkibiy o'zgartirishlarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan iqtisodiyot infratuzilmalarini rivojlantirish;

3) iqtisodiy resurslardan samarali foydalanishni ta'minlash;

4) mavjud ilmiy texnika salohiyatining eng qimmatli elementlarini saqlash;

5) iqtisodiyot tarkibining deformatsiyalashuviga barham berishda chuqur tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish, ishlab chiqarish tarkibini to‘lovga qodir talab bilan uyg‘unlashtirish;

6) korxonalarning bozor sharoitlariga moslashuvini tezlashtirish;

7) eksport salohiyatini diversifikatsiyalash;

8) ekologik xavfsizlikni oshirishni ta’minlash.

Ushbu vazifalarni bajarish milliy iqtisodiyotning ko‘pchilik tarmoqlarining raqobatga bardoshli emasligini bartaraf etishga imkon yaratadi. Bundan kelib chiqqan holda, tarkibiy siyosat mikro va makro iqtisodiyot darajalarida uch asosiy yo‘nalishda amalga oshirilishi kerak, degan xulosa chiqarish mumkin.

Buning uchun davlat hokimiyat organlari mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash uchun ma’lum tarmoq va sohalarni selektiv qo‘llab-quvvatlashi darkor bo‘ladi.

14.4. Barqaror iqtisodiy xavfsizlik siyosatining tarkibiy siyosatini amalga oshirish zarurati

Makroiqtisodiyot darajasida barqaror iqtisodiy xavfsizlik siyosatining tarkibiy siyosatni amalga oshirish jarayonida quyidagi vazifalar hal qilinishi zarur barqaror iqtisodiy xavfsizlikni ta minlovchi jami talabni oshirish jamg‘arish normasini o‘stirish va uni investitsiyaga aylanishini ta’minlash rivojlanishdan to‘xtab qolgan sektorlardagi barcha turdagi resurslarning rivojlanayotgan sektorlarga oqib o‘tishini rag‘batlantirish;

Barqaror iqtisodiy xavfsizlikni taminlovchi yalpi investitsiyalarni ko‘paytirish eksportni rag‘batlantirish;

umum qabul qilingan tartib-qoidalar doirasida milliy ishlab chiqaruvchilarni himoya qilish maqsadida importni tartibga solish. Mikroiqtisodiyot darajasida tarkibiy siyosatni amalga oshirish jarayonida quyidagi vazifalarni bajarish zarur bo‘ladi iqtisodiy nuqtai nazardan samarali korxona va ishlab chiqarishlarning rivojlanishini rag‘batlantirish va qo‘llabquvvatlash samarasiz ishlab chiqarishlar va korxonalarni tugatish yoki reorganizatsiya, ya’ni qayta tashkil etish yangi monopolistik tuzilmalarning paydo bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaslik

tarmoqlararo kapital oquvchanligini ta’minlash maqsadida fond bozorining rivojlanishini tartibga solish va rag‘batlantirish narx o‘sishini to‘xtatish chora-tadbirlarini ko‘rish iqtisodiy sub’ektlar xatti-harakatining bozorga xos normalarini joriy qilishni rag‘batlantirish.

Mamlakatimizda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevralda imzolagan “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoniga muvofiq tasdiqlangan “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”ning amalga oshirilishi iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashda muhim ahamiyatga egadir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga murojaatnomasida mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash, mudofaa-sanoat kompleksini shakllantirish va rivojlantirish davlat dasturini qabul qilish, avvalo, Milliy xavfsizlik kontseptsiyasi hamda Mudofaa doktrinasining samarali va o‘z vaqtida amalga oshirilishini ta’minlash bo‘yicha hali ko‘p ish qilishimiz kerakligini ta’kidlagan.

Mamlakatda iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash uzoq muddatli strategik vazifa hisoblanadi. Bu vazifani amalga oshirish uchun iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash davlat strategiyasi, ya’ni doktrinasini ishlab chiqish va qabul qilish zarur bo‘ladi. Ushbu davlat strategiyasi oliy milliy davlat manfaatlariga javob bera olishi kerak.

Iqtisodiy xavfsizlik davlat strategiyasida erishiladigan pirovard maqsad va uni amalga oshirish bosqichlari o‘z ifodasini topishi lozim. Shu davrda iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashning kafolati bo‘lgan davlatning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat bo‘ladi:
xavfsizlikni ta’minlash bo‘yicha xo‘jalik va siyosiy xarakterdagi qarorlarni qabul qilish ijtimoiy jarayonlarni boshqarish mexanizmiga tahdidlarning paydo bo‘lganligi to‘g‘risida signal beruvchi indikatorlarni kiritish iqtisodiy tahdidlarni yumshatish, bartaraf etish, neytrallashga qaratilgan samarali choratadbirlarni ishlab chiqishni amalga oshirish. Mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash kontseptsiyasi doimo uzoq muddatli milliy davlat manfaatlariga asoslanadi. Boshqacha aytganda mazkur kontseptsiya mamlakatning

kelajagi to‘g‘risidagi tasavvurga, isloh delga, shuningdek, barqaror, mustahkam rivojlanish strategiyasiga bog‘liq bo‘ladi.

Tayanch iboralar: iqtisodiy xavfsizlik, milliy xavfsizlik, makroiqtisodiy kategoriya, oziq-ovqat xavfsizligi, yoqilg‘i-energetika xavfsizligi, eksport xavfsizligi, shaxsning iqtisodiy xavfsizligi, korxona (firma)ning iqtisodiy xavfsizligi, davlatning iqtisodiy xavfsizligi, texnologik xavfsizlik, oziq-ovqat xavfsizligi, ekologik xavfsizlik, moliyaviy xavfsizlik, ijtimoiy xavfsizlik, turmush darajasi va sifati.

Nazorat va takrorlash uchun savollar

1. Iqtisodiy xavfsizlik nima va u qanday ta’riflanadi?
2. Iqtisodiy xavfsizlik milliy xavfsizlikning qanday qismini tashkil etadi?
3. Iqtisodiy xavfsizlikning bosh mezoni nima hisoblanadi?
4. Rivojlangan mamlakatlarda iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash uchun qanday xizmatlar tashkil qilinadi?
5. Iqtisodiy xavfsizlik qanday shakllarda namoyon bo‘ladi?
6. Shaxsning iqtisodiy xavfsizligi nimani ifodalaydi?
7. Korxona iqtisodiy xavfsizligi qanday turlarga bo‘linadi?
8. O‘zbekiston uchun qanday xavfsizlik turlari alohida ahamiyatga ega?
9. Iqtisodiy mustaqillik nima uchun absolyut xarakterga ega emas?
10. Milliy iqtisodiyotning barqarorligi uchun qanday shartlar zarur?
11. O‘z-o‘zidan rivojlanish qobiliyati qanday omillarga bog‘liq?
12. O‘zbekiston uchun texnologik xavfsizlik nima uchun muhim?
13. Oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash uchun qanday chora-tadbirlar amalga oshirildi?
14. Ekologik xavfsizlik nimani o‘z ichiga oladi?
15. Moliyaviy xavfsizlik qanday tizimlarni qamrab oladi?
16. Iqtisodiy xavfsizlikning umumiy ko‘rsatkichlari qaysilar?
17. Hududivy darajadagi ko‘rsatkichlar qanday bo‘ladi?

18. Quyi tahlikali chegara indikatorlari qanday guruhlarga bo‘linadi?

19. Har bir guruh ko‘rsatkichlari nimani ifodalaydi?

20. Davlat iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash uchun nimalarni ko‘zda tutishi kerak?

21. Bozor iqtisodiyotiga o‘tayotgan mamlakatlar qanday vazifalarni bajarishi lozim?

22.Makroiqtisodiy darajada qanday vazifalar hal qilinishi zarur?

23. Mikroiqtisodiy darajada qanday vazifalar amalga oshiriladi?

24. “2017-2021 yillarda Harakatlar strategiyasi” iqtisodiy xavfsizlikda qanday rol o‘ynaydi?

25. Prezident Shavkat Mirziyoev qanday vazifalarni ta’kidlagan?

26. Iqtisodiy xavfsizlik davlat strategiyasida qanday maqsadlar bo‘lishi kerak?

XV BOB. DAVLATNING TASHQI IQTISODIY FAOLIYATNI TARTIBGA SOLISH SIYOSATI

15.1. O‘zbekiston iqtisodiy siyosatida dunyo mamlakatlari o‘rtasida ishlab chiqarish aloqalarining baynalminallashuvi va globallashuvi.

15.2. O‘zbekiston iqtisodiy siyosatida tashqi iqtisodiy siyosatining asosiy maqsadlari.

15.3. Respublika iqtisodiy siyosatida davlatni xalqaro savdo jarayonlariga aralashuvi.

15.1. O‘zbekiston iqtisodiy siyosatida dunyo mamlakatlari o‘rtasida ishlab chiqarish aloqalarining baynalminallashuvi va globallashuvi

Dunyo mamlakatlarining jadallik bilan rivojlanib borayotganligi, ular o‘rtasida ishlab chiqarish aloqalarining baynalminallashuvi va globallashuvi, hamda iqtisodiy aloqalarning kuchayishi, har bir davlatdan tashqi omillardan oqilona va samarali foydalanish, milliy iqtisodiyotni tashqi ta’sirlardan himoyalashga qaratilgan tashqi iqtisodiy siyosat yuritishni talab etadi.

Shu bilan birga, mamlakat iqtisodiyotining jahon iqtisodiyoti bilan, ichki bozorning tashqi bozorlar bilan o‘zaro hamkorligi uchun sifat jihatidan yangi negizlarini shakllantiradigan tub bozor o‘zgarishlarini amalga oshirish ob’ektiv ravishda tashqi iqtisodiy omillarni kuchaytirishni taqozo etadi.

Davlatning tashqi iqtisodiy siyosati - xalqaro munosabatlarda milliy manfaatlarni ta’minlash borasidagi davlat faoliyatining yo‘nalishi va sohasi, shuningdek tegishli maqsad va vazifalarni amalga oshirishdagi aniq chora-tadbirlar yig‘indisidir. Tashqi iqtisodiy siyosatning mohiyati uning davlat va xalqning suverenitetini ta’minlashdan iborat bo‘lgan, milliy manfaatlarni himoya qilish bo‘yicha mexanizmining butun sa’y-harakati ijtimoiy-iktisodiy integratsion jarayonlarda milliy, mintaqaviy va global xavfsizlikni ta’minlashda o‘z ifodasini topadi.

Davlatning tashqi iqtisodiy siyosati negizida tashqi iqtisodiy aloqalarni tartibga solish va ishlab chiqarish omillarining xalqaro taqsimlanishida mamlakat ishtirokini maqbullashtirish tartibini belgilashga doirbir maqsadga yo‘naltirilgan faoliyatlar yotadi.

Tashqi iqtisodiy siyosatning tarkibiy qismlari bo‘lib tashqi savdo siyosati, xorijiy investitsiyalarni jalb etish va xorijdagi milliy kapital qo‘yilmalarni tartibga solish borasidagi siyosat, valyuta siyosatilari hisoblanadi. Bundan tashqari mamlakatning iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash bilan bog‘liq bo‘lgan alohida davlatlar va mintaqalar bilan tashqi iqtisodiy operatsiyalarni amalga oshirish ko‘rinishlari ham mavjud.

Tashqi iqtisodiy siyosat tashqi iqtisodiy faoliyatni ham tartibga soladi. Ko‘plab davlatlarda mavjud bo‘lgan tashqi iqtisodiy siyosat vositalarining keng doirasi ularga o‘z tashqi iqtisodiy aloqalari tarkibini va ularni rivojlantirish yo‘nalishlarini shakllantirishga ham, boshqa mamlakatlarning tashqi iqtisodiy aloqalari va tashqi iqtisodiy siyosatiga ham faol ta’sir etish imkonini beradi. Tashqi iqtisodiy siyosat vositalarini savdo-siyosiy mexanizm sifatida ta’riflash mumkin.

Tashqi iqtisodiy siyosatni shakllantirish uchun uning asosiy tamoyillarini aniq va ravshan belgilash lozim.

Unda tashqi iqtisodiy faoliyat qatnashchilarining xattiharakatlarini iqtisodiy-huquqiy tartibga solishga asosiy o‘rin ajratilgan bo‘lib, umummilliy manfaatlarga mos kelishi lozim.

Davlatlarning tashqi iqtisodiy siyosatni normativ tartibga solish negizida milliy hamda xalqaro huquq me’yorlari yotadi. Biroq, davlatning tashqi iqtisodiy siyosat sohasidagi munosabatlarini tartibga solishda milliy xuquqiy mexanizmlarning ham ahamiyati katta. Bunday msxanizmlar hozirgi kunda davlatning xalqaro maydondagi strategik faoliyatini belgilashda muhim rol o‘ynab kelmoqda.

15.2. O‘zbekiston iqtisodiy siyosatida tashqi iqtisodiy siyosatining asosiy maqsadlari

O‘zbekiston tashqi iqtisodiy siyosatining asosiy maqsadlari va uni amalga oshirishga qaratilgan choratadbirlar sifatida mamlakat

taraqqiyotining har bir bosqichida uning o‘z oldiga qo‘ygan vazifalari mavjud bo‘lib, davlatning iqtisodiy siyosati bu vazifalarni bajarilishiga qaratilmog‘i kerak. Mamlakat iqtisodiy rivojlanishining har bir bosqichida davlat tashqi iqtisodiy siyosatining maqsadlari shu davrning o‘ziga xos xususiyatlariga mos kelishi kerak. Ular orasida eng muhimlari quyidagilar:

- eksportni rivojlantirish va uning tarkibiy tuzilishini yaxshilash;
- importning tarkibiy tuzilishini takomillashtirish, ya’ni uni milliy ishlab chiqarishni zamonaviylashtirish va kengaytirishga qaratish;
- ishlab chiqaruvchi kuchlarni sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish uchun chet el investitsiyalarini jalb etish;
- mamlkatning iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash, ya’ni ma’lum darajada tashqi iqtisodiy faoliyatda eksportimport operatsiyalari, valyutani olib chiqish, boshqa xalqaro bitimlar ustidan davlat nazoratini o‘rnatish.

Davlatning tashqi iqtisodiy siyosati aniq belgilangan maqsadlar va ularni amalga oshirishga qaratilgan asosiy tadbirlarni o‘z ichiga oladi.

Birinchidan, respublika milliy iqtisodiyotining kuchli eksport bo‘g‘inini tashkil etuvchi va uni jahon bozorida munosib o‘ringa ega bo‘lishini ta’minlovchi sohalarini aniqlash.

Ikkinchidan, iqtisodiyotning eksport bo‘g‘inida davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash usullaridan keng foydalanish. Bu usullar quyidagilardan iborat:

- eksportga yo‘naltirilgan ishlab chiqarishni kengaytirish uchun imtiyozli foizlar bo‘yicha uzoq muddatli kreditlar ajratish;
- milliy investitsiyalarni sug‘urtalash;
- eksport qiluvchilarga milliy ishlab chiqarish va uning xorijiy raqobatchilari ishlab chiqarishi xarajatlari o‘rtasidagi farqni qoplash;
- davlat tomonidan respublikaga ilg‘or texnologiyalar, tajribalar, bilimlarni kirib kelishiga subsidiyalar ajratish;
- eksport va importni litsenziyalash yoki chetga mol chiqarishga va chetdan uni olib kelishga ruxsatnomalar berish;

- ishlab chiqarish jarayonida qatnashuvchi, xorijdan keltiriladigan xom ashyo va materiallar, asmavzu-uskunalar va jihozlar ulushini bosqichma-bosqich kamaytirish va boshqalar.

Shu bilan birga, tashqi iqtisodiy siyosat milliy valyutani mustahkamlash va uni boshqa valyutalarga erkin almashuvini ta'minlashni, ichki narxlarni jahon bozori narxlariga yaqinlashtirish maqsadida baholar islohotini tugallashni, tashqi iqtisodiy faoliyatning me'yoriy va huquqiy asoslarini xalqaro talablar darajasiga yetkazishni nazarda tutadi.

Bozor qonunlari asosida rivojlanayotgan va davlat aralashuvi yuqori bo'lgan mamlakatlarning barchasida davlat erkin xalqaro ayirboshlash yo'liga ma'lum to'siqlar qo'yadi va bunday holat milliy manfaatlarni himoya qilish zarurligi bilan tushuntiriladi. Bularga mamlakat iste'mol bozorlarini himoyalash, ichki bandlikni oshirish, yangi tarmoqlarni rivojlantirish va hokazolar kiradi.

Iqtisodiy raqobatga bardoshli bo'lgan davlatlar ham, bunday raqobatga chidamsiz davlatlar ham litsenziyalash va kvotalarni o'rnatish, bojxona bojlari va tariflarni kiritish, mahsulot sifati va uning xavfsizligini ta'minlovchi standartlarni o'rnatish hamda tashqi iqtisodiy faoliyatga ta'sir etuvchi boshqa bir qator vositalardan keng foydalanadilar, shu orqali o'z tashqi iqtisodiy siyosatlarini yurgizadilar.

Davlat tomonidan amalga oshiriladigan mamlakatning tashki iktisodiy faoliyati kundalik va strategik maksadlarga muvofik uning tashki iktisodiy siyosatiga asoslangan. Mamlakatning tashki iktisodiy siyosati deganda, boshka mamlakatlar bilan iktisodiy aloqalarni rivojlantirish va tartibga solishga karatilgan faoliyat tushuniladi.

15.3. O'zbekiston iqtisodiy siyosatida tashqi iqtisodiy siyosatining asosiy maqsadlari

Davlatni xalqaro savdo jarayonlariga aralashuvi darajasiga ko'ra xalqaro savdo siyosati protektsionistik savdo siyosatiga hamda erkin savdo siyosatiga bo'linadi.

Erkin savdo – davlatni tashqi savdo jarayonlariga aralashuvini kamayishi, ya'ni tashqi savdoni erkin bozor talabi va taklifiga asosan rivojlanish.

Protektsionizm – tarif va notarif usullarini qo'llash orqali ichki bozorni chet el raqobatchilaridan ximoya qaratilgan davlat siyosati.

Erkinlashtirish va protektsionizm siyosati dunyodagi xar qanday davlat uchun xos. Hozirgi paytda tashqi savdoni erkinlashtirishga moyillik kuzatilayapti. Bu jarayon uch xil ko'rinishda amalga oshirilayapti:

- alohida mamlakatlar o'rtasidagi o'zaro savdoda;
- yagona bojxona ittifoqiga kiruvchi alohida davlatlar o'rtasida;
- Jahon savdo tashkiloti, Savdo va rivojlanish buyicha BMTning konferentsiyalari (YuNKTAD), BMTning Yevropa iktisodiy komissiyasi (EIK) doirasida ko'p tomonlama kelishuvlar asosida amalga oshiriladi.

Tashqi iqtisodiy siyosat - bu milliy joriy va strategik maqsadlarga muvofiq tashqi iqtisodiy munosabatlar sohasida davlat idoralari tomonidan amalga oshiriladigan chora-tadbirlar yig'indisidir.

Tashqi iqtisodiy siyosatning makon jihati jahon va mamlakat iqtisodiyotiga ta'sir ko'rsatishning asosiy yo'nalishlari bo'yicha davlatning harakatlarini belgilaydi. Ushbu belgiga binoan, davlatning tashqi iqtisodiy siyosati tarkibiga tashqi savdo siyosati, tashqi investitsiya siyosati, valyuta siyosati, bijxona siyosati kiradi.

Davlatning tashqi savdo siyosati xalqaro darajada tovarlar, ishlar, xizmatlar, axborotlar, intellektual faoliyat natijalari bilan amalga oshiriladigan ayirboshlashni qamrab oladi va eksport va import siyosatlari birgalikda tashqi savdo siyosatini tashkil etadi.

Tashqi savdo bo'yicha davlatning eksport siyosati deganda mamlakatning raqobatbardosh tovarlar, xizmatlar va intellektual mulklarni jahon bozorida sotishga va ushbu tovarlarni ishlab chiqarishni rag'batlantirishga yo'naltirilgan chora-tadbirlar tushuniladi. Eksport qiluvchi korxonalarni rag'batlantirishda davlat byurtmalari, byudjetdan moliyalash, imtiyozli kreditlar berish, ilmiy tadqiqot va

tajriba konstruktorlik ishlarini moliyalash va hokazolardan foydalaniladi.

Tashqi savdo bo‘yicha davlatning import siyosati deganda mamlakatga xarijdan tovarlar, ishlar, xizmatlar va intellektual mulklarni kelinishini tartibga solishga yo‘naltirilgan chora-tadbirlar tushuniladi. Bunday tartibga solishning vositasi sifatida respublika iqtisodiyotini himoya qilish maqsadida importni to‘g‘ridan-to‘g‘ri cheklash xisoblanadi. Bunda litsenziyalash va kontingentlash, importga oid antideping va kompensatsiya bojlari, eng kam import narxlari tizimi va hokazolar qo‘llaniladi.

Tashqi investitsiya siyosati xorijiy investitsiyalarini mamlakat xududiga jalb etish va ulardan foydalanish hamda milliy investitsiyalarini xorijga olib chiqishni tartibga solishga doir chora-tadbirlar majuidan iborat. Valyuta siyosati davlat va xalqaro valyuta-moliya tashkilotlari tamonidan amalga oshiriladigan valyuta munosabatlari sohasidagi iqtisodiy choralar hamda tashkiliy shakl v usullar yig‘indisini tashkil etadi. Valyuta siyosati davlatning valyuta mablag‘laridan maqsadli foydalanish bo‘lib, o‘z ichiga valyuta mablag‘larini shakillantirish va ishlatishning asosiy yo‘nalishlarini hamda bunday mablag‘lardan samarali foydalanishga yo‘natirilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqishni oladi. Valyuta siyosatining amal qilish sohasi bo‘lib valyuta bozori, qimmatbaho metallar va toshlar bozori hisoblanadi. Davlatning valyuta siyosati diskont va deviz siyosatlariga bo‘linib, moliya tizimining bir maromli faoliyatini va mamlakat to‘lov balansi muvozanatini ta’minlash kabi vazifalarni qamrab oladi. Diskont siyosati investitsiyalar xarakatlarini tartibga solish va to‘lov majburiyatlarini muvozanatlashtirish, valyuta kursini taxminiy tuzatish uchun foizning hisob stavkasidan foydalanish bo‘yicha charo-tadbirlar tizimini o‘z ichiga oladi. Ushbu siyosat pul talabi xolatiga, narx dinamikasi va darajasiga, pul massasi hajmiga, qisqa muddatli investitsiyalar migratsiyasiga ta’sir ko‘rsatishda namoyon bo‘ladi. Devis siyosati- valyuta interventsiyasi va valyuta cheklashlari yordamida valyutani xarid qilish va sotish bilan valyuta kursini tartibga solish tizimidir. Valyuta interventsiyasi Markaziy

bankning xorijiy valyutaning oldi-sotdisi bo‘yicha maqsadli operatsiyalari bo‘lib, u milliy valyuta kursi dinamiksini uni oshirish yoki pasaytirishning muayyan chegaralari bilan cheklash maqsadini ko‘zlaydi. Valyuta cheklashlari milliy va xorijiy valyuta, oltin va xokazolarga doir operatsiyalarni tartibga soladigan iqtisodiy, xuquqiy, tashkiliy chara-tadbirlar majmuidan iborat.

Ishchi kuchining tashqi migratsiya siyosati ishchi kuchi eksporti siyosati va ishchi kuchi importi siyosatlariga bo‘linadi. Ishchi kuchi eksporti siyosati deganda bir mamlakat hududidan ikkinchi bir mamlakatga ishchi kuchining ko‘chishi uchun qulay sharoit yaratish yoki ta’qiqlash borasidagi davlat tomonidan amalga oshiriladigan chora-tadbirlar yig‘indisi tushuniladi. Ishchi kuchini eksport qilish natijasida mamlakatda ishsizlik darajasini kamaytirish va mamlakatga qo‘shimcha valyuta daromadlarini paydo qilish imkoniyati yuzaga keladi.

Ishchi kuchini import siyosati deganda mamlakatga xarijdan ishchi kuchining kirib kelishi uchun qulay sharoit yaratish yoki to‘siqlar qo‘yish borasidagi davlat tomonidan amalga oshiriladigan choratadbirlar yig‘indisi tushuniladi. Bojxona siyosati – davlat tashqi savdo faoliyatining bir qismi bo‘lib, tovarlarni eksport va import qilishning shartsharoitlari, hajmi va tarkibini tartibga solib turadi. Bojxona siyosatining mohiyati bojxona – tarif qonunchiligida, bojxona ittifoqlari va konventsiyalari, erkin zonalar, tarif blokadalari va boshqalarni tashkil etishda namoyon bo‘ladi. Tovarlarni olib kirish yoki olib chiqishning davlat tomonidan rag‘batlantirilishi yoki chegaralanishiga bog‘liq holda iqtisodiy va bojxona siyosatining quyidagi to‘rt asosiy turini ajratish mumkin:

1. Qisman cheklash siyosati. Bu siyosat ichki bozorga ba’zi tovarlarni, masalan, mamlakat milliy mafkurasiga hamda aholi turmush tarziga teskari ta’sir qiladigan kino – video mahsulotlari va turli nashrlarni kiritmaslik maqsadida qo‘llaniladi.

2. Protektsionizm siyosati. Bu ichki bozorni xorijiy raqobatdan himoyalashdir.

3. Erkin savdo siyosati – “fritrederlik”. Bu tashqi savdodagi cheklashlarni eng minimumiga tushirishdir. Odatda, u o‘z tovarlarining raqobatbardoshligi yuqori bo‘lgan va bozorlarda yetakchi mavqega ega mamlakatlar tomonidan qo‘llaniladi.

4. Taqchil bozorni to‘yintirish – «teskari protektsionizm» siyosati. Bu faqat milliy bozorda chuqur taqchillik sharoiti yuz berganda va unda hammaga o‘rin topiladigan sharoitdagina samarali hisoblanadi.

Bojxona siyosatining asosiy vazifalari quyidagilardan iboratdir:

1) tashqi savdoning rivojlanishiga ko‘mak berish;

2) davlatning iqtisodiy o‘sishini tezlashtirish;

3) xalqaro mehnat taqsimotida qatnashishdan foyda olish;

4) mamlakat savdo va to‘lov balansining ijobiy saldosini ta’minlash;

5) davlat byudjeti daromadlarini o‘stirish;

6) xorijiy davlatlar va ular ittifoqlarining diskriminatsion aktsiyalariga qarshi harakat olib borish;

7) davlatning savdo – siyosiy pozitsiyasini mustahkamlash;

8) korxonalar, tashkilotlarva tadbirkorlarning tashqi bozorga chiqishini ta’minlash;

9) milliy iqtisodiyotning tarkibiy qayta qurilishiga ko‘mak berish;

10) mamlakat xalq xo‘jaligining jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvini chuqurlashtirish;

11) bozor faoliyatiga shart – sharoit yaratish.

O‘zbekiston Respublikasi bojxona siyosatining asosiy tamoyillari Jahon savdo tashkiloti (JST) hujjatlarida qayd etilgan bojxona siyosatining xalqaro tajribalariga hamda O‘zbekistonning tashqi va ichki siyosati tamoyillariga asoslangan bo‘lib, quyidagilardan iborat:

O‘zbekiston Respublikasi bojxona siyosatining asosiy tamoyillari

1. Xalqaro huquq normalarining ichki davlat normalari oldida ustunligini tan olish tamoyli. Uning mohiyati shundaki, o‘z milliy huquq tizimini yaratayotgan milliy davlatimiz xalqaro huquq normalarining ichki davlat normalari oldida ustun turishini tan oladi. O‘zbekiston Respublikasining BMT, JST va boshqa xalqaro tashkilotlarga a’zo bo‘lishi Respublikaning bojxona ishi sohasidagi

umumjahon muammolarni hal etishda faol ishtirok etishiga keng imkoniyatlar ochib berdi va Respublika zimmasiga bir qator majburiyatlarni ham yukladi.

2. O‘zbekistonda amalga oshiriladigan bojxona siyosatining yagonaligi tamoyili. Bu O‘zbekiston Respublikasining bojxona hududida yagona bojxona siyosatining olib borilishini anglatadi.

3. Ikki va ko‘p tomonlama aloqalarni o‘rnatish va rivojlantirish tamoyili. Bu tamoyil O‘zbekiston Respublikasining bojxona ishi sohasida xalqaro hamkorlik olib borishga faol intilishi orqali amalga oshiriladi.

4. Milliy davlat manfaatlari ustunligini hisobga olgan holda o‘zaro savdo kelishuvlarida yon berishlik tamoyili. Bojxona siyosati hamkor mamlakatlarning joriy manfaatlarini hisobga olsa hamda o‘zaro munosabatlarda ma’lum bir kelishuvlarni qabul qilsa, uning samaradorligi yanada oshadi. Ammo, bunda davlatning milliy xavfsizligi xavf ostiga qo‘yilishi mumkin emas.

5. O‘zaro kamsitmaslik tamoyili. Davlat o‘z iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish maqsadida bojxona siyosati dastaklari orqali u yoki bu milliy bozorda chegaralash chora–tadbirlarini qo‘llaydi. Ularni qo‘llash diskriminatsion (kamsitish) ko‘rinishda bo‘lmasligi, ya’ni bazi mamlakatlarga nisbatan emas, balki barcha qatnashuvchi mamlakatlarga nisbatan birdek qo‘llanishi lozim.

6. Bir tomonlama harakatlarga yo‘l qo‘ymaslik. Milliy bozorni himoya qilish bo‘yicha qarorlar ko‘p tomonlama maslahatlashuvlardan so‘ng qabul qilinishi kerak.

7. Demokratizm tamoyili. Demokratizm tamoyili bojxona siyosatini ishlab chiqish va uni hayotga qo‘llashda xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar va fuqarolarning bojxona ishi sohasidagi huquqlarining himoyalanishini talab qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev Oliy Majlisga murojaatnomasida “Tashqi iqtisodiy sohada hali ishga solinmagan katta imkoniyat va zaxiralar mavjudligini ta’kidlash lozim. Bu borada biz Markaziy Osiyo mamlakatlari va yirik sheriklarimiz – Xitoy, Rossiya, Janubiy Koreya, AQSH, Turkiya, Yevropa Ittifoqi

mamlakatlari bilan savdo-iqtisodiy aloqalarni kengaytirishni davom ettiramiz",-deb ta'kidladi.

Shundan kelib chiqib, tashqi iqtisodiy faoliyatni, shu jumladan, tashqi savdo aloqalarini yanada rivojlantirish maqsadida quyidagi vazifalar belgilandi:

O'zbekiston Respublikasining tashqi savdo yuklarini jahondagi va mintaqadagi asosiy bozorlarga olib chiqadigan ishonchli transport va tranzit yo'laklarini izchil shakllantirishga alohida e'tibor qaratish;

- logistik marshrutlarni diversifikatsiya qilish, bu borada qo'shnilarimiz bilan amaliy muzokaralar o'tkazish;

- Xitoy davlatining tashabbusi bilan amalga oshirilayotgan "Bir makon, bir yo'l" loyihasi doirasida mamlakatimizning transport-kommunikatsiya infratuzilmalari sohasidagi imkoniyatlarini oshirish;

- tranzit davlatlar, xususan, Turkmaniston, Eron,

Qozog'iston, Rossiya, Ozarbayjon va Gruziya hududlaridan asosiy eksport yuklarini tranzit shaklida tashishda preferentsiyalarga ega bo'lish;

- xorijiy va mahalliy investorlarning logistika sohasida aniq loyihalarni amalga oshirish borasidagi harakatlarini rag'batlantirish;

- milliy yuk tashuvchilarni qo'llab-quvvatlash, tadbirkorlarga qo'shimcha sharoitlar yaratish

maqsadida "Milliy logistika portali"ni tashkil etish;

- Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish bo'yicha muzokaralarni qayta boshlash;

qayta boshlash;

- eksportni yanada rag'batlantirish maqsadida texnik jihatdan tartibga solish tizimini xalqaro standartlarga uyg'unlashtirish;

- asosiy maqsadlarimizdan biri – tashqi bozorga sifatli va sertifikatlangan mahsulotlarni "o'zbek brendi" nomi bilan olib chiqishdan iborat.

Tayanch iboralar: tashqi iqtisodiy siyosat, baynalminallashuv, globallashuv, milliy manfaatlar, iqtisodiy xavfsizlik, savdo-siyosiy mexanizm, tashqi savdo siyosati, xorijiy investitsiya siyosati, valyuta

siyosati, bojxona siyosati, ishchi kuchi migratsiya siyosati, eksportni rivojlantirish, import tuzilishini takomillashtirish, chet el investitsiyalarini jalb etish, raqobatbardoshlikni oshirish, milliy valyutani mustahkamlash, imtiyozli kreditlar, subsidiyalar.

Nazorat va takrorlash uchun savollar

1. Davlatning tashqi iqtisodiy siyosati nima?
2. Tashqi iqtisodiy siyosatning mohiyati nimadan iborat?
3. Baynalminallashuv va globallashuv jarayonlari tashqi iqtisodiy siyosatga qanday ta'sir qiladi?
4. Milliy manfaatlarni ta'minlashda tashqi iqtisodiy siyosatning roli qanday?
5. O'zbekiston tashqi iqtisodiy siyosatining asosiy maqsadlari qaysilar?
6. Eksportni rivojlantirish va uning tarkibiy tuzilishini yaxshilash nima uchun muhim?
7. Import tuzilishini takomillashtirish deganda nima tushuniladi?
8. Chet el investitsiyalarini jalb etishning ahamiyati nimada?
9. Mamlakatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash qanday amalga oshiriladi?
10. Tashqi iqtisodiy faoliyatda davlat nazorati qaysi sohalarda o'rnatiladi?
11. Eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlash usullari qaysilar?
12. Imtiyozli kreditlar berish qanday amalga oshiriladi?
13. Milliy investitsiyalarni sug'urtalash mexanizmi qanday ishlaydi?
14. Subsidiyalar qaysi sohalarda qo'llaniladi?
15. Eksport va importni litsenziyalash qanday amalga oshiriladi?
16. Ruxsatnomalar berish tartibi qanday?
17. Xorijdan keltiriladigan xom ashyo ulushini kamaytirish qanday amalga oshiriladi?
18. Erkin savdo siyosati nima?
19. Protektsionizm siyosati qanday amalga oshiriladi?

20. Qaysi davlatlar erkin savdo siyosatini qo‘llaydi?
21. Protektsionizm siyosati qachon samarali hisoblanadi?
22. Tarif va notarif usullari o‘rtasidagi farq nimada?
23. Litsenziyalash va kvotalar qanday qo‘llaniladi?
24. Bojxona bojlari va tariflar qanday belgilanadi?
25. Mahsulot sifati standartlari qanday ta’sir qiladi?

XVI BOB. DAVLATNING TABIIY RESURSLARDAN FOYDALANISH JARAYONLARINI TARTIBGA SOLISHI VA EKOLOGIYA SOHASIDAGI SIYOSATI

16.1. Tabiiy resurslardan foydalanishni boshqarish tizimi va atrof-muhitni saqlash. Davlatning ekologik siyosatining shakllanishi.

16.2. Davlatning tabiatdan foydalanish vazifalari. Atrof muhit monitoringi. Ekologik standartlar.

16.1. Tabiiy resurslardan foydalanishni boshqarish tizimi va atrof-muhitni saqlash

Davlatning ekologik siyosatining shakllanishi.

- O‘zbekiston Respublikasidagi milliy monitoring tizimi uch turni o‘z ichiga oladi: sanitariya – gigiyena monitoringi, ekologik monitoring, iqlim monitoringi. Ularning funktsiyalari qo‘yidagilar: atrof muhit holatini kuzatish, holatini baholash, va bashoratlash.
- Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi tahliliy nazorat davlat inspeksiyasi hozirgi vaqtda respublikamizning havo muhiti, tuproq va ochiq suv havzalari yagona monitoring tizimini barpo etish ishlarini amalga oshirayotir. Uning asosiy faoliyati ifloslantirish manbalari monitoring dasturini amalga oshirishga yo‘naltirilgan.
- Monitoring tizimini yanada takomillashtirish uchun muntazam kuzatuvlarning texnologik darajasini takomillashtirish va monitoring tarmog‘ini kengaytirish lozim.
- Ekologik standartlar va normativlar. Har bir mamlakatda bo‘lgani kabi atrof muhitni muhofaza qilishning va tabiiy resurslardan foydalanishning standartlari va normativ huquqiy tizimi O‘zbekistonda ham yaratilgandir.
- Mazkur standart va normativlar atrof muhit sifatiga qo‘yilgan cheklashlar va talablarning o‘zaro bog‘liq kompleksi, shuningdek ishlab chiqariladigan mahsulot va xizmatlarning ishlab chiqarish texnologik va tashkiliy boshqaruv jarayonlariga talablar bo‘lib, ular vositasida aholi va ishlab chiqarishning ekologik xavfsizligi kafolatlanadi. Genetik fondni saqlash, iqtisodiyotning barqaror

rivojlanishi, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ularni takror ishlab chiqarishni ta'minlash ham uning asosiy vazifalaridan hisoblanadi.

• O‘zbekistonda qabul qilingan standart va normativlarga quyidagilar kiradi:

• ifloslantirishning turg‘un va harakatdagi manbalari chiqaradigan ifloslantiruvchi moddalariga normativ va limitlar;

• zaharli chiqindilarning shakllanishi va joylashish normativi;

• suv olish va o‘rmondan foydalanish limitlari;

• bioresurslardan foydalanishga kvotalar;

• muhofaza qilinadigan hududlardan foydalanish va borib ko‘rish normativlari;

• yovvoyi o‘simlikni yig‘ish va hayvonlarni ovlash normativlari ;

• alohida xududlarda ifloslantiruvchi hamda zaharli moddalardan foydalanishni taqiqlash normalari

• "Tabiatni muhafaza qilish to‘g‘risida" gi qonunning oltinchi bo‘limi atrof muhit sifatini normativlar va standardlar bilan tartibga solishga bag‘ishlangandir. Shuningdek, O‘zbekston Respublikasi "Davlat sanitariya nazorati to‘g‘risidagi"gi qonunining qator moddalarida sanitariya normalari, qoidalari va gigiyena normatevlariga qo‘yiladigan talablar berilgan.

• Atrof muhitga ta'sirining yo‘l qo‘yish mumkin bo‘lgan eng yuqori darajasi normatevlarning iqtisodiy, ijtimoiy, rekrasiya, tabiiy muhitga fizik, kimyoviy, biologik, o‘zgarishlari ko‘rsatkichlarini belgilashga asos bo‘ladi. Atrof muhit sifatiga ta'sirining yo‘l qo‘yish mumkin bo‘lgan normatevlari vakolatli davlat organlari tasdiqlagan texnik normalardir.

• Ekologik normatevlar ikki guruhga bo‘linadi:

1. sanitariya-gigiyena;
2. ishlab chiqarish-xo‘jalik;
3. Sanitariya-gigiyena normatevlari inson salomatligiga muvofiq keluvchi atrof muhit ko‘rsatkichlarini belgilaydi. U aholini sanitariya-epedimologiya masalalarida xotirjamlikligini ta'minlash asosining tarkibiy qismiga kiradi. Bunda zaharli moddalar, radiaktev

moddalar, hamda shovqinning yo‘l qo‘yish mumkin bo‘lgan normalarini belgilaydi.

4. Ishlab chiqarish-xo‘jalik normatevlari zararli ta’sir manbalarining zararli moddalar ni chiqarib yuborish va tashlash normatevlari bo‘lib, ular faoliyatining ma’lum boshlang‘ich holatini cheklaydi.

• Ishlab chiqarish-xujalik normativlari zararli ta’sir manbalarining zararli moddalarni chiqarish va tashlab yuborish normativlari bo‘lib, ular faoliyatini ma’lum boshlang‘ich holatini cheklaydi. Bu kategoriyaga atrof tabiiy muhitni muhofaza qilishning ekologik talablarnio‘z ichiga olgan texnologik, qurilish, shaharsozlik qoidalari kiradi. Yo‘l qo‘yilishi mumkin bo‘lgan chiqarmalar korxonalar, muassasalar, tashkiloklar bo‘yicha emas, balki inventarizasiya asosida tashlanmalar va chiqindilar manbalari bo‘yicha aniqlanadi, chunki bir korxonada bir nechta shunday manbalar bo‘lishi mumkin.

Tabiatni muhofaza qilish faoliyatini standartlashning uchta asosiy yo‘nalishi bor:

1. Atrof-muhitga yuqori ta’sir ekologik normativlarini belgilash. Atrof-muhitga ta’sir normativlari ta’sir manbalaridan atrof muhitga moddalar yoki energiyaning yo‘l qo‘yishi mumkin bo‘lgan shakldagi miqdorda tushishini belgilaydi; xududiy-mamuriy birliklar doirasida turli xujalik va boshqa obektlarning atrof muhitga umumiy ta’siri miqdori(atrof-muhitga ta’sirning xududiy normativlari).

2. Ekologik-tashkiliy standartlarni belgilash. Bu atrof-muhitni muhofaza qilishni tashkil etishga qo‘yiladigan asosiy talablarni ifoda itadi.

3. Yekologiya atamalarini standartlashtirish U yordamchi ahamiyatga ega bo‘lib, atamalarni talqinini o‘rnatishga imkon beradi, hamda yangi standartlarni ishlab chiqish va mavjutlaridan samarali foydalanishga imkon beradi.

• O‘zbekistonda standartlashtirish va normativlashtirish borasida qator tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bunda atrof muhit muhofazasi va tabiiy resurslardan samarali foydalanishga yo‘naltirilgan.

• O‘zbekistonda standartlashtirish va normativlash bo‘yicha asosiy organ davlat standartlashtirish va metrologiya qumitasi hisoblanadi. Tabiatni muhofazasi va tabiiy resurslardan samarali foydalanish sohasidagi standartlashtirish va metrologiyasi bilan Tabiatni muhofaza qilish Davlat qo‘mitasini “Davlat ixtisoslashgan tahlil nazorati inspeksiya”si shug‘ullanadi.

16.2. Davlatning tabiatdan foydalanish vazifalari. Atrof muhit monitoringi. Ekologik standartlar

Bu inspeksiya tabiatni muhofaza qilish qo‘mitasining strukturasi, hamda tegishli idora va vazirliklar bilan birgalikda standartlashtirish sohasida metodik, normativ-texnik va boshqa xujjatlarni ishlab chiqadi, joriy etadi, amalga oshishini nazorat qiladi. Xozirda tabiatni muhofaza qilish sahasida va tabiiy resurslardan foydalanishda standartlashtirish va metrologiya bo‘yicha ma’lumotlar banki shakllanayotir, atrof muhit muhofazasi bo‘yicha normative va metodik hujjatlar fondi yaratilgan.Tabiatni muhofaza qilish Davlat ixtisoslashgan tahlil nazorati inspeksiyasi tomonidan qo‘yidagi ekologik standartlar qo‘llanilmoqda; atmosfera havosining sifati:

ish joylarida havo sifati;

yer usti suvlari sifati;

tuproq sifati;

yer osti suvlari sifati;

oziq ovqat mahsulotlari sifati;

atmosfera havosiga ifloslantiruvchi moddalar chiqarish normativlari;

oqar suv manbalariga ifloslantiruvchi moddalarni tashlash narmativlari;

chiqindilarni shakllanishi normalari;

• Tabiatdan foydalanish faoliyatlarini lisenziyalash. Yangi iqtisodiyot sharoitida tabiiy resurslardan samarali foydalanish asosiy masalalardan hisoblanadi.

• Tabiiy resurslardan foydalanish va tabiiy muhitga ta’sir o‘tkazish bilan bog‘liq xo‘jalik va boshqa faoliyatga faqat tegishli

lisenziya mavjudligidagina ruxsat beriladi. Litsenziya uning egasiga aniq tabiiy resursdan foydalanishni xuquqi bo‘lib, unda oldindan kelishilgan talab va shartlar belgilangan bo‘ladi. Litsenziya berish xuquqi O‘zbekiston respublikasida Vazirlar Maxkamasini tegishli kamissiyasi tamonidan amalga oshiriladi.

- Tabiatdan foydalanishni lisenziyalash-ma’muriy-xuquqiy-yo‘l bilan ekologik – iqtisodiy munosabatlarni tasdiqlash, ruxsat berish, vakolat berish kabi metodlar orqali tartibga solishning nomoyon bo‘lishidir. Tabiatdan foydalanishni lisenziyalashning mohiyati qo‘yidagicha:

tabiiy resurs egasining yoki uning mulkdori akti;

tabiiy resurslardan foydalanish ustidan davlat nazaratini amalga oshirish shakli;

tabiatdan oqilona foydalanishni tartibga solish vositasi;

- Lisenziyalash bir yil muddatga talabgorni arizasi yoki tanlov asosida beriladi. Ekologik talablarni buzganlik yoki amal qilmaganligi kabi sabablar aniqlansa, lisenziya mavjud qonunlar asosida bekor qilinadi yoki boshqa shaxsga beriladi.
- Tabiiy resurslardan foydalanishni ekologik lisenziyalash Tabiiatni Muhofaza qilish Davlat qo‘mitasini joylardagi xududiy organlari tomonidan amalga oshiriladi.
- Ekologik sertifikatlash. Ekologik sertifikatlash quyidagi maqsadlarda amalga oshiriladi:
- a) mahsulotning atrof-muhit, hayot, salomatlik, mulk uchun xavfsizligini nazorat qilish;
- b) tayyorlovchi (ishlab chiqaruvchi)ning mahsulot sifati ko‘rsatkichlari bo‘yicha bayonotining tasdiqlanishi;
- v) iste’molchini tayyorlovchi, sotuvchi, ijrochining insofsizligidan himoya qilish;
- g) iste’molchiga mahsulotni kompetentli tanlashga yordam berish;
- d) O‘zbekistonning yagona tovar bozorida va undan tashqarida (xalqaro iqtisodiy, ilmiy-texnik hamkorlik va savdo)

korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, tadbirkorlar faoliyati uchun sharoit yaratish.

- Ekologik sertifekasiyalashda ekologik havfsiz, ekologik talablarga mos tushadigan, inson hayotiga va faoliyatiga, hamda atrof muhitga zarar yetkazmaydigan maxsulot va tavarlarga beriladi. Rivojlangan mamlakatlarda diyarli barcha mahsulot va xizmatlar ekologik sertifikatlanadi. O‘zbekiston respublikasida ham bu sohada katta ishlar amalga oshirilmoqda. Xozirgi paytda majburiy sertifikatlanadigan mahsulotlar 80 turdan oshiqdir. Bundan tashqari xoxlovchilar o‘z mahsulot va xizmatlarini ekologik sertifikatsiyalash xuquqiga ham ega.
- Ekologik sertifikasiya vazifalariqo‘yidagilar:
- atrof muhit va tabiiy resurslar salohiyatidan samarali foydalanish, muhofaza qilish, takror ishlab chiqarishini ta’minlash;
- hayot, salomatlik, mulk uchun havfli mahsulotlarni istimolchilar sotib olishdan yoki ulardan foydalanish jarayonid atrof muhitni zararlanishidan himoya qilish;
- inson hayoti va faoliyati sharoitiga va atrof muhit holatiga ishlab chiqarish jarayonlariga, mahsulot iste’moli, chiqindilarni utilizasiyalash, tabiiy resurslardan foydalanish bilan bog‘liq omillarning noqulay ta’sirlardan ogohlantirish;
- mamlakatga ekologik notoza mahsulotlar kirib kelishidan saqlash;
- tabiiatdan foydalanish va muhofaza qilishda ilmiy-texnika taraqqiyotidan foydalanish;
- mamlakatimiz mahsulotlarini xalqaro maydonda roqobotbardoshligini oshirish;
- ekologik adolatli bozorni tashkil etish;
- jamiyat va tabiiatning o‘zaro aloqalarida ekologik havfsizlikni ta’minlash.

Ekologik sertifikasiya obektiga quyidagilar kiradi:

- tabiiy muhit va tabiiy resurs manbalari;
- ishlab chiqarish va istimol chiqindilari;
- texnologik jarayonlar;

- ekologik xizmatlar va iste'mol mahsulotlari.
- O‘zbekiston Respublikasida "Mahsulotlar va xizmatlar sertifikasiyasi to‘g‘risida"gi (1993) qonuniga muvofiq "O‘zdavstandartga" sertifikasiya bo‘yicha milliy organ statusi berilgan. Bundan tashqari tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi qoshida mahsulotlar va xizmatlar ekologik sertifikasiyasi markazi tuzilgan va uning bo‘linmalari barcha viloyatlarda tashkil etilgandir.
- Mamlakatimizda ekologik sertifikat bo‘yicha obektlar aniqlangan, normativ – texnik hujjatlar paketi ishlab chiqilgan. Bunda quyidagi tadbir va harakatlar amalga oshirilayotir:
- ekologik xavfsiz texnologik jarayonlar ishlab chiqish va joriy etish;
- ekologik xavfsiz mahsulotlarni ishglab chiqarishni tashkil etish;
- normativ-huquqiy va iqtisodiy mexanizmlarni yaratish, fuqarolarni qulay atrofmuhit va mahsulotlarga ega bo‘lish, salomatligi va mulkiga ziyon yetkazuvchi axborotlarni to‘plash hamda ekologik ziyon yetkazuvchilarga yo‘l bermaslik;
- mamlakatimizga xavfli mahsulotlar kirib kelishi, ishlab chiqarilishi hamda hududimizdan olib o‘tilishini bartaraf etish;
- tabiat muhofazasiga mo‘ljallangan ishlar va xizmatlar bozorini tartibga solish;
- atrof-muhit sifatin yaxshilash;
- resurslarni tejash va atrof muhitga yo‘l qo‘yib bo‘lmaydigan ta'sirdan ogohlantirish (Nasionalnыy doklad 2002)
- Ekologik ekspertiza. O‘zbekiston Respublikasida ekologik ekspertiza to‘g‘risidagi qonun 2000 yil qabul qilingan. Bu qonunning mohiyati rejalashtirilayotgan yoki amalga oshirilayotgan xo‘jalik va boshqa faoliyatlarni ekologik talablarga muvofiqligini aniqlashdan iborat. Davlat ekologik ekspertizasining obektlariga quyidagilar kiradi:

1) davlat dasturlarining kontseptsiyalarining, ishlab chiqarish kuchlarining ijtimoiy va iqtsiodiy soha tarmoqlarini joylashtirish hamda rivojlantirish sxemalariniing loyihalari;

2) barcha turdagi qurilishlar uchun yer uchastkalarini ajratish materiallari;

3) loyiha olid va loyiha hujjatlari;

4) tabiiy resurslar bilan foydalanish bilan bog‘liq xo‘jalik va boshqa xil faoliyatni tartibga soluvchi normativ texnik va yo‘riqnoma uslubiy hujjatlarining loyihalari;

5) texnika, texnologiya, mahsulotlar, moddalarning yangi turlarini tayyorlashga doir hujjatlar;

6) atrof tabiiy muhit holatiga va fuqarolar sog‘ligiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi ishlab turgan korxonalar va boshqa obektlar;

7) keyinchalik ularga muhofaza etiladigan tabiiy hududlar, favqulodda ekologik ofat zonalari maqomini berish maqsadida o‘tkazilgan hududlarni kompleks tekshirish materiallari; 8) shaharsozlik hujjatlarining barcha turlari; 9) maxsus huquqiy rejimli obektlar.

• Ekologik ekspertizaning maqsadi qo‘yidagilar:

• loyixa qarorlarini ularni amalga oshirishdan oldin ekologik ta’lablarga muvofiqligini ilmiy asosda aniqlash;

• rejalashtirilayotgan, loyixalashtirilayotgan va ishlab turgan obeklarning tabiatga extimol tutilayotgan salbiy ta’siri va zkologik xavflilik darajasini aniqlash;

• xalq xujaligini rejalashtirishida tabiiiy tizimlar muvozanatini saqlab qolish

• Ekologik ekspertiza davlat, idoraviy, jamoat, ilmiy shakillarda tashkil etiladi.

• O‘zbekiston Respublikasida davlat ekologik ekspertizasi o‘tkazish Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasining Davlat ekologik ekspertizasi tamonidan amalga oshiriladi.

• Ekologik audit. Ekologik audit korxona, kompaniyaning ichki ekologik salohiyatini, ularning xavfxatarlari va imkoniyatlarini doimiy tekshirib turish instrumentidir.

• Ekologik audit – korxonalarning mol-mulkni berish va joriy operasiyalar bilan bog‘liq bo‘lgan ekologik muammolari va potensial majburiyatlarini aniqlash maqsadida atrof-muhit holatini obektiv, muntazam, hujjatlashtirilgan va doimiy takroriy tekshirishlar(taftishlar)

bo‘lib, ular iqtisodiy faoliyatning turi va sharoitlari, ma’muriy boshqaruv tizimlari yoki bu obektlar to‘g‘risidagi axborotlarning normativ-qonunchilik talablariga, atrof-muhit muhofazasi sohasidagi samaradorlik mezonlariga va ekologik xavfsizlikka mos kelishini aniqlash maqsadida o‘tkaziladi. Ekoaudit o‘tgan asrni 70 yillarida AQShda, 1980 yildan boshlab esa, Yevropa mamlakatlarida ham ishlab chiqaruvchi korxonalarni “Ekoaudit” qonunchiligi asosida tekshirishlardan o‘tkazmoqda.

• Ekologik auditni asosiy maqsadi:

1. Korxona va tashkilotlarni faoliyatini ekologik normativlarga mos kelishini aniqlash.

2. Korxona va tashkilotlarni tabiatni muhofaza qilish tadbirlariga foydali tadbirlar ishlab chiqish.

• Ekologik auditning asosiy obektlariga quyidagilar kiradi:

• mulklar (er uchastkalari, tabiiy ofatlar, binolar, inshoatlar, mashina va jihozlar va h.k.);

• korxona va tashkilotning joriy faoliyati;

• favqulotda vaziyatlarda korxanalarning boshqaruv tizimi;

• atrof muhitni muhofaza qilish dasturlari va xodimlarning havfzisligini ta’minlash va boshqalar.

• Yekollogik audit asosiy funktsiyalari, korxonalarni ekologik qonunchilikka mosligi va ekologik siyosatni qonunlariga rioya qilinishi, atrof muhit sohasida qaroorlar qabul qilish uchun axborotlar yig‘ish, aholini va atrof muhitni zararli ta’sirlardan saqlash, ekologiik havfli avariyalar chiqishini imkoniyatlarini tahlil qilish, korxonaning real ta’sirini aniqlash va boshqalarni o‘rganadi.

• Xalqaro standartlarga muvofiq ekoaudit qo‘yidagi prinsiplarga asoslanadi:

1. Maqsad va ish hajmini aniq belgilash.

2. Obektevlik, mustaqillik, va kompenentlik.

3. kerakli kaspiy ihtiyotkorlilik.

4. Tizimlilik.

5. Audit mezonlarini belgilash, auditor ma’lumotlarining to‘liqligi, sifatliligi va yetarli ekanligi.

1. Auditor natijalarini va xulosalarini ishonchliligi.

2. Auditorning kelishlgan maqsadi va hajmini hisobga olib auditor xulosalarini to‘liqligi.

• Ekologik audit ishlab chiqarish obektlarini auditi va hududlarning ekologik auditi yo‘nalishlarida amalga oshiriladi.

• Ekologik audit majburiy yoki ixtiyoriy bo‘lishi mumkin.

1. Tabiatdan foydalanish va uni muhofaza qilish faoliyatini moliyalashtirish. Xozirgi kunda tabiatdan foydalanish va uni muhofaza qilish faoliyatini moliyalashtirish masalalariga katta e’tibor berilmoqda. Sobiq ma’muriy buyruqbozlik iqtisodiyotidagi moliyalashtirish esa hozirgidan farq qilardi va uning asosiy xususiyati markaziy rejalashtirish tizimining ustivorligida ko‘rinardi. Ya’ni davlat miqyosida ijtimoiy — iqtisodiy rivojlanishning asosiy yo‘nalishlari belgilanib, ana shu yo‘nalishlarda tabiatni muhofaza qilish borasida aniq vazifalar belgilanardi. Bu vazifalarning yechimi davlat, tarmoq va hududlar miqyosida o‘z aksini topar edi. Ushbu reja asosida moliyaviy, moddiy — texnikaviy resurslarga ehtiyojlar aniqlanardi, markaziy moliyalashtirish tizimi esa fondlar ajratish (moddiy —texnik resurslarni markazdan taqsimlash) tizimi bilan to‘ldirgan.

• Tabiatni saqlash tadbirlari moliyaviy vositalarining asosiy manbai davlat byudjeti hisoblanardi. Lekin davlat byudjetidan tashqari: mintaqalar byudjeti, vazirlik va idoralarning mablag‘lari, korxonalarning mablag‘lari ham mavjud bo‘lgan edi. Lekin shuni alohida ta’kidlash joizki, davlat byudjetidan tashqari moliyaviy manbalarni davlat byudjetidan ayrim holda ko‘rib bo‘lmasdi.

• Shu sababli ham moliyalashtirishning bu tizimi samarasiz bo‘lgan. Byudjetdan mablag‘rlar yetarli darajada ajratilmasdi, chunki ekologik vaziyatni sog‘lomlashtirish vazifasi davlatning ustivor vazifalari qatoriga kiritilmasdi.

• Ma’muriy buyruqbozlik iqtisodiyoti sharoitida tabiatni muhofaza qilish faoliyatini moddiy texnik ta’minoti (turli fond va limitlar tizimi orqali) ustivor ahamiyatga ega bo‘lgan bo‘lsa, bozor munosabatlariga o‘tish sharoitida esa yagona taqchil resurs moliyaviy

resurslar hisoblanadi. Tabiati muhofaza qilish sohasini samarali faoliyat ko‘rsatishi uning barqaror moliyaviy ta’minotiga uzviy bog‘liq bo‘ladi.

• Mustaqillik yillarida tabiat resurslaridan foydalanganlik va ifloslantirganlik uchun to‘lovlar kabi iqtisodiy dastaklardan keng foydalana boshlanganligi sababli tabiatni muhofaza qilishning yangi moliyaviy manbalarini shakllantirish imkonini berdi.

• O‘zbekiston Respublikasining “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risidagi” qonuniga muvofiq tabiatni muhofaza qilish tadbirlari va ekologik dasturlarni moliyalashtirish quyidagi manbalarga asosan amalga oshirilishi ta’kidlangan:

1. byudjet mablag‘lari;
2. korxonalar, muassasalar va tashkilotlar mablag‘lari;
3. byudjetdan tashqari resurslar va hududlar bo‘yicha ekologik fondlar.
4. ekologik sug‘urta fondlari; Bank kreditlari;
5. homiylar mablag‘lari;
6. aholi mablag‘lari (shu jumladan xorijiy yuridik va jismoniy shaxslarning ixtiyoriy badallari);

• Quyida ba’zi moliya manbalarining shakllanish xususiyatlari va ahamiyati hakida fikr yuritiladi.

• Byudjetning daromad qismiga soliqlar, tabiiy resurlardan foydalanganlik va atrof muhitni ifloslantirganlik uchun ajratmalar va to‘lovlar kiritiladi

• O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga binoan investision ekologik dasturlarni amalga oshirish uchun davlat va byudjetdan tashqari fondlardan subvensiya ko‘rinishidagi moliyaviy yordam ko‘rsatish nazarda tutilgan. Bu subvensiyalarni ajratish shartlari va tartibi, ulardan foydalanish qonuniy aktlar bilan tartibga solinadi.

• Korxonalarning mablag‘lari xo‘jalik yurituvchi subektlarning daromadi hisobiga shakllantiriladi. Tabiatni muhofaza qilish tadbirlari va tabiatni muhofaza qilish asosiy fondlari ishlatishga ketgan joriy xarajatlar korxona ishlab chiqargan mahsulotlarning tannarxiga qo‘shiladi.

- Byudjetdan tashqari maqsadli resurslar bo‘yicha fondlar tabiatni muhofazasi uchun mablag‘ ajratishning “qoldik tamoyilini” bartaraf qilish uchun tuziladi. Mineral xom ashyo bazasini takror ishlab chiqarish, o‘rmonlarni muhofaza qilish va ko‘riqlash, suv obektlarni tiklash va qo‘riqlash kabi byudjetdan tashqari fondlar tuzilgan.
- Byudjetdan tashqari ekologik fondlar — atrof muhitni muhofaza qilishni investisiyalashni qo‘llab — quvvatlash tizimining yangi elementi hisoblanadi. Mazkur fondlar kechiktirib bo‘lmaydigan tabiatni muhofaza qilish tadbirlarini, atrof tabiiy muhitdagi yo‘qotishlarni tiklash, keltirilgan zararni kompensasiyalashni moliyalashtirish uchun tuziladi.
- Atrof muhitni muhofaza qilishning ijtimoiy fondlari aholi daromadlari, ijtimoiy birlashmalarning ixtiyoriy badallari va xayriyalari va boshqa manbalar hisobiga tashkil etiladi. Makur fondlar ijtimoiy ekologik birlashmalar va O‘zbekiston Respublikasining kasaba uyushmalari tomonidan tashkil etilib, ularning mablag‘lari faqat atrof muhitni muhofaza qilishga sarflanadi.
- Tabiatni muhofaza qilish tadbirlariga jalb qilinayotgan moliyaviy manbalarining turli-tuman bo‘lishi ulardan oqilona uyg‘unlikda foydalanishni talab etadi.
- Rivojlangan xorijiy mamlakatlarning tajribalariga ko‘ra tabiatni muhofaza qilish tadbirlariga ajratilayotgan moliyaviy manbalarning kuchli differensiyalashuvi kuzatiladi.
- Tabiatni muhofaza qilish tadbirlariga ajratilgan va yig‘ilgan mablag‘lar o‘zining maqsadga yo‘naltirilganlik xususiyati bilan tavsiflanadi.
- Barcha darajalardagi byudjet tabiatni muhofaza qilish va ekologik dasturlarni moliyalashtirishga alohida e’tibor beriladi va moddiy texnik resurslar bilan ta’minlanadi.

Tayanch iboralar: milliy monitoring tizimi, sanitariya-gigiyena monitoring, ekologik monitoring, iqlim monitoring, davlat ixtisoslashgan tahlil nazorati inspeksiyasi, ekologik standartlar, sanitariya-gigiyena normativlari, ishlab chiqarish-xo‘jalik normativlari,

yo‘l qo‘yish mumkin bo‘lgan chiqarmalar, ifloslanish normativlari, ekologik litsenziyalash, tabiatdan foydalanish litsenziyasi, ma’muriy-huquqiy tartibga solish, davlat nazorati, ekologik sertifikatlash, majburiy sertifikatlash, ixtiyoriy sertifikatlash, ekologik xavfsizlik, sertifikatlash markazi.

Nazorat va takrorlash uchun savollar

1. O‘zbekiston Respublikasidagi milliy monitoring tizimi qanday turlarni o‘z ichiga oladi?
2. Monitoring tizimining asosiy funktsiyalari nimalardan iborat?
3. Hozirgi vaqtda monitoring tizimini takomillashtirish uchun qanday ishlar amalga oshirilmoqda?
4. Ekologik normativlar qanday ikki guruhga bo‘linadi?
5. Sanitariya-gigiyena normativlari nimani belgilaydi?
6. Ishlab chiqarish-xo‘jalik normativlari nima?
7. O‘zbekistonda qabul qilingan standart va normativlarga qanday limitlar kiradi?
8. Tabiatdan foydalanishni litsenziyalash nimani anglatadi?
9. Litsenziya qancha muddatga beriladi va kim tomonidan beriladi?
10. Litsenziyalashning mohiyati nimalardan iborat?
11. Ekologik sertifikatlash qanday maqsadlarda amalga oshiriladi?
12. Ekologik sertifikatlash obektlariga nimalar kiradi?
13. O‘zbekistonda majburiy sertifikatlanadigan mahsulotlar necha turdan iborat?
14. Davlat ekologik ekspertizasining obektlariga nimalar kiradi?
15. Ekologik ekspertizaning asosiy maqsadi nima?
16. Ekologik ekspertiza qanday shakllarda tashkil etiladi?
17. Ekologik audit nima?
18. Ekologik auditning asosiy maqsadi nima?
19. Ekologik audit qanday turlarga bo‘linadi?
20. Tabiatni muhofaza qilish tadbirlarini moliyalashtirish qanday manbalarga asoslanadi?
21. Byudjetdan tashqari ekologik fondlar nima uchun tuziladi?

22. Moliyaviy manbalarning qanday xususiyati bor?

23. Tabiatni muhofaza qilish sohasida asosiy davlat organi qaysi?

24. Standartlashtirish va metrologiya bo‘yicha asosiy organ qaysi?

25. Ekologik litsenziyalash kim tomonidan amalga oshiriladi?

26. Tabiatni muhofaza qilish faoliyatini standartlashning nechta yo‘nalishi bor?

27. Yo‘l qo‘yilishi mumkin bo‘lgan chiqarmalar qanday aniqlanadi?

28. Ekologik audit qachon va qayerda paydo bo‘lgan?

29. Xalqaro standartlarga muvofiq ekoaudit qanday prinsiplarga asoslanadi?

30. Rivojlangan mamlakatlarda ekologik sertifikatlash qanday amalga oshiriladi?

GLOSSARIY

Aholini ijtimoiy muhofaza qilish – davlat tomonidan aholining yetarli darajadagi hayotiy faoliyati uchun barcha shart-sharoitlarni yaratishga maqsadli yunaltirilgan kafolatlar tizimi.

Aholining real daromadlari – narx darajasi o‘zgarishini hisobga olib, aholining ixtiyorida bo‘lgan daromadga sotib olish mumkin bo‘lgan tovar va xizmatlar miqdori, ya’ni, aholining ixtiyorida bo‘lgan daromadning xarid quvvati.

Bozor kon’yunkturasi – muayyan vaqt mobaynida tovarlar bozorining holatini tavsiflovchi vaqtinchalik iqtisodiy vaziyat bo‘lib, quyidagi belgilar orqali aniqlanadi: ichki va tashqi savdodagi o‘zgarishlar; ishlab chiqarish va qurilish dinamikasi; tovar zaxiralari harakati; narxlar dinamikasi va boshqalar.

Byudjet defitsiti – byudjet xarajatlarining byudjet daromadlaridan oshib ketishi natijasida vujudga kelgan taqchillik.

Davlat byudjeti – davlat daromadlari va sarflarining moliyaviy rejasi.

Daromad solig‘i – fuqarolarni bir yil davomidagi yalpi daromadidan olinadigan majburiy to‘lov (soliq).

Daromad solig‘i stavkalari – aholi daromadlaridan tabaqalashtirilgan holda olinadigan soliqlarning foizlardagi darajalari.

Ijtimoiy soha – aholi turmush tarzi, uning farovonligi, iste’mol darajasiga bevosita bog‘liq bo‘lgan va ularni belgilab beruvchi tarmoqlar, korxonalar va tashkilotlar majmui. Ijtimoiy sohaga eng avvalo xizmat ko‘rsatish sohasi (maorif, madaniyat, sog‘liqni saqlash, ijtimoiy ta’minot, jismoniy tarbiya, umumiy ovqatlanish, kommunal xizmat ko‘rsatish, yo‘lovchi transporti, aloqa vaboshqalar) kiradi.

Ijtimoiy soha obektlari – aholining munosib turmush sharoiti va farovonligini ta’minlashga xizmat qiluvchi soha va tarmoqlar majmui. Bular qatoriga uy-joy fondlari, sog‘liqni saqlash, maorif, sport, madaniyat muassasalari va boshqalarni kiritish mumkin.

Ijtimoiy dasturlar – aholining bevosita turmush sharoiti va farovonligini ta’minlashga xizmat qiluvchi soha va tarmoqlarni rivojlantirishga oid chora-tadbirlarni o‘z ichiga olgan rejaviy hujjatlar.

Soliqlar – davlat byudjeti yoki mahalliy byudjetlarga jismoniy yoki yuridik shaxslar tomonidan tovar va xizmatlarni ishlab chiqarganlari uchun yoki ishlab chiqarish omillaridan foydalganliklari uchun majburiy to‘lovlar.

Unifikatsiya – turli xildagi mahsulotlar, detallar, uzellar va boshqa qo‘llaniladigan materiallar va texnologik jarayonlarni ratsional jihatdan bir xilligini ta’minlash.

Soliqlarni unifikatsiya qilish – soliq mexanizmini soddalashtirish maqsadida iqtisodiy mohiyati, soliqqa tortish ob’yekti o‘xshash bo‘lgan soliq turlarini birxillashtirish.

Soliq imtiyozi – soliq to‘lovchilarning ayrim toifalariga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda soliq to‘lashdan to‘liq, qisman va vaqtincha ozod qilish shakli.

Preferentsiya – iqtisodiyotni maqsadga muvofiq rivojlantirish va tartibga solishda ayrim soha va tarmoqlar, korxona va ishlab chiqarish turlariga nisbatan beriluvchi imtiyoz, afzallik va ustuvorliklar.

Soliq krediti – byudjetga to‘lanishi lozim bo‘lgan soliq summasini ma’lum muddatga kamaytirish, kechiktirish, bo‘lib-bo‘lib to‘lash yoki soliqni qaytarish shakli.

Soliq solishning soddalashtirilgan tartibi – soliq solishning ayrim toifadagi soliq to‘lovchilar uchun belgilanadigan hamda ayrim turdagi soliqlarni hisoblab chiqarish va to‘lashning, Shuningdek ular yuzasidan soliq hisobotini taqdim etishning maxsus qoidalari qo‘llanilishini nazarda tutuvchi alohida tartibi.

Soliq stavkasi – soliqlarni hisoblashda soliq bazasining har bir birligi hisobiga tog‘‘ri keladigan soliq me’yorini ifodalaydi.

Soliq yuki – mablag‘larni boshqa foydalanish mumkin bo‘lgan yo‘nalishlardan olib, soliqlarni to‘lash uchun yo‘naltirish orqali vujudga keladigan iqtisodiy cheklovlar darajasi bo‘lib, odatda soliq to‘lovchining muayyan davrda byudjetga to‘langan soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning yig‘indisi sifatida namoyon bo‘ladi. Mamlakat miqyosida soliq yuki darajasini soliqlarning yalpi ichki mahsulotdagi salmog‘i orqali ifodalanadi.

Soliq yukini yengillashtirish – soliqlarning foiz stavkalari kamaytirish va imtiyozlar yaratish.

Iqtisodiyotning real sektori – iqtisodiyotning bevosita moddiy ne'matlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish bilan bog'liq sohasi bo'lib, u o'z ichiga sanoat, qishloq xo'jaligi, qurilish, transport, aloqa va boshqa xizmat ko'rsatish tarmoqlarini oladi.

Ishlab chiqarishni modernizatsiyalash – ishlab chiqarishni zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlash, uni ma'naviy jihatdan yangilash, tarkibiy jihatdan texnik va texnologik qayta tuzish kabi chora-tadbirlarni o'z ichiga oluvchi jarayon. Ishlab chiqarishni modernizatsiyalashning asosiy yo'nalish va vositalari bo'lib quyidagilar hisoblanadi: korxonalardan eskirgan asbob-uskunalarni chiqarish; ishlab chiqarishni zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan jihozlash; mahalliy resurslar asosida ishlab chiqarishga innovatsion texnologiyalarni joriy etish; ishlab chiqarilayotgan mahsulot assortimentini kengaytirish; ishlab chiqarish xarajatlarini pasaytirish va resurslarni tejash; sifatni boshqarish va sertifikatlash tizimini joriy etish; chiqitsiz va ekologik toza texnologiyalarni joriy etish va boshqalar.

Inqirozga qarshi mo'ljallangan choralar dasturi – O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan 2009-2012 yillarga mo'ljallanib inqirozga qarshi ishlab chiqilgan choralar dasturi bo'lib, mazkur dasturda talab va taklifni rag'batlantirishga yo'naltirilgan bir qator moliyaviy imtiyozlar va barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlovchi chora-tabdirlar majmui o'z aksini topgan.

Bank-moliya tizimining barqarorligi – banklarning va boshqa moliya muassasalarining o'z majburiyatlari yuzasidan talablarga to'la javob bera olishi. Bu likvidlilik, kapitalning yetarliligi, aktivlar sifati, rentabellik ko'rsatkichlari orqali aniqlanadi.

Bank aktivlari – banklarning asosiy faoliyatini amalga oshirishda foydalanuvchi turli moddiy va moliyaviy resurslar majmui. Ular asosan bank kreditlari, asosiy vositalari, sotib olgan qimmatli qog'ozlari, investitsiyalari, valyuta boyliklari ko'rinishida bo'ladi.

Bank tizimining likvidligi – bankning o‘z majburiyatlarini vaqtida va so‘zsiz bajara olish imkoniyati.

Banklar likvidligi – banklar aktivlarining qisqa muddat ichida pulga aylanish qobiliyati. Likvidlik bank majburiyatlarini bajarish va aktivlar o‘sishini moliyalash bilan birgalikda depozitlar va qarz mablag‘lari darajasining pasayishini samarali boshqarishni ham bildiradi.

Banklarning kredit portfeli – tijorat banklari tomonidan berilgan kreditlarning umumiy jamlanmasi bo‘lib, ular quyidagicha tasniflanadi: a) yaxshi; b) standart; v) substandart; g) Shubhali; d) umidsiz. Tijorat banklarining ma’lum sanaga ssuda hisobvaraqalarida qolgan pul mablag‘lari majmuasi (qoldig‘i).

Investitsion kreditlar – ishlab chiqarishni kengaytirish, texnik va texnologik jihatdan yangilash, modernizatsiyalash va rekonstruktsiya qilish, yangi bino va inshootlarni qurish uchun zarur bo‘lgan vositalarni sotib olish maqsadida olingan kreditlar.

Kooperatsiya aloqalari – turli soha ishlab chiqarish tarmoqlarida ma’lum mahsulotni tayyorlash bo‘yicha uzoq muddatli aloqalarni o‘rnatish.

Kreditor qarzdorlik – korxona, tashkilot yoki muassasaning tegishli yuridik yoki jismoniy shaxslarga to‘lanishi lozim bo‘lgan pul mablag‘lari bo‘lib, ular me’yordagi (muddati o‘tmagan) hamda muddati o‘tgan qarzdorliklarga bo‘linishi mumkin.

Mahsulot tannarxi – mahsulot ishlab chiqarish va uni sotish bilan bog‘liq barcha xarajatlar.

Rentabellik – korxona faoliyatining foydalik darajasi. Uning uch xil ko‘rsatkichi mavjud: korxona aktivlari rentabelligi, xususiy kapital rentabelligi va sotilgan mahsulot rentabelligi. Bu ko‘rsatkichlarni balansdagi (sof) foyda ko‘rsatkichini korxona aktivlarining o‘rtacha yillik qiymati, muomalaga chiqarilgan aksiyalar miqdori, xususiy kapital miqdori va sotilgan mahsulot tannarxiga nisbati bilan aniqlanadi.

Iqtisodiy nochor korxona – kreditorlarning tovar (ish, xizmat)lar haqini to‘lash bo‘yicha talablarini qondirish, Shuningdek, byudjet va

nobyudjet fondlariga majburiy to‘lovlarni ta’minlashga layoqatsiz bo‘lgan korxona.

Korxonaning bankrotligi – korxona moliyaviy-xo‘jalik faoliyatining nochorlikka yuz tutishi natijasida o‘z qarz majburiyatlari bajara olmasligi. Korxona xo‘jalik sudining qaroriga ko‘ra rasmiy holda bankrot deb e’lon qilinadi.

Moliyaviy sog‘lomlashtirish – korxonaning bankrotligini bartaraf etish yoki raqobatbardoshligini oshirish maqsadida chora-tadbirlar tizimini qo‘llash orqali uning moliyaviy holatini sog‘lomlashtirish.

Ishlab chiqarishni mahalliylashtirish – sanoat ishlab chiqarishining turli bosqichlarida import shaklida xarid qilish orqali qo‘llaniluvchi detallar, butlovchi qismlar, yarim tayyor mahsulotlar va tayyor mahsulotlarni mahalliy xom ashyo va materiallar asosida ishlab chiqarishga o‘tkazish jarayoni.

Import o‘rnini bosish samarasi – mahalliylashtirish jarayonini amalga oshirish orqali ishlab chiqarilgan mahsulotlar va ko‘rsatilgan xizmatlar natijasida tejalgan import mahsulotlari qiymati.

Mamlakatning eksport salohiyati – muayyan mamlakatning o‘zida mavjud bo‘lgan yoki ishlab chiqarilayotgan resurslari, mahsulotlarini eksportga chiqarish imkoniyati, qobiliyati.

Tashqi savdo aylanmasi – mamlakat, mamlakatlar guruhi tashqi savdo faoliyati hajmining pul ko‘rinishidagi ifodasi bo‘lib, muayyan vaqt oralig‘idagi (masalan, yil davomidagi) eksport va import hajmining yig‘indisiga teng bo‘ladi.

Tashqi savdo aylanmasi sal dosi – mamlakat eksporti va importi hajmlari o‘rtasidagi farq, tafovut.

Mamlakat to‘lov balansi – mamlakat rezidentlari (uy xo‘jaliklari, korxonalar va davlat) va chet elliklar o‘rtasida ma’lum vaqt (odatda bir yil) oralig‘ida amalga oshirilgan barcha iqtisodiy bitimlar bo‘yicha to‘lovlar summasining nisbati bo‘lib, u o‘z ichiga savdo balansi, xizmatlar balansi, o‘tkazmalar balansi va kapital operatsiyalarini oladi.

Kichik biznes sub’yektlari – korxona ko‘lami, ishlab chiqarish hajmi, ishlovchilar soni, moliyaviy mablag‘lari miqdori va boshqalar jihatidan imkoniyatlari cheklangan ishlab chiqaruvchi sub’yektlar.

Respublikamizda kichik biznes sub'yektlari toifasiga yakka tartibdagi tadbirkorlar, mikrofirmalar va kichik korxonalar kiradi.

Yakka tartibdagi tadbirkorlik – alohida fuqarolar tomonidan o'zlarining tavakkalchiliklari va mulkiy javobgarliklari ostida, shaxsiy daromad (foyda) olish maqsadida amaldagi qonunchilik doirasida amalga oshiriladigan tashabbuskor xo'jalik faoliyati.

Mikrofirma – kichik biznes sub'yektlarining bir turi bo'lib, mamlakatimizda amaldagi qonunchilikka ko'ra sanoat ishlab chiqarishning tarmoqlarida 20 kishigacha, xizmat ko'rsatish sohasida 10 kishigacha, savdo va umumiy ovqatlanish sohasida 5 kishigacha ishlovchi korxonalar mikrofirma hisoblanadi.

Kichik korxona – kichik biznes sub'yektlarining bir turi bo'lib, mamlakatimizda amaldagi qonunchilikka ko'ra sanoat ishlab chiqarishning ayrim tarmoqlarida (masalan, yengil va oziq- ovqat sanoati, metallga ishlov berish va asbobsozlik sanoati va h.k.) 100 kishigacha, ayrimlarida (masalan, mashinasozlik, metallurgiya, yoqilg'i-energetika sanoati va boshqalarda) 50 kishigacha, xizmat ko'rsatish sohasida 25 kishigacha ishlovchi korxonalar kichik korxona hisoblanadi.

Yagona soliq to'lovi – kichik biznes sub'yektlarini qo'llab-quvvatlash maqsadida turli solik va yig'imlar o'rniga soddalashtirilgan tartibda to'lanuvchi yagona soliq turi.

Ijtimoiy-amaliy markaz – ish bilan band bo'lmagan aholi va ishsizlar o'rtasida kichik tadbirkorlikni rivojlantirish orqali yangi ish o'rinlarini yaratish bilan Shug'ullanuvchi, odatda bandlik markazlari qoshida tashkil etiluvchi tuzilma.

Texnopark – o'z hududida kichik innovatsion korxonalarni yaratish va rivojlantirish orqali ilmiy salohiyatdan foydalanish va ishlab chiqilgan texnologiyalarni tijoratlashtirish maqsadida tashkil etiluvchi tuzilma.

Konsalting – ishlab chiqarishga ish yuzasidan xizmat ko'rsatish sohasida ixtisoslashgan firmalarning o'z mijozlariga maslahat xizmati ko'rsatish va texnikaviy loyihalarni ekspertiza qilish bilan bog'liq iqtisodiy faoliyat.

Sug‘urta kompaniyasi – sug‘urtalovchi rolida maydonga tuShuvchi, ya’ni sug‘urta hodisasi ro‘y bergan chog‘da sug‘urtalangan shaxsning zararlarini qoplash majburiyatini o‘ziga oluvchi tashkilot.

Investitsiyalar – asosiy va aylanma kapitalni qayta tiklash va ko‘paytirishga, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirishga qilingan sarflarning pul shaklidagi ko‘rinishi. U pul mablag‘lari, bank kreditlari, aksiya va boshqa qimmatli qog‘ozlar ko‘rinishida amalga oshiriladi. Pul mablag‘lari ko‘rinishidagi investitsiya ***nominal investitsiya***, ana Shu pul mablag‘lariga sotib olish mumkin bo‘lgan investitsion resurslar ***real investitsiya*** deyiladi.

Investitsiya dasturi - respublika iqtisodiyotini barqaror va tadrijiy rivojlantirishga erishishga, tabiiy, mineral-xom ashyo, moliyaviy, moddiy va mehnat resurslaridan oqilona foydalanish yo‘li bilan respublika ayrim tarmoqlari va mintaqalarini tarkibiy o‘zgartirishning asosiy ustuvorliklarini va strategik vazifalarini amalga oshirishga yo‘naltirilgan bir-biri bilan o‘zaro bog‘langan chora-tadbirlar kompleksi.

Investitsiya muhiti – investitsiyalar jozibadorligi hamda xavf-xatar darajasini belgilab beruvchi ijtimoiy-iqtisodiy, moliyaviy va siyosiy omillar majmui.

Infratuzilma – har qanday yaxlit iqtisodiy tizim va tuzilmalarning mavjud bo‘lishi shart hisoblangan tarkibiy qismi. So‘zma-so‘z ifodalaganda, infratuzilma – bu iqtisodiy tizimning asosi, poydevori, ichki tuzilmasi demakdir. «Infratuzilma» atamasi lotincha «infra» - quyi, osti;

«structura» - tuzilma, joylaShuv so‘zlaridan paydo bo‘lgan. Iqtisodiyotda ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilma muhim o‘rin tutadi.

Ishlab chiqarish infratuzilmasi – ishlab chiqarishning rivojlanishi uchun tashqi shart- sharoitlarni ta’minlovchi tarmoqlar majmui bo‘lib, o‘z ichiga temir va avtomobil yo‘llari, elektr, gaz va suv ta’minoti, aloqa kommunikatsiyalari, ombor xo‘jaligi va boshqalarni oladi.

Erkin industrial-iqtisodiy zona – mamlakat hududining xorijiy mamlakatlar tomonidan turli shakllardagi hamkorlikdagi tadbirkorlik

bilan Shug‘ullanishlari uchun ruxsat etilgan qismi. Mazkur zonalarda maxsus imtiyozli shart-sharoitlar, jumladan, imtiyozli soliqlar, bojxona to‘lovlari, ijara, viza olish, valyuta ayirboshlash, mehnatga yollashning qulay tartiblari belgilanganbo‘ladi.

Navoiy erkin industrial-iqtisodiy zonasi – jahon standartlariga javob beradigan va jahon bozorlarida talab qilinadigan mahsulot ishlab chiqarishni ta’minlaydigan, zamonaviy yuqori texnologiyaga asoslangan ishlab chiqarishni tashkil etish uchun xorijiy investitsiyalarni, birinchi galda tog‘‘ridan-tog‘‘ri investitsiyalarni jalb etish bo‘yicha qulay shart-sharoitlar yaratish, Shuningdek Navoiy viloyatining sanoat salohiyatini, ishlab chiqarish, transport-tranzit va ijtimoiy infratuzilmasini rivojlantirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 3 dekabrdagi «Navoiy viloyatida erkin industrial-iqtisodiy zona tashkil etish tog‘‘risida»gi qarori asosida tashkil etilgan. Navoiy erkin industrial-iqtisodiy zona hududida xo‘jalik yurituvchi sub’yektlar faoliyatining asosiy yo‘nalishi – zamonaviy xorijiy yuqori unumli asbob-uskunalar va texnika, texnologik liniyalar va modullar, innovatsiya texnologiyalarini joriy etish hisobiga yuqori texnologiyali, jahon bozorlarida raqobatbardosh mahsulotlarni keng ko‘lamda ishlab chiqarishdan iborat.

Intermodal markaz – yuk tashishlar bo‘yicha xalqaro kommunikatsiya va logistika markazi.

Logistika – inson-mashina tizimida moddiy, mehnat, energiya va axborot resurslari oqimlari harakati jarayonlarini rejalashtirish, boshqarish va nazorat qilish tizimi.

Transport logistikasi – muayyan moddiy buyumlar, yuklar va boshqalarni bir joydan boshqa bir joyga optimal yo‘nalish bo‘yicha yetkazib berish, tashishni tashkil etish tizimi.

Axborot infratuzilmasi – mamlakat axborot fazosining rivojlanishi va o‘zaro faoliyatini ta’minlovchi tizimchalar, tashkiliy tarkiblar majmui.

Ijtimoiy infratuzilma – aholining turmush faoliyatini, uning farovonligi ta’minlashga xizmat qiluvchi turli muassasa va ob’yektlar majmui. Masalan, ta’lim muassasalari, dam olish va davolanish

maskanlari, uy-joy, kommunal va maishiy xizmat ko‘rsatish shoxobchalari, tabiiy gaz, ichimlik suvi, elektr energiyasi ta’minoti, yo‘lovchi transporti va boshqalar.

“Agrobank” aksiyadorlik tijorat banki – iqtisodiyotning agrar sektorini yanada barqaror rivojlantirish, qishloq xo‘jaligida iqtisodiy islohotlarni izchillik bilan chuqurlashtirib borish, fermerlik xarakatini qo‘llab-quvvatlash, uning moddiy va moliyaviy bazasini mustaxkamlash, qishloq xo‘jalik ishlab chiqaruvchilariga qishloq xo‘jalik mahsulotlarini chuqur qayta ishlovchi zamonaviy korxonalarni jadal barpo etish, yuqori sifatli, raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarish bo‘yicha zamonaviy texnologiyalar va uskunalarni tatbiq qilish hamda ichki bozorni mahalliy oziq-ovqat tovarlari bilan to‘ldirishga yo‘naltirilgan keng turdagi bank xizmatlarini ko‘rsatish maqsadida 2009 yil 30 martda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Agrobank” aksiyadorlik tijorat bankini tashkil etish tog‘risida”gi qarori asosida “Paxtabank” aksiyadorlik tijorat banki negizida tashkil etilgan.

“Qishloq qurilish bank” aksiyadorlik tijorat banki – qishloq qiyofasini va qishloq aholisining uy joy sharoitlarini sifatli yaxshilash, qishloq joylarda ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani jadal rivojlantirish, uy-joy qurilishini uzoq muddatli imtiyozli kreditlash tizimini keng joriy etish maqsadida hamda “Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili” Davlat dasturiga muvofiq 2009 yil 30 martda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Qishloq qurilish bank” Aksiyadorlik tijorat bankini tashkil etish tog‘‘risida”gi qaroriga muvofiq “G‘alla-bank” aksiyadorlik tijorat binki negizida “Qishloq qurilish bank” Aksiyadorlik tijorat banki tashkil etildi. “Qishloq qurilish bank” Aksiyadorlik tijorat bankining ustav kapitali 150 milliard so‘m miqdorida shakillantirilgan.

Fermer xo‘jaligi – ijaraga berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda, qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqarishi bilan Shug‘ullanuvchi, mustaqil xo‘jalik yurituvchi sub’yekt.

Melioratsiya – yerning unumdorligini tubdan yaxshilashga qaratilgan tashkiliy-xo‘jalik, muhandislik va agrotexnik tadbirlar turkumi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi – O‘zbekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi tog‘‘risida»gi Qonuni 1997 yil 29 avgustda qabul qilingan. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim tog‘‘risida”gi Qonuni qoidalariga muvofiq holda, milliy tajribaning tahlili va ta’lim tizimidagi jahon miqyosidagi yutuqlar asosida tayyorlangan bo‘lib, yuksak umumiy va kasb-hunar madaniyatiga, ijodiy va ijtimoiy faollikka, ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil ravishda mo‘ljalni tog‘‘ri ola bilish mahoratiga ega bo‘lgan, istiqbol vazifalarini ilgari surish va hal etishga qodir kadrlarning yangi avlodini shakllantirishga yo‘naltirilgan.

Dastur kadrlar tayyorlash milliy modelini ro‘yobga chiqarishni, har tomonlama kamol topgan, jamiyatda turmushga moslashgan, ta’lim va kasb-hunar dasturlarini ongli ravishda tanlash va keyinchalik puxta o‘zlashtirish uchun ijtimoiy-siyosiy, huquqiy, psixologik-pedagogik va boshqa tarzdagi sharoitlarni yaratishni jamiyat, davlat va oila oldida o‘z javobgarligini his etadigan fuqarolarni tarbiyalashni nazarda tutadi.

Kasanachilik – yirik sanoat korxonalari bilan tuzilgan shartnoma asosida uy sharoitida mahsulot ishlab chiqarish yoki xizmat ko‘rsatish.

Kooperatsiya aloqalari – turli soxa ishlab chiqarish tarmoqlarida ma’lum maxsulotni tayyorlash bo‘yicha uzoq muddatli aloqalarni o‘rnatish.

Bandlik – mehnatga layoqatli aholining ijtimoiy foydali mehnat bilan mashg‘ul bo‘lishi; fuqarolarning shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish bilan bog‘liq bo‘lgan va qonunga zid kelmaydigan, mehnat daromadi beradigan faoliyati.

Makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar – mamlakat yaxlit iqtisodiyoti darajasidagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayon va hodisalarni o‘lchash va baholash imkoniyatini beruvchi ko‘rsatkichlar. Masalan, yalpi ichki mahsulot, milliy daromad, iqtisodiy o‘sish, ishsizlik, inflyatsiya darajasi va boshqalar.

Yalpi ichki mahsulot – mamlakatda bir yil davomida ishlab chiqarilgan jami pirovardmahsulot va xizmatlarning bozor qiymati.

Profitsit – davlat byudjeti daromadlarning xarajatlardan ko‘proq bo‘lishi.

Pul - kredit siyosati – davlat tomonidan iqtisodiy o‘sishni ta’minlash maqsadida pul muomalasini tashkil etish va barqarorligini ta’minlash uchun amalga oshiriladigan barcha chora- tadbirlar majmui.

Samarali iqtisodiy siyosat – davlatning iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishga qaratilgan, har tomonlama asoslangan, izchil va o‘zaro uyg‘unlashtirilgan chora-tadbirlari majmui.

Xalqaro moliya tashkilotlari – davlatlar o‘rtasidagi valyuta va moliya-kredit munosabatlarini tartibga solish, mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishiga ko‘maklashish, kredit ko‘rinishida yordam berish maqsadida davlatlararo keliShuvlar asosida tashkil etilgan tashkilotlar. Bunday tashkilotlar qatoriga Xalqaro hisoblaShuvlar banki, Xalqaro valyuta fondi, Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki, Xalqaro rivojlanish assotsiatsiyasi, Xalqaro moliyaviy korporatsiya, Osiyo taraqqiyot banki, yevropa investitsiya banki, mintaqaviy xalqaro rivojlanish banklari va boshqalarni kiritish mumkin.

Xalqaro iqtisodiy tashkilotlar – ikki turdagi – ishtirokchilari bevosita davlatlardan iborat hukumatlararo (davlatlararo) hamda tarkibiga ishlab chiqaruvchilar birlashmalari, kompaniya va firmalar, ilmiy jamiyatlar va boshqalar kiruvchi nohukumat tashkilotlari.

Jahon banki – 1944 yilda Xalqaro valyuta jamg‘armasi bilan bir vaqtda tuzilgan birinchi davlatlararo investitsiya institutidir. Bank o‘zining faoliyatini 1946 yil 25 iyundan boshlagan.

Xalqaro valyuta jamg‘armasi – xalqaro savdo va valyuta hamkorligini rivojlantirishga ta’sir ko‘rsatish maqsadida 1944 yilda tashkil etilgan xalqaro valyuta-moliya tashkiloti. Xalqaro valyuta jamg‘aramasi – a’zo davlatlar o‘rtasida valyuta-kredit munosabatlarini tartibga solib turish va ularga to‘lov balansining kamomadi bilan bog‘liq valyutaviy qiyinchiliklar paytida chet el valyutasida qisqa va uzoq muddatli kreditlar berish yo‘li bilan moliyaviy yordam ko‘rsatish uchun mo‘ljallangan hukumatlararo tashkilot. XVJ o‘z amaliy faoliyatini 1947 yil 1 martdan boshlagan.

Osiyo taraqqiyot banki – Osiyo va Uzoq Sharq mintaqasiga bevosita qarzlar berish hamda texnik jihatdan ko‘maklashish orqali

mazkur mamlakatlar iqtisodiyoti o‘sishini rag‘batlantirish maqsadida 1966 yilda tashkil etilgan bank.

Global moliyaviy-iqtisodiy bozor – jahon mamlakatlari o‘rtasidagi moliyaviy-iqtisodiy aloqalarni yagona xo‘jalik tarzida amal qilishiga asoslangan munosabatlar.

Jahon bozori kon’yunkturasi - jahon tovar bozorlaridagi sotish sharti, ushbu bozorlardagi talab, taklif, narxlar darajasi, ularning o‘zgarish tendentsiyalari.

Tashqi qarz – mamlakat hukumati, moliya-kredit tashkilotlari, yirik korxonalarining boshqa mamlakatlar moliya-kredit muassasalaridan qarzga olgan moliyaviy mablag‘larining jami hajmi.

«Katta yigirmalik» – jahondagi 20 ta eng boy va rivojlanayotgan yirik davlatlarni o‘z ichiga oluvchi mamlakatlar guruhi bo‘lib, ushbu mamlakatlarda ishlab chiqarilgan yalpi ichki mahsulot hajmi jahon yalpi ichki mahsulotning 90 foizini tashkil etadi.

Protektsionizm – davlatning xorij raqobatidan ichki bozorni himoya qilish siyosati, mamalakatga olib kelinayotgan tovarlarga yuqori bojlar belgilaydi, ayrim tovarlarni olib kelish cheklanadi yoki umuman taqiqlanadi.

Iqtisodiy islohotlar – iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishini sifat jihatidan takomillashtirish, uning barqaror va mutanosib rivojlanishini ta’minlash imkonini beruvchi, maqsadga muvofiq holda va izchil ravishda amalga oshiriluvchi tub o‘zgarishlar, chora-tadbirlar majmui.

Iqtisodiy rivojlanish sur’atlari – mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkich va natijalarining miqdor jihatidan ko‘payishi va sifat jihatidan takomillaShuvi darajasi.

Iqtisodiy rivojlanish samaradorligi – iqtisodiyotni rivojlantirish natijalarining bu borada qilingan sarf-xarajatlarga nisbati.

Makroiqtisodiy muvozanat – iqtisodiyot turli tomonlarining o‘zaro tengligi bo‘lib, eng avvalo yalpi talab va yalpi taklifning tengligi orqali namoyon bo‘ladi.

Industriyalashtirish – mamlakat iqtisodiyotini sanoatlashgan asosga o‘tkazish, iqtisodiyotda sanoat ishlab chiqarishi ulushini ahamiyatli darajada ko‘paytirish, butun iqtisodiyot yoki uning alohida

tarmoqlarida yirik mashinalashgan ishlab chiqarishni barpo etish jarayoni.

Sekulyarlashtirish – davlat va jamiyat boshqaruvini din ta'siridan holi qilish jarayoni.

Urbanizatsiya – jamiyat taraqqiyotida shaharlar rolini oshirish jarayoni. Urbanizatsiya jarayoni shahar aholisining tabiiy o'sishi, qishloq aholi punktlarini shaharlarga aylantirish, keng shahar oldi hududlarini shakllantirish hamda aholining qishloq joylaridan shahar joylariga migratsiyasi hisobiga ro'y beradi.

Erkinlashtirish – xo'jalik yurituvchi sub'yektlarning erkinligi va iqtisodiy mustaqilligini, iqtisodiy faoliyatning bozorga xos mexanizmlarining samarali amal qilishini ta'minlashga qaratilgan jarayon; davlat tomonidan belgilangan chora-tadbirlar tizimi; iqtisodiy siyosat yo'nalishlaridan biri.

Eksport – tovarlar, texnologiyalar va xizmatlarni tashqi bozorda sotish uchun mamlakat tashqarisiga olib chiqilishi.

Qo'shilgan qiymat – korxona yalpi mahsulotining bozor narxidan joriy moddiy xarajatlar (amortizatsiya ajratmasidan tashqari) chiqarib tashlangandan qolgan qismi bo'lib, u o'z ichiga mehnat haqi, foyda, ayrim soliq va to'lovlarni oladi.

Tejamkorlik – jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining muayyan darajasida barcha resurslardan tejamli foydalanish bo'yicha iqtisodiy munosabat bo'lib, ishlab chiqarish samaradorligini ta'minlashning asosiy omili hisoblanadi.

Inflyatsiya – pul muomalasi qonunlarining buzilishi natijasida milliy valyutaning qadrsizlanishi, narxlarning o'sishi.

Inflyatsiya darajasi – ma'lum vaqt ichida (oy, yil) narxlar darajasining foizdagi o'zgarishi.

Emissiya – muomalaga pul yoki qimatli qog'ozlarni chiqarish.

Pul emissiyasi – amaldagi pul massasining ortishiga olib keluvchi pullarni muomalaga chiqarish.

Bank likvidliligi – banklar majburiyatlarini o'z vaqtida qaytara olish qobiliyati yoki passivlardagi majburiyatlarni qaytarish uchun aktivlarni pulga aylanish qobiliyatidir.

Pul massasi – har qanday mamlakat iqtisodiyotida tovarlar va xizmatlar aylanishini ta'minlaydigan, xususiy shaxslar, institutsional mulkdorlar (korxonalar, birlashmalar, tashkilotlar va b.) va davlat egalik qiladian naqd va naqd pulsiz xarid hamda to'lov vositalari majmuidir.

Korporativ obligatsiyalar – korporativ tashkiliy tuzilmalar (yuridik shaxslar) tomonidan o'zining faoliyatini moliyalashtirish uchun muomalaga chiqarilgan qarz instrumentlari.

Valyuta bozori – xorijiy valyutalar yoki xorijiy valyutadagi to'lov hujjatlari bo'yicha operatsiyalarni amalga oshirish bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlarning alohida sohasi.

Mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshliligi – mamlakatning o'rta va uzoq muddatga iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlarini ta'minlab turish qobiliyati.

Milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshliligi – iqtisodiyotning to'lovga qodir talabga mos keluvchi, iqtisodiy o'sish va turmush sifatini oshirishni ta'minlaydigan tovar va xizmatlar ishlab chiqarish va ichki hamda tashqi bozorlarda sotish qobiliyati.

Iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishi – iqtisodiyotning turli qism va bo'laklari o'rtasidagi proportsiyalar va o'zaro nisbatlar.

Tarkibiy o'zgarishlar siyosati – davlat tomonidan amalga oshiriladigan, iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishini takomillashtirish, uning samaradorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar majmui.

Kooperatsiya aloqalari – mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha bir yoki bir necha korxonaning hamkorligi.

Mahalliylashtirish – import qilinadigan tayyor mahsulot, butlovchi buyumlar va materiallarni mamlakatda ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish orqali unga bo'lgan ichki talabni qondirish va eksportini yo'lga qo'yish.

Iste'mol bozoridagi mutanosiblik – iste'mol bozoriga taklif etilayotgan tovarlar va xizmatlar hajmi bilan aholining to'lovga qodir talabining o'zaro mosligi.

Tashqi savdo aylanmasi diversifikatsiyasi – eksport va importning tovar nomenklaturasini va hamkor davlatlar sonining kengaytirilishi.

Eksportning geografik tarkibi – alohida qit'a mamlakatlari, mamlakatlar guruhlari, yoki alohida mamlakatning mamlakat eksportidagi ulushlari nisbati.

Investitsiyalar – daromad olish maqsadida iqtisodiy va boshqa faoliyat ob'yektlariga kiritiladigan moddiy va nomoddiy ne'matlar hamda ularga doir huquqlar.

Chet ellik investorlar asosan daromad (foyda) olish maqsadida tadbirkorlik faoliyati va boshqa turdagi faoliyat ob'yektlariga qo'shadigan barcha turdagi moddiy va nomoddiy boyliklar va ularga doir huquqlar, Shu jumladan intellektual mulkka doir huquqlar, Shuningdek chet el investitsiyalaridan olingan har qanday daromad O'zbekiston Respublikasi hududida ***chet el investitsiyalari*** deb e'tirof etiladi.

Infratuzilma – iqtisodiy tizim umumiy tuzilishining yordamchi tavsifga ega bo'lgan hamda ushbu tizim umumiy faoliyatining bir maromda borishini ta'minlovchi tarkibiy qismi.

Tog'ridan-tog'ri xorijiy investitsiyalar - o'zga mamlakat rezidentlari tomonidan boshqa mamlakat real aktivlariga mablag' kiritish, uni tasarruf etish va ular ishlatilishi ustidan nazorat o'rnatish. Iqtisodiy hamkorlik va rivojlantirish tashkiloti tavsifiga ko'ra aksiyalarni kamida 10 foiziga egalik qilish.

Korxonalarni texnik qayta qurollantirish - alohida ishlab chiqarish turlarini zamonaviy talablarga asosan yangi texnika va texnologiyalarni kiritish, ishlab chiqarish jarayonlarini mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish, eskirgan qurilma va uskunlarni yangilash va almashtirish, ishlab chiqarish tuzilmasi va tashkil etilishini yaxshilash yo'li bilan, korxonaning texnik darajasini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar majmuasi. U ishlab chiqarish intensivligini kuchaytirish, ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish va ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar sifatini yaxshilashga yo'naltirilgan bo'ladi.

Aholi pul daromadlari – ish haqi, tadbirkorlik faoliyatidan olinadigan daromad, nafaqa, pensiya, stipendiya shaklidagi barcha pul tuShumlarini, mulkdan foiz, dividend, renta shaklda olinadigan daromadlarni, qimmatli qog'ozlar, ko'chmas mulk, qishloq xo'jalik

mahsulotlari, hunarmandchilik buyumlarini sotishdan va har xil xizmatlar ko‘rsatishidan kelib tushadigan daromadlar.

Natural daromad – mehnat haqi hisobiga olinadigan va uy xo‘jaliklarining o‘z iste’mollari uchun ishlab chiqargan mahsulotlari.

Nominal daromad – aholi tomonidan ma’lum vaqt oralig‘ida olingan daromadlarining pul ko‘rinishidagi miqdori.

Real daromad – narx darajasi o‘zgarishini hisobga olib, aholining ixtiyorida bo‘lgan daromadga sotib olish mumkin bo‘lgan tovar va xizmatlar miqdori bo‘lib, real daromad aholining ixtiyorida bo‘lgan daromadning xarid quvvatini bildiradi.

Turmush sifati – jamiyat farovonligi darajasini namoyon etuvchi va mohiyatiga ko‘ra uningo‘lchovi hisoblanuvchi tushuncha.

Global moliyaviy-iqtisodiy bozor – jahon mamlakatlari o‘rtasidagi moliyaviy-iqtisodiy aloqalarni yagona xo‘jalik tarzida amal qilishiga asoslangan munosabatlar.

Diversifikatsiya – (lotinchadan diversus- har xil va facere-qilmoq, bajarmoq) – ishlab chiqarishning samaradorligini oshirish, mahsulot va xizmatlarni sotish bozorlarini kengaytirish maqsadida tarmoq va korxonalar faoliyat sohalarini kengaytirish, mahsulot va xizmatlar assortimentlarini ko‘paytirish.

Diversifikatsiya strategiyasi – korxona faoliyatini mavjud mahsulotlar va bozorlar turini kengaytirish orqali rivojlanish strategiyasidir. Diversifikatsiya strategiyasi korxonalarning ishlab chiqarish va tijorat faoliyatini rivojlantirishning eng yetakchi zamonaviy tendentsiyalardan biri hisoblanib, u orqali korxonalarni bozor sharoitida vujudga keladigan turli qaltisliklarga bo‘lgan raqobatbardoshligini oshiradi. Diversifikatsiya strategiyasi – korxonalarda yangi mahsulotlar liniyalarini ishga tushirish, qo‘shma korxonalar tuzish, boshqa korxonalarni sotib olish va boshqa turli uslublarda amalga oshirishi mumkin.

Dividend – aktsionerlik jamiyati sof foydasidan aksiya egalariga to‘lanadigan qismi bo‘lib, u aktsionerlarga naqd pul yoki aksiyalar bilan to‘lanadi.

Jahon banki – 1944 yilda Xalqaro valyuta jamg‘armasi bilan bir vaqtda tuzilgan birinchi davlatlararo investitsiya institutidir. Bank o‘zining faoliyatini 1946 yil 25 iyundan boshlagan.

Jahon bozori kon'yunkturasi - jahon tovar bozorlaridagi sotish sharti, ushbu bozorlardagi talab, taklif, narxlar darajasi, ularning o‘zgarish tendentsiyalari.

Joriy kon'yunktura – muayyan davrda tovarlarga bo‘lgan talab va taklifning tarkibi, dinamikasini shakllantiruvchi iqtisodiy sharoit va omillar majmui. Joriy kon'yunktura ayni davrdagi milliy va jahon iqtisodiyotining u yoki bu omillaridan tarkib topgan vaqtinchalik vaziyatni ifodalaydi.

Ijtimoiy soha obektlari – aholining munosib turmush sharoiti va farovonligini ta'minlashga xizmat qiluvchi soha va tarmoqlar majmui. Bular qatoriga uy-joy fondlari, sog‘liqni saqlash, maorif, sport, madaniyat muassasalari va boshqalarni kiritish mumkin.

Ijtimoiy hamkorlik – xilma-xil fikr va qarashlarga ega bo‘lgan, turli millat, irq va dinga mansub shaxs va guruhlarning umumiy maqsad yo‘lidagi hamjihatligi.

Iqtisodiy o‘sish – real yalpi ichki mahsulot umumiy hajmining yoki aholi jon boshiga tog‘‘ri keladigan real yalpi ichki mahsulotning oldingi yilga nisbatan o‘sishi.

Import – mamlakat ichki bozorlarida sotish uchun chet el mollarini, kapitalini, texnologiyasini va xizmatlarni olib kelish. Import xalqaro mehnat taqsimoti natijasidir. U vaqtni tejashga, iqtisodiyot, aholi ehtiyojini qondirish vazifalarini muvaffaqiyat bilan hal qilishga ko‘maklashadi.

Investitsion soliq krediti – soliq majburiyati bo‘yicha to‘lash muddatini o‘zgartirish imkoniyati beriladi, agarda soliq to‘lovchida belgilangan tartibdagi asos bo‘lsa, u holda soliq to‘lovlarini kamaytirilgan holda ma'lum bir vaqt ichida bosqichma – bosqich to‘lash mumkin bo‘ladi.

Inson omili – amalga oshirilayotgan barcha islohotlarning bosh yo‘nalishi va samaradorligining pirovard natijasini belgilab beruvchi asosiy tamoyil. Inson omili tarkiban ikki muhim jixatni o‘z ichiga oladi.

Birinchi jihat O‘zbekistonda jami ijtimoiy tuzilma, ta’lim va sog‘liqni saqlash, nafaqa bilan ta’minlash tizimini, aholini ekologik va boshqa xavf-xatardan himoya qilishdan iborat. Davlatning doimiy e’tiborini o‘zida ifodalaydi. Ikkinchi jihat esa yalpi ijtimoiy taraqqiyot jarayonlarida shaxsning o‘z ishtiroki, bunyodkorligi, yaratish zavqi, sa’y- harakatlari va shijoatini ifodalanishini nazarda tutadi.

Institutsional siyosat - davlat tomonidan mulkchilik, mehnat, moliyaviy, ijtimoiy va boshqa sohalarda yangi iqtisodiy institutlarni shakllantirish, eskilarini yo‘qotish, mavjudlarini transformatsiyalash bo‘yicha amalga oshiradigan chora-tadbirlar, hatti-harakatlar.

Intermodal markaz – yuk tashishlar bo‘yicha xalqaro kommunikatsiya va logistika markazi.

Inflyatsiya darajasi – ma’lum vaqt ichida (oy, yil) kamida 300 ta tovar va xizmatlardan tashkil topgan iste’mol savati bo‘yicha narxlar darajasining foizdagi o‘zgarishi.

Iste’mol – ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonining oxirgi fazasi, ijtimoiy mahsulotdan aholini iqtisodiy talablarini qondirish jarayoni.

Iste’mol krediti – markaziy bank tomonidan barqarorlik davrida qo‘llaniladigan pul siyosati dastagi. U banklar va boshqa maxsus kredit institutlari tomonidan aholining uzoq muddatli iste’mol tovarlarini sotib olish uchun beriladigan kredit.

Ish bilan band bo‘lgan jami aholi – ishchi kuchi (iqtisodiy faol aholi)ning ijtimoiy ishlab chiqarishda band bo‘lgan qismi.

Ishsizlik – iqtisodiy jihatdan aktiv (faol) aholining bir qismi o‘z kuchini qo‘llay olmay

“ortiqcha” bo‘lib, mehnat zaxirasi armiyasi bo‘lib qolish hodisasi.

Kapital xarajatlar - asosiy kapitalga kiritiladigan mablag‘lar va zaxiralarning o‘sishi.

Kichik biznes sub’yektlari – korxona ko‘lami, ishlab chiqarish hajmi, ishlovchilar soni, moliyaviy mablag‘lari miqdori va boshqalar jihatidan imkoniyatlari cheklangan ishlab chiqaruvchi sub’yektlar. Respublikamizda kichik biznes sub’yektlari toifasiga yakka tartibdagi tadbirkorlar, mikrofirmalar va kichik korxonalar kiradi.

Kichik korxona – kichik biznes sub'yektlarining bir turi bo'lib, mamlakatimizda amaldagi qonunchilikka ko'ra sanoat ishlab chiqarishning ayrim tarmoqlarida (masalan, yengil va oziq- ovqat sanoati, metallga ishlov berish va asbobsozlik sanoati va h.k.) 100 kishigacha, ayrimlarida (masalan, mashinasozlik, metallurgiya, yoqilg'i-energetika sanoati va boshqalarda) 50 kishigacha, xizmat ko'rsatish sohasida 25 kishigacha ishlovchi korxonalar kichik korxona hisoblanadi.

Konstitutsion burch – O'zbekiston fuqarolari Konstitutsiyada belgilab qo'yilgan, fuqarolar bajarishlari shart bo'lgan majburiyatlardir.

Konstitutsion hukumat – demokratik hukumat qonunga va ayniqsa yozma hujjat– konstitutsiyasiga asoslanadi. Konstitutsiyalar hukumatning vakolati va majburiyatlarini ta'minlaydi. Shuningdek, ular qonunlar qanday tayyorlanishi va hayotga tatbiq etilishini ham o'zida aks ettiradi. Aksariyat konstitutsiyalar hukumatning vakolati va majburiyatlarini ta'minlaydi.

Qonun – oliy yuridik kuchga ega bo'lgan, davlatning qonun chiqaruvchi muassasasi tomonidan yoki aholi tomonidan tog''ridan-tog''ri, referendum o'tkazish talablariga muvofiq qabul qilingan va o'zida qonunning amal qilish hududi, muddati va shaxslar doirasida huquqiy munosabatlar sub'yektlari faoliyatining umumiy namunasini mujassamlashtirgan me'yoriy– huquqiy hujjat.

Qonun ustuvorligi – ushbu tamoyilning mazmuni Shuni anglatadiki, qonun ijtimoiy hayotning barcha sohalarida qat'iy hukmron bo'ladi. Ya'ni hech kim, hech bir davlat organi, mansabdor shaxs, tadbirkor yoki boshqa bir fuqaro qonunga bo'ysunmasligi mumkin emas, ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy munosabatlar faqat qonun bilan tartibga solinadi; uning barcha ishtirokchilari esa, hech bir istisnosiz, huquq normalarini buzganligi uchun javobgarlikka tortilishi kerak. Huquqiy normalarni tatbiq etishda konstitutsiya va qonunlarning normalari boshqa huquqiy normalardan ustun turadi.

Qonunchilik – 1) davlat tomonidan o'z funksiyalarini amalga oshirish-ning asosiy usullaridan biri bo'lib, davlat hukumati organlari tomonidan qonunlar chiqarishda ifodalanadi; 2) ijtimoiy

munosabatlarni to‘la tartibga soluvchi huquqiy normalar yig‘indisi yoki ijtimoiy munosabatlarning bir ko‘rinishi.

Qonunchilik palatasi – O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining quyi palatasi. Qonunchilik palatasi saylov okruglari bo‘yicha ko‘ppartiyaviylik asosida saylanadigan bir yuz ellikta deputatdan iborat. Qonunchilik palatasining ishi palata barcha deputatlarining professional, doimiy faoliyat ko‘rsatishiga asoslanadi.

Kredit – jismoniy va yuridik shaxslarning vaqtinchalik bo‘sh mablag‘larlarini muayyan tamoyillar asosida qaytarish sharti bilan foydalanishga berish jarayonida vujudga kelgan iqtisodiy munosabatlar majmui.

Kutilayotgan inflyatsiya darajasi – mavjud ijtimoiy-iqtisodiy axborotlar, ma’lumotlar asosida alohida shaxs va korxonalar tomonidan kutiladigan bo‘lg‘usi davrdagi inflyatsiya darajasi.

Kuchli davlat – omma faoliyatiga asoslangan kuchli boshqaruv tizimiga, rivojlangan iqtisodiyot, yuksak ma’naviyatga ega bo‘lgan davlat. Bunday davlat mustahkam iqtisodiy, huquqiy va ma’naviy asosga ega bo‘ladi. Uning qudrati fuqarolar hamjihatligi, jamiyatdagi do‘stlik va bag‘rikenglik, har bir fuqaroning onglilik darajasi, davlat boshqaruvidagi faol ishtirokiga asoslanadi.

Kuchli davlatdan kuchli jamiyat sari – mustahkam iqtisodiy asosga ega bo‘lgan, demokratik qadriyatlar qaror topgan, ma’naviy–ma’rifiy yuksaklikka erishgan va boshqaruvning demokratik uslublari shakllangan davlatdan jamoat va nodavlat tashkilotlari hal qiluvchi o‘rin tutadigan jamoatchilik fikri, tashabbusi va davlat idoralari ustidan nazorati ustuvor ahamiyat kasb etadigan, fuqarolar o‘zini-o‘zi boshqarish idoralarining roli muttasil ortib boradigan jamiyatga o‘tish kontsepsiyasi.

Kuchli jamiyat – mustahkam negizning barqarorligi ta’minlangan, davlatning boshqaruvchilik faoliyati qisqarib, jamoat tashkilotlarining roli kuchaygan, fuqarolarning qonun asosida, ularning huquq va erkinliklari oliy qadriyatlarga aylangan jamiyat.

Makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar – mamlakat yaxlit iqtisodiyoti darajasidagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayon va hodisalarni o‘lchash va

baholash imkoniyatini beruvchi ko‘rsatkichlar. Masalan, yalpi ichki mahsulot, milliy daromad, iqtisodiy o‘sish, ishsizlik, inflyatsiya darajasi va boshqalar.

Mamlakat to‘lov balansi – mamlakat rezidentlari (uy xo‘jaliklari, korxonalar va davlat) va chet elliklar o‘rtasida ma’lum vaqt (odatda bir yil) oralig‘ida amalga oshirilgan barcha iqtisodiy bitimlar bo‘yicha to‘lovlar summasining nisbati bo‘lib, u o‘z ichiga savdo balansi, xizmatlarbalansi, o‘tkazmalar balansi va kapital operatsiyalarini oladi.

Mehnat bozori – mehnatga qobiliyatli aholining ish bilan band bo‘lgan va band bo‘lmagan qismlari va ish beruvchilar o‘rtasidagi munosabatlarni hamda ularning shaxsiy manfaatlarini hisobga oluvchi shartnomalar asosida ishchi kuchi xarid qilish - sotishni amalga oshiruvchi, Shuningdek, unga bo‘lgan talab va taklif o‘rtasidagi nisbatlarni bevosita tartibga soluvchi, bozor iqtisodiyotining murakkab, ko‘p aspektli, o‘suvchi va ochiq ijtimoiy-iqtisodiy tizimchasidir.

Mehnat haqi – joriy davrda ish beruvchi tomonidan yollangan xodimga bajargan ishlari uchun berilgan pul yoki natura usulidagi to‘lovlar bo‘lib, ular hisoblangan summalar yig‘indisidan tashkil topadi va ikki qismga bo‘linadi: ish haqi va ijtimoiy sug‘urtaga ajratmalar.

Mikrokredit – xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish va boshlang‘ich sarmoyani shakllantirishga beriladigan kreditlar. Mikrokreditlar: a) yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lmagan tadbirkorlik faoliyati uchun – eng kam ish haqining 50 barobarigacha; b) mikrofirma va dehqon xo‘jaliklariga eng kam ish haqining 100 barobarigacha; v) fermer xo‘jaligiga eng kam ish haqining 200 barobarigacha beriladi.

Modernizatsiya – ob’yektni takomillashtirish, yaxshilash, yangilash, uni yangi talab va me’yorlarga, texnik shart-sharoitlarga, sifat ko‘rsatkichlariga moslashtirish.

Moliya tizimi – moliyaviy munosabatlar va turli darajada ularga xizmat qiluvchi moliyaviy muassasalar majmuasi.

Narx – tovar qiymatining puldagi ifodasi.

Nodavlat va jamoat tashkilotlari – davlatga qarashli bo‘lmagan, ammo ma’lum qonunlar yoki me’yoriy hujjatlarga bo‘ysungan holda

faoliyat ko‘rsatadigan tuzilmalar nodavlat va jamoat tashkilotlari hisoblanadi.

Parlament – frantsuzcha “parle” gapirmoq so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, rasmiy so‘zlashish joyi ma’nosini anglatadi. Parlament davlatning oliy vakillik organi hisoblanadi va qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiradi.

Pudrat – shartnoma yoki xo‘jalik yuritishning bir turi. Bir tomonning ikkinchi tomon talabiga ko‘ra belgilangan ishni bajarishi tog‘‘risidagi shartnoma.

Pul - kredit siyosati – davlat tomonidan iqtisodiy o‘sishni ta’minlash maqsadida pul muomalasini tashkil etish va barqarorligini ta’minlash uchun amalga oshiriladigan barcha chora- tadbirlar majmui.

Pul – hamma tovar va xizmatlar ayirboshlanadigan, umumiy ekvivalent sifatida foydalaniladigan, boshqa barcha tovarlar qiymatini ifodalaydigan maxsus tovar.

Saldo - muayyan vaqt davomida moliyaviy tuShumlar va sarflar, eksport va import qiymati (savdo balansi sal dosi), xorijiy to‘lovlar va tuShumlar (to‘lov balansi sal dosi) o‘rtasidagi farq.

Sektor – institutsion birliklar yig‘indisi bo‘lib, ularning maqsadi, moliyalashtirish manbalari va funksiyalari bir xil bo‘ladi, natijada ularning iqtisodiy huquqi ham o‘xshashib ketadi.

Servis – jismoniy va yuridik shaxslarga, umuman keng aholi qatlamiga xizmat ko‘rsatish; ishlab chiqarish-texnika maqsadlarida mahsulotlarni, moddiy-maishiy, xo‘jalik va boshqa sanoat mahsulotlarini sotish hamda ularni ishlatish bilan bog‘liq bo‘lgan xizmat ko‘rsatish sohalari.

Soliq imtiyozi – soliq to‘lovchilarning ayrim toifalariga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda soliq to‘lashdan to‘liq, qisman va vaqtincha ozod qilish shakli.

Soliq solishning soddalashtirilgan tartibi – soliq solishning ayrim toifadagi soliq to‘lovchilar uchun belgilanadigan hamda ayrim turdagi soliqlarni hisoblab chiqarish va to‘lashning, Shuningdek ular yuzasidan soliq hisobotini taqdim etishning maxsus qoidalari qo‘llanilishini nazarda tutuvchi alohida tartibi.

Soliq stavkasi – soliqlarni hisoblashda soliq bazasining har bir birligi hisobiga tog‘‘ri keladigan soliq me’yori.

Soliq yuki – mablag‘larni boshqa foydalanish mumkin bo‘lgan yo‘nalishlardan olib, soliqlarni to‘lash uchun yo‘naltirish orqali vujudga keladigan iqtisodiy cheklovlar darajasi bo‘lib, odatda soliq to‘lovchining muayyan davrda byudjetga to‘langan soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning yig‘indisi sifatida namoyon bo‘ladi. Mamlakat miqyosida soliq yuki darajasini soliqlarning yalpi ichki mahsulotdagi salmog‘i orqali ifodalanadi.

Soliqlar – belgilangan va muayyan miqdorlarda undiriladigan, muntazam, qaytarib berilmaydigan va beg‘araz xususiyatga ega bo‘lgan, byudjetga yo‘naltiriladigan majburiy pul to‘lovlari tushuniladi.

Soliqlarni unifikatsiya qilish – soliq mexanizmini soddalashtirish maqsadida iqtisodiy mohiyati, soliqqa tortish ob’yekti o‘xshash bo‘lgan soliq turlarini birxillashtirish.

Tashqi qarz – mamlakat hukumati, moliya-kredit tashkilotlari, yirik korxonalarining boshqa mamlakatlar moliya-kredit muassasalaridan qarzga olgan moliyaviy mablag‘larining jami hajmi.

Tashqi nodavlat qarzlar – mamlakatdagi xususiy shaxslar (moliya muassasalari, korxonalar va aholi) tomonidan boshqa mamlakatlar moliya-kredit muassasalaridan qarzga olgan moliyaviy mablag‘larining jami hajmi.

Tashqi savdo – bir mamlakatning boshqa mamlakatlar bilan savdosi.

Tashqi savdo siyosati – bir mamlakatni boshqa mamlakatlar bilan olib borayotgan savdosi (eksporti va importi) borasidagi siyosati. Bunga teng huquqlilik va ikki tomonlama manfaat olish ko‘zda tutiladi. Eksport va importning tovar tarkibi va geografik hajmiga asosan olib boriladi.

Turmush darajasi – aholining zaruriy, moddiy va nomoddiy ne’matlar hamda xizmatlar bilan ta’minlanganlik hamda ularni iste’mol qilish darajasi.

Xalqaro valyuta jamg‘armasi – xalqaro savdo va valyuta hamkorligini rivojlantirishga ta’sir ko‘rsatish maqsadida 1944 yilda

tashkil etilgan xalqaro valyuta-moliya tashkiloti. Xalqaro valyuta jamg‘aramasi – a’zo davlatlar o‘rtasida valyuta-kredit munosabatlarini tartibga solib turish va ularga to‘lov balansining kamomadi bilan bog‘liq valyutaviy qiyinchiliklar paytida chet el valyutasida qisqa va uzoq muddatli kreditlar berish yo‘li bilan moliyaviy yordam ko‘rsatish uchun mo‘ljallangan hukumatlararo tashkilot. XVJ o‘z amaliy faoliyatini 1947 yil 1 martdan boshlagan.

Xalqaro tashkilotlar – ularning har biri xalqaro siyosatda o‘zlarining faoliyat maqsadlari yo‘nalishlariga qarab, yer yuzi taraqqiyotida egallab turgan mavqelariga qarab, umuman xalqaro siyosiy-amaliy munosabatlar jarayonida harakatlarga kirishadigan boshqa xalqaro tashkilotlar tizimidagi maqomlariga qarab ahamiyat kasb etadilar.

Xalqaro tranzit - xorijiy yuklarni jo‘natish va qabul qilib olish punktlari berilgan mamlakat hududidan tashqarida bo‘lishi shartida tashilishidir. Agar tovarlar bojxona omboriga joylashtirilmasdan tashilsa bevosita xalqaro tranzit, bojxona omboridan foydalanilsa – bilvosita xalqaro tranzit hisoblanadi.

Xizmat ko‘rsatish sohasi – ijtimoiy ishlab chiqarishning moddiy-buyumlashgan ko‘rinishga ega bo‘lmagan iste’mol qiymatlarini yaratishga yo‘naltirilgan sohalari. U o‘z ichiga moddiy xizmatlar ko‘rsatish (transport, aloqa, savdo, maishiy xizmat va boshqalar) hamda nomoddiy xizmatlar ko‘rsatish (huquqiy maslahatlar berish, o‘qitish, malaka oshirish va boshqalar)ni oladi.

Xususiy tadbirkorlik – bu fuqarolar (alohida fuqarolar) tomonidan o‘zlarining tavakkalchiliklari va mulkiy javobgarliklari ostida, shaxsiy daromad (foyda) olish maqsadida amaldagi qonunchilik doirasida amalga oshiriladigan tashabbuskor xo‘jalik faoliyatidir.

Shaxsiy daromad – jismoniy shaxslarning soliq to‘lagunga qadar daromadi.

MAMLAKATIMIZDA YILLARNING NOMLANISHI

2025 yil - “Atrof-muhitni asrash va “yashil” iqtisodiyot yili”

2024 yil – “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”

2023 yil – “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim” yili.

2022 yil – “Inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla” yili.

2021 yil – “Yoshlarni qo'llab quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash” yili.

2020 yil – “Ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish” yili.

2019 yil – “Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish” yili.

2018 yil – “Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash” yili.

2017 yil – “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari” yili.

2016 yil - “Sog‘lom ona va bola” yili.

2015 yil – “Keksalarni e’zozlash” yili.

2014 yil – “Sog‘lom bola” yili.

2013 yil – “Obod turmush” yili.

2012 yil – “Mustahkam oila” yili.

2011 yil –“Kichik biznes va hususiy tadbirkorlik” yili.

2010 yil – “Barkamol avlod” yili.

2009 yil – “Qishloq taraqqiyoti va farovonligi” yili.

2008 yil – “Yoshlar” yili.

2007 yil – “Ijtimoiy himoya” yili.

2006 yil – “Homiylar va shifokorlar” yili.

2005 yil – “Sihat-salomatlik” yili.

2004 yil – “Mehr-muruvvat” yili.

2003 yil – “Obod mahalla” yili.

2002 yil – “Qariyalarni qadrlash” yili.

2001 yil – “Onalar va bolalar” yili.

2000 yil – “Sog‘lom avlod” yili.

1999 yil – “Ayollar” yili.

1998 yil – “Oila” yili.

1997 yil – “Inson manfaatlari” yili.

1996 yil – “Amir Temur” yili.

1995 yil – “Ibn Sino” yili.

1994 yil – “Mirzo Ulug'bek “ yili.

1993 yil – “Ahmad Yassaviy” yili.

1992 yil – “Hamshiralar” yili.

1991 yil – “Alisher Navoiy” yili.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. O‘zbekiston Respublikasi qonunlari

1.1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2023-yil 1-may.

1.2. O‘zbekiston Respublikasining “Mulkchilik to‘g‘risida”gi Qonuni, 1990-yil 31-oktabr.

1.3. O‘zbekiston Respublikasining “Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish to‘g‘risida”gi Qonuni, 06.12.2011.

1.4. O‘zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksi. 2023-yil 1-may.

1.5. O‘zbekiston Respublikasining “Ilm-fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risida”gi Qonuni, 2019-yil 29-oktabr.

1.6. O‘zbekiston Respublikasining “Elektron hukumat to‘g‘risida”gi O‘RQ-395-sonli Qonuni, 2019-yil 28-sentyabr.

1.7. O‘zbekiston Respublikasining “Innovatsion faoliyat to‘g‘risida”gi Qonuni, 2019-yil 19-iyun.

1.8. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, 2020-yil 23-sentyabr.

1.9. O‘zbekiston Respublikasining “Raqobat to‘g‘risida”gi Qonun (O‘RQ-850-son), 2023–yil 3–iyul.

II. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar maxkamasining Farmonlari va Qarorlari

2.1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-feraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.

2.2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 15-maydagi “Tadbirkorlik faoliyatini yanada qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-1112-sonli Qarori.

2.3. Ozbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 21-sentyabrdagi “2019 — 2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni.

2.4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 3-fevraldagi “Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar tizimi hamda zamonaviy xizmatlar ko‘rsatishni yanada rivojlantirish to‘g‘risida”gi Farmoni.

2.5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.

2.6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 24-maydagi “Bandlik sohasida davlat siyosatini yanada takomillashtirish va mehnat organlari faoliyati samaradorligini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni.

2.7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-apreldagi “Yoshlarning bandligiga ko‘maklashish hamda ularni doimiy ish bilan ta’minlashga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”goi Farmoni

2.8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 14-maydagi “Tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va himoya qilish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni.

2.9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 22-fevraldagi “Aholining himoya qilinmagan qatlamlarini metodik-ijtimoiy ko‘maklashish va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni.

2.10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Farmoni.

2.11. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining. “Kadrlar tayyorlash bo‘yicha milliy dastur tuzish to‘g‘risida” Farmoyishi. “Xalq so‘zi”, 1997, 13-mart.

2.12. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 4 maydagi “Qishloq joylardagi aholiga servis xizmati ko‘rsatishni yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 139-sonli Qarori.

2.13. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 11 martdagi “O‘zbekiston Respublikasi investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi huzuridagi o‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi to‘g‘risidagi va o‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligining texnik jihatdan tartibga solish, standartlashtirish, sertifikatlashtirish va metrologiya sohasida davlat nazorati departamenti to‘g‘risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida” Qarori.

III. O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimovning va Prezident Sh.M.Mirziyoyevning asarlari va ma’ruzalari

3.1. Karimov I.A. “Demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish – mamlakatimiz taraqqiyotining asosiy mezonidir”./Islom Abdug‘anievich Karimov –T. 19. –T.: “O‘zbekiston” 2011.-360-bet.

3.2. Karimov I.A. “Bizning yo‘limiz – demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va modernizatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish yo‘lidir” ./Islom Abdug‘anievich Karimov –T. 20. –T.: “O‘zbekiston” 2012. –B. 320.

3.3. Karimov I.A. “Mamlakatimizni yanada ozod etish va modernizatsiya qilishni qat’iyat bilan davom ettirish yo‘lida” ./Islom Abdug‘anievich Karimov –T. 21. –T.: “O‘zbekiston” 2013.–B. 384.

3.4. Karimov I.A. “Demokratik islohotlarni, iqtisodiyotimizda tarkibiy o‘zgarishlarni yanada chuqurlashtirish, xususiy mulk, kichik biznes va tadbirkorlikning ustuvorligini ta’minlashga keng yo‘l ochib berish – Vatanimiz taraqqiyotining bugungi bosqichida hal qiluvchi omildir”. ./Islom Abdug‘anievich Karimov –T. 24. –T.: “O‘zbekiston” 2016. –B. 376.

3.5. Karimov I.A. “O‘zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo‘lida”. /Islom Abdug‘anievich Karimov. –T.: “O‘zbekiston” 1995. –B. 269.

3.6. Karimov I.A. “O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida. Xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari” – T.: “O‘zbekiston”, 1997. –B. 326.

3.7. Karimov I.A. Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo‘lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir. – T.: “O‘zbekiston”, 2015. – B. 440.

3.8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzod Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning tarjimai holi va dasturi. –T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2016. —B. 88.

3.9. Sh.M.Mirziyoyev. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. //O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari, 2017-yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma’ruzasi.// “Xalq so‘zi” gazetasi. 2017-yil 18 yanvar.

3.10. Sh.M.Mirziyoyev Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz.//Shavkat Mirziyoevning O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutqi.//Xalq so‘zi” gazetasi. 2016-yil 15 dekabr.

3.11. Sh.M.Mirziyoyev. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. –B. 488.

3.12. Sh.M.Mirziyoyev. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-J. – T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. –B. 592.

3.13. Sh.M.Mirziyoyev. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-J. – T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2018. – 508 b.

3.14. O‘zbekiston Respublikasi Prezenti Sh.M.Mirziyoevning 2017-yil 14 yanvardagi Vazirlar maxkamasining kengaytirilgan majlisidagi maruzasi. Zarafshon gazetasi, 18 yanvar 2017-yil

3.15. Sh.M.Mirziyoyev. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2018. –B. 80.

3.16. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. – T.: “O‘zbekiston”. https://gazeta.uz/ 208.01.2020 y.

3.17. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. – T.: “O‘zbekiston”. https://president.uz/ 20.12.2022 y.

IV. Ilmiy monografiya, o‘quv qo‘llanma va darsliklar

4.1. Abulkasimov H.P. Makroiqtisodiy tartibga solish va O‘zbekistonning barqaror rivojlanishi. T.: Akademiya, 2011.186 bet.

4.2. Abulqosimov H.P. Iqtisodiyotni tartibga solishning bozor va davlat mexanizmlari. T.: Akademiya, 2012. 455 bet

4.2. Abulkasimov H., Xamraev O. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish. T.:“Iqtisod moliya”, 2014. 304 bet

4.3. Абдукаримов Б.А ва бошқ. Савдо иқтисодиёти. Ўқув қўлланма. I–қисм.–Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2013.

4.4. Абдуллаев Ё.А.ва бошқалар. Статистика: – Т., 2011. –Б. 256.

4.5. Абдуллаев Ё.А. Кичик бизнес ва тадбиркорлик асослари -Т.: Меҳнат, 2000.-352 б.;

4.6. Адукаримов Б.А. Ички савдо иқтисодиёти. Дарслик, II қисм Т.: «Фан ва технология». 2008.

4.7. Абдураҳмонов Қ.Х. Меҳнат иқтисодиёти (назария ва амалиёт). Дарслик – Т.: Меҳнат. 2009. –Б. 667.

4.8. Абдураҳмонов Қ.Х. Меҳнат иқтисодиёти ва социологияси. Дарслик. – Т.: «Fan va texnologiya», 2012. –Б. 388.

4.9. Абдурахмонов Қ.Х., Бекмуродов А.Ш. ва бошқалар. Инсон тараққиёти. Дарслик. – Т.: “Фан ва технология”, 2013. –Б. 207.

4.10. Абдураҳмонов Х.Х., Арабов Холмухамедов М.М. Аҳоли даромадлари ва турмуш сифати. Ўқув қўлланма. Т.: “Тафаккур бўстони”. 2014. 242 б.

4.11. Адамчук В.В., Ромашов О.В., Сорокина М.Е. Экономика и социология труда. – М.: ЮНИТИ, 1999. –С. 407.

4.12. Агапова Т.А., Серегина С.Ф. макроэкономика: Учебник/ Под общей ред, д.э.н., проф, А.В. Сидоровича; МГУ им. М.В.Ломоносова.-4-е изд., перераб и доп.-М.: Дело и Сервис, 2007.–С. 214.

4.13. Абулқосимов Ҳ.П., Абулқосимов М.Ҳ. Иқтисодиётга оид атама ва тушунчаларнинг изоҳли луғати.-Т.: “Abu matbuot-konsalt” 2017.-344-бет.

4.14. Абалкин Л.И. Экономическая энциклопедия. /Гл. ред.– М., 1999. С. 271.

4.15. Адам Смит. Исследование о природе и причинах богатства народов. / Отв. ред. Абалкин А.И.- М.: Наука, 1980.- 527с

4.16. Беккер Г.С. Человеческое поведение: экономический подход. Избранные труды по экономической теории: Пер. с англ./ Сост., науч. ред., послес. Р.И. Ка- пелюшников; предисл. М.И. Левин - М.: ГУ ВШЭ, 2003.- 672с.

4.17. Becker G.S. Investment in Human Capital: A Theoretical Analysis// Journal of Political Economy. Supplement. Oct.1962.

4.18. Дятлов С.А. Рабочая сила в системе рыночных отношений. –СПб.: СПбУЭФ, 2005.

4.19. Экономическая безопасность. Производство, финансы, банки. -М., ЗАО «Финстатинформ», 2018.- с.12.

4.20. Генкин Б.М. Экономика и социология труда: Учебник. – М.: Норма, 2007.

4.21. Эдвинссон Л., Мэлоун М. Интеллектуальный капитал. Определение истинной стоимости компании. –М.: Академия, 1999. - С. 442.

4.22. Фишер С., Дорнбуш Р., Шмалензи Р. Экономическая теория. — М., Юнити, 2002. - С. 21.

4.23. Ильинский И.В. Инвестиции в будущее: образование в инвестиционном воспроизводстве. –СПб.: СПбУЭФ, 1996. - С.127.

4.24. Жандаров А.М., Петров А.А. Экономическая безопасность России: определения гипотезы, расчеты. // Безопасность. 2014. - С.714

4.25. Кушлина В.И. Государвтвенное регулирование рўночной экономики: Учебник. Авторский коллектив под.. М. Экономика, 2005.

4.26. Капелюшников Р.И. Экономический подход Гэри Беккера к человеческо - муповедению // США: экономика, политика, идеология. - 1993. - №11.

4.27. Кейнс Дж.М. Общая теория занятости, процента и денег. Пер. с англ. -М.: «Иностранная литература», 1948. 90-бет.

4.28. Костюк В.Н. Теория эволюции и социоэкономические процессы. – М.: УРСС, 2004.- С.126.

4.29. Корчагин Ю. А. Инвестиционная стратегия. — Ростов-на-Дону: Феникс, 2006. С. 17.

4.30. Макконнелл К.Р., Брю С.Л. Экономикс: принципы, проблемы и политика. В. 2-т.: Пер. с англ. 11-го изд. Т. 1- М.: Республика, 1992, -С. 321-322

4.31. Мерко А.И. Социально–ответственный бизнес–взаимосвязь государственной и корпоративной политики в глобализирующемся мире. Монография. – М., 2009. - С.180.

4.32. Мирзаев Қ.Ж., Пардаев М.Қ. “Хизматлар соҳаси иқтисодиёти” Ўқув қўлланма. – Т.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2014. – Б. 384.

4.33. Мухаммедов М. ва бошқалар “Хизмат кўрсатиш соҳаси ва туризмни ривожлантиришнинг назарий асослари”- С.: Зарафшон 2017. – Б. 299.

4.34. Мирзаев Қ.Ж., Бобоқулов С.Б., Жанзаков Б.Қ. Рақамли иқтисодиёт / Ўқув қўлланма / Самарқанд.: СамИСИ, “STAP-SEL” МЧЖ. Нашриёт матбаа бўлими, -2022 й. 386 бет.

4.35. Мирзаев Қ.Ж., Бобоқулов С.Б., Рақобат стратегияси/ Ўқув қўлланма / Самарқанд.: СамИСИ, “STAP-SEL” МЧЖ. Нашриёт матбаа бўлими, -2022 й. 228 бет.

4.36. Nordhoug O. Human Capital in Organizations: Competence, Training and Learning. – Oslo.: Scandinavian University Press, 1993. - P.52.

4.37. Прохожев А, Корнилов М. О проблеме критериев и оценок экономической безопасности // Общество и экономика, № 4-5, 2003. -с. 233.

4.38. Спанов М. Экономическая безопасность: сущность, критерии, формы // Транзитная экономика, 2019. – С.356.

4.39. Шодмонов Ш.Ш., Ғафуров У.В. Иқтисодиёт назарияси. / Маъруза матни / -Т., 2007.

4.28. Shultz T. Human Capital, family planning and their etfects on population growth // American Economic Review. -1994. –May. P.45.

4.29. Schultz T. The Emerging Economic Science and Its Relation to High School Education // The High School in a New Era.1958.

4.30. Schultz T. Investments in the schooling and health of women and men: quantities and return // Journal of Human Resources, 1993., 28(4): 694-734.

4.31. Po‘latov M.E., Mirzaev Q.J., Sharipov T.S., Boboqulov S.B., Sharifov Sh.S. Iqtisodiy o‘sish [Matn]**:** Darslik / Samarqand iqtisodiyot va servis instituti – Samarqand.: “FAN BULOG‘I” Nashriyoti, 2023 – 380 bet.

4.32. Пардаев М.Қ., Мирзаев Қ.Ж., Очилов И.С. Хизматлар соҳаси иқтисодиёти. Ўқув қўлланма. – Т.: “ИҚТИСОД-МОЛИЯ”, 2014. – Б. 384.

4.33. Пардаев М.Қ. ва бошқалар. Хизмат кўрсатиш тармоқлари иқтисодиёининг айрим муаммолари. – Т.: “Наврўз” нашриёти, 2014. –Б. 264.

4.34. Пардаев М.Қ. Хизматларнинг ижтимоий-иқтисодий табиати ва уни такомиллаштиришнинг ўзига хос хусусиятлари.// Хизмат кўрсатиш, сервис ва туризм соҳаларини ривожлантириш:

муаммолар ва уларнинг ечимлари. Монография. – Т.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2008. – Б. 285.

4.35. Шестакова И. Г. Человеческий капитал в цифровую эпоху // Научный журнал НИУ ИТМО. Сер. Экономика и экологический менеджмент. 2018. № 1. С. 56-63.

4.36. Ходиев Б.Ю., Шодмонов Ш.Ш., Иқтисодиёт назарияси. Дарслик. – Т.: IQTISOD-MOLIYA, Тошкент “Barkamol fayz media” 2017. – 783 б.

V. Dissertatsiya, aftoreferat, ilmiy maqola va ilmiy to‘plamlar

5.1. Autor, D. (2015), “Why are there still so many jobs? the history and future of workplace automation”, Journal of Economic Perspectives, Vol. 29/3, pp. 3-30, http://dx.doi.org/10.1257/jep.29.3.3.

5.2. Давлятшаев, А. А., & Жамолиддинова, М. (2022). Развития интернационализационных процессов образования в условиях расширения глобализационных взаимоотношений. Gospodarka i Innowacje., 22, 133-139.

5.3. Frey C, Osborne M A. The future of employment: The level of accountability for jobs? [J]. Technological forecasting and social change, 2017, 114: 254-280.

5.1. Frey C, Osborne M A. The future of employment: The level of accountability for jobs? [J]. Technological forecasting and social change, 2017, 114: 254-280.

5.2. Карамова А.С. Управление человеческими ресурсами в индустрии туризма. Экономика и менеджмент инновационных технологий. 2014. №3.Ч.1

5.3. Sandra Herman. Management of human resources in tourism. Interdisciplinary Management Research XII. 2015.

5.4. Саидов А.М. Маиший хизмат кўрсатиш корхоналарида меҳнатни ташкил қилишни такомиллаштириш йўллари. Самарқанд Иқтисодиёт ва сервис институти. Иқтисод фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация автореферати. - Самарқанд., 2011. – Б. 25.

5.5. Samar Kamel Saad. Contemporary Challenges of Human Resource Planning in Tourism and Hospitality Organizations: A

Conceptual Model. Journal of Human Resources in Hospitality & Tourism, 12:4, 333-354.

5.6. Темиркулов, А. А. (2023). Важность мотивации в эффективном управлении персоналом организации. Central Asian Journal of Innovations on Tourism Management and Finance, 4(1), 117-127.

5.7. Peter Q. Blair et al., Searching for STARS: Work experience as a job market signal for workers without bachelor's degrees, NBER working paper number 26844, March 2020

5.8. Уразов К.Б., Худайбердиев Н.У. Хизмат кўрсатиш ва сервис соҳаси корхоналарида бухгалтерия ҳисобининг долзарб муаммолари. "Сервис" журнали. – 2009. № 1 – Б. 107-114.

5.9. Хан М.Г. Совершенствования сервиса для повышения инвестиционной привлекательности ноциональных предприятий. Иқтисод фанлари номзоди. Дис. автореферати. - Самарқанд: СамИСИ, 2009.- 22 с

VI. Internet saytlar

6.1. http://press-service.uz.

6.2. www.worldbank.org/eca/russian/data/

6.3. www.unctad.org/iia.

6.4. www.stat.uz сайти.

6.5. http://cbu.uz.

6.6. www.soliq.uz.

6.7. www.lex.uz.

6.8. www.finans.uz.

6.9. www.bank.uz.

6.10. www.chamber.uz.

6.11. https://ru.wikipedia.org/wiki/Услуга.

6.12. http //web woi ldbank org

6.13. www.webofscience.com

6.14. www.tradingeconomics.com

6.15. https://www.statista.com/statistics/240267/number-of-housing-units

6.16. http://www.edu.uz - Образование в Республике

Узбекистан.

6.17. http://www.pravo.uz - Экономическое законодательство РУз.

6.18. www.unctad.org - веб-сайт Конференции ООН по торговле и развитию

6.19. http://www.lex.uz - Национальная база законодательства РУз.

6.20. http://www.myshared.ru

6.19. https://mirec.mgimo.ru

6.20. https://www.gazeta.uz

6.21. https://daryo.uz

6.22. https://www.uzanalytics.com

MUNDARIJA:

KIRISH **3**
I BOB. IQTISODIYOT, BOZOR VA IQTISODIY SIYOSAT **5**
1.1. Bozor munosabatlari va iqtisodiy siyosat, Iqtisodiy siyosat fanining dolzarbligi, predmeti 5
1.2. Iqtisodiy siyosatning asosiy maqsadlari 8
1.3. Davlatning iqtisodiy siyosatiga erishish vositalari va amalga oshirish yo‘nalishlari 10
Nazorat va takrorlash uchun savollar 19
II BOB. DAVLAT IQTISODIY SIYOSATINING NAZARIY ASOSALARI VA TARKIBI **20**
2.1. Davlatning iqtisodiy siyosatini iqtisodiy konsepsiyalar shaklida vujudga kelishi 20
2.2. Davlatning iqtisodiy siyosatida Dj.M. Keyns konsepsiyasini roli va davlatning iqtisodiyotni boshqarish usullari va shakllari 30
2.3. Davlat iqtisodiy siyosatining tarkibi 34
Nazorat takrorlash uchun savollar 38
III BOB. IQTISODIY SIYOSATNI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISH MEXANIZMLARI **40**
3.1. Iqtisodiy siyosatni davlat tomonidan tartibga solish moxiyati va zaruriyati 40
3.2. Davlatning iqtisodiyotni tartibga solishga qaratilgan usullari, vositalari (mexanizmlari) 47
3.3. Davlat iqtisodiyotni tartibga solishga qaratilgan yangi strategiyasi siyosatning maqsadi, vazifalari va asosiy yo‘nalishlari 55
Nazorat takrorlash uchun savollar 59
IV BOB. DAVLAT MULKINI XUSUSIYLASHTIRISH VA BOSHQARISH - IQTISODIYOTNI TARTIBGA SOLISH VOSITASI **60**
4.1. Davlat mulkini xususiylashtirish va davlat mulkini boshqarishning mohiyati 60
4.2. Davlat tadbirkorligining bozorga ta’siri, davlat mulkini uning tasrrufidan chiqarish 64
4.3. Davlat mulkini xususiylashtirishning usullari 65

4.4. Davlat mulkini boshqarish - iqtisodiyotni tartibga solish vositasi sifatida. Investitsion majburiyat asosida mulkni xususiylashtirish.....67
4.5 Investisiya siyosati va uning davlat mulkini xususiylashtirishdagi funktsiyalari (vazifalari) 69
Nazorat takrorlash uchun savollar 74
V BOB. IJTIMOIY-IQTISODIY RIVOJLANISHNI DASTURLASH, PROGNOZLASHTIRISH VA REJALASHTIRISH 76
5.1 Barqaror rivojlanish uchun dasturlash, prognozlash va rejalashtirishning ahamiyati.....76
5.2. Iqtisodiyotda prognozlashning mohiyati va zaruriyati. Prognozlashning tamoyillari, turlari va asosiy uslublari. 78
5.3. Iqtisodiy siyosatni asoslashda tashqi sharoitlarning o‘rni.....86
5.4. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarning o‘rni 91
Nazorat takrorlash uchun savollar 95
6.1. Iqtisodiy siyosatning asosiy vositalari, iqtisodiy siyosatni ishlab chiqishdagi cheklovlar 97
6.2. Iqtisodiy siyosatda siyosiy cheklovlar (demokratiya, saylash huquqi va siyosiy raqobat).....102
6.3. Iqtisodiy siyosatni ishlab chiqishda ichki va tashqi iqtisodiy cheklovlar.....110
6.4. Iqtisodiy siyosatda saylovchilar, siyosiy partiyalar va taklif etilayotgan dasturlar. Parlament va institutsional o‘zgarishlar. 114
Nazorat takrorlash uchun savollar 122
VII BOB. IQTISODIYOTDA MONOPOLIZIMGA QARSHI SIYOSAT VA RAQOBATNI RIVOJLANTIRISH 123
7.1. Raqobat tushunchasi va uning zarurligi 123
7.2. Monopolistik raqobat va uning mohiyati 124
7.3. O‘zbekistonda raqobatni rivojlantirish va monopoiliyaga qarshi siyosat.....127
Nazorat va takrorlash uchun savollar 133
VIII BOB. DAVLATNING IQTISODIYOTDA XUSUSIY TARMOQ VA TADBIRKORLIKNI QO‘LLAB-QUVVATLASH SIYOSATI 135

8.1. Xususiy tarmoqni rivojlantirishning iqtisodiy siyosati mohiyati, vazifalari, omillari..... 135
8.2. Davlatning xususiy tarmoqni qo‘llab-quvvatlash siyosati..... 139
8.3. Jahonda xususiy tarmoqni qo`llab-quvvatlash amaliyoti..... 141
Nazorat va takrorlash uchun savollar..... 142
IX BOB. DAVLATNING MINTAQAVIY SIYOSATI VA HUDUDLAR RIVOJLANISHINING ISTIQBOLLARI.....144
9.1. Mintaqa siyosati tushunchasi va uning mohiyati..... 144
9.2. Mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining zarurati..... 146
9.3. Mamlakatda davlatning mintaqaviy siyosatini amalga oshirishning shartlari..... 152
Nazorat va takrorlash uchun savollar..... 157
X BOB. YUKSALISH, RIVOJ LANISH VA IQTISODIY SIYOSAT.....160
10.1. Iqtisodiy yuksalish (o‘sish) tushunchasi, dolzarbligi (nazariy asoslari, omillari)..... 160
10.2. Davlatning siklik, antisiklik tartibga iqtisodiy siyosati..... 162
10.3. Iqtisodiy siosatda muvozanatlik(barqarorlashtirish) siyosati..... 168
Nazorat va takrorlash uchun savollar..... 169
XI BOB. DAROMADLARNI QAYTA TAQSIMLASH, BOYLIK VA IQTISODIY SIYOSAT.....171
11.1. Iqtisodiy siyosatda davlat budjeti daromadlarini shakllanishining iqtisodiy jihatlari, prinsiplari, xuquqiy asoslari..... 171
11.2. Iqtisodiy siyosatda budjeti daromadlarini shakllanishining manbalari bueicha guruxlanishi..... 174
11.3. Daromadlarni davlat tomonidan tartibga solishning zaruratining iqtisodiy asosi..... 178
Nazorat va takrorlash uchun savollar..... 188
XII BOB. JAMIYATNING IJTIMOIY SOHASI VA DAVLATNING IJTIMOIY SIYOSATI.....189
12.1. Iqtisodiy siyosatda ijtimoiy siyosatning mohiyati, kelib chiqish tarixi, aholining turmush darajasini oshirish masalalari. 189
12.2. Davlatning ijtimoiy siyosati: shakllari, xususiyatlari, asosiy yo‘nalishlari..... 198

12.3. Iqtisodiy siyosatda ijtimoiy davlat tushunchasi va uning mohiyati. O‘zbekistonning ijtimoiy davlat sifatidagi iqtisodiy siyosati.....201
Nazorat va takrorlash uchun savollar 204
XIII BOB. TABIIY RESURSLARDAN SAMARALI FOYDALANISH, ATROF-MUHITNI MUHOFAZA QILISH VA EKOLOGIK XAVFSIZLIK SIYOSATI.....206
13.1. Respublikada tabiiy resurslardan samarali foydalanish va atrof muxitni muhofaza qilishning iqtisodiy siyosati.....206
13.2. Davlatning agrar iqtisodiy siyosati va uning asosiy yo‘nalishlari, bosqichlari.....213
13.5. Davlatning tabiatdan foydalanish vazifalari. Atrof muhit monitoringi. Ekologik standartlar.....226
Nazorat va takrorlash uchun savollar 235
XIV BOB. DAVLATNING IQTISODIY XAVFSIZLIKNI TA’MINLASH VAZIFALARI.....237
14.1. Davlatning iqtisodiy xavfsizligi milliy xavfsizlikning tarkibiy qismi ekanligi, mohiyati 237
14.2. Iqtisodiy xavfsizlik siyosatining namoyon bo‘lish shakllari.....240
14.3. Mamlakatning barqaror iqtisodiy xavfsizlik siyosatining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini kursatkishlari 243
14.4. Barqaror iqtisodiy xavfsizlik siyosatining tarkibiy siyosatini amalga oshirish zarurati 246
Nazorat va takrorlash uchun savollar 248
XV BOB. DAVLATNING TASHQI IQTISODIY FAOLIYATNI TARTIBGA SOLISH SIYOSATI.....250
15.1. O‘zbekiston iqtisodiy siyosatida dunyo mamlakatlari o‘rtasida ishlab chiqarish aloqalarining baynalminallashuvi va globallashuvi..250
15.2. O‘zbekiston iqtisodiy siyosatida tashqi iqtisodiy siyosatining asosiy maqsadlari.....251
15.3. O‘zbekiston iqtisodiy siyosatida tashqi iqtisodiy siyosatining asosiy maqsadlari.....253
Nazorat va takrorlash uchun savollar 260
XVI BOB. DAVLATNING TABIIY RESURSLARDAN FOYDALANISH JARAYONLARINI TARTIBGA SOLISHI VA

EKOLOGIYA SOHASIDAGI SIYOSATI 262
16.1. Tabiiy resurslardan foydalanishni boshqarish tizimi va atrof-muhitni saqlash 262
16.2. Davlatning tabiatdan foydalanish vazifalari. Atrof muhit monitoringi. Ekologik standartlar..... 265
Nazorat va takrorlash uchun savollar 274
GLOSSARIY 276
MAMLAKATIMIZDA YILLARNING NOMLANISHI 300
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI..... 302

K.J. MIRZAYEV

IQTISODIY SIYOSAT

O‘QUV QO‘LLANMA

Muharrir: Z.N. Bobodustov
Musahhih: M.O. Mardiyeva
Texnik muharrir: N. Ergashev

O‘quv qo‘llanma institut Kengashining 2025-yil 02-iyuldagi majlisda muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan. (11-sonli majlis bayoni).

“STAP-SEL” MChJ nashriyoti, Samarqand - 2025

7026

ISBN: 978-9910-587-09-2

Tasdiqnoma № 033337 (27.07.2022)
Nashrga ruxsat etildi: 27.08. 2025 y.
© “STAP-SEL” MChJ nashriyoti, Samarqand 2025 y.

2025 yilda chop etildi.
Qog‘oz bichimi A5, 60x84 1/16, Ofset qog‘ozi.
“Times New Roman” garniturasi.
Nashr bosma tabog`i 18.12
Buyurtma № 0091A/25. Adadi 50 nusxa

Samarqand iqtisodiyot va servis institutining matbaa bo`limida chop etildi.
LICENSE № 025316.
REESTR № X-119112.
Manzil: Samarqand shahar, Shoxrux ko`chasi 60-uy.

54175-00

ISBN: 978-9910-587-09-2

